

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

UTAYEVA FERUZA XOLMAMATOVNA

**O'RTA OSIYONING QADIMGI VA
O'RTA ASRLAR URBANIZATSİYASI**

*5120400 – Arxeologiya bakalavriat yo‘nalishi
talabalari uchun o‘quv qo‘llanma*

**“Durdon” nashriyoti
Buxoro – 2021**

UO'K 94:008(575)(07)

63.3(543)ya73

U 79

Utayeva, Feruza Xolmamatovna

O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi [Matn] : darslik / F. X.

Utayeva . - Buxoro : Sadreddin Salim Buxoriy" Durdon, 2021. - 188 b.

KBK 63.3(543)ya73

Mazkur qo'llanmada O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar davrida shaharsozlik asoslarining paydo bo'lishi, taraqqiyoti, davlatchilikning qaror topishi va davlatchilik tarixiga oid yozma manbalar, O'rta Osiyo olimlari asarlarida "shahar" tushunchasi masalalari bayon etilgan. X-XII asrlarda shahar madaniyati ravnaqi, Amir Temuring shaharlar qurilishiga oid siyosati, Buxoro XVI-XIX asrlarda, Xiva so'nggi o'rta asrlarda, Toshkent XVI-XIX asrlarda shaharsozlik madaniyatiga e'tibor qaratilgan. Fanning mohiyati va ahamiyatini ochib berishda ilmiy-metodologik yondashuvlardan foydalanildi.

Ushbu o'quv qo'llanma 5120400 - Arxeologiya ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan.

Ma'sul muharrir:

Temirov F.U. - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar:

Niyazova M.I. - tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shukurillayev Yu.A. - tarix fanlari nomzodi, dotsent

Safarov F.S. - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23-noyabr 500-sonli burug'i bilan nashrga tavsiya etilgan. Qayd etish raqami 500-035

ISBN 978-9943-7846-7-3

В данном учебном пособии изложено появление и развитие основ градостроительства Средней Азии в древности и средневековье, образование государственности и письменные источники об истории государственности, понятие “город” в трудах среднеазиатских учёных. Уделено особое внимание на развитие городской культуры в X-XII веках, политику Амира Темура по благоустройству городов, городскую культуру Бухары в XVI-XIX веках, Хивы в раннем средневековье, Ташкента в XVI-XIX веках. При освещении сущности и особенности предмета введены научно-методологические подходы.

Данное учебное пособие предназначено для студентов направления 5120400 – Археология.

This textbook informs about the origins and development of the foundations of urban planning in ancient and medieval Central Asia, the establishment of statehood and written sources about the history of statehood, the concept of the “city” in the works of Central Asian scholars. The textbook contains information about following concerns: the development of urban culture in the X - XII centuries, the policy of Amir Temur on urban planning, Bukhara in the XVI - XIX centuries, Khiva in the late Middle Ages, Tashkent in the XVI - XIX centuries. Scientific and methodological approaches were used to reveal the essence and significance of science.

This textbook is intended for 5120400 - Archeology departments' students.

SO‘Z BOSHI

O‘rta Osiyoning qadimgi va o‘rta asrlar davri shaharlar tarixini o‘rganishda arxeologik tadqiqotlar, tarixiy ma’lumotlar, tarixiy manbalar, arab va xitoy manbalari, buyuk geografik kashfiyotlar davridagi sayohatchilarning yozma manbalari muhim o‘rin egallaydi.

Yurtimizda ilk shaharsozlik asoslarining paydo bo‘lishi, shakllanish bosqichlari asosan yozuvsız davrlarga to‘g‘ri keladi. Bu o‘rinda arxeologik ma’lumotlarning ahamiyati nihoyatda ulkan bo‘lib, ilk shaharlar tarixini yoritishda manbalar sifatida foydalanildi va bundan tashqari shaharlar tarixini yoritishda yurtimizga kelgan elchilar va sayyoohlarning yozib qoldirgan manbalari haqida yozilgan kitoblar, asarlar mavzularni yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi tarixini o‘rganishning eng asosiy xususiyatlardan yana biri shundaki, sivilizatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan yangi shaharsozlik madaniyati markazlarining turli hududlarda paydo bo‘lishi o‘zining ahamiyatiga ko‘ra, jamiyat rivojlanishining o‘zaro aloqalari va umummadaniy an‘analarida ham kuzatiladi. Shaharlar tarixini o‘rganish natijasida har bir hududda aholining yashash tarzi va ularning mehnat faoliyati, shaharning iqtisodiy va madaniy sohasidagi yutuqlarni, avlodlarga qoldirilgan moddiy va ma’naviy boyliklar haqidagi ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin.

Talabalarda Vatanimiz tarixiga oid bilim va ko‘nikmalarini yanada shakllantirish uchun mavzuni yoritishda davlatchilik va shaharsozlik madaniyati, toponimik, etnologik, etnografik, arxeologik, numizmatik ma’lumotlarga tayanib shaharlar tarixini batafsil yoritishda ularning xronologiyasiga alohida e’tibor qaratildi.

Xullas, oliy o‘quv yurtlari “Arxeologiya” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan ushbu o‘quv qo‘llanma O‘rta Osiyoning qadimgi va o‘rta asrlar davri urbanizatsiya jarayonlari va uning tarixiy bosqichlari bo‘yicha nazariy hamda amaliy bilimlar berib, fan bo‘yicha mustahkam ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishga ko‘maklashadi. Berilgan har bir mavzu so‘nggida nazorat savollari va test topshiriqlari talabalarga mustaqil ravishda fikr yuritishga, mavzu bo‘yicha olgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlashga yordam beradi.

1-mavzu: O‘rta Osiyo shaharlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi

Reja:

- 1.1. Fanning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari
- 1.2. Shaharlarni shakllantiruvchi shart-sharoitlar va omillar
- 1.3. Shahar belgilari
- 1.4. Ilk shaharlar
- 1.5. Shahar davlatlarning paydo bo‘lishi

Tayanch so‘z va iboralar: Madaniyat, sivilizatsiya, davr yodgorliklari, shahar belgilari, shaharlar, shahar-davlatlar, hunarmandchilik, metallurgiya va kulolchilik, mudofaa devorlari.

1.1. Fanning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari

O‘rta Osiyoning qadimgi va o‘rta asrlar urbanizatsiya fanining obyektini ilk shaharlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi davrida shahar aholisining madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, shahar - davlatlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi qolaversa, vatanimiz va jahon tarixida tutgan o‘rni.

Fanning maqsadi - O‘rta Osiyo shaharlarining rivojlanish jarayonlarini tariximizda kengroq yoritish, talabalarning tarixiy tafakkurini yuksaltirish, tarixga nisbatan xolisona baho berishga o‘rgatishdan iborat.

Fanning vazifalari:

- O‘rta Osiyoning shaharlarining rivojlanish jarayonida xalqimiz turmush tarzining yuksalib borishining muhimligini anglash;
- Dunyo ahamiyatiga molikligi ya’ni iqtisodiyotning turli sohalarida savdo aloqalari olib borganligi;
- O‘rta Osiyo shaharlarida olib borilgan arxeologik taddiqotlar natijasida topilgan ashyolar xalqimiz tarixining ma’naviy moddiy merosining tarixiy ahamiyatini talabalarga tushuntirish;
- Shaharlar tarixining keng o‘rganilishi, yurtimiz tarixini qadimiylashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini talabalarga tushuntirish;

Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi:

O‘rta Osiyoning qadimgi va o‘rta asrlar urbanizatsiyasi fanining maqsad va vazifalarini yechishda bir qator fanlarga tayanadi. Xususan,

arxeologiya, xronologiya, etnografiya, numizmatika, tarixiy badiiy asarlar, me'morchilik, adabiyot va boshqa sohalar.

Jumladan, adabiyot fani bilan bog'liqligi izoh;

Antrotoponim nomlar - kishilarning ismi, familiyasi, taxallusidan olingan nomlar: Masalan: Bahouddin Naqshband ko'chasi, Navoiy shahri, Beruniy tumani, Amir Temur ko'chasi.

Arealli nomlar - bir xil qo'shimcha yoki topoterminlar ishtirokida yasalgan geografik nomlar joylashgan hududdagi toponimlar: kent, tepa, qo'rg'on va boshqa terminlar ishtirokida yasalgan tarqalgan hudud. Masalan: Toshkent viloyatida kent termini yordamida yasalgan nomlar ko'p: Alimkent, G'azalkent, Toshkent, Parkent, Zarkent, Janubiy Turkmanistonda: Erkqal'a, Govurqal'a, Sulton qal'a, Abdullaxon qal'a, Bayramalixon qal'a va boshqalar

Shunday qilib, O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi fani boshqa fanlar bilan aloqador bo'lib, ularning ma'lumot va manbalariga tayanadi va o'zi ham boshqa fanlar rivojiga hissa qo'shadi.

1.2. Shahar tushunchasi

Shaharlarning paydo bo'lishi insoniyat tarixida muhim o'rin egallaydi. Shaharlar va davlatlarning shakllanish jarayoni uzviy bog'liq ravishda borib, ularning paydo bo'lishi xalqlarning o'z sivilizatsiya bosqichiga qadam qo'yanligining asosiy ko'rsatgichidir. Davlatchilikning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan shaharlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganish tarix fani oldidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Shahar va davlatchilik tizimining shakllanishi bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayondir. Davlatning paydo bo'lishi uchun shahar siyosiy, iqtisodiy, diniy markaz sifatida zarur bo'lgan bo'lsa, o'z navbatida shaharning paydo bo'lishi uchun davlat shart-sharoitlarni yaratgan. Davlatchiligidan ilk formasi shahar-davlatlar ko'rinishida bo'lganligi ham shaharlar tarixiga alohida e'tiborni taqozo etadi.

Shaharlar turli hududlarda turli davrlarda shakllanadi. Eng qadimgi shaharlar Shumer, Elam va Hindda eramizdan avvalgi IV-III ming -yillikda paydo bo'ladi Xitoyda ilk shaharlar bir muncha kechroq, er. av. III-II-ming -yillikda, Mezoamerikada er. av. I ming -yillik oxirlarida va Yevropaning shimolida hozirgi eraning I ming -yillikning 2- yarmida paydo bo'ladi .

O'rta Osiyo qadimgi shahar va urbanizatsiya masalasi borasida mustaqillikka erishganimizdan keyin muhim qadamlar qo'yildi. So'nggi - yillarda olib borilgan tadqiqotlar hamda tarixga yangicha qarashlar O'rta Osiyo shaharlari, ularning paydo bo'lishi va rivojlanishi masalalarida muhim fikrlar bildirish imkonini beradi.

Ilk shaharlar paydo bo'lishi masalasi to'g'risida olimlar o'rtasida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh olimlar shaharlar "revolyutsion" tarzda paydo bo'ladi deb hisoblasalar, ikkinchi bir guruh olimlar shaharlar "evolyutsion" tarzda paydo bo'ladi deb hisoblaydilar. Ushbu bahslarga aniqlik kiritishda shaharlarni shakllantiruvchi shart-sharoitlarni bilish muhimdir.

Shaharlarni shakllantiruvchi birinchi muhim omil - tabiiy omil hisoblanadi. Tabiiy omil - bu qulay tabiiy muhit, yer unumдорligi, suv resurslari va qulay iqlim. Unumдор yer, suv resurslarining yetarli bo'lishi va qulay iqlim ko'p mehnat sarflamasdan, ortiqcha harajatlarsiz yuqori hosil olish imkonini beradi. Ushbu holat jamiyatda ortiqcha mahsulotning yuzaga kelishiga olib keladi. Jamiyatda to'plana borayotgan ortiqcha mahsulot esa saroy, ibodatxona singari hashamatli me'morchilik namunalari ko'rinishida o'zining moddiylashgan aksini aynan shaharlarda topadi.

Qulay tabiiy iqlimning mavjudligi ayrim hududlarda (masalan, Nil, Frot va Dajla daryolari bo'yalarida) ko'p mehnat sarflamasdan va ortiqcha harajatlarsiz ortiqcha mahsulot yetishtirish imkonini beradi. Aynan shu holat, ya'ni jamiyatda ortiqcha mahsulotning to'plana borishi davlatchilik tizimining va u bilan birga boradigan jarayon shaharlarni yuzaga keltiradi. Qadimgi Misr va Messopatamiya hududidagi qulay tabiiy iqlim bu yerda shaharlarning boshqa hududlardan bir muncha erta eramizdan avvalgi IV-III ming - yilliklarda paydo bo'lishiga olib kelgan.

O'rta Osiyoda esa ilk shaharlar jamiyatda sodir bo'lgan iqtisodiy siljishlar natijasida eramizdan avvalgi III-II ming - yilliklarga kelib paydo bo'ladi. O'rta Osiyoda ilk shaharlarning Misr va Messopatamiyaga qaraganda bir muncha kechroq paydo bo'lishi bizning hududimizda tabiiy iqlimning bir oz murakkabligi bilan izohlanadi. Bu yerdarda dehqonchilik ma'lum mehnat va harajatlarni talab qilgan, bu esa mahsulot hajmining nisbatan sekinroq to'planishiga sabab bo'lgan.

Bronza davriga kelib, O‘rta Osiyoda oddiy sug‘orishga asoslangan dehqonchilikdan sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilikga o‘tiladi, yerlar haydalib, kanallar yordamida sug‘orila boshlangan. O‘rta Osiyo vohalarida aholining voha-voha bo‘lib joylashish tizimini shakllantiradi hamda u bilan bog‘liq ravishda dehqonchilik vohalari poytaxtlari - yirik markazlar (ilk shaharlar) ning shakllanishiga olib keladi.

O‘rta Osiyo hududidagi, bronza davriga oid ilk shaharlar sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilikning rivoji natijasida ayrim aholi manzilgohlarining biror-bir vohaning siyosiy, iqtisodiy va diniy markazi sifatida shakllanishi bilan yuzaga keladi.

O‘rta Osiyo ilk shaharlarini yuzaga keltirgan omillarni bilish ham muhim ahamiyatga egadir. Shuni aytish kerakki, shaharlarning yuzaga kelishi uchun tabiiy iqlimning o‘zi yetarli emas, bu yerda ishlab chiqaruvchi quollar ham rivojlangan bo‘lishi zarur. Eramizdan avvalgi III-II ming - yilliklarga kelib, bronzaning kashf etilishi bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Bronzadan tayyorlangan ishlab chiqarish quollari tosh yoki misdan yasalgan ishlab chiqarish quollari mehnat unumdorligiga qaraganda bir necha bor yuqori bo‘lgan. Mehnat unumdorligining yuqori bo‘lishi shaharlar va u bilan bog‘liq jarayon davlatchilikning shakllanishi uchun zaruriy shart bo‘lgan ortiqcha mahsulotning yuzaga kelishiga olib keladi.

Ma’lumki, sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik rivoji natijasida boshqaruv tizimiga ehtiyoj tug‘iladi. Zero, odamlarni sug‘orish inshootlarini qurishga yoki ularni tozalash, ta’mirlash kabi ishlarga safarbar qilish uchun boshqaruv tizimi zarur. Boshqaruv tizimi, o‘z navbatida, qandaydir markazni (ya’ni shaharni) zarur qilib qo‘ygan.

Inson hayotida sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilikka o‘tilishi natijasida, uning bir yerda to‘planishiga imkon yaratadigan oziq-ovqat olish yo‘li paydo bo‘ladi. Aholi zichligi o‘troq dehqonchilik jamiyatlarida oldingi temirchilik, ovchilik bilan shug‘ullangan davrga nisbatan 100 barobar oshadi. Masalan, Janubiy Turkmanistonda IV-III ming - yillik boshlarida 1000-2000 kishilik aholi manzilgohlari yuzaga kelgan.

Shaharlarning shakllanishida hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi muhim ahamiyatga ega. Ayrim aholi manzilgohlarida hunarmandchilik bilan shug‘ullanadigan aholi

to‘plana boshlaydi. Dastlab shahar tipidagi aholi manzilgohlarida aholi hunarmandchilikdan ko‘ra ko‘proq dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Shaharlarning asta-sekin rivojlanib borishi bilan hunarmandchilik shahar hayotida tobora muhim mavqe o‘ynay boshlagan. Hunarmandchilikning yangi sohalari paydo bo‘lgan. Shaharlar shakllanishi jarayonini metallurgiya va kulolchilikning yuksalishi tezlashtiradi.

Shaharlarning shakllanishida savdo-sotiq rivoji ham muhim omillardan hisoblanadi. Janubiy Turkmanistonda eramizdan avvalgi IV-III ming -yilliklardayoq dastlabki loydan yasalgan g‘ildirakning paydo bo‘lishi, eramizdan avvalgi III ming - yillik o‘rtalarida tuyaga, ba’zan xo‘kizga qo‘shilgan to‘rt g‘ildirakli aravalarning paydo bo‘lishi, eng qadimgi savdo yo‘li-lazurit yo‘lining ham aynan shu davrda paydo bo‘lganligi, transportning rivoji shaharlarga qishloq xo‘jaligi markazi, shuningdek zaruriy hamda qo‘srimcha mahsulotning taqsimlovchi manzilgoh vazifasini bajarish imkonini yaratadi.

Shaharlarning shakllanishida diniy tushunchalardagi o‘zgarishlar ham sabab bo‘ladi. “Iloh”ga va “Ilohlar”ga sig‘inishning paydo bo‘lishi natijasida shaharlar nafaqat iqtisodiy, shu bilan birga diniy markaz vazifasini ham bajara boshlaganlar. Jarqo‘tondagи ibodotxona fikrimizning dalilidir.

Shaharlarda shahar va yaqin atrofdagi qishloqlar aholisini bosqinchilardan himoya qilish maqsadida mudofaa inshootlari quriladi. Sopollitepadagi murakkab mudofa inshootlari ana shu vazifalarni bajargan.

Keyinchalik temirning kashf etilishi va uning keng tarqalishi (er.av. 1- ming yy. boshlab) bilan ayrim aholi manzilgohlari sof hunarmandchilik markazlari sifatida paydo bo‘la boshlaydi.

Ayirboshlash munosabatlari rivojlanishi natijasida o‘troq-dehqonchilik aholi va ko‘chmanchi-chorvador aholi chegaralarida ham shaharlar qad ko‘targan. Buni biz qadimgi Xorazm misolida ko‘rishimiz mumkin.

Shaharlarning yuzaga kelishi insoniyat tarixidagi varvar (yovvoyi) lik davridan sivilizatsiyaga, urug‘chilik tuzumidan davlatchilikka o‘tishning asosiy belgisi hisoblanadi. Ma’lumki, sivilizatsiya kishilik jamiyatni rivojining ma’lum davrida paydo bo‘ladi. Sivilizatsiyaning yuzaga kelishida va rivojlanishida shahar

yetakchi rol o‘ynaydi. Sababi, aynan shahrlar sivilizatsiya paydo bo‘lishi va rivojlanishini ta’minlagan barcha jarayonlar kechgan markaz rolini bajargan. Umuman, sivilizatsiya va ilk davlatlar paydo bo‘lish jarayoni ilk shahrlar tashkil topishi va rivojlanish jarayoni bilan birga borgan.

Shu o‘rinda “sivilizatsiya” va “madaniyat” tushunchalariga to‘xtalib o‘tsak. Sivilizatsiya va madaniyat iboralarini ko‘p bor ishlamatamiz.

“Madaniyat” - zamon va makon bilan chegaralangan bir xil predmetlar turkumi, bir xil xo‘jalik an’anasiga ega bo‘lgan jamiyatning yashash tarziga aytildi. Masalan sopolli madaniyati vakillari dehqonchilik bilan shug‘illangan, Sherobod daryosi bo‘yida er. av. II-ming - yillik o‘rtalarida yashagan. Ular ma’lum bir e’tiqodga, bir xil ish qurollariga ega bo‘lganlar. Ularning hayot tarzi taxminan xuddi shu davrda Amudaryoning qo‘yi oqimida yashagan Tozabog‘yob madaniyati vakillaridan farq qilgan. Dastlabki madaniyatlar yuqori paleolit davrida paydo bo‘ladi.

“Sivilizatsiya” - madaniyatdan farqli ravishda tarixiy tushuncha bo‘lib, u kishilik taraqqiyotining ma’lum bosqichida paydo bo‘ladi. “Sivilizatsiya” tushunchasi insonning paydo bo‘lishi bilan, neolit revolyusiyasi (ya’ni dehqonchilik va chorvachilikning paydo bo‘lishi) bilan va urbanizatsiya jarayoni bilan yoki davlatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Sivilizatsiya insoniyatning texnik-texnologik taraqqiyotdagi yutuqlari, ijtimoiy hayotdagi chuqur o‘zgarishlarni aks ettiradi. Texnologik taraqqiyotdagi yutuqlari deganda: O‘rta Osiyoda sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik rivoji, hunarmandchilik taraqqiyotida bronzaning kashf etilishi, charxning kashf etilishi, g‘ildirak va aravaning kashf etilishi savdo-sotiqning rivojlanishi tushuniladi. Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar mulkiy va ijtimoiy tabaqalanishni, diniy tizim hamda hashamatli me’morchilikning shakllanishi tushuniladi.

Eng qadimgi sivilizatsiyalar Misr va Messopotamiya hududlarida bundan 6-7 ming -yillar oldin paydo bo‘lgan bo‘lsa, O‘rta Osiyo xalqlari o‘z sivilizatsiya bosqichiga bronza davrida 3-3,5 ming -yil avval o‘tganlar.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, O‘rta Osiyo hududida ilk shaharlarning tashkil topishi bilan ushbu hududda eng qadimgi sivilizatsiya qaror topadi.

1.3. Shahar belgiları

Yozuvning shaharlar shakllanishi davridan kech paydo bo‘lganligi qadimgi shaharlarni aniqlashda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Quyidagi belgilar shaharlarga xos:

- O‘rta Osiyo ilk shaharlari uchun eng muhim belgilardan biri manzilgohda hashamatli me’morchilikning mavjudligi hisoblanadi. Hashamatli me’morchilik deganda saroy va ibodatxona tushiniladi. Ularning mavjudligi shu manzilgohning ma’muriy va diniy markaz bo‘lganligidan dalolat beradi. O‘rta Osiyo ilk shaharlari oddiy qishloqlardan, avvalambor, ma’muriy va diniy markaz bo‘lganliklari bilan farqlanadi.

- Maydoni va aholisi sonining nisbatan yuqori darajada bo‘lishi ham ilk shaharlarning belgilaridan bo‘ladi. Biroq, Misr va Mesopotomiya ilk shaharlari uchun muhim ko‘rsatkich hisoblanadigan ilk shaharlarning 5-6 hektar, aholisi sonining esa 5000 kam bo‘lmasligi to‘g‘risidagi qarashlar bizning hududlarga doimo ham to‘g‘ri kelmaydi.

- Ilk shaharlar, avvalambor, biror-bir vohaning iqtisodiy siyosiylari, diniy va harbiy markazi rolini bajargan va ilk shaharlar qishloqlardan iqtisodiy mavqeい bilan emas, siyosiylari mavqeい bilan farq qiladi.

- Ilk shaharlarda mudofa devorining mavjudligi ham muhim belgi hisoblanadi. Lekin uning bo‘lishi ilk shaharlar (bronza davri) uchun doimo ham asosiy shart bo‘lmagan. Mudofa devorlarining mavjud bo‘lishi ko‘proq ilk temir davri va undan keyingi davr shaharlari uchun zaruriy shartga aylanadi.

- Hunarmandchilik mahallalarining mavjudligi ham ilk shaharlar uchun ham muhim belgi hisoblanadi. Biroq, ko‘pchilik yodgorliklarda arxeologik tadqiqotlarning keng hajmda olib borilmaganligi ushbu belgini aniqlashda ma’lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

- Qadimgi Sharq shaharlari uchun muhim belgi hisoblanadigan yozuv O‘rta Osiyodagi ilk shaharlar davri yodgorliklaridan topilganicha yo‘q. Balki tabiiy iqlim tufayli ajdodlarimiz tomonidan yozilgan yozuvlar bizga yetib kelmagandir.

1.4. Ilk shaharlar: O‘rta Osiyo yagona tarixiy-geografik hudud hisoblansada, uning barcha hududlarida shaharlar bir vaqtida paydo bo‘lgan emas. Masalan Turkiston va O‘zbekistnnning janubida ilk shaharlar eramizdan avvalgi III-II ming - yillikda paydo bo‘lgan

bo‘lsa, O‘rta Osiyoning shimoliy-sharqiy hududlarida bir oz kechroq, eramizdan avvalgi I ming - yillik boshlarida paydo bo‘ladi. Buning asosiy sababi, bizning nazarimizda, O‘rta Osiyoning shimoliy-sharqida ishlab chiqarish rivojining nisbatan sust borganligi bilan bog‘liq. Ilk shaharlar hayot tarziga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz:

Namozgohtepa - Turkistonning janubidagi qadimgi Parfiya hududidagi eng yirik ilk shahar. Uning maydoni 70 hektarni tashkil etadi. Er. avv. IV-II ming - yilliklarga oid yodgorlik. Ko‘p xonali uylardan iborat. Uylarning devori xom g‘ishtdan qurilgan. Har bir uy o‘zining kichik hovlisiga ega. Xonalarning ko‘pi to‘g‘ri burchak shaklida qurilgan. Ular ichida supalar va o‘choqlar bo‘lgan, devorlariga tokchalar o‘rnatilgan bo‘lgan. Namozgohtepa sopol idishlari rangli va naqshlidir. Naqshlar ichida o‘simpliklar va hayvonlar rasmlari uchraydi. Rivojlangan bronza davriga kelib (er. avv. III- ming - yillik o‘rtalarida- II-ming - yillik birinchi yarmi) Nomozgohtepada sopol idishlar charxda yasala boshlagan va ikki yarusli xumdonlarda pishirilgan. Kulolchilik charxi O‘rta Osiyoda birinchi bor aynan shu yerda -Turkmanistonning janubida paydo bo‘lgan.

Oltintepa - bu shahar ham Turkmanistonning janubida, qadimgi Parfiya hududidagi maydoni 30 hektar bo‘lgan qadimiy shahar. Eramizdan avvalgi III-II ming - yillikka oid. Yodgorlikda ko‘p xonali uylar topib tekshirilgan. Arxeologlar fikricha, bunday uylarda katta patriarxal oila (Avestodagi “nafa”) jamoalari yashagan. Uylarning maydonlari 50-100 kvadrat metrga teng keladi. Ular to‘g‘ri burchakli uy-joy va ro‘zg‘or-xo‘jalik xonalaridan iborat. Turar joylarning markaziy yoki burchak qismida paxsadan o‘choq qurilgan. Oltintepa yodgorligida paxsa va xom g‘ishtdan ishlangan zinapoyali minora-ibodatxona (zikkurat) topilgan. Zikkurat katta, to‘rt zinapoyali binoga o‘xshaydi. Zikkuratning poydevori 55 metr, balandligi 12 metrni tashkil etadi. Zikkuratning yonida bir necha xona qazib ochilgan, ularning birida muqaddas o‘chog‘ bo‘lib, unda muqaddas olov yongan. Yana bir xonaning ichidan qabrlar topilgan. Arxeologlar fikricha, qabrlarga zikkurat-ibodatxonaning xizmatchilari ko‘milgan. Muhim arxeolog topilmalar ichida oltindan ishlangan xo‘kiz kallasi ajralib turadi.

Sopollitepa - Surxondaryo hududidagi eramizdan avvalgi 2 ming - yillikning o‘rtalariga oid qadimiy shahar. Yodgorlik Muzrabot tumanidagi Ulanbuloqsoy etagida joylashgan va yaxlit bir qurilish

usulida bunyod etilgan. Yodgorlik kvadrat (82 x 82 m.) shaklida bo‘lib, uch qator mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan. Mudofaa devorlari “T” shaklida bo‘lib, unda aldamchi darvozalar joylashgan. Qal’aning haqiqiy darvozasi bitta bo‘lib, u aldamchilardan farq qilmagan. Qal’a ichida 8 ta mahalla joylashgan. Ular alohida-alohida qurilgan va yo‘lklar orqali bir-birlari bilan bog‘langan. Sopollitepa aholisi uy poli yoki devor tagiga dafn qilingan.

Jarqo‘ton - Surxondaryo viloyatining Sherobod shahri yaqinida bo‘lgan. Maydoni 100 hektar. Eramizdan avvalgi 2 ming -yillik o‘rtalariga oid. Yodgorlik akademik A.Asqarov boshchiligidagi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Yodgorlik uch qismdan iborat:

1. Ark-5gektarni tashkil qilgan. Mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan. Bu yerda saroy qoldiqlari ochib o‘rganilgan. U kvadrat shaklida(o‘lchami 36x 36 metrga teng) bo‘lib, atrofi qalinligi 4,5 metr bo‘lgan mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Arkka maxsus darvoza orqali kirilgan.

2. Shahriston - 50-75 gektarni tashkil qilgan. Uning eng baland qismida otashparastlik ibodatxonasi joylashgan bo‘lgan. Ibodatxonaning atrofi qalinligi 4,5 metr bo‘lgan devor bilan o‘ralgan bo‘lgan. Ibodatxona ikki qismdan, muqaddas otashkada va ishlab chiqarish - xo‘jalik qismlaridan iborat bo‘lgan. Ibodatxonaning muqaddas qismi kvadrat shaklida (35 x 35 metrga teng) bo‘lib, u yerda muqaddas olov va suvga sig‘inish bilan bog‘liq unsurlar (muqaddas quduqlar, mehroblar, xilxona, xazinaxona va 4 ta bosh mehroblar joylashgan baland maydon) bo‘lgan. Ibodatxonaning ishlab chiqarish - xo‘jalik qismida muqaddas ichimlik-xaoma tayyorlaydigan xona, mozor inventarlari tayyorlaydigan ustaxonalar va ibodatxonaga ajratilgan oziq-ovqat ombori joylashgan bo‘lgan. Bu ibodatxona umumshahar ibodatxonasi hisoblangan.

3. Qabriston - 15-20 gektarni tashkil qilgan

Afrosiyob - er.avv. VI asrda paydo bo‘lgan. Hozirgi Samarqandning shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Er.avv. I ming -yillik o‘rtalarida shahar 219 gektarni tashkil etgan. Shahar dastlab tuproq bilan o‘rab olingan bo‘lgan. Keyinchalik, xom g‘ishtdan qurilgan devor bilan o‘rab olingan. Devorning ma’lum joylarida o‘q otish uchun mo‘ljallangan shinaklar bo‘lgan. Shaharning shimoliy qismida ark joylashgan bo‘lib, bu qism qo‘sishimcha ravishda mustahkamlangan bo‘lgan. Afrosiyob ilk bor yozma manbalarda

Marakanda nomi bilan Aleksandr Makedonskiy bosqini bilan bog‘liq voqealar munosabati bilan tilga olinadi.

Yerqo‘rg‘on - er. avv.VI asrda paydo bo‘ladi. Ushbu davrda shahar mudofaa devoriga ega bo‘lgan bo‘lsada, ushbu devor bizgacha saqlanmagan. Er. avv. VI asrda shahar kengayib, yangitdan mudofaa devori bilan o‘rab olinadi. Devor qalinligi 3 metr, balandligi 8 metr bo‘lgan. Devorning har 10-12 metrida minoralar joylashgan. Shaharning shimoliy qismida ark joylashgan. Arkning shimoliy qismida esa saroy joylashgan. Shahar maydoni ushbu davrda 35 gektarni tashkil etadi. Shahar markazida ibodatxona bo‘lgan. Bundan tashqari shaharning sharqiy qismida hunarmandchilik mahallalari joylashgan bo‘lgan. Shahar er. avv. III-II asrlarda 150 gektarni tashkil etib, yangitdan tashqi mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Ushbu davrga oid aholi turar joylari, maqbara ochib o‘rganilgan. Shahar atrofida ham aholi manzilgohlari zinch joylashgan.

Qiziltepa - er. avv. VIII-VII asrlarda aholi manzilgohi sifatida paydo bo‘ladi. Er. avv.VI asrda mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Shahar ushbu davrda to‘rtburchak ko‘rinishga ega bo‘lib, umumiy maydoni 30 gektarni tashkil etgan. Shaharning janubiy-g‘arbiy qismida ark joylashgan. Uning maydoni 2 gektarni tashkil etadi.

Uzunqir - Sho‘robsoy bo‘yida joylashgan. Uzunqir er. avv.VII asrda paydo bo‘lgan. Shaharning umumiy maydoni 70 gektarni tashkil etadi. Shahar dastlab mudofaa devori bilan er. avv.VII asrda o‘rab olingan. Devor to‘rtburchakli xom g‘ishtdan qurilib, to‘rtburchakli minoralar bilan mustahkamlangan. Minora ichidagi xonalar va devordagi shinaklar shahar mudofaasini kuchaytirishga xizmat qilgan. Er. avv.VI-V asrlarda ikkinchi devor birinchiga taqab quriladi. Er. avv. VI-IV asrlarda shahar uchinchi marotaba devor bilan o‘rab olinadi va bu devor ham oldingi devorlarga taqab quriladi. Natijada shahar mudofaa devorining qalinligi 6 metrda etadi. Uzunqir Qashqadaryo vohasining sharqiy qismidagi ma’muriy va xo‘jalik markazi vazifasini bajargan. Qarshi shahrining 2700 -yillik yubileyining nishonlanishiga ham Uzunqirdan topilgan arxeologik materiallar asos bo‘lgan.

1.5. Shahar - davlatlarning paydo bo‘lishi

Ilk davlatlarning asosiy belgilari:

Arxeologik belgilar	Ijtimoiy-iqtisodiy belgilar
Shaharlarning paydo bo‘lishi, shahar atrofida qishloq manzilgohlarning kopayishi	Ilk davlat markazining vujudga kelishi bu - shaharning mavjudligi
Turar joy manzilgohlarining oshishi, manzilgohlarning hududiy kengayishi, qabrlar va ularda uchraydigan topilmalarning son va sifat ko‘rsatgichlari	Aholi soning oshishi va ijtimoiy tabahalanishni ko‘rsatuvchi belgilar
Mehnat quollarining takomillashuvi, suniy sug‘orish shahobchalari va kanallarning paydo bo‘lishi, ekin turlari sonining oshishi	Dehqonchilikning rivojlanishi
Uy hayvonlari suyaklari sonining oshishi	Chorvachilikning rivojlanishi
Hunarmandchilik sohalarining markazlashish jarayoni, hunarmandchilik mahsulotlari turlarining oshishi, sifatiy o‘zgarishlar	Hunarmandchilikning rivojlanishi
Harbiy istehkomlar mavjudligi, quollarning takomillashuvi, mudofa inshoatlar, burjlar	Harbiy ishlarning takomillashuvi
Moddiy madaniyat na’munalari, qadimgi aloqa yo‘llarining takomillashuvi	Savdo va madaniy aloqalar
Muhr	Xususiy mulk, siyosiy birlashma belgisi
Yozuv	Jamiyatning stivilizastiya darajasi

Temirning kashf etilishi, ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning, ayniqsa, sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilikning keyingi rivoji, bir tomonidan, yangi vohalarning o‘zlashtirilishiga, ikkinchi tomonidan, ko‘proq qo‘srimcha mahsulot yaratish imkonini yaratdi. Bunday sharoitda kuchliroq bo‘lgan ayrim shahar-davlatlar o‘z atroflaridagi bir muncha zaif bo‘lgan qo‘shti shahar-davlatlarni o‘zlariga iqtisodiy, siyosiy jihatdan qaram qilib oladi. Zaifroq shahar-davlatlar o‘zidan

kuchli shahar-davlatga o‘lpon to‘lab turishga, zarur bo‘lib qolsa harbiy kuch bilan yordam berishga majbur edilar.

Shunday qilib, bir nechta shahar - davlatlar konfederatsiyalari - podshohliklar paydo bo‘ladi. Bunday podshohliklar siyosiy jihatdan unchalik mustahkam bo‘lmasada, (sababi, konfederatsiya tarkibidagi shahar-davlatlar ma’lum muxtor huquqlarini saqlab qoladilar), lekin ular ulkan hududlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, iqtisodiy jihatdan tez rivojlanish imkoniga ega bo‘ladilar.

O‘rta Osiyo hududidagi dastlabki podshohliklar Katta Xorazm va Qadimgi Baqtriya podshohliklari shu tariqa eramizdan avvalgi VIII-VII asrlarda paydo bo‘lgan. Ular O‘rta Osyoning kattagina qismini o‘z ichiga olgan. Ushbu davlatlar mustaqil rivojlanish jarayoni ahomoniylar bosqini natijasida eramizdan avvligi VI asrda barham topadi.

Davlatchilik shaklanish jarayonini turli hududlarda turli davrlarda kechishi, o‘sha joylardagi tabiat, iqlim, yer unumdorligi va shu kabi xususiyatlar bilan izohlanadi.

O‘rta Osyoning janubiy hududlarida davlatchilikning shakllanishi shimoliy hududlarga qaraganda ertaroq va tezroq boradi. O‘rta Osyoning janaubiy qismi (Marg‘iyona, Baqtriya, Parfiya)da davlatchilikning erta shakllanishi qulay tabiiy sharoit, dehqonchilikda qo‘lga kiritilgan tarixiy tajriba hamda bu hududlarning davlatchilik tizimlari bir muncha erta shakllangan. Qadimgi Xorazmda esa bu jarayon bir muncha boshqacha tarzda kechadi. Xorazm yuqoridagi sivilizatsiyalardan uzoqda, Bo‘z-qir madaniyati va ko‘chmanchilar dunyosi bilan bo‘lgan chegarada joylashgan. Chegarada joylashganligi sababli ham bu yerda ayriboshlash munosabatlari tez sur’atlar bilan rivojlanib borgan. Aynan ayriboshlash munosabatlarining rivoji Xorazmda davlatchilik tizimini shakllantirgan asosiy omillardan hisoblanadi. Ushbu hududda ilk davlatlar eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda paydo bo‘ladi.

Shimoliy-sharqiy o‘lkalar (Farg‘ona, Choch, Ustrushona)da davlatchilikning shakllanish jarayoni bir muncha kechroq boshlanadi. Bu avvalambor iqtisodiy taraqqiyotning pastligi (bu yerlarda dehqonchilik er.avv. I ming - yillik boshlaridagina paydo bo‘ladi) bilan izohlanadi. Sivilizatsiya markazlaridan uzoqdaligi, bu hududlarda ko‘chmanchilarning doimiy ravishda o‘troqlashib borishi ham ularda davlatchilikning shakllanish jarayonini kechiktirgan

omillardan hisoblanadi. Ushbu hududlarda ilk davlatlar er.avv. IV-III asrlarda paydo bo‘ladi. Ular jumlasiga “Qang” va “Dovon” davlatlarini keltirish mumkin.

Antik davr, ilk va o‘rta asrlarga ta’luqli shaharlar sivilizatsiyasi arxeologlar tomonidan keng o‘rganilgan va o‘rganilmoqda. Arxeologik ma’lumotlarga tayanib qadimgi shaharlar tarixi batafsilroq yoritilib borilmoqda. Mustaqillik -yillarida shaharlarning yubiliylarining kehg miqyosda o‘tkazilishi shaharlar tarixini yanada kenroq yoritilishiga imkon yaratdi. Jumladan: Janubiy Turkmaniston shaharlaridan - Marg‘iyona, Tohirboy, Cho‘pontepa, Anov madaniyati; Surxondaryo vohasi shaharlaridan -Budrochtepa, Xolchayon Zartepa, Kampirtepa, Katta tepa, Mirzaqultepa; Qarshqdaryo vohasi shaharlari - Shahrabz, Yerqurg‘on, Kesh, Nasaf; Samarqand O‘rta Zarfshon shaharlari - Afrosiyob; Buxoro vohasi shaharlari - Poykand, Katta tuz kon makoni, Zamombobo madaniyati, Varaxsha; Xorazm vohasi shaharlari - Qadimgi Xorazm, Xazorasp, Mizzahon, Qiyot, Devkesgan qal‘a, Xiva; Toshkent vohasi shaharlari -Toshkent, Nukat, Chochtepa, Qanqa; Farg‘ona shaharlari - Sho‘rabashot, Qovunchi madaniyati, Chust madaniyati, Andijon-Sartepa, Mingtepa; Sirdaryo vohasi shaharlari - Munchoqtepa yodgorligi, Kultepa, Axsikat, Banokat; Samarqand qo‘yi Zarafshon Tojikiston shaharlari – Ustrushona, Sug‘d.

O‘rta Osiyo shaharlari arablar bosqinidan so‘ng rivojlanish darajasi pasaygan bo‘lsada IX asrda o‘z ahamiyatini qayta tikladi. Somoniylar davrida shaharlar Yaqin va O‘rta sharq mamlakatlari bilan savdo diplomatik, madaniy aloqalarni olib bordilar. Buyuk ipak yo‘li ahamiyati ko‘tarildi. IX-XII asrlarda shahar madaniyati yuksaldi. XIV asrda Temur va Temuriylar davrida shaharsozlik yuqori chuqqiga chiqdi. Shaharlar obodonlashtirildi bog‘-rog‘lar barpo etildi. Shahar iqtisodiy va madaniy jihatdan ravnaq topib bordi.

Nazorat uchun savollar

1. Shaharlarni shakllantiruvchi muhim omillarni ayting?
2. Qanday belgilar shaharlarga xos?
3. Afrosiyob, Yerqo‘rg‘on, Jarqo‘ton qadimiy shaharlarni tarixini bilasizmi?
4. Ilk shaharlardagi madaniyat va turmush tarzi qanday bo‘lgan?
5. Ilk davlatlarning asosiy belgilari

6. Mustaqillik -yillarida shaharlarning yubileylarining keng miqyosda o‘tkazilishi

Test topshiriqlari

1. ”Ar’yan-Vaychex”ni Xorazm degan fikrni bildiradi
A S.P.Tolstov
B A.T.Sagdullayev
S A.Asqarov
D I.Markvart
2. Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da Sirdaryo qanday atalgan?
A Dat
B Yaxartes
S Sayxun
D Yaksart
3. Qadimgi yunon tarixchilari asarlarida Sirdaryo qanday atalgan?
A Yaksart
B Sayxun
S Dat
D Jayxun
4. Arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra aholi asosan soy va chashmalar bo‘ylarida Xo‘jamishkentsoy, Sho‘rbuloqsoy, Mug‘olsoy, Tag‘obsoy, Sarmichsoy singari qadimgi hududlar yashagan
A Sirdaryo viloyatida
B Samarcand viloyatida
S Toshkent viloyatida
D Surxondaryo viloyatida
5. Paxsa va xom g‘ishtdan ishlangan zinapoyali zikkurat topilgan. Zikkurat katta, to‘rt zinapoyali binoga o‘xshaydi
A Oltintepadan topilgan
B Mingtepadan topilgan
S Munchoqtepadan topilgan
D Banokatdan topilgan
6. Dovon davlati qaysi davrda ko‘chmanchi qabilalar yurishi natijasida barham topadi
A IV-V asrlarda
B V asrlarda
S VI-VII asrlarda

D III-V asrlarda

7. Qadimgi shahar vohalaridagi yodgorliklarda “Ot mingan chavondoz” tasviri ko‘p topilgan hudud?

A Xorazm

B Farg‘ona

S Toshkent

D Sirdaryo

8. Janubiy Turkmanistonda eramizdan avvalgi necha ming -yilliklardoq dastlabki loydan yasalgan g‘ildiraklar paydo bo‘lgan?

A eramizdan avvalgi IV-III ming -yilliklar

B eramizdan avvalgi V -ming -yilliklar

S eramizdan avvalgi VI-V ming -yilliklar

D eramizdan avvalgi IV-II ming -yilliklar

9. Janubiy Turkmanistonda eramizdan avvalgi necha ming -yillik o‘rtalarida tuyaga, ba’zan xo‘kizga qo‘shilgan to‘rt g‘ildirakli aravalar paydo bo‘ladi?

A eramizdan avvalgi III ming -yillik

B eramizdan avvalgi I ming -yillik

S eramizdan avvalgi II ming -yillik

D eramizdan avvalgi IV ming -yillik

10. Mudofaa devorlari “T“ shaklida bo‘lib, unda aldamchi darvozalar joylashgan

A Sopollitepada

B Ayoztepada

S Namozgohtepada

D Dalvarzintepada

Manba va adabyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг ҳалқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади Т ., ”Ўзбекистон”. 2019 йил

2. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. Тошкент, 1993.

3. Абдуразаков А. А и др. Реставрация колонны из Еркургана. Реферативный сборник “Реставрация, исследование и хранение музеиных художественных ценностей”. Вып. I, 1976

4. Аннаев Т., Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. Тошкент, 1997

5. Асқаров А. Энг қадимги шаҳар. Тошкент, 2001

6. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. Тошкент, 1998

7. Eshov B. Sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. - T, 2004
8. Эшов Б Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи Тошкент: Фан, 2006
9. O‘zbekiston Miliy Ensiklopediyasi.T .8.T. O‘z.M.E nashriyoti. 2006

2-mavzu: Janubiy Turkmaniston shaharlari urbanizatsiyasi Reja:

- 2.1. Marv - Orta Osiyoning eng qadimgi shahri
- 2.2. JTAKEning Govurqal'a va Erkqal'adagi tadqiqotlari
- 2.3. XI-XIII asrlarda Marvning ravnaqi
- 2.4. Sultonqal'a

Tayanch so‘z va iboralar: Marv, Erk qal'a, Govurqal'a, Xorazmshohlar, Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi, Marg‘iyona, Sultonqal'a, Oltintepa, Yoztepa, Sulton Sanjar maqbarasi, Yoqut Hamaviy

2.1. Marv - Orta Osiyoning eng qadimgi shahri

Marv O‘rta Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan biri. Marv Avestoda Mouru deb tilga olingan. Marvning qoldiqlari 5 qal'a xarobalaridan iborat. Quyidagilar: Erkqal'a, Govurqal'a, Sulton qal'a, Abdullaxon qal'a, Bayramalixon qal'a. Marv haqidagi ma'lumotlarni dastlab arxeologik ma'lumotlarga e'tibor qaratamiz. Dastlab, XIX asrning 80-yillaridan V.A.Jukovskiy, 1946--yildan M.E.Masson rahbarligidagi Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspedisiyasi, keyingi - yillarda Ashxobod, Toshkent, Moskva va Sankt-Peterburgdan kelgan arxeologlar guruhi qazishma ishlarini olib borgan. Maydoni 12 ga bo‘lgan Marvning eng qadimgi qismi Erk qal'a miloddan avvalgi 1-ming -yillikning 1-choragidan mavjud bo‘lgan. Marvning ravnaq topgan davri Parfiya va ilk soseniylar miloddan avvalgi II milodiy III asrga to‘g‘ri keladi. Bu davrda Marv Govurqal'a va Erk qal'a hududlaridan iborat bo‘lib, Erk qal'a Marvning arkiga aylangan. Shahar va uning atrofi (60 km^2) mudofaa devori bilan o‘rab olingan.

Metallga ishlov beradigan texnika po‘lat ishlab chiqarish texnologiyasi birinchi bo‘lib Axsikent, Pop, Marvda paydo bo‘lgan, keyin Damashqqa, so‘ngra esa, g‘arbga yetib borgan. Yunon tarixchisi

Plutarx tomonidan I asrda shu qadar maqtalgan toblangan po‘lat ishlab chiqariladigan haqiqiy sanoat ustaxonalari Marvda bo‘lgan. Yahudiy hunarmandlari Misrdan Marvga shishadamgarlik texnologiyalarini olib kelganlar.

Milodiy III asrdan Marv Sosoniylar davlati tarkibiga kirgan, VII asrda esa arablar tomonidan bosib olingan. VIII asr o‘rtasida Marv Abu Muslim harakati markazi bo‘lgan. IX asrda Marvda ilm-fan ravnaq topdi, u arab xalifalignining Xuroson va Movarounnahr noibligining poytaxti rolini o‘ynadi. Ma’mun ibn Horun ar-Rashid davrida Marvda Bag‘dod akademiyasining asosini tashkil etgan marvaziylar maktabi tarkib topdi. O‘rta asrdagi Marvning ravnaq topgan davri XI-XII asrning 1- yarmiga to‘gri keldi. Bu davrda u buyuk Saljuqiylar davlatining poytaxti Sulton qal’a bo‘lgan. Hozir Sulton qal’a xarobasida Sulton Sanjar maqbarasi joylashgan.

XII asr oxiri XIII asr boshida Marv Xorazmshohlar davlatining yirik markazi bo‘lgan. 1222 -yilda shahar mo‘g‘ullar tomonidan vayron qilingan. XII asr o‘rtasi XIII asrda shaharning rabod qismi tiklangan. XV asr boshida Shohrux davrida qisqa muddat ravnaq topgan. Marvdan o‘rta asrlarda ko‘plab olimu fuzalolar etishib chiqqan. 1510 - 1524 va 1601 - 1747 -yillarda Marv forslar qo‘lida bo‘lgan. Marv urushlar tufayli inqirozga yuz tutgan. 1790 -yil shahar markazi Marvdan 30 km g‘arbgina Mari shahriga ko‘chgan.

2.2. JTAKEning Govurqal'a va Erk qal'adagi tadqiqotlari

JTAKE - Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi 1945 -yil Turkmaniston FA Prezidiumi qoshida professor M,Ye.Masson boshchiligida tashkil qilingan. JTAKE boshchiligida Janubiy Turkmanistonda tosh davriga ta’luqli Jabal makoni, neolit davriga ta’luqli Joytun madaniyati, eneolit davriga ta’luqli Anov, Nomozgohtepa, jez davriga Oltintepa, va ilk temir davriga Yoztepa va ayniqsa Parfiya madaniyati bo‘yicha muhim tadqiqotlar olib borilishi natijasida dastlabki insonlar yashagan qishloqlar, shahar makonlari va ularning hayot tarzi o‘rganildi.

Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspedistichsi (JTAKE) va O‘rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O‘zMU) “O‘rta Osiyo arxeologiya” kafedrasи ilmiy jamoasi 30 yildan ortiq davr mobaynida vohaning antik davri markazi bo‘lgan Govurqal'a va Erkqal'a yodgorliklarida keng ko‘lamdagi arxeologik qazishmalarni olib boradilar. Mazkur tadqiqot ishlarida kafedra arxeolog olimlaridan

M.E.Masson Z.I.Usmanova, M.I. Filanovich va boshqalarning xizmatlari katta. Mahalliy arxeologlardan D.Durdiev va qadimshunos arxeolog olim G.A. Kosholenkolar ham vohadagi boshqa bir arxeologik yodgorliklarni o‘rganishga o‘z hissalarini qo‘shishgan.

Bu davrga oid manzilgoh va ko‘hna shaharlar me’morchiligi Janubiy Turkmanistonda nisbatan ko‘proq o‘rganilgan. Bu hududlardagi eng yirik ko‘hna shahar Marvdagi Govurqal’ a hisoblanadi. Govurqala o‘lchamlarining yig‘indisi 7,5 km. ga teng. Ahamoniylar davrida Marvning markazi Govurqala shimoliy tomonining markazida joylashgan Erkqala istehkom bo‘lgan. Mil.avv. I ming -yillik o‘rtalarida ushbu istehkom baland loy devor bilan o‘rab olinadi.

Erkqal’aning markazida yirik me’moriy inshootlar hukmdor saroyi va diniy majmua qad ko‘taradi. Istehkom xom g‘ishtdan bunyod etilgan mustahkam poydevor ustiga qurilib, yagona darvozasi shahar tomonga qaratilgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Ahamoniylar davridayoq “Marg‘iyona shahri” mavjud edi. Bu davrda Marv vohasidagi Erkqal’ a maydoni 1800x500 metr bo‘lgan shahar tipidagi yodgorlik bo‘lgan. Govurqal’ a hududlari ham aynan mana shu davrda o‘zlashtiriladi.

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, bu yodgorlik o‘sha davridayoq shahar xususiyatiga ega bo‘lib, butun vohaning markazi edi. Davr oxirlariga kelib ko‘hna shahardagi hayotning faolligi kuchayadi. Govurqal’ a ko‘hna shahri hududining shimoli-sharqiy va markaziy qismlaridagi madaniy qatlamlar jadallik bilan to‘lib boradi. Tadqiqotchilarning fikricha, aynan mana shu aholi punkti makedoniyalik Aleksandr yurishlari davrida yunon-makedon qo‘shinlari tomonidan egallanadi.

Kuriy Rufning ma’lumoticha, Aleksandr, “Ox va Oks daryosidan o‘tib Marg‘iyona shahriga keldi”, degan xabari aynan mana shu aholi punktiga taaluqli deb hisoblanadi. Arxeologik ma’lumotlar natijalariga ko‘ra, ushbu shaharning bo‘ysundirilishi tinchlik xususiyatiga ega bo‘lib, urbanizastiya jarayonlariga ta’sir etmagan. Aynan mana shu shahar qayta nomlanib Aleksandriya nomini olgan. Tadqiqotlar natijalaridan xulosa chiqaradigan bo‘lsak, Aleksandr tomonidan asos solingen joylar - shaharlar yoki mustahkamlangan qal’alar bo‘lgan.

Marg‘iyonaning poytaxti Marv shahridagi ko‘pgina madaniy qatlamlar ham yunon-baqtriya davriga oiddir. Aleksandr Marv mudofaasini bir-biriga yaqin masofada joylashgan oltita chegara qal’alari bilan mustahkmlagan. Marvning mudofaa qudrati Selevka I va Antiox I davrida mustahkmlanadi. Aleksandrga o‘xshab, ular ham eski devorlarni mustahkmlaganlar, yangi mustahkam devorlar barpo etganlar va Marvni o‘z nomlari bilan nomlaganlar.

Antiox I shaharni ham o‘z ichiga olgan butun Marv vohasini o‘zun devor bilan o‘ragan. Ahamoniylarning aynan qal’asi Erkqal’ami yoki Govurqal’ami, Aleksandrning nomi bilan nomlangani aniqlanmagan. Nima bo‘lganda ham, Selevka I va Antiox I davrlarda Marv vohasi to‘liq devor bilan o‘ralganligi aniq. Bu devorning qoldiqlari hozirgacha qisman saqlangan. Ta’kidlash joizki, o‘z vaqtida S.A.Vyazigin ham bu yerda juda katta mudofaa tizimi barpo etilganini ta’riflagan. Erkqal’aning 24 metr devorli qo‘rg‘oni Bog‘dod sulton al-Mansurni hayratda qoldirgan

Qadimiy Marvning qal’asi Erkqal’ada shoh saroyi, xizmatchilar xonalari va ma’muriy inshootlar joylashgan. G.A.Pugachenkovaning taxminlariga ko‘ra, O‘rta Osiyo antik davr shaharlarining qal’alari ma’muriy binolar markazlashgan joy bo‘lib bu yerda hukmdor huzuridagi xizmatkorlar, omborxonalar, garnizon inshootlari joylashgan.

Govurqal’a shahar hayoti: VIII asr ya’ni islom dini tarqalgunga qadar O‘rta Osiyo aholisi otashparastlik (zardushtiylik) diniga e’tiqod qilgan bo‘lib, ularni “gabr” yoki “mug” deb ataganlar. Gabrlar xo‘jalik va harbiy mudofaa uchun ko‘plab qal’a va qo‘rg‘onlar barpo etganlar. Otashparastlarning qal’a va qo‘rg‘onlari vayronaga aylanib asl nomi yo‘qolib ketgach, aholi o‘rtasida ular “gabr qal’a” yoki “gabrlar qal’asi” deb ataladigan bo‘lgan. Arxeologik qazishlar paytida metall buyumlar ishlanadigan ustaxonalar, ibodatxona, ko‘shk qoldiqlari va tegirmonchilar guzari (III asr) ochilgan. Govurqal’a tepaligining ustida III-IV asrlarga mansub ark qoldig‘i hozirgacha saqlangan. V-VI asrlarda Xorazm hukmdorlari Govurqal’aning bir qismini yangidan tiklab, undan harbiy istehkom sifatida foydalanganlar. Aholi quduqlardan ham foydalangan.

VIII-IX asrlarga kelganda Marv shahrining markazi Sulton qal’aga ko‘chib, Govurqal’a arki xarobaga aylanadi. Shunga

qaramay, Govurqal'ada kulolchilar mahallasida hayot yana ancha - yillar davom etgan. Govurqal'adan VIII-IX asrlarga mansub masjid xarobasi ham topilgan.

2.3. XI-XIII asrlarda Marvning ravnaqi

Bartoldning yozishicha, IX asrda sharqiy Yevropadagi Tohiriyalar sulolasi davrida kambag‘al dehqon bolalari o‘qish uchun shaharlarga yuborilgan. Arab geografi Yoqt Al-Xamaviy (1179-1229) Marvdagi 12 ta kutubxonada o‘zining uch - yil vaqtini o‘tkazgan. Ushbu kutubxonalarning har birida 12 000 ta kitob saqlangan. O‘z navbatida, Markaziy Osiyo shaharlari o‘zlarining kitob kvartallari bilan ham mashhur bo‘lganlar.

Mo‘g‘ul istilosidan biroz oldin bu yerdan chiqib ketgan Yoqt Hamaviy shaharda o‘sha vaqtida o‘nta kutubxona bo‘lganligi to‘g‘risida yozgan edi. Jome masjidi kutubxonasida 12 ming jild kitob bo‘lgan. Shahardagi barcha kutubxonalardan foydalangani va shu tufayligina asarlarini yoza olganini e’tirof etgan. Yoqt Hamaviy Marvda lozim bo‘lgan asar nusxalari ham ko‘p bo‘lganligini, asosiy e’tibori bilan dunyoning biror shahardagi kutubxona ham Marv bilan bellasha olmasligini qayd qilgan edi. Bu Xorazmshohlar davrida Mavrning buyuk bir madaniyat markaziga aylanganligidan dalolat. U yerda Aristotel va Platonning kitoblarini ham topish mumkin bo‘lgan.

Turkmanistonda joylashgan qadimiylar Marv shahri XII asrda Xitoyning Xanchjou shahrini ortda qoldirgan holda, dunyodagi eng ulkan shahar hisoblangan. Tertius Chandler o‘zining “Shaharlar rivojining to‘rt ming -yili” nomli tadqiqotida, 1150-yilda Marv shahri 200 000 aholisi bilan dunyoning eng yirik shahri bo‘lgani haqida yozgan XI asrda Marvning raqibi bo‘lmish (Shimoliy Erondag‘i) Nishopur shahrini London bilan taqqoslab, o‘sha paytda Nishopur aholisi 200 000 dan 500 000 gacha bo‘lgan bir paytda, London aholisi soni 10 000 nafar kishini tashkil etgan. Djordj Kerzon Sistan hududi (Sharqiy Eron)dan o‘tayotib, dunyoning hech bir yerida bu qadar ko‘p sonli xarobalar bo‘limgan, deb yozadi. Shaharlar qurilishida ishlatilgan qum vaqt ta’siriga shunchalik tez emirilganidan, ilgarigi me’morchilik merosining kam qismigina asrlar osha bizgacha etib kelgan.

Markaziy Osiyo o‘rta asr shaharlarining suv ta’minoti tizimi yana bir mo‘jizaning o‘zi Marv shahrida gidravlika tizimining ishslashini ta’minlash uchun 12 000 nafar kishi, ushbu tizimga qarab turish uchun

300 nafar suvga sho'ng'uvchilar mehnat qilgan. Shaharlar dambalar, sopol yer osti quvurlari, yomg'ir suvlarini yig'ish va tozalash markazlari kabi murakkab hamda texnik jihatdan a'lo darajadagi suv ta'minoti tizimlariga ega bo'lgan.

Markaziy Osiyo savdogarlari ipakni o'zlarida ishlab chiqarish afzalligini X asrdayoq bilganlar. Marv shoyi ishlab chiqarish va uni G'arbga yetkazib beruvchi yagona yirik markaz bo'lgan. Shu jumladan ipakchilik sanoatini ta'minlab turuvchi o'z tarmoqlariga ega bo'lgan. Somoniylar dinori xalqaro savdoda eng keng tarqalgan tangalardan bo'lgan. Xalqaro savdoda islom olamining asosiy hunarmandchilik markazlari bo'lgan Toshkent, Buxoro, Samarqand, Balx, Hirot (Afg'oniston), Nishopur (Shimoliy Eron), Marv (Turkmaniston) zarbxonalarida zarb etilgan tangalardan foydalanilgan.

Marv moddiy jihatdan nihoyatda gullab-yashnagani singari, ilm-fan va san'at markazi sifatida ham Xurosonning buyuk shaharlarini ancha ortda qoldirib ketdi. Marv Sulton Sanjarning poytaxti bo'lgan davrda gullab-yashnagan o'z mavqeini saqlab qolgan. Biroq, mo'g'ul istilosи oqibatida bu shahar tanazzulga yuz tutib, orqada qoldi. Mo'g'ullar katta talafotlarni keltirgan. Balx, Nishopur, Tus, Gurgandj, Hirot odam yashamaydigan sahrolarga aylantirilgan. Mo'g'ul bosqiniga qadar taxminan 200 000 kishi aholisi bo'lgan Marvning o'zida aholining 90 % o'ldirilgan.

2.4. Sultonqal'a

Marv shahar xarobasini tashkil etgan qal'alardan biri. VIII asrdan boshlab Sultonqal'ada aholi gavjum yashagan. Abu Muslim hukmronligi davrida Majan kanali bo'yiga ark, jome masjidi va asosiy bozorlar ko'chirilishi oqibatida Sultonqal'a Marvning ma'muriy markazi sifatida shakllangan va IX-X asrlarda mustahkam shaharga aylangan. Sultonqal'a 2 qator devor bilan o'rab olingan bo'lib, devor ichining ma'muriy va jamoat binolari joylashgan joyida ark qurilgan.

Shaharning markazida jome masjidi va saljuqiylar saroyi bo'lgan. Kosiblar, kulollarning mehnati qadrlangan. Sanjar hukmronligi davrining oxirida ko'chmanchi o'g'uzlar poytaxtni ikki marta talontaroj qilgan va 1153-yil Sultoqqal'a birinchi marta inqirozga yuz tutgan. Sultonqal'a 1193-yilda Xorazmshohlar davlati tarkibida bo'lgan, 1221-yilda mo'gullar tomonidan zabit etilgan. Mo'g'ullar

Sultonband to‘gonini buzib tashlagan, natijada Marvning qayta tiklanishi ancha kechikkan. Sultonqal’ a xarobasida XIII-XIV asrlarda yana aholi yashay boshlagan. Aholi shaharni qayta tiklab savdo-soyiq bilan shug‘ullana boshlaganlar. XIV-XV asrlarda Temuriylar hukmronligi davrida aholi Sultoqqal’adan janubga siljib, yangi shahar Abdullaxonqal’aga ko‘chirilgan.

1786 - yil Shohmurod Marv hokimi Bayramalixon ustiga bir necha bor qo‘sishin jo‘natgan. Birinchi hujum vaqtida Bayramalixon o‘ldirilib, shahar atrofi talontaroj qilingan. O‘zaro tuzilgan bitimga ko‘ra, Bayramalixonning o‘g‘illaridan Muhammad Karimxon Marv hokimi etib tayinlangan. Ammo u tezda hokimiyatdan chetlatilib, o‘rniga akasi Xoja Muhammad Husayn o‘tqazilgan. 1788 - yilda Shohmurod yana Marvga yurish qilib, shahar va uning atrofini suv bilan ta’minlaydigan Murg‘ob daryosidagi Sultonband to‘g‘onini (uni qo‘riqlab turgan qal’a boshlig‘ining xoinligi tufayli) egallab, uni buzdirib tashlagan. Marv suvsiz qolgan, biroq u taslim bo‘lmagan. Aholi o‘rtasida ochlik, qashshoqlik avjga chiqqan, natijada shahar bo‘ysunishga majbur bo‘lgan. Shohmurod Marvga 5 ming kishilik qo‘sish kiritib, ularni shahar aholisi uylariga joylashtirgan.

Marvning 15 ming (ayrim manbalarda 30 ming) aholisini Buxoro va Samarqand viloyatlariga ko‘chirtirib kelgan. Marvni boshqarish Shohmurodning ukalari Umarbiy va Fozilbiylarga topshirilgan. Sultonband to‘g‘oni qayta tiklangan. Murg‘obning quyi oqimida Islomobod qal’asi qurilgan. Biroq Marv yana Shohmurodga bo‘ysunishdan bosh tortgan. Shohmurod 1790-yil yana Marvga qo‘sish tortib kelgan, lekin shaharni qo‘lga krita olmagach, Sultonband to‘g‘onini buzdirib tashlab, shahar va uning atrofini yana suvdan mahrum qilgan. Marv vohasi cho‘lu-biyobonga aylangan. Shahar aholisi Umarbiyga qarshi isyon ko‘tarib, shahar darvozasini Shohmurodga ochib bergen. Umarbiy ukasi Fozilbiy bilan Shahrisabzga qochgan. Marv hokimligi Shohmurodning o‘g‘li Din Nosirbiyga topshirilgan.

Bugungi kunda Marv YUNESKOning Jahon merosida Buyuk Ipak yo‘lidagi yaxshi saqlanib qolgan eski markaz sifatida qayd etilgan.

Sulton Sanjar maqbarasi - Marv (Turkmaniston)dagi me’moriy yodgorlik (XII asr 40 - yillar). Sultan Sandjar maqbarasi, shuningdek “Dar al-Axir” deb nomlangan, Marvning eng ajoyib me’moriy

yodgorligi. Bu shunchaki saljuqiylarning eng katta yutuqlari va eng katta boyligini anglatadi. Sulton Sandjar maqbarasi qadimgi Sulton shahri Qala qalbida joylashgan. Yaqinda yirik ibodatxonalar mavjud: Saljuq hukmdori saroylari va masjid bor. Sulton Sandjar maqbarasi me'morchiligi birlik va mutanosib simmetriya bilan hayratlanarli. Poydevor devorlari zikh joylashgan. Devorning o'rtacha uzunligi 27 m. Maqbara dengiz sathidan 38 m balandlikda joylashgan.

Sulton Sanjar (1157 -yilda vafot etgan) maqbarasi bizgacha xaroba holda yetib kelgan. Maqbara murabba tarhli (tashqarisi 27x27 m, ichkarisi 17x17 m). Xona balandligi 36 m (ichki gumbazgacha, tashqi gumbaz saqlanmagan). Mahobatli to'rburchak devor (balandligi 15 m, qalinligi 5 m) ustiga 8 qirrali poy gumbaz (qalinligi 1,5 m) o'rnatilgan. Poygumbaz 3 pog'onali. 1 - pog'onasi 4 tomondagi ravoqlarga tayangan, 2 - pog'onasidagi mayda ravoqchalar 6 qirrali, 3 - pog'onasi ustiga gumbaz o'rnatilgan. Maqbara ichki devorlarida oq, ko'k va qizil rangli bo'yoqlar saqlangan. Nozik islimiylar bilan bezatilgan devor tepasida yozuvlar, sharqiy gumbazga ishlangan ganchkor naqshlar zaminida me'mor nomi qayd etilgan. Maqbaraga Saljuqiylar saroyi va masjid tutash bo'lgan. Sulton Sanjar maqbarasiga turli urushlar ko'p putur yetkazilganiga qaramay, o'z mahobatini yo'qotmagan. 1980 -yilda qayta tiklangan.

Alambardor maqbarasi - Turkmanistondagi me'moriy yodgorlik (XI asr). Somoniylar sulolasidan Muntasir (1005 -yil vafot etgan) dafn qilingan deb taxmin etiladi. Maqbara peshtoq gumbazli, bir xonali, murabba tarhli (10,35x10,35 m), devorlari qalin, gumbaz osti bag'allariga g'ishtlar mavjli shaklda terilgan. Bosh tarzi uch qismga bo'lingan. O'rtadagi chuqur ravoqli peshtoq va ikki yonidagi yassi ravoqda g'ishtlar naqsh hosil qilib terilgan.

Nazorat uchun savollar

1. JTAKEning Govurqal'a va Erk qal'adagi tadqiqotlari
2. Marv manbalarda qanday izohlab berilgan?
3. Sultonqal'a shahri XI-XIV asrlarda
4. Sulton Sanjar maqbarasi haqida gapirib bering?

Test topshiriqlari

1. O'rta Osiyoning cho'lli hududlarida O'zbo'y deb ataladi bu nima?

- A Qisqa davr mobaynida suv oqqan yoki umuman suv oqimi to‘xtagan joy
B O‘t-o‘lanlar bo‘lgan keyin qo‘rib qolgan joy
S Daraxtlarga boy ammo o‘lardan foydalanish mumkin bo‘lmagan joy
D Tog‘ga yaqin hududlar atrofidagi quruq joy
2. Marg‘iyona (Turkmanistonda joylashgan) Avestoda qanday atalgan?
- A Mouru
B Margush
S Marv
D Murg‘ob
3. Marv vohasi (Turkmaniston) dan Kallali vohasi eneolit davrida miloddan avvalgi 2-ming -yillik boshlarida
- A Qadimgi dehqonchilik markazi bo‘lgan
B Qadimgi savdo markazi bo‘lgan
S Hunarmandchilik markazi bo‘lgan
D Ovchilik taraqqiy etgan markaz bo‘lgan
4. Shohmurod Marvga yurish qilib, Sultonband to‘g‘onini egallab, qachon buzdirib tashlagan?
- A 1788
B 1700
S 1758
D 1805
5. Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi qachon tashkil qilingan?
- A 1945-yil
B 1936-yil
S 1940-yil
D 1941-yil
6. Erkqala istehkomi ilk bor qachon baland loy devor bilan o‘rab olinadi?
- A Mil.avv. I ming -yillik o‘rtalarida
B Mil.avv. II ming -yillik o‘rtalarida
S Milodning I asrida
D Mil.avv. III ming -yillik o‘rtalarida

7. Turkmanistonda joylashgan qadimiy Marv shahri nechanchi asrda Xitoyning Xanchjou shahrini ortda qoldirgan holda, dunyodagi eng ulkan shahar hisoblangan?

- A XII asrda
- B XI asrda
- S X asrda
- D IX asrda

8. Qaysi asrda Marv shahrining markazi Sulton qal'aga ko‘chib, Govurqal'a arki xarobaga aylanadi

- A VIII-IX asrlarda
- B VII-VIII asrlarda
- S VIII asrda
- D VI-VII asrlarda

9. Marvning eng qadimgi qismi Erk qal'a maydoni miloddan avvalgi 1-ming -yillikning 1-choragida qancha bo‘lgan?

- A maydoni 12 ga
- B maydoni 20 ga
- S maydoni 6 ga
- D maydoni 24 ga

10. Sulton Sanjar hukmronligi davrining oxirida ko‘chmanchi o‘g‘uzlar poytaxtni ikki marta talontaroj qilgan va qachon Sultoqqal'a birinchi marta inqirozga yuz tutgan?

- A 1153 -yilda
- B 1120 -yilda
- S 1203 -yilda
- D 1251 -yilda

Manba va adabyotlar

1. Алламберганов М. Қадимий мудофа деворлари. Тошкент, 2007.

2. Виноградов А. Неолитические памятники Хорезма.
Материалы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции.
Вып. 8. Москва, 1962.

3. Исо Жабборов. Буюк Хоразмшоҳлар давлати. Ташкент, 1999.

4. Polatov X. Shaharsozlik tarixi.- O‘quv qo‘llanma - T., “Fan va texnologiya” Ташкент 1992

5. Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқарув тарихи.
Тошкент, 2012.

6. Ўзбек совет энциклопедияси “Ўзбекистон Давлат энциклопедияси Бош

Редакцияси”. Тошкент, 1971.

Internet resurslar:

1. www.ziyonet.uz
2. www.history.ru

3-Mavzu: Amudaryo va Surxondaryo vohasi shaharlari urbanizatsiyasi

Reja:

- 3.1. Qadimgi davr shaharlarini tiplarga bo‘lish shaharni joylashish o‘rni va turi
- 3.2. Chag‘oniyon, Budrochtepa qadimiy shahar
- 3.3. O‘zbek xalqining qadimiy tarixi va madaniyatidan guvohlik beruvchi ko‘hna shahlar
- 3.4. Termiz shahri manbalarda
- 3.5. Termiz shahri ilk va o‘rta asrlar davrida
- 3.6. Amir Temur va temuriylar davrida Termiz shahri

Tayanch so‘z va iboralar: Chag‘oniyon, Yunon - Baqtriya, kushonlar davri madaniyati, mudofaa istehkomlari, Xolchayondagi tangalar, Budrochtepa, Termiz, Jayhun daryosi, Temiz Arxeologik Kompleks Ekspeditsiyasi

3.1. Qadimgi davr shaharlarini tiplarga bo‘lish shaharni joylashish o‘rni va turi

Termiz shahri haqida ma’lumotlar va qadimgi davr shaharlarini tiplarga bo‘lish shaharni joylashish o‘rni va turini aniqlashda arxeologik ma’lumotlarning o‘rni muhim. Termiz shahri va atrofining tarixiy davrlarini belgilash hamda arxeologik materiallar to‘plash maqsadida O‘rta Osiyoda birinchi marta tashkil etilgan ilmiy ekspedistiya Temiz Arxeologik Kompleks Ekspeditsiyasi (TAKE), 1936-1938-yillarda o‘z faoliyatini boshlagan. Ilmiy tadqiqot ishlariga M.E.Masson rahbarlik qilgan. Ekspeditsiyaga O‘zbekiston qadimgi va san’at yodgorliklarini muhofaza qilish qo‘mitasi (Uzkomstaris), Leningrad davlat ermitaji, Moskva dinga qarshi kurash Markaziy muzeyi, Samarqand va Termiz tarix muzeylari xodimlaridan iborat bir necha guruh tuzilgan. A.P.Okladnikov rahbarligidagi guruh Teshiktosh

g'oridan muste davriga oid bolaning skeleti qoldiqlarini topib, dunyo ahamiyatiga molik kashfiyat qildi. Termiz shahrining tarixiy topografiyasi tuzildi. Chingiztepa va Qoratepa qadimgi budda ibodatxonasi ochilib, antik davr frizlari topildi; Ayritom xarobasida arxeologik tadqiqotlar olib borildi.

Termizshohlar saroyining xarobalarini o'rganish ishlari keng yo'lga qo'yildi. Termiz va uning atrof rayonlarining sug'orish tarixi bilan bog'liq holda o'rta asr me'moriy yodgorliklari ham o'rganildi. Miloddan avvalgi 1-asr va milodning 1-asrga oid sopol buyumlarning kompleks san'at namunalari topildi va Kushon podsholigi tarixini o'rganishga jiddiy qadam qo'yildi. O'zbekistonda birinchi marta tosh idishga bitilgan kxaroshti hind yozuvining namunasi topildi. Bu arxeologik topilmalar, asosan, O'rta Osiyoda quldorlik jamiyatining paydo bo'lish, rivoji va tushkunlikka yuz tutish davrlarini belgilab berishda katta rol o'ynadi. Umuman ekspeditsiyaning faoliyati Termiz va uning atrof rayonlarini o'rganish bilan cheklanibgina qolmay, balki O'rta Osiyo tarixini arxeologik jihatdan tadqiq etish hamda davrlashtirishda ilmiy ahamiyatga ega bo'ldi.

1970 -yillarda Shimoli-g'arbiy Baqtriya yodgorliklari, shu jumladan Kushon davri yodgorliklarini o'rganish natijalariga asosan E. V. Rtveladze ularni ilk bor turlarga ajratdi:

- Birinchi guruh. Yirik shaharlar, eng qadimgi shaharlarga to'g'ri keladi
- Ikkinci guruh. Yarim shahar, yarim qishloq tipidagi yodgorliklar
 - Uchinchi guruh. Qishloq tipidagi yodgorliklar
 - To'rtinchi guruh. Tog'li qishloqlar
- Birinchi tip: arki-a'loli katta maydonni egallagan, mudofaa istehkomi bilan mustahkamlangan shaharlar (Eski Termiz)
- Ikkinci tip: Ko'plab qishloq va boshqa turdag'i inshootlarni o'ziga qamrab olgan arki-aloli va maydoni yagona mudofaa istehkomlari bilan o'rab olinmagan shaharlar
 - Uchinchi tip ikki shakldan iborat:
 - Birinchi shakli - o'rta kattalikdagi shaharlar, arki-a'loli, tarhi to'g'riburchak yoki to'rtburchak shakldagi mudofaa istehkomlari va xandak-g'ov bilan o'rab olingan shaharlar. Umumiy maydoni 10

gektardan 30 gektargacha. Bularga Dalvarzintepa, Zartepa kabi shaharlar kiradi.

- Ikkinchishakli - umumiy maydoni 5 gektardan 10 gektargacha, shaharning bir burchagida yoki undan alohida joylashgan arki-aloli, ularning tarhi to‘g‘ri burchak yoki ko‘p burchakli ko‘rinishda bo‘lib, mustahkam mudofaa inshootlari bilan muhofazalangan. Mudofaa devorlari burjlar bilan mustahkamlangan. Bularga Hayitobodtepa, Jondavlattepa, Beshkapa, Degriztepa kabilar kiradi.

- To‘rtinchi tip: Umumiy maydoni 1 gektardan 3 gektargacha bo‘lgan shaharlar. Bular tarhi ko‘pincha to‘g‘ri to‘rtburchak yoki o‘g‘riburchak shaklida bo‘lib, arki - a’lo ularning ma’lum burchagida joylashgan. Burjlar bilan muhofazalangan istehkomlari bilan o‘rab olingan. Asosiy qismdan tashqarida tashqi shahar singari inshootlar mavjud. Bu turdagilashqarida Shimoli-g‘arbiy Baqtriya hududida juda keng tarqalgan. Bularga Oqtepa, Ismoiltepa, Karvontushdi, Bobotepa, Hayrabodtepa kabilar kiradi.

Yarim shahar yarim qishloq turkumidagi yodgorliklar: bu turdagilashqarida inshootlar o‘zining tuzilishi, xususiyatlari bilan birinchi va uchinchi turdagilashqarida o‘xshamaydi. Bularning arki-a’losi va mudofaa istehkomlari yo‘q. Bularning umumiy maydoni bir necha gektar, ba’zida 10 gektardan ko‘proq maydonni tashkil etadi. Bu turdagilashqarida Xotinrabod, Kultepa, Oqtepa va Ayritomlar kiradi.

Qishloqlar: Birinchi tip: Umumiy maydoni 1 gektardan oshiq qishloqlar. Tarhi to‘g‘riburchak shaklida, ba’zan arki-a’losi bor. Bularga Sherabod vohasidagi Oqtepa, Sho‘rchi tumanidagi Eshonbobo yodgorliklari kiradi.

Ikkinchishakli tip: Arki-a’losiz va mudofaa devorlari bo‘lmagan qishloqlar.

Ularning umumiy maydoni 1 gektar atrofida. Bu turdagilashqarida yodgorliklarning bironbir burchagida ko‘shk joylashgan. Bularga Botirobodtepa, Do‘mbiraobodtepa (Sherabod vohasi) kabilar kiradi.

Uchinchi tip: Qishloq joylaridagi hovlilar. Ular alohida joylashgan bo‘lib, maydoni 0,2 - 0,3 gektarni tashkil etadi.

Tog‘li qishloqlar. Bu turdagilashqarida tog‘ yonbag‘irlari yoki tog‘li joylarda joylashgan ko‘pburchakli ko‘rinishga ega. Bularga Maydonqo‘rg‘on (Ko‘hitang tog‘lari), Sina (Hisor tog‘lari) kabi yodgorliklar kiradi.

E.V.Rtveladze tomonidan ilk bora Shimoli-g‘arbiy Baqtrianing qadimgi davr yodgorliklarining tipologiyasi keyinchalik bu borada yodgorliklarni tiplarga bo‘lish, ularni turlarga ajratish borasida muhim bosqich bo‘ldi.

XX asrning 70 -yillarida Baqtrianing shahar madaniyatini o‘rganish munosabati bilan taniqli arxeolog olim V.M.Masson ham Shimoli-g‘arbiy Baqtrianing qadimgi davr yodgorliklarini tiplarga bo‘lish masalalariga ham yondashgan. V. M. Masson Ga’rbiy Yevropa va Amerika olimlarining Mesopatamiya yodgorliklarini tiplarga bo‘lish natijalariga asoslanib Baqtrianing qadimgi davr yodgorliklarini tiplarga bo‘lgan. V. M. Masson o‘zining bu tadqiqotida asosiy mezon qilib, yodgorliklarning umumiyligini maydonini olgan. V. M. Masson tadqiqotlariga ko‘ra, Shimoliy Baqtrianing shahar va qishloqlari o‘rtasidagi chegara 5 getktarni tashkil etgan. Umumiyligini 5 getktardan oshiq yodgorliklar shahar tipiga kiritilgan, undan kam bo‘lganlarini qishloqlar tashkil etgan.

Arxeolog Sh. Pidayev o‘zining Shimoliy Baqtrianing qishloqlari va qishloq jamoasiga bag‘ishlangan asarida ham ayni shu yo‘sinda yondashgan. E. V. Rtveladze, V. M. Masson, Sh. Pidayev kabi arxeolog olimlarning tadqiqotlari tufayli Shimoli-g‘arbiy Baqtrianing qadimgi davr shaharlarini tiplarga bo‘lish, ularni shaharlar, shaharchalar, shahar turkumidagi qishloqlar, qishloqlar, diniy inshootlarga ajratish shu tariqa shakllandi va keyinchalik bu usul Shimoli-g‘arbiy Baqtrianing ilk temir davri yodgorliklarini tasniflashga A.S.Sagdullayev, Sh.B.Shaydullayev tomonidan qo‘llanilgan bo‘lsa, Toharistonning V-VIII asrlar yodgorliklarini tasniflashda B.A.Litvinskiy, V.S.Solovyov va T.Annayevlar tomonidan davom ettirildi.

3.2. Chag‘oniyon, Budrochtepa qadimiy shahar

Chag‘oniyon qadimiy shahar bo‘lib arabchada Sag‘oniyon deb yuritilgan Surxondaryo (Chag‘onrud) ning o‘rta va yuqori oqimi bo‘ylarida joylashgan tarixiy-madaniy viloyat. Dastlab Syan Szan tomonidan milodiy taxminan 630 -yilda qayd etilgan. Bu hududda insonlar yashaganligining eng qadimgi izlari mezolit va neolit davrlariga oid. Miloddan avvalgi 2-ming -yillikning 2-yarmida bu yerda ilk dehqonchilik manzilgohlari (Mo‘lalitepa), miloddan avvalgi 1-ming -yillik o‘rtasida esa ilk shahar Qiziltepa vujudga kelgan. Miloddan avvalgi 1-asr milodiy 1 - asrda Chag‘oniyon

yuechjiylar davlatining asosiy markazlaridan biri bo‘lgan. Milodiy I - III asrlarda Chag‘oniyon Kushon podsholigi tarkibiga kirgan.

Chag‘oniyoning iqtisodi va madaniyati bu davrda ravnaq topgan, ko‘plab shahar va qishloqlar vujudga kelgan, tovar-pul munosabatlari, sug‘orma dehqonchilik, turli kasb-hunarlar, tasviriy va amaliy san’at ayniqsa, haykaltaroshlik rivojlangan. Milodiy III-IV asrlarning 2-yarmida Chag‘oniyon sosoniy kushonshohlar qo‘l ostida bo‘lgan. Milodiy V asrning 2-yarmi VI asrda viloyat avval Eftaliylar, so‘ngra Sosoniylar davlati tarkibiga kirgan. VI asrning 2-yarmidan VIII asrning 2 - yarmigacha Chag‘oniyonni mahalliy sulola boshqargan, u nomigagina Toxaristonning oliv hukmdorlari turkiy yabg‘ularga bo‘ysungan.

Chag‘oniyoning ayrim hukmdorlari yoki chag‘onxudotlarning ismlari yozma, epigrafik va numizmatik ma’lumotlar bo‘yicha aniqlangan: Fag‘anish, Sashr, Zarin, Turontosh, Tish, Xnar. Milodiy VII asrning 2 - yarmida Chag‘oniyonga arablar kirib kelgan, ular VIII - asr oxirida mahalliy sulolani tugatganlar. IX asr ning o‘rtasi yoxud 2 - yarmidan XI asr boshigacha Chag‘oniyon - somoniylarning eng qudratli yarim mustaqil vassallaridan hisoblangan muxtojiylar sulolasidan bo‘lgan hokimlarning merosiy mulki bo‘lgan. Bu sulola amirlari Abu Bakr Muhammad bin Muzaffar (940/941 -yilda vafot etgan), ayniqsa, Ahmad bin Abu Bakr Muhammad - Abu Ali Chag‘oniy (955/956 -yilda) Somoniylar saroyida eng muhim ma’muriy mansablarni (jumladan, Xuroson noibi va sipohsolorlik) egallaganlar. Muxtojiylar davrida Chag‘oniyon tarkibiga hozirgi Surxondaryo viloyatidan tashqari Tojikistonning shimoliy-g‘arbidagi Shuman va Oxarun viloyatlari kirgan.

Chag‘oniyon poytaxti ham Sag‘oniyon deb atalib, Denovdan 6 km janubiy-sharqdagi Budroch shahri xarobasi o‘rnida bo‘lgan. Chag‘oniyon (Sag‘oniyon) shahri bu davrda Markaziy Osiyoning eng yirik iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lgan. Chag‘oniyon amiri Ahmad ibn Muhammad esa ko‘plab buyuk shoirlar Daqiqiy, Farruxiy, Manjuqiy homiysi (mamdux) sifatida Sharqda shuhrat qozongan. XI asrning 1 - yarmida Chag‘oniyon ma’lum darajada qoraxoniylarga qaram bo‘lgan, ayrim vaqtarda u mustaqil mult hisoblangan. XI asrning 2-yarmi XII asrning 1-yarmida Chag‘oniyon Saljuqiylar davlati tarkibiga kirgan. XII asrning 2-yarmi XIII asr boshi Chag‘oniyonni qoraxoniylar, qarluqlar, g‘uriylar, xorazmshoxlar

idora etgan. Mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng XIII asr o‘rtasida Chag‘oniyon Chig‘atoyxonning nabirasi Yesun Tuvaning, so‘ngra uning o‘g‘li Baroqning merosiy mulkiga aylangan. Bu davrda Yangi shahar ilgarigi rabod o‘rnida vujudga kelib XVI - asr boshiga qadar mavjud bo‘lgan, so‘ngra Shayboniyxon tomonidan bosib olingan. Shundan so‘ng asosiy markaz Dehinav (hozirgi Denov) ga ko‘chgan.

Budrochtepa qadimiy shahar. Surxondaryo viloyati Denov tumanida joylashgan. Maydoni salkam 120 ga. Unga Zaxartepa, Oqmozortepa va Dunyotepa deb nomlangan tepaliklar kiradi. Budrochtepa o‘rta asrlarda Chag‘oniyon deb atalib, podsho saroyi, shahriston va raboddan iborat bo‘lgan. Budrochtepa Afrosiyob devoriy rasmlaridagi sug‘dcha yozuvlarda “Chag‘oniyon”, arab manbalarida “Sag‘oniyon” deb atalgan. Ilk bor 1960 - yilda Budrochtepa O‘zbekiston san’atshunoslik ekspeditsiyasi tomonidan ochilgan, 1960 - yildan beri shu ekspeditsiya tomonidan tadqiqotlar olb boriladi. Arxeologik qazishmalardan ma’lum bo‘lishicha, Budrochtepa o‘z boshidan bir necha tarixiy davrlarni (bosqichlarni) kechirgan:

Birinchi bosqich: miloddan avvalgi 1- asr milodiy 1- asrlarda Oqmozortepa va Dunyotepa o‘rinlarida kichkina qishloq barpo etilgan;

Ikkinci bosqich: milodiy I-III asrlarda shahar hajmi 10 ga yetib, Oqmozortepa shoh saroyiga aylantirilib, 10 m qalinlikdagi mudofaa devori bilan o‘ralgan, Dunyotepa esa katta manzilgoh bo‘lgan;

Uchinchi bosqich: milodiy III - V asrlar boshlarida shahar inqirozga yuz tutgan, mudofaa devorlari xarobaga aylangan;

To‘rtinchi bosqich: V - asr oxiri va VIII asr boshlarida shahar yana tiklandi va 3 qismdan: shoh saroyi, shahriston va raboddan tashkil topgan. Shahriston atrofidagi devorning uzunligi 3 kmga yetgan;

Beshinchi bosqich: VIII - IX asrlarda, arab istilosidan so‘ng shahar mavjud bo‘lib, uning hajmi bir oz kichik bo‘lgan;

Oltinchi bosqich: X-XI asrlar birinchi yarmida shahar taraqqiy etgan. Shaharning umumiyligi maydoni 6 km^2 ga yetgan;

Yettinch bosqich: XI-XII asr o‘rtalarida shahar saljuqiylar sultonii Aln Arslon tomonidan zabt etilgan. Ashyoviy dalillar shu paytda Dunyotepada hayot to‘xtaganligini va shahristonning ham mavqeい pasayganligini ko‘rsatdi;

Sakkizinch bosqich: XII asr o‘rtasi XIII asr boshlarida shahar yana tiklangan;

To‘qqizinch bosqich: XIII asr boshida shahar mo‘g‘ul istilochilar tomonidan vayron qilinib XV asr boshlarida esa shahristonda hayot tamomila to‘xtagan, Dunyotepada hayot qisman kechgan, Oqmozortepa esa pishiq g‘ishtlar bilan tiklangan qabristonga aylantirilgan. Shahar o‘rni raboddan sharqda - G‘ishli degan joyda paydo bo‘lgan, u yerda madaniy qatlam 4 - 5 m ni tashkil qiladi;

O‘ninch bosqich: XVI asr boshlarida shayboniyalar tomonidan shahar batamom vayron qilingan. Chag‘oniyon poytaxti endi Budrochtepadan 10 kmcha uzoqlikda joylashgan “Deh-i-nav”ga, hozirgi Denovga ko‘chgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida har bir davr uchun kerakli ashyoviy dalillar topilgan. Ular orasida sopol idish-tovoqdar, haykalchalar, Kushon podsholarining mis tangalari va so‘nggi davrdagi kumush va jez tangalari, toshdan va qimmatbaho ashyolardan tayyorlangan taqinchoqlar, shisha idishlar, temir va jezdan tayyorlangan qurol-aslahalar va uy-ro‘zg‘or buyumlari ko‘plab topilgan.

3.3. O‘zbek xalqining qadimiy tarixi va madaniyatidan guvohlik beruvchi ko‘hna shaharlar

Zartepa Termiz shahridan 26 km shimoliy-g‘arbda joylashgan qadimgi shahar. Zartepa 1951-1952 -yillarda arxeolog L.I.Albaum tomonidan tekshirilgan. Zartepa kvadrat shaklida bo‘lib, devorlarining uzunligi 400 m dan. Sharqiy devor xarobalari 6-7 m, g‘arbiy devori 4 m gacha saqlanib qolgan. Shaharning shimoliy-sharqida kvadrat shaklida qal’a-qo‘rg‘on bor, u shahristondan mudofaa chizig‘i katta xandaq bilan ajratilgan. 1960-1980 -yillarda arxeolog V.Zavyalov, Q.Sobirov va Sh.Pidayevlar tomonidan o‘rganish davom ettirilgan. Arxeologik qazishmalar tufayli Zartepaning shahriston qismidan uy-joy qoldiqlari va ko‘chalar ochilgan. Sopol idishlarining asosiy qismi angob bilan bo‘yalgan. Zartepadan odam va hayvonlarning haykalchalari va har xil tangalar ham topilgan. Topilmalarning eng qadimgisi miloddan avvalgi IV-II asrlarga, keyingilari ilk o‘rta asrlar V-VII asrlarga to‘g‘ri keladi.

Kampirtepa qadimgi shahar miloddan avvalgi III milodiy III asrga to‘g‘ri keladi. Amudaryoning o‘ng sohilida, Surxondaryo viloyatidagi Sho‘rob qishlog‘idan 0,5 km g‘arbda joylashgan. Kampirtepa 2 qism; qal’a va undan g‘arb va sharq tomonda

joylashgan, atrofi devor bilan o‘ralmagan qismdan iborat. G‘arbdan sharqqa tomon umumiy uzunligi 750 m, shimoldan janubga 200 - 250 m. Qal‘a (maydoni 4 ga) ark va turar joylardan tashkil topgan. Uning atrofi qalinligi 5 m keladigan mustahkam mudofaa devori bilan o‘rab olingan; devorga ichki yo‘laklar qilingan, burchaklarida minoralar o‘rnatilgan bo‘lib, xandaq bilan o‘ralgan. Ark qal‘aning markaziy qismida joylashgan, janubiy tomondan uning bir kismini suv yuvib ketgan.

Arkning maydoni - 1,3 ga, janubiy-sharqiy burchagida darvozasi bo‘lgan. Ark xom g‘ishtdan qalinligi 5 m ga yaqin devor bilan qurshalgan. Devor atrofi kengligi 10 m lik xandaq bilan o‘rab olingan. Arkning ichki qismida turli maqsadlar uchun mo‘ljallangan xonalar joylashib, ular o‘zaro yo‘laklar bilan bog‘langan 4 ta yirik blokni tashkil qiladi. Kampirtepaning mustahkamlanmagan qismi, asosan, dafn inshootlari majmuasi bilan band. Uning shimoliy g‘arbiy qismida, 0,5 ga lik maydonda naus tipidagi 10 dafn inshooti joylashgan bo‘lib, ular hajmi 33-34-35 X 33-34-35 X 13-14 sm lik kvadrat shakldagi xom g‘ishtdan terilgan. Sharqiy qismda yana bir dafn inshooti bo‘lib, uning tarhi to‘rtburchak, shimoldan janubga tomon cho‘zilib, uzunligi 66,5 m, kengligi 3-4,2 m bo‘lib, bir-biridan yo‘laklar bilan ajratilgan uchta binodan iborat.

Kampirtepaning mana shu qismidan tarhi aylana shaklda bo‘lgan xumdon topilgan. Kampirtepadagi hayot uchta asosiy davrga bo‘linadi:

Birinchi davr (miloddan avvalgi III-II asrlar) Kampirtepaning janubiy qismida, bo‘lajak ark o‘rnida qal‘aning vujudga kelishi; Yunon-Baqtriya podsholigi davriga oid turar joylarning katta qismini Amudaryo suvi yuvib ketgan.

Ikkinci davr (miloddan avvalgi II-I asrlar) ark o‘rnida hayot qisman jonlana boshlagan. Uchinchi davr (milodiy I-II asrlar) - Kampirtepaning yuksalgan davri, mustahkam qal‘a bunyod etilishi, uning tizimining shakllanishi. Kampirtepaning ko‘plab sopol idishlar, bezak buyumlari, haykalchalar va boshqalar topilgan.

Kattatepa o‘rta asr shahri bo‘lib VII-XII asrlarlarga tegishli. Sherobod (Surxondaryo viloyati) dan 7 km janubiy-g‘arbda joylashgan. Maydoni 20 ga. Termiz viloyatidagi ilk o‘rta asrlarga oid eng yirik shahar xarobasi hisoblanadi. Kattatepa 3 qism va raboddan iborat bo‘lib, ularning barchasi mudofaa devori bilan o‘rab olingan.

Bu yerdan VII asr oxiri VIII asr 1-yarmiga oid sopol parchalari topilib, ularda Qur'on oyatlari bitilgan. E.V.Rtveladzening fikricha, Kattatepa o'rnida ilk o'rta asrlarda Xushvarog' shahri joylashgan.

Xushvarog' atrofi 3 qator mudofaa devorlari bilan o'ralgan yirik shahar bo'lib, arablar istilosidan avval Sheroboddaryo havzasidagi Kufton rustoqining markazi hisoblangan. V-VIII asrlarda shaharning o'z zARBxonasi bo'lib, faqat Sheroboddaryo havzasida muomalada bo'lgan kumush va mis tangalar zARB etilgan. VIII asrning 1-yarmida Xushvarog' shahri arablar tomonidan vayron qilingan, lekin bir oz vaqtdan so'ng, Abu Muslim davrida Hoshimgird nomi bilan qayta tiklangan. XI-XII asr manbalarida Hoshimgird qayd etilmagan. Kattatepadagi hayot bu davrga kelib so'ngan, uning aholisi esa Sherobod atrofidagi kushonlar davriga oid Kofirqal'a shahar xarobasi arki o'rnida vujudga kelgan yangi qishloqqa ko'chgan.

Mirzaqultepa ilk kushonlar davriga oid qo'rg'on bo'lib miloddan avvalgi 1 - asr oxiri - milodiy I asr boshi. Termiz shahri aeroporti hududida, qadimgi Termiz shahrini suv bilan ta'minlovchi Surxondaryodan chiqarilgan kanalning o'rta oqimida joylashgan. Yodgorlikning kvadrat shaklda saqlanib qolgan qismi 1 ga maydonini egallab, balandligi 3 m ni tashkil qiladi. 1973 – 1976 va 1974 – 1980-yillarda O'zbekiston FA Arxeologiya institutining Baqtriya ekspeditsiyasi Sh. Pidaev tomonidan Mirzaqultepaning janubiy qismida arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan. 2 me'moriy bosqich qayd etilgan. Qazishma ishlari yuqori me'moriy bosqich sathida olib borilgan va qo'rg'onning mudofaa devorlari va yuzga yaqin turli hajmdagi to'g'ri to'rtburchak va kvadrat shakldagi xonalar, ko'cha va yo'laklar ochib o'rganilgan.

Qo'rg'on va uy devorlari kvadrat shakldagi xom g'ishtdan qurilgan va bular o'zlarining simmetrik ko'rinishlari bilan ajralib turadi. Har bir uy 3 - 5 xonadan iborat. Don mahsulotlarini xumlarda saqlaydigan maxsus omborxonalar ochilgan. Mirzaqultepadan yuqori sifatli sopol idishlar, temir va jezdan tayyorlangan ko'zgu, paykonlar, pichoq va o'roqlar, tosh yorg'uchqolar, tegirmontoshlar, urchuqlar, bezak buyumlar, suyakdan ishlangan tugmalar, erkak va ayol ma'budlarning terrakota haykalchalari, aholi tomonidan ilohiyashtirilgan suvoriy, xo'kiz, fil, maymun, yo'lbars kabilarning haykalchalari, sopolga bitilgan baqtr yozuvi va Yunon-Baqtriya podshosi Geliokl tangalariga taqlid qilib zARB qilingan jez tangalar va

boshqalar topilgan. Aholi, asosan, dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Milodiy II asrda Mirzaqultepa xarobalarida bir necha qabr paydo bo‘lgan. Mirzaqultepadan 300 - 350 m shimoliy-sharqda qabriston joylashgan, unda 10 ga yaqin qabrlar saqlanib qolgan.

Ayritom Termiz shahridan 18 km sharqda, Amudaryo qirg‘og‘ida joylashgan. Dastlab Ayritom yaqinida Amudaryo tubidan odam haykalchalari ishlangan friz(piramona) parchalari topilgan (1932), 1933 -yil M.V.Masson rahbarligidagi Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasi Ayritomda qazish ishlari olib borib, yana 7 ta friz bo‘laklari hamda budda ibodatxonasi xarobasini topgan. Frizlar 1-II asrlarga oid bo‘lib, ularda qo‘schnay, chiltor, ud, nog‘ora chalayotgan sozandalar va gulchambarlar, meva solingan idishlar ko‘tarib olgan yigit-qizlar ifodalangan. Bundan tashqari Ayritomdan miloddan avvalgi II asr oxiri va milodiy IV asrlarga oid ikkita qabr topilib, ularning biridan qurol-yarog‘lari bilan birga dafn qilingan jangchining, ikkinchisidan idish-tovoqlar hamda zeb-ziynatlar bilan ko‘milgan ayolning skeletlari chiqqan.

B.Turg‘unov 1963-1966 -yillarda Ayritomda O‘zbekiston san’atshunoslik ekspeditsiyasi ham qazish ishlari olib borgan. Devorlarining qalnligi 1,5 m, balandligi 2-2,5 m bo‘lgan 15 ga yaqin eshik va derazasiz xonalar diniy marosimlar o‘tkazilgan xonalar topilgan. Xonalarga yuqorida maxsus zinalar orqali tushilgan. 1978 -yilda olib borilgan qazilmada yunon alifbosida 6 qator qilib bitilgan yozuvi bor haykal tagkursisi topilgan. Ayritom moddiy-madaniy yodgorliklari o‘zbek xalqining kushonlar davridagi tarixini, madaniy merosini, urf-odatlarini va boshqalarni o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Kuyovqo‘rg‘on ilk o‘rta asrlarga oid badavlat dehqon qo‘rg‘oni milodiy V asr. Yodgorlik Termizdan 26 km shimolida, Angor tumanida, Zartepadan 300 m sharqda joylashgan. Kuyovqo‘rg‘on 1977 -yilda Arxeologiya institutining Baqtriya ekspeditsiyasi tomonidan to‘liq ochib o‘rganilgan (Pidaev Sh.P.). Qo‘rg‘on 2 qavatli bino bo‘lib, kvadrat shakldagi (20x18) paxsa ko‘tarma (platforma) ustiga qurilgan. Binoning ikkala qavatida 5 - 6 tadan xona mavjud. Bu yerda mehmonxona, yotoqxona va xo‘jalik xonalari bo‘lgan. Xo‘jalik xonalari uzun yo‘laksimon shaklda bo‘lib, ularning tomi ravoqsimon qilib xom g‘ishtlardan terib chiqilgan.

Qolgan xonalar yassi qilib yopilgan. Bino darvozasi qo‘rg‘onning shimoliy tomonida joylashgan.

Kuyovqo‘rg‘on tarixida 2 me’moriy bosqich qayd qilingan. 2 - bosqichda bino xonalari tuzilishiga ayrim o‘zgartirishlar kiritilgan. Qurilish materiallari sifatida to‘g‘ri to‘rburchak shakldagi xom g‘ishtlardan foydalanilgan. Qo‘rg‘onni o‘rganish davomida turli shakldagi sopol idishlar va boshqa uy-ro‘zg‘or buyumlari topilgan. Topilmalar orasida loyganchdan ishlangan monumental haykallar alohida o‘rin egallaydi. Haykallarda oqsuyak ayol va erkaklar aks ettirilgan. Haykallarning har biri o‘ziga xos ko‘rinishga ega. Haykaltarosh yaratilayotgan haykallarga jo‘shqin hayotiylik baxshida etgan. Har bir haykal o‘zining badiiy barkamolligi bilan ajralib turadi. Haykallarda kushon davri haykaltaroshligining an’analari o‘z ifodasini topgan. Haykallar qo‘rg‘onning 2 - qavatida joylashgan mehmonxonaning 3 devorini bezatib turgan. 4 - devor rangli surat bilan naqshlangan. Kuyovqo‘rg‘on haykallari O‘rta Osiyodagi ilk asrlarga oid hayotiy obrazlarni o‘zida mujassamlashtirgan yagona haykaltaroshlik namunasidir. Haykallar ilk o‘rta asrlardagi Toxaristonning boy va yuqori rivojlangan moddiy va ma’naviy madaniyatidan dalolat beradi. Kuyovqo‘rg‘on ilk o‘rta asrlarga xos bo‘lgan qo‘rg‘on me’morligining dastlabki ko‘rinishidir. Qo‘rg‘on o‘zining ilg‘or me’moriy yechimlari bilan ajralib turadi. Shahar aholisi hunarmandchilikning turli xil turlari bilan mashg‘ul bo‘lganlar.

3.4. Termiz shahri manbalarda

IX asrining ikkinchi yarmi va X asrning birinchi choragida yashagan sayyoh va geograf olim Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad al-Forsiy al-Istaxriy (850-934) “Masolik ul-mamolik” (“Mamlakatlarga olib boradigan yo‘llar haqida”) asarlarida Termiz viloyatining chegaralari, iqlimi, ma’muriy bo‘linishi, aholisi va uning mashg‘uloti, mashhur kishilari, savdo-sotiq masalalari haqida ma’lumot bergen. Ularda aytishicha, Jayhun bo‘yidagi Termiz qal’asi va shahriston shahar chekkasida joylashgan hamda mustahkam devor bilan o‘rab olingan rabotdan iborat. Hukumkor saroyi qal’ada, qamoqxona (zindon) kuhandizda emas, shahristonda, ya’ni bozorning o‘rtasida bo‘lib, shu yerda jome masjidi mavjud, nomozgoh (fuqarolar nomoz o‘qiydigan joy) esa rabotda, ya’ni devorning ichkarisida qad ko‘tarib turibdi.

Bozor ichkarisidagi imoratlar xom g‘ishtdan qurilgan, keng ko‘chalarga va maydonga pishiq g‘isht yotqizilgan. Jayhun bo‘yida, daryoning kechuv joyida shahar aholisi istiqomat qiladi, Termizning ekinzorlari Sag‘oniyon (Chag‘onrud) daryosi suvi bilan sug‘oriladi, aholi uchun ichimlik suvi quvurlar yordamida Jayhun daryosidan olingan.

X asr oxirida yashagan Al-Muqaddasiy (Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Bakr al-Muqaddasiy) o‘zining “Ahsan at-taqosim fi ma’rifat al-aqolim” (“Iqlimlarni o‘rganish uchun yaxshi qo‘llanma”) nomli asarida Termiz Jayhun bo‘yidagi eng katta shahar ekanligini, hamma joydan bu yerga ko‘plab ziyoratchilar, savdogarlar kelishini qayd qilgan.

Shaharning Kuhandiz qal’asi alohida ta’kidlanadi, Kuhandizda bitta, shahristonda esa uchta darvoza borligi e’tirof etiladi. Al-Muqaddasiy, shuningdek, yuqoridagi fikrlarni tasdiqlab, Sag‘oniyon shahri Ramiuga, uning viloyati esa Falastinga o‘xshashligini, uning pishiq g‘ishtdan terilgan baland ustunli, ravoqsiz masjidi bozorning o‘rtasida joylashganligini, shaharning har bir mahalla va uyxonadonlariga sopol suv quvurlari o‘tkazilganligi aytilgan. X asrning ko‘zga ko‘ringan yirik olimi Istarixiyning shogirdi sayyooh geograf Ibn Xavqal (Abulqosim ibn Xavqal an-Nasibiy) uztozining iltimosiga ko‘ra “Kitob ul-masolik”ning xatolarini tuzatib, unga xaritalar ilova qiladi. Ibn Havqal o‘zining “Kitob surat al-ard” (“Yerning shakli”) nomli asarining Movarounnahr qismiga tarixiy voqealarni kiritib, kitobning qimmatini oshirishga erishadi. Sag‘oniyon Amudaryoga Termiz shahridan pastroqda qo‘shilishini tasvirlagan Ibn Xavqal o‘z asarida Istarixiy qo‘llagan “qal‘a” atamasini ishlatmaydi, balki faqat kuhandiz-eski qo‘rg‘on haqida ma’lumot keltiradi.

3.5. Termiz shahri ilk va o‘rta asrlar davrida

Termizda dastlabki arxeologik qazishma ishlari 1926 – 1927 - yillarda B.P.Denike, 1936-1938 -yillarda M.V. Masson rahbarligidagi Termiz arxeologik kompleks ekspedisiyasi tomonidan olib borilgan. Eski Termizda arxeologik qazishma ishlari keyinchalik Sh.Pidaev, T.Annaev tomonidan davom ettirilib, shahar tarixi yanada oydinlashtirildi.

Arab va yunon manbalarida keltirilgan ma’lumotlar Termizning Sharqdagi qadimgi shaharlardan biri ekanligidan dalolat beradi. Shaharning qulay geografik o‘rni, strategik ahamiyatga molik joyda

bo‘lganligi, sharqni g‘arb, janubni shimol bilan bog‘lovchi savdo chorrahasida barpo etilishi, uning tez sur’atlar bilan rivojlanishiga zamin yaratgan. Buyuk ipak yo‘linint muhim bir tarmog‘i ham Termiz orqali o‘tgan.

Qadimgi Sharq stivilizatsiyasining shakllanishida Termizning o‘ziga xos o‘rnii bor. Ko‘hna Termizning qal’a qismida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari va yozma manbalarning tahliliga ko‘ra shaharga miloddan avvalgi 1 - ming -yillikning o‘rtalarida asos solingan. Termiz Sug‘diyona, Xorazm, Marg‘iyona va Parfiya davlatlari bilan madaniy va savdo aloqalarini o‘rnatgan. Topilmalarga qaraganda shaharning Hindiston bilan madaniy va savdo aloqalari ham juda faol va uzviy bo‘lgan.

Termizning qadimgi tarixiga biroz to‘xtalib o‘tamiz. Miloddan avvalgi IV - III asrlarda 10 ga. maydonni egallagan Termizning qadimgi qal’asi o‘rnida aholi manzili bo‘lgan. Hofizi Abruyning yozishicha, shahar nomi “Taramastxa” (baqtriycha “narigi sohildagi manzil”) so‘zidan olingan bo‘lib, asrlar davomida turlicha atalib kelgan (masalan, Antioxiya, Demetrias, Tarmid, Tarmiz, Tami, Tamo), X asrdan Termiz deb atala boshlagan.

Termiz miloddan avvalgi III - II asrlarga kelib Baqtriyaning eng rivojlangan, siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylandi. Ashyoviy dalillarga ko‘ra bu davrlarda shaharda me’morlik va hunarmandchilikning bir qancha sohalari (kulolchilik, degrezlik va metallsozlik, shishasozlik), Salavkiylar, Yunon-Baqtriya shohlari tovar-pul muomalasi Movarounnahrning boshqa shaharlariga qaraganda ancha oldin rivojlanganligidan dalolat beradi.

Termiz shahri kushonlar sultanati davrida va o‘rta asrlarda o‘z taraqqiyotining eng rivojlangan bosqichiga ko‘tarilgan. Termiz shahrining gullab yashnagan davri Kushonlar hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda Termiz hududiy jihatdan kengayib, Shimoliy Baqtriyaning yirik shahriga aylangan. Shaharda shu davrga oid me’morlik va hunarmandchilik binolari va namunalari, turli nafis sopol va shisha idishlar, fil suyagi, qimmatbaho metall va toshlardan tayyorlangan zargarlik buyumlari kabi topilmalarning ko‘plab qayd qilinishi buning dalilidir. Masalan, Dalvarzintepadan topilgan va fil suyaklaridan yasalgan shaxmat donalari (fil va ho‘kiz-zebu shaklida) hozirgi kunda yer yuzida aniqlangan eng qadimgi shaxmat donalari (milodiy II asr) hisoblanadi. O‘sha davrda Termiz Kushonlar

davlatining muhim shahri va buddizmning markazlaridan biri bo‘lgan.

Shaharning eng qadimiy nomi arman manbalarida (IV-V asrlarda) “Drmat” deb atalgan VII asrlarga oid xitoy manbalarida “Tamm”, XIV asrga oid xitoy manbalarida “Talima” deb qayd qilingan. IX-XI asrlarga oid arab-fors manbalarida “Tarmid”, ”Tarmiz” va ”Tirmiz” shaklida bo‘lgan.

XII asrda yashagan tarixchi Samoniyning ma’lumoticha ”Tarmiz” so‘zi qadimdan ma’lum bo‘lgan. IX-XII asrlarda shaharda zarb qilingan tangalarda ham ”Tarmiz” so‘zi qayd etilgan. Kushonlar davrida Baqtriyada yuzlab shahar va qishloqlarga asos solingan. Mana shunday shaharlardan biri bu Termiz. Kushonlar hukmronligi davrida shimoliy baqtriyaning eng katta shaharlaridan biriga va poytaxtga aylangan. Hunarmandchilikning turli tarmoqlari kulolchilik, metalsozlik, toshtarozlik rivojlangan. Termizlik kulollar tayyorlagan ko‘zalar, qadahlar, tog‘oralar va boshqa uy-ro‘zg‘or bo‘yumlari o‘zining sifati bezirim shakli va naqshlari bilan ajralib to‘rgan. Bu buyumlarni shahar aholisi va boshqa shaharlarga ham sotishgan. Kushonlar davrida Termizda savdo-sotiq ham rivojlangan. Madaniy va mafkuraviy hayotida buddizm alohida o‘rin egallagan.

Eftalitlar va sosoniylar milodning V asrida Eron bilan bir necha bor jang qilib, uning sharqdagi, xususan Baqtriya va Parfiya yerlarini tortib oladi. Eftalitlar va sosoniylar Eroni o‘rtasidagi harbiy harakatlar Baqtriyadagi shahar qishloqlarga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shahar aholisining ko‘pchiligi shaharni tashlab ketdilar. Termiz hayotida ham shu holat sodir bo‘ldi. Natijada Termiz shahri kichik bir shaharchaga aylanib qoldi. Termiz hokimligi yarim mustaqil davlat bo‘lib, avval eftalitlar, so‘ngra turk hoqonligi tarkibiga kirgan. Termiz ilk o‘rta asrlarda yirik port shahar bo‘lgan.

Shaharni Termizshohlar idora qilgan. O‘scha davrda Termiz Termizshohlar hokimligining poytaxti bo‘lib turgan. Arablar bosib olgan davrda (686 - 704) Termiz 70 gektarga yaqin maydonni egallagan, to‘rtburchak shaklidagi qal’adan iborat bo‘lgan.

“Jayxun bo‘yidagi ko‘rkam va obod shahar Termiz bo‘lgan. Qal’asi daryo bo‘yida, bo‘lib ulkan bozori mashhur, Xuttalon va Chag‘oniyon ahli shu yerda savdo qiladi”, deb X - asrda yozilgan ”Hudud ul-Olam” asarida ta’riflangan.

Arab lashkarboshisi Musa Ibn Abdulloh 689 -yili Termizni bosib oladi va shu yerdan turib Mavarounnahrning katta qismini boshqargan. 704 -yilda Muso ibn Abdulloh turk xoqonligi va mahalliy hokimlarning birlashgan qushinlarining zarbasiga uchraydi.

XX asrning 20-yillarida Termiz shahrining o‘rtalasrlar davri tarixi va shahar madaniyatini sharhlashda asosiy manba bo‘lib akademik V.V.Bartoldning asarlari muhim manba bo‘ladi. “Turkiston mo‘g‘ullar bosqini davrida” nomli asarida Termizda mavjud bo‘lgan qishloq va shaharlar to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

1936-1938 -yillarda Eski Termizdagi Termizshohlar saroyi o‘rganilib, Termizning o‘rtalasrlar davri mudofa devorlari, temirchilar mahallasi o‘rganilib Termiz shahrining o‘rtalasrlar davri tarixiy topografiyasi ishlab chiqildi.

X-XII asr boshlarida Termiz ravnaq topgan. Toxaristonning yirik shahri, hunarmandchilik va savdo markaziga aylangan. Bu davrda Termiz hududi 500 ga dan ortiq maydonni egallagan. Shaharda bir qancha mahobatli binolar barpo etilgan. Shulardan Eski shahar qismida Termizshohlar saroyi saqlanib qolgan. XI-XII asrlarda ayniqsa shaharlar kengayadi, aholisining soni ko‘payib, ular yanada gavjumlashadi. Samarqand, Buxoro, Termiz, O‘zgan, Toshkent kabi shaharlar ichki va tasnqi savdo uchun xilma-xil hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan hamda chaqa-tangalar vositasi bilan olib boriladigan bozor tijoratining markaziga aylanadi. Shaharlar markazida shohona saroylar, masjid, madrasa, minora kabi ko‘plab mahobatli imorallar qad ko‘taradi.

Shahar ichi va uning atrofida savdo va hunarmandchilik mahallalari, karvonsaroylar va bozorlar barpo etiladi. Bu davrda shaharlarda ayniqsa, kulolchifik, shishasozlik, misgarlik va chilangularlik rivoj topadi. XI-XII asrning sirli koshinkor va qabartma naqshli sopol idish va tovoqlari, rangdor shisha buyumlari, naqshinkor mis idishlari o‘zining xilma-xilligi va yuqori darajada nafisligi bilan ajralib turadi. Hunarmandchilikning taraqqiy etishi hamda ichki va tashqi savdoning kengayishi bilan bozor tijoratida pulga talab oshadi. Natijada qoraxoniyalar va ularning viloyat hokimlari eloqxonlar tomonidan kumush va misdan ko‘plab chaqa va tangalar zarb qilinadi.

Shaharda temirchilik, shishasozlik, kulolchilik rivojlangan. Termizda tayyorlangan hunarmandchilik buyumlariga talab yuqori bo‘lgan. Shaharda o‘nlab karvonsaroylar faoliyat ko‘rsatgan. O‘sha davrda Termiz yirik madaniyat va ilm-fan markazi sifatida ham nom qozongan. Termizlik olimu-ulamolar o‘rta asr Sharqining fan, madaniyat va ma’rifatiga o‘z hissasini qo‘shgan.

Termiz IX asrlarda kichik bir shaharcha bo‘lgan. X asrdan boshlab sekin-asta kattalashib borgan. Shahar aholisi ko‘payib, yangi maydonlarni o‘zlashtira boshladilar. X asr boshlarida Termiz qal’a, shahriston va rabotdan tashkil topgan. Shahar qal’ai Jayhun daryosi bo‘yida hokimning saroyi joylashgan.

Termiz shahri uchun IX-XII asrlar gullab yashnash davri bo‘ladi, u yirik feodal shahar, ma’muriy savdo, hunarmandchilik markaziga aylanadi. Shaharda temirchilar mahallasi besh getkar yerni ishg’ol etardi, temirchi hunarmandlar qishloq xo‘jaligi va turmush uchun zarur bo‘lgan boshqa qurol va ashyolar tayyorlar edi. Qurolsozlar, simgarlar, shishadamgarlar ishi va simobdon ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yildi, bunday idishlarda simobdan tashqari boshqa suyuq jismlarni, ya’ni xalq tabobatida qo‘llanadigan xushbo‘y birikmalar muattar (molekulasi tarkibiga bir yoki bir necha benzol yadrosi bo‘lgan organik birikmalardan iborat) dori-darmonlarni saqlash mumkin edi. Shaharda sopol idishlar ishlab chiqarishda va uni sirlash shaklining turli-tumanligi, mustahkamligi hamda sifati ancha oshdi.

Shahar XI asrda jadallik bilan rivojlandi, uning sug’orish tarmog’i rivojlandi, u har jihatdan o‘sdi. Shaharning jadal ravishda o‘sishi bilan ahvol ham yangilandi, binolar tashqi qiyoqasi o‘zgardi, shaharning yangi qismi rivojiga yirik inshootlar bozor, hunrmandlar mahallasi qurilishiga katta ahamiyat beriladi. Ilgari qurilgan devorlar pishiq g’isht bilan qoplanadi. 1073-1074 -yillarda Malikshoh topshirig’i bilan shahriston devorlari yana mustahkamlanadi. Arab zamin bitikchisi Maqdisiy (X asr)ning yozishicha Termizdasovun va muattar (xushbo‘y)ni ko‘plab ishlab chiqarish va uni chetga sotish keng yo‘lga qo‘yilgan. Termiz hunarmandlari sharq bozorlarida baliq, kir yuvish ishqori, qo‘lda to‘qilgan matolari bilan shuhrat topganlar. Hatto, vizantiyalik savdogarlar Termizdan kelib paxta olib ketishgan, o‘z galida Termiz bozorida boshqa shaharlardan keltirilgan mahsulotlar bilan savdo qilingan. Manbalarning guvohligicha, XI-XII asrlarda faqat Termiz shahrining ichida 16 mingdan ziyodroq aholi

yashagan, bu o‘rta asr sharoitida katta ko‘rsatgichdir. Shaharda jamoa va xususiy qurilishlar XI-XII asrlarda avjga chiqadi, g’ishtga bo‘lgan talab o‘sadi, uni ishlab chiqarish kengayadi. G’isht ishlab chiqarish va yangi g’isht quyish maydonlari bir necha gektarga kengayadi hamda katta hududni egallaydi, endilikda bu yerda 20 dan ortiq g’isht pishiradigan xumdonlar paydo bo‘ladi. Termiz shahri XI-XII asrlarda galma-gal G’aznaviylar, Saljuqiylar va Qoraxoniylar qo‘liga o‘tib turganli tarixiy manbalarda to‘liq ifodasini topgan. Shu davrda shaharda shohlar saroyi quriladi va uni Termizshoh unvonli hukmdor idora qila boshlaydi. Shahar yana obod bo‘ladi, tijorat va hunarmandchilik rivojlanadi.

XI-XIII asrlarda Termiz O‘rta Osiyodagi katta shaharlardan biriga aylandi. Termizda ishlab chiqarish va sovdo-sotiq rivojlandi. Termizda sovun ishlab chiqarish yo‘ga qo‘-yildi va boshqa shahalarga borib sotildi. Rivoyatlrga qaraganda Termiz bozorlari shovqinini hatto Balxga ham eshitilgan. Shuning uchun shahar bozoriga “shahri g‘ulg‘ula” deb nomlangan.

1220 -yilda Termiz mo‘g‘ullar tomonidan vayron qilib tashlangan. Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida qayd qilinishicha, Termiz aholisi mo‘g‘ullarga qattiq qarshilik ko‘rsatgan va shu bois shahar “Madinat ur-rijol” (“Mardlar shahri”) deb ham atalgan. Mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng, XIV asrda Termiz Surxonaryo sohiliga yaqin joyda yangidan qadimgi ko‘tardi. Shahar o‘z o‘rnini bir necha bor o‘zgartirsada, asrlar davomida o‘z nomini Tarmita, Antioxiya-Tarmita, Tarmiz, Tirmiz, Termiz ko‘rinishlarida saqlab kelgan.

XII-XIV asr Xitoy manbalarida aytishicha, Termiz eski va yangi shahardan iborat bo‘lgan. Bir necha yuz oilani tashkil qiluvchi aholi chorvachilik bilan shug‘ullangan, Amudaryoning sharqida joylashgan Tislimi shahri baliqlari bilan mashhur bo‘lgan, to‘qay va qamishli chakalakzorlar g‘arba tomon cho‘zilib ketgan. Ibn Battuta “Sayohatnama”da yangi Termizning tasviri shunday berilgan: “Bu chiroyli imoratlari va bozorlari ko‘p bo‘lgan yirik shahardir, uni boshdan-oyoq anhorlar kesib o‘tadi, bog‘lari ham juda ko‘p. Ayniqsa, uzum bilan behisi juda shirin, go‘sht, sut juda serob”. Sayyoh Xorazmda bo‘lganida, u yerga daryo orqali o‘n kun muddatda Termizdan bug‘doy va so‘li keltirilganiga guvoh bo‘ladi.

3.6. Amir Temur va temuriylar davrida Termiz shahri

Amir Temur 1370 -yil Movarounnahrni egallagach, Termiz Surxondaryo vohasi bilan birga Temur davlati tarkibiga kirdi. Surxon vohasining rivojida Amir Temur shaxsining alohida o‘rni bor. Keyingi tarixiy izlanishlar shu narsani aniq ta’kidlamoqdaki, Amir Temurning davlat boshqaruv faoliyatida Surxon vohasining o‘ziga xos o‘rni bo‘lib, uning janubiy mamlakatlar bilan olib borgan jamiki harakati Termiz bilan bog‘liq edi. Amir Temur o‘z armiyasiga yangi kuch qo‘shib, uning iqtisodiy ta’mintonini Termizda mustahkamladi.

Amir Temurning Termizga yaqin Biyo qishlog‘ida to‘xtab, “Temur tuzuklari”da qayd etilgan: “Birinchisi - davlat va sultanatimga bog‘langan mening birinchi tuzugim - Tangri taolonning dini va Muhammad Mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim. Har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim” degan fikrni bildirgan. Chunki, Biyo qishlog‘ida Amir Temur Makkayu Mukarrama sayyidlarining boshlig‘i Sayyid Baraka bilan uchrashadi.

Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida ko‘hna Termiz haqida ma’lumot berar ekan, 1399-yil 11- sentabrda Kesh (Shahrisabz)dan Balxga borayotgan Amir Temur bir necha termizlik sayyidlarning qabrlarini, jumladan, Xoja Muhammad Ali Hakim Termiziyl va Shayx Abu Bakr Varroqning mozorlarini ziyorat qilib o‘tganligini eslatadi. Amir Temur 1404 -yilning yozida Balxdan orqaga qaytayotganida ham Termiz sayyidlaridan Xudovanzoda A’lo al-muluk xonardonida to‘xtab o‘tadi. 1404-yilning kuzida Ispaniya qiroli Genrix III ning elchisi Klavixo ham Termizda bo‘gan edi. Rui Gonsales de Klavixonning “Samarqandga, Temur huzuriga sayohat kundaligi” (1403-1406 yy) dagi ma’lumotga ko‘ra, Temur Xurosonga qilayotgan yurishida Amudaryoga qayiq ustida turuvchi yog‘och ko‘prik qudiradi va qo‘shinlar o‘tib bo‘lgach, uni buzdirib tashlaydi. Bu davrda Kichik Hindiston deb ataluvchi mazkur hudud Balk tumaniga qarashli edi. Termiz tumaniga tegishli qadimgi kechuv joylari Sho‘rob va Cho‘chqa Guzar Aleksandr Makedonskiygacha ham bor edi, bu joylar ilgari Kichik Hindistonga bo‘ysungan bo‘lsa, endi Amir Temur tomonidan Samarqand sultanatiga bo‘ysundirildi, deb qayd etildi. Sohibqiron saroyiga Kastiliya va Lion qiroli Genrix III nomidan elchi bo‘lib kelgan Rui Gonzalis de Klavixo Termiz shahrini shunday ta’riflaydi: “Termiz juda katta va aholisi zich, unda tashqi devor mudofaa istehkomlari yo‘q. Shahar atrofida ko‘plab bog‘lar va anhorlar joylashgan. Bu shaharga kirganimizdan so‘ng

doimo xilma-xil mollar sotiladigan gavjum ko‘cha va maydonlardan yurib bordik. Bu shahar elchilarga ko‘p marotaba marhamat ko‘rsatdilar”. Xuroson hukmdori Shohrux Mirzoning Anhud va Balx viloyatlarida ta’siri kuchayishidan tahlikaga tushgan Xalil Sulton 1407-yilda Amudaryo bo‘ylab joylashgan Termiz qal’asini qayta tiklagan. 1431-yili Shohruh Mirzo topshirig‘iga ko‘ra yozilgan Hofizi Abruning geografiyaga doir asarida Amudaryoning Orol dengiziga emas, balki Kaspiy dengiziga quyilishi, Movarounnahr va uning yirik shaharlari Buxoro, Samarcand, Kesh, Nasaf, Termiz, Xo‘jand haqida ma’lumotlar berilgan. Hofizi Abru Termiz shahri bilan qal’a bir joyda, bundan tashqari, Termiz tashqi shaharga ham ega ekanligini, imoratlar paxsadan qurilgan, bozor va jome masjidi shaharning markazida bo‘lganligini ta’kidlaydi. Buyuk geografik kashfiyotlar arafasida bo‘lgan Temur davri butun Turon zamin xalqaro savdosining yuksak rivojlangan bosqichi bo‘lib hisoblanadi. Kichik Hindiston (g‘arbiy Yevropa adabiyotida Kichik Hindiston va Eron oralig‘idagi hududlar, ya’ni Afg’oniston, Belujiston va Mekron nazarda tutilgan) dan Samarcand sari yo‘l olgan karvonlar Termiz kechuvidan o‘tgan. Bundan ko‘rinadiki, Surxon vohasi hududi Temur davri savdosida muhim ahamiyat kasb etgan. Temur va temuriylar davrida vohada nafaqat savdo, balki iqtisodiy hamda madaniy siljishlar ham yuz bergenini XIV-XV asrlarga oid bo‘lgan 80 dan ortiq obidadan topilgan ashyoviy manbalar isbot eta oladi. Bu yodgorliklardan qazib olingan, sifat darajasi bilan Xitoy chinnisiga tenglashgan sopol buyumlar, zargarlik namunalari, me’moriy koshinlar Surxon vohasi amaliy san’atining Temur davlati markaziy shaharlari madaniyatini bilan hamohang taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

1407 -yilda Temuriy Xalil Sulton farmoni bilan daryo sohilidagi Termiz qal’asi qayta tiklandi. Ko‘p o’tmay o‘z tangalarini zarb etadigan katta shaharga aylandi.

1504 - 1505 -yillarda shaharni Shayboniyxon egalladi. Keyinchalik turli sulolalar tasarrufida bo‘lib, XVIII asrning 2 - yarmida shahar o‘zaro urushlar natijasida butunlay vayron qilingan. Faqat, uning atrofidagi Pattakesar va Solihobod qishloqlari saqlanib qolgan.

Mustaqillik yillarida shaharlarning va mutaffakirlarning yubiliylari keng nishonlandi. Jumladan, Termizda islom dini arboblaridan Hakim at-Termiziy, Shaxobuddin Sobir Termiziy,

Muhammad ibn Hamid Termiziy, Abu Bakr Varroq Termiziy kabi olimlar yashab o'tishgan. Termizda 1999 - yilda Alpomish dostonining 1000 yilligi, 2002 - yilda xalqaro miqyosda Termizning 2500 yillik yubileyi o'tkazildi.

Nazorat uchun savollar

1. Termizning qadimgi nomlarini bilasizmi?
2. TAKE haqida ma'lumot being?
3. Kushonlar davrida Termizda hayot tarzi qanday bo'lgan?
4. Termiz Temuriylar davrida
5. Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida Termiz shahri haqida
6. Termizning 2500 yillik yubileyi qachon o'tkazilgan?

Test topshiriqlari

1. Budrochtepaga o'rta asrlarda qanday nom bilan atalgan?
A Chag'oniyon
B Zaxartepa,
S Oqmozortepa
D Qoramurchepa
2. Termiz shahrini shunday ta'riflaydi: "Termiz juda katta va aholisi zich, unda tashqi devor mudofaa istehkomlari yo'q
A Rui Gonzalis de Klavixo
B Sharafuddin Ali Yazdiy
S Ibn Battuta
D Hofizi Abru
3. Budrochtepaga qadimiy shahar Surxondaryo viloyati qaysi tumanida joylashgan
A Denov tumanida
B Sariosiyo tumanida
S Angor tumanida
D Zartepa tumanida
4. Kuyovqurg'on ilk o'rta asrlarga oid badavlat dehqon qo'rg'oni Surxondaryoning qaysi tumanda joylashgan
A Angor tumanida
B Denov tumanida
S Zartepa tumanida
D Sariosiyo tumanida

5. “Bu chiroyli imoratlari va bozorlari ko‘p bo‘lgan yirik shahardir, uni boshdan-oyoq anhorlar kesib o‘tadi, bog‘lari ham juda ko‘p ta’rifi kimga ta’luqli?
- A Ibn Battuta
B Rui Gonsalis de Klavixo
S Sharafuddin Ali Yazdiy
D Hofizi Abru
6. Surxondaryodan qaysi makondan XII, XV, XVI - asrlarga oid arab yozuvlari bor
- A Qorakamarda
B Zaxartepa,
S Oqmozortepa
D Qoramurchtepa
7. Termiz deb atala boshlagan...?
- A X asrdan
B IX asrdan
S VII asrdan
D XI asrdan
8. Manbalarning guvohligicha, XI-XII asrlarda faqat Termiz shahrining ichida qancha aholi yashagan?
- A 16 mingdan ziyodroq aholi yashagan
B 14 mingdan ziyodroq aholi yashagan
S 10 mingdan ziyodroq aholi yashagan
D 20 mingdan ziyodroq aholi yashagan
9. Chag‘oniyon qadimiy shahar bo‘lib arabchada nima deb yuritilgan?
- A Sag‘oniyon
B Qoratepa
S Zartepa
D Xolchayon
10. Frizlar 1-2-asrlarga oid bo‘lib, ularda qo‘schnay, chiltor, ud, nog‘ora chalayotgan sozandalar va gulchambarlar, meva solingan idishlar ko‘tarib olgan yigit-qizlar ifodalangan?
- A Ayrитомда
B Dalvarzintepada
S Xolchayonda
D Qoratepada

Manba va adabyotlar

1. Аннаев Т., Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. Тошкент, 1997.
2. Асқаров А. Энг қадимги шаҳар. Тошкент, 2001
3. Алламберганов М. Қадимий мудофа деворлари. Тошкент, 2007.
4. Норқулов Н., Низомиддинов Н. Миниатюра тарихидан лавҳалар. Тошкент, 1970.
5. Пидаев Ш. Сирли кушонлар салтанати. Тошкент: Фан, 1990.
6. Ўзбекистон тарихи моддий маданият ва ёзма манбаларда. Масъул муҳаррир Анорбоев. Тошкент: Фан, 2005.
7. Қораев С. Топонимика. Тошкент, 2006

4 - mavzu: Qarshqadaryo vohasi shahrlar urbanizatsiyasi Reja:

- 4.1. Kesh tarixiy hujjatlarda
- 4.2. Shahrisabz - Qashqadaryo viloyatidagi shahar
- 4.3. Yerqo'rg'on, Kishmishtepa, Kojartepa, Kasbitepa qadimgi shahrlar
- 4.4. Amir Temur va Temuriylar davrida Qashqadaryo vohasi shaharsozligi
- 4.5. Qashqadaryodagi me'moriy yodgorlilar

Tayanch so‘z va iboralar: Kamaytepa-Kesh, Kitob - Shahrisabz vohasi, Sharafuddin Ali Yazdiy, Oqsaroy majmuasi, Husamota majmuasi, Hazrati Imom maqbarasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2002 -yilda 29 martda Shahrisabzning 2700 -yil yubileyi, “Dilkash”, Qubbatul ilm val-abad

4.1. Kesh tarixiy hujjatlarda

Kesh tarixiy shahar hisoblanib, arab manbalarida Kashsh, Kass, Kise nomlari bilan tilga olingan. Hozirgi Qashqadaryo viloyatining shimoliy-sharqiy qismini egallagan. Dastlab Kesh Kitob o‘rnida bo‘lgan, keyin IX-X asrlarda Shahrisabz hududiga ko‘chgan. Kesh nomining xitoycha transkripsiysi birinchi marta VII asrga oid xitoy yozma manbalarida Syuysha shaklida uchraydi. Uning sug‘d tilidagi nomi esa VII asr oxiri VIII asr boshlarida hukmdorlik qilgan Kesh hokimi Axurpat tangalarida hamda VIII asr o‘rtalarida Keshni idora

qilgan hokim Ixridning dastlabki arabcha fale (tanga) larida ilk bor zikr etilgan. “Kesh” atamasining kelib chiqishi Qashqa-Qashqrud nomi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. A.Muhammadjonov fikrga ko‘ra, “Kesh” toponimining ma’nosи ilk bor uy, qishloq, shahar, poytaxt, viloyat, el-yurt, diyor, hatto “Kishvar” shaklida esa mamlakat va Vatan kabi ma’nolarni anglatgan. Xitoy yozma manbalarida qayd etilishicha, hokim Digja (Dichje) (VI asr oxiri VII asr boshlari) Keshga asos solgan bo‘lib, o‘sha vaqtida shahar aylanasi 1 km ga yetgan. Arab tarixchisi Yaqubiyning yozishicha, Kesh milodiy VII asr o‘rtalarida yuksalib, Sug‘dning bosh shahriga aylangan.

Kesh bu davrda hunarmandchilik, savdo-sotiq, madaniyat yuksak rivojlangan shaharga aylanib ark, ichki va tashqi shahardan iborat bo‘lgan. Ichki shahar mudofaa devori va 4 darvozaga ega edi. VI asrda arkning g‘arbiy qismida shahar hokimi Digja tomonidan yangi qarorgohga asos solingan. VII asr oxiri VIII asrning 1-yarmida Keshni arablar bir necha bor fath etgan. 751 - yilda Kesh hukmdori Ixrid Xuroson noibi Abu Muslim buyrug‘i bilan qatl qilingan bo‘lib, at-Tabariyning guvohlik berishicha, arablar Keshda katta o‘ljani qo‘lga kiritganlar. 775-776 - yillarda Kesh viloyati Muqanna qo‘zg‘olonining asosiy markazlaridan biri bo‘lgan. Somoniylar davrida Kesh hududi eni va bo‘yiga 1/3 farsax (2 km ga yaqin) maydonini tashkil etgan. Bu vaqtida aholi Keshning ko‘handiz va madinasini tark etgan bo‘lib, hayot faqat uning rabodida davom etayotgandi. Asta-sekin aholi rabodni ham tark etib, hozirgi Shahrisabz o‘rnida yangi shaharga asos solgan. Arxeologik tekshiruvlar Kitob o‘rnidagi Keshning aynan shu vaqtida barham topganligini isbotladi. Keshning bundan keyingi tarixi Shahrisabz bilan bog‘liq bo‘lib, bu nom XIV asrda xalq ongiga uzilkesil o‘rnashgan. Shunday bo‘lsada, shaharning qadimgi nomi talay vaqt uning yangi nomi bilan bir qatorda aytilib yurgan.

Shaharda ilm-ma’rifat rivoj topishi oqibatida “Koshiy, Keshiy” taxallusi bilan mashhur olim-fozillar etishib chiqqanligi tufayli Kesh shahri , “Dilkash”, Qubbatul ilm val-abad, ya’ni “Ilm va ta’lim gumbazi” degan sifat bilan shuhrat topgan.

4.2. Shahrisabz - Qashqadaryo viloyatidagi shahar

Shahrisabz O‘zbekistonidagi qadimgi shaharlardan biri. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, shaharga miloddan avvalgi 1 - ming - yillikning o‘rtalarida asos solingan. Shahrisabz 1926 -yilda tumanining ma’muriy markazi deb belgilangan. Kitob Shahrisabz vohasida joylashgan.

Shahrisabz janubidan Tanxozdaryo, shimolidan Oqsuv daryosi oqib o‘tadi. O‘rtacha balandligi 658 m. Shahrisabz milodiy boshlarida va ilk o‘rta asrlarda turli nomlar bilan atalgan. XIII asrdan Shahrisabz nomi ham urf bo‘lgan.

Mo‘g‘ullar istilosи davrida shahar tarixi yozma manbalarda deyarli yoritilmagan. 1351 -yilda zarb etilgan kumush tangalarda “Shahrisabz” nomi uchraydi. Sharafuddin Ali Yazdiy shahar to‘g‘risida: “Shahrisabz, uni turkiylar Kesh deb ataydilar” deb yozgan. Shahrisabz yaqinidagi Xoja Ilg‘or qishlog‘i hozirgi Yakkabog‘ tumani hududida Sohibqiron Amir Temur tavallud topgan. Shahrisabz o‘sha davrda “Qubbat-ul-ilm va-l-adab” nomi bilan yuritilgan. Xusrav Dehlaviy, Bedil, Mirzo G‘olib kabi allomalarining ota-bobolari Shahrisabzda tug‘ilgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida Shahrisabz ulkan sultanatning yirik shahriga, barlos beklarining yozgi qarorgohiga aylantirilgan. Oqsaroy va Dor us-siyodat majmuasi qurilgan. Shahar atrofi qal‘a devori bilan o‘rab olingan. Ispaniya elchisi Klavixo o‘z kundaligida Shahrisabzda ko‘plab mahobatli binolar va masjidlar borligini va qurilayotganligini ta’kidlaydi. Keyinroq ham ko‘plab me’moriy obidalar (Dar ut-tilovat majmuasi, Ko‘k gumbaz masjidi va boshqalar) qurildi. Hofizi Abru shaharda ko‘hna devor (bandi qadim) bo‘lganligi, biroq u XV asr boshlarida buzilib ketganligini ham yozadi. O‘sha paytda Shahrisabzning 4 darvozasi: Ark (shimoliy), Kunchiqar (sharqiy), Kushxona (g‘arbiy), Termiz (janubiy) darvozalari bo‘lgan.

1556 -yilda Shahrisabzni Abdullaxon II egallagan. Keyinchalik Shahrisabz - Buxoro xonligining Qarshi viloyati tarkibida bo‘lib kelgan. XVI asr o‘rtalarida ham Shahrisabz mustahkam mudofaa devorlari bilan o‘ralgan edi.

Mahmud ibn Vali (XVII asr) o‘zining “Bahr al-asror” (“Sirlar dengizi”- “Geografiya”) asarida Shahrisabzni quyidagicha ta’riflagan: “Kesh - Movarounnahr shaharlaridan biri, yam-yashil bog‘lari va ko‘zga quvonch baxsh etuvchi gulzorlari tufayli u hozir Shahrisabz nomi bilan shuhrat topgan. U jahondagi eng chiroyli shaharlardan biri hisoblanadi; iqlimi juda yaxshi va diltortar...”

Ashtarkoniylar davrida Shahrisabz siyosiy mavqeini ancha yo‘qotgan. Shahrisabzda hokimiyat uchun kurashda avval mang‘itlar, so‘ngra qo‘ng‘irotlar urug‘i g‘olib chiqib markaziy hokimiyat - Buxoro xonligini tan olmaslikka urinishgan. XVIII asr 1 -

choragida Dashti Qipchoq qozoqlari Zarafshon va Qashqadaryo vohalariga talonchilik hujumlari uyushtirganda Shahrisabzda bir necha muddat shahar hayoti izdan chiqqan. 1750 - 1752 ylardan Shahrisabz Buxoro amirligi tasarrufiga o'tdi. XVIII asr o'rtalarida shahar qaytadan qad rostlagan.

Shahrisabz hokimi Bobobek, Kitob begi Jo'rabek, amir Muzaffarning katta o'g'li Abdulmalik (Katta to'ra) boshchiligidagi katta qo'shin bilan 1868 - yilda ruslar bosib olgan Samarqand shahrini qaytarib olish uchun otlanishgan, ammo chekinishga majbur bo'lganlar. 1870 - yilda avgustda Turkiston gubernatori K.P.Kaufmanning buyrug'i bilan general Abramov qo'mondonligidagi maxsus qo'shin Shahrisabz va Kitobni bosib olgan. Biroq rus qo'shini qo'mondonligi Shahrisabz va Kitobni Buxoro amiri tayinlagan beklarga topshirib, Samarqandga qaytishgan. Shahrisabz 1920 - yildagacha Buxoro xonligi tarkibida bo'lgan. asosiy qismi savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. XVIII - XIX asrlarda Shahrisabzda 6 darvoza, 7 karvonsaroy va 6 ta madrasa, bir nechta bozor, shahar tashqarisida Namozgoh masjidi bor edi.

1930 - 1940 -yillarda Shahrisabz shahridagi tarixiy yodgorliklarning ahvoli achinarli holda bo'lgan. Shahrisabz aholisining ko'pchiligi 1941-1945 -yillarda urushga safarbar etilgan.

Mustaqillik - yillarida Shahrisabz qiyofasi tubdan o'zgardi. Shahar markazi qayta qurildi. Shahridagi eng katta maydon - Amir Temur maydoni. Shahar markazidan eng katta Ipak yo'li ko'chasi o'tadi. 1996 -yil 18 oktabrda Amir Temurning ulug'vor haykali (haykaltaroshlar: Ilhom va Kamol Jabborovlar, me'mor Botir Usmonov tomonidan ishlangan) o'rnatilgan . Shahrisabz ahlining Temuriylar davri ulkan madaniy va ma'naviy merosi, noyob tarixiy yodgorliklarini asrab-avaylash, yosh avlodni buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari qilib tarbiyalash va ularni ozod mamlakatimiz buyuk istiqbolini yaratishga qodir kishilar qilib voyaga etqazish ishiga qo'shgan alohida xizmatlari e'tiborga olinib hamda sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 -yilligi munosabati Shahrisabz "Amir Temur ordeni" bilan mukofotlandi (1996 - yilda oktabr). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2002 - yilda 29 martda Shahrisabzning 2700 yillik yubileyini nishonlash to'g'risida qaror qabul qilindi. Ushbu yubiley butun

mamlakatimizda va Shahrisabzda keng nishonlandi. Bu tantanalarda YUNESKO vakillari ham qatnashdi. 2002 - yilda dekabr Shahrisabz Jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

4.3. Yerqo‘rg‘on, Kishmishtepa, Kojartepa, Kasbitepa qadimgi shaharlar

Yerqo‘rg‘on miloddan avvalgi IX-VIII asrlar va milodiy VI asrlarga ta’luqli qadimgi shahar. Qarshi shahridan 10 km shimolda joylashgan. Tarixiy manbalarda Baxl, Bolo, Valaam, Nashebolo deb tilga olingan. Yerqo‘rg‘onda dastlab Turkiston arxeologiya havaskorlari to‘garagi a’zolari L.I.Zimin, I. Kastane, 1946 -yil arxeolog A.I.Terenojkin , 1946-1972 - yillar (tanaffus bilan), 1959-1964 - yillar Ya.G‘ulomov, 1963-1964 - yillar M.V.Masson tekshirishlar olib borgan. 1973 - yildan O‘zbekiston FA Arxeologiya institutining Qashqadaryo ekspeditsiyasi qazish ishlari olib bordi. Mustaqillik yillarida arxeologik hududlarni o‘rganishga xorij texnika va texnologiyasi jalb etildi.

Yerqo‘rg‘on xarobasi qal’a va shahristondan iborat bo‘lib, umumiylar maydoni 150 ga, burjlar bilan mustahkamlangan 2 qator mudofaa devori bilan o‘ralgan. Ichki devori (balandligi 8 m gacha) beshburchak tarhli bo‘lib, taxminan 40 ga maydonni o‘ragan atrofi xandaq bo‘lgan. Unda qal’a, saroy majmuasi, ibodatxona, kulollar mahallasi, turar joylar va boshqalar joylashgan. Kulollar mahallasidan bir necha xona, ustaxona qazib ochilgan, uning tagidan eng qadimgi mudofaa devori qoldiqlari topildi (miloddan avvalgi VIII-VII asrlar). Ibodatxona sella (sajdagoh), bir necha kichik xona hamda ayvondan iborat bo‘lgan. Shahar ikkinchi qator devorlari ichidan daxma, maqbara, temirchilar mahallasi kavlab o‘rganilgan. Qazish vaqtida sopol idish (xum, xumcha, ho‘qacha, kosalar, tova, qozon, tog‘ora, qadah va boshqalar), diniy marosimlarda ishlatiladigan asboblar, ma’budalarning sopol haykalchalari, Naxshab tangasi (III-VI asrlar), so‘g‘d yozuvi namunalarini, muxr nussxasi topilgan.

Kindaklitepa - miloddan avvalgi IV milodiy VI-VII asrlardagi qadimgi qishloq. Qashqadaryo vohasining o‘rta qismida, Qorabog‘ qishlog‘i yaqinida joylashgan. Mazkur qishloq xarobasi o‘zi joylashgan tepalik (balandligi 12 m, maydoni 0,25 ga) ning shakliga ko‘ra shunday nom olgan. 1955-1957 -yillarda V.D.Jukov rahbarligida Qashqadaryo arxeologiya-topografiya ekspeditsiyasi bu yerda qazish ishlari olib borgan. Arxeologik tadqiqotlar vaqtida madaniy qatlamlar

orasida puxta qilib qurilgan bir qancha to‘rtburchak shakldagi inshootlar qoldiqlari borligi aniqlandi. Saqlanib qolgan devorlarning balandligi 0,7 m dan 3 m gacha, qalinligi 1,4 m dan 1,7 m gacha bo‘lib, ba’zilari xom g‘isht va ba’zilari paxsadan qurilgan. Kindaklitepadan sopol idishlar siniqlari, ko‘za va xumlar, qozon va o‘choqlar, suyak, tosh, mis, temir va shishadan qilintan buyumlar, chiroqdonlar, o‘g‘ir va yorg‘ichoqlar, sopol muhr va tugmalar, urchuq hamda to‘quvchilik dastgohlarida ishlatiladigan konussimon, bikonussimon va yassi yuk toshlari hamda kulolchilik dastgohlari bo‘laklari topildi. Urchuq va to‘quv dastgohlarida ishlatiladigan yuk toshlari to‘quvchilik Kindakitepa aholisining asosiy mashg‘ulotlaridan biri bo‘lganligini ko‘rsatdi. Mazkur ashyoviy dalillar va ilmiy tadqiqotlar natijasida Kindakitepa aholisining o‘troq tarzda hayot kechirib, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan mashg‘ul bo‘lganligi hamda keyinchalik suv tanqisligi oqibatida bu yerni tark etganligi aniqlandi.

Kasbitepa, (Kasba, Kasbi) - milodiy I-II va XIII asr boshlariga mansub qadimgi shahar. Qarshidan 35 km janubiy-g‘arbda joylashgan. Kasbitepaning eng quyi arxeologik madaniy qatlamlari milodning boshlariga oid. Hududi taxminan 2 ga bo‘lgan. 589 - yilda sosoniylar sarkardasi Bahrom Cho‘bin turkiy qavmlar ustidan zafar qozonib Kasbitepa qal’asini egallagan. Sosoniylarning Sug‘d bilan chegaradosh yerida qurilgan Kazbion qal’asi arman manbalarida V asr deb qayd etilgan. M.V.Massonning fikricha, bu qal’a Kasbitepa arki o‘rnida joylashgan. Arkning balandligi 18 m, maydoni 180x120 m ni tashkil qilgan. Uning atrofi devor bilan o‘ralgan. Janubiy-sharq tomon cho‘zilgan rabodning uzunligi 1 km.

Ilk o‘rta asr qal’asi va qishlog‘i o‘rnida X-XII asrlarda Kasbitepa shahri rivojlangan. X asrda Kasbitepa shahri manbalarga ko‘ra, hatto Nasafdan ham ulkan bo‘lgan. Shaharning jome masjidi, bozorlari bo‘lib, hunarmandchilik, shahar atrofida dehqonchilik taraqqiy etgan. Kasbitepa Buxoro-Nasaf-Termiz karvon yo‘lida joylashganligi tufayli yirik savdo markaziga aylangan. XIII asr boshi Mo‘g‘ullar istilosи natijasida vayron bo‘lgan. XVII asrda Kasbitepada “sayyidlar” xonadoni yashagan. Kasbitepa o‘rnida keyinchalik Kasbitepa qishlog‘i vujudga kelgan. Kasbitepada XI-XII asrlarga ta’luqli Sulton Mir Haydar nomi bilan mashhur maqbaralarning katta majmuasi saqlangan.

Kojartepa Qashqadaryo vohasidagi milodiy III – IV - XIII asr boshlariga ta’luqli qadimgi shahar. Dastlab qishloq va so‘ngra shahar maqomini olgan. Aholisi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullangan va shahar rivojlanib borgan. Shulluktepadan 15 km masofada joylashgan. Kojartepa ark va shahristondan iborat bo‘lib, atrofi qalinligi 4 m lik mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Kojartepa qal’asi III - IV asrlarda qurilib, uning atrofida qishloq vujudga kelgan. VII - VIII asrlarda mudofaa devori bilan o‘ralgan. IX-XII asrlarda Kojartepa vohaning kichik savdo-hunarmandchilik markazlaridan sanalgan. Mo‘g‘ullar istilosи davrida vayron bo‘lgan. Kojar qishlog‘i hozir ham mavjud.

Kishmishtepa - ilk o‘rta asr shahari bo‘lib milodiy V-XIII asrlarlarga ta’luqli. Qashqadaryo viloyatidagi Chiroqchi shahri yonida joylashgan. O‘rta asr manbalaridagi Xushminjakas yoxud Xushminchkat shahri Kishmishtepa o‘rnida bo‘lgan. Kishmishtepa ark, shahriston va keng raboddan iborat. Shahristonning umumiy maydoni 24 ga ni tashkil qilib, u mudofaa devori va xandaq bilan o‘rab olingan. Kishmishtepaning eng quyи qatlamlari milodiy V-VI asrlarga oid. Shahriston atrofidagi devor VII-VIII asrlarga mansub. IX - X asrlarga kelib shahar kengayib, vohaning yirik shaharlaridan biriga aylangan. XIII asr boshida mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng shahar vayron bo‘lib, hayot hozirgi Chiroqchi o‘rnida qayta tiklangan.

Kamaytepa - o‘rta asr shahari milodiy V-XVIII asrlarga tegishli. Qashqadaryo vodiysining o‘rta qismida, daryodan 1 km uzoqlikda. Chim qishlog‘i chekkasida joylashgan. 1964-1966--yillarda N.I.Krasheninnikova, S.B.Lunina hamkorligida Qashqadaryo arxeologiya-topografiya ekspeditsiyasi tomonidan o‘rganilgan. Kamaytepa 3 qismdan - ark, shahriston va raboddan iborat. Arkning balandligi 20 m deyarli to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida (190x175 m), shahriston g‘arbdan sharqqa cho‘zilgan, uzunligi 450 m, kengligi - 350 m. Arkka qiya yo‘lka (pandus) orqali ko‘tarilganlar. Arkdan ilk o‘rta asrlarga oid sopol idishlar topilgan. Hozirda ark ichidagi tepalik qabristonga aylantirilgan. Kamaytepadan topilgan terrakota (sopol) taxtachada 2 shoxli bosh kiyim kiygan, so‘l qo‘lida dumaloq meva (olma) tutgan, o‘ng qo‘lining panjalarini ochgan holda baland ko‘targan bir shaxsning tasviri (milodiy V asr) aks etgan.

Kindiktepa - o‘rta asrlarga ya’ni, milodiy VI-XII asrlar ta’luqli qishloq). Qashqadaryo viloyatidagi Yakkabog‘ tumanida joylashgan.

Dastlab G.Ya.Dresvyanskaya, so‘ngra S.B.Lunina (1980 -yildan) qazishma ishlari olib borgan. Kindiktepaning janubiy qismida maydoni 35x20 m keladigan baland tepalik bor. Kindiktepa aholisi qadimgi Bolxonariqdan suv ichgan. Kindiktepaning mudofaa devori bo‘lman. Qazishma ishlari markaziy tepalik VI-VIII asrlarda mahalliy zodagonning uy-qasri bo‘lganligi va uning atrofida qishloq vujudga kelganligini ko‘rsatdi. IX asrda uy-qasr tashlandiq holga kelgan va markaziy tepalikda hayot qayta jonlanmagan. X -XII asrlarda Kindiktepa yirik qishloqqa aylangan, u mana shu davrdagi bir qancha qishloqlarni (Poxoltepa, Katta Javog‘atepa, Kichik Javog‘a, Bo‘stontepa va boshqa) o‘z ta’sir doirasiga kiritgan kichik rustoqning markazi bo‘lganligi taxmin qilinadi. Kindiktepadan tarvuz urug‘i topilganligi aholining polizchilik bilan ham shug‘ullanganligini ko‘rsatadi. Turar joy binolari qoldiqlari, ko‘plab sopol idish parchalari va boshqalar chiqqan.

Shulluktepa - Qarshi vohasidagi o‘rta asrlarga oid yirik qo‘hna shahar. Hozirgi Qarshi shahridan 8 km shimoliy-g‘arbda, Qashqadaryoning chap qirg‘oqlariga yaqin yerda joylashgan. Ko‘pchilik tadqiqrtchilar tomonidan qadimgi Nasaf shahri xarobasi ekanligi e’tirof etiladi.

Shulluktepa 1883 -yilda rus arxeologlari V.V.Krestovskiy, 1895 va 1910 -yillarda B.I.Litvinov, 1910 -yilda D.I.Logofet tomonidan tekshirilib, umumiy ma’lumotlar to‘plangan. Bu tadqiqotchilar arab geograflari asarlarida qayd etilgan Nasaf shahri aynan shu yerda joylashganligi haqidagi fikrni ilgari surganlar. 1916 - yilda sharqshunos L.A.Zimin birinchi bo‘lib Shulluktepada arxeologik tadqiqotlar o‘tkazgan. Keyinchalik bu yodgorlikda S.K.Kabanov, M.V.Masson, B.D.Kochnev, V.A.Pirin, M.X.Isomiddinov kabi arxeolog olimlar tadqiqot ishlari o‘tkazganlar. Ushbu tadqiqotlar natijalarining ko‘rsatishicha, Shulluktepa o‘rnida milodiy III - IV asrlarda dastlab uncha katta bo‘lman istehkom bunyod etilib, V - VI asrlarda qal’a (150x80) va uni o‘rab turgan shahriston shakllangan. VI - VIII asrlarda esa shahriston qalinligi 15 m bo‘lgan devor bilan o‘rab olingan.

Arablar istilosi va unga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar oqibatida Naxshab shahri (Zahhoki Moron) asta-sekin vayronaga aylangach, IX asrdan boshlab quyi Qashqadaryodagi shaharsozlik markazi Shulluktepa o‘rnida rivojlanadi. 200 ga maydonni egallagan

bu yangi shahar arab manbalarida Nasaf deb atala boshlangan. X - XII asrlarga oid arab geograflari (Ibn Xurdodbeh, Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy, Sam’oniy) asarlarida ushbu ko‘hna shahar qal’adan tashqari shahriston va rabodga ega ekanligi, shahar o‘rtasidan daryo oqib o‘tishi, shaharning 4 darvozasi borligi qayd etiladi, ayrim bosh ko‘chalarining nomlari tilga olinadi.

Shulluktepada olib borilgan tadqiqotlar shahar Movarounnahrning ichki va tashqi iqtisodiy savdo aloqalarida faol ishtirok etganligini ko‘rsatadi. Shulluktepa (Nasaf) orqali ilk va rivojlangan o‘rta asrlarda Eron va Xurosonning savdo shaharlarini Samarcand, Choch vohasi va Farg‘ona vodiysi bilan, Buxoroni Termiz, Balx va Hindistonning savdo markazlari bilan bog‘lovchi tranzit savdo yo‘llari o‘tishi bu shahar rivojiga katta ta’sir ko‘rsatganligini qayd etish mumkin.

Mo‘g‘ullar bosqinidan so‘ng shahar xarobaga aylanadi va uning xarobalari keyinchalik Shulluktepa nomi bilan atala boshlanadi.

Shahrisabzda 20 ga yaqin tarixiy me’moriy yodgorlik saqlanib qolgan. Temuriylar davrida qurilgan Oqsaroy qasrining peshtoq devori, Dor us-Siyodat va Dor ut-Tilovat majmualari, Ko‘k Gumbaz masjidi, Gumbazi Sayidon, Shamsuddin Kulol maqbarasi (Amir Temurning piri), Jahongir maqbarasi, Hazrati Imom masjidi, shuningdek, Chorsu bozori (XVI asr), Chubin madrasasi (XVI asr), Abdushukur Og‘aliq (XIX asr), Eshonpir (XIX asr), Kunduzak masjidlari kabi me’moriy obidalar saqlanib qolgan.

4.4. Amir Temur va Temuriylar davrida Qashqadaryo vohasi shaharsozligi

Ma’lumki, o‘lkamiz hududlarida shahar madaniyatining paydo bo‘lishi bronza davriga borib taqaladi va bu jarayon turli davrlarda bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. Ayniqsa, XIV asrda, ya’ni, Amir Temur va Temuriylar davrida shahar madaniyati o‘rta asrlar davri o‘z rivojining yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilgan edi. O‘z davrida Amir Temur o‘z sultanati hududlarini g‘arbda O‘rtayer dengizigacha, shimolda Rossiya hududlari, janubda Hindistongacha bo‘lgan yerkarni o‘z ichiga olgan holda kengaytirishga erishgan edi. U hokimiyat tepasiga kelgach mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish bilan birga shaharlar taraqqiyotiga ham alohida e’tibor qaratdi. U tug‘ilib o‘sgan yurti Shahrisabz (Kesh) da mahobatli Oqsaroy va ko‘rkam machitlar, poytaxti Samarqandda ulug‘vor va hashamatli

binolar, Turkistonda, Damashqda, Tabrizda masjidu-madrasalar barpo etishda bosh-qosh bo‘ldi.

Amir Temur va temuriylar davridagi katta va kichik shaharlarda tinchlik hamda osoyishtalik o‘rnatilib, ishlab chiqarish, ilm-fan, madaniyat va o‘zaro iqtisodiy - savdo aloqalari rivojlandi. Bu davrda Samarqand va Hirotdan tashqari Buxoro, Xiva, Shahrисabz, Balx, Mashhad, Sheroz kabi ko‘plab madaniy markazlar mavjud edi.

Ma’lumki, Amir Temur va Temuriylar davri Movarounnahrda ro‘y bergen tarixiy-madaniy jarayonlardan Shahrисabz ham chetga qolmagan. Amir Temur o‘z vatani sifatida, temuriy shahzodalar esa bobolarining yurti sifatida Shahrисabzga nihoyatda katta e’tibor qaratib, bu yerda ko‘pgina obodonchilik ishlari, madaniy me’moriy inshootlar bunyod etganliklari bois Kesh-Shahrисabz o‘rta asrlarda “Qubbатul ilм val adab” degan muqaddas nomga sazovor bo‘lgan edi.

Sharafiddin Ali Yazdiy ma’lumotlariga ko‘ra, Shahrисabzda o‘z davrining mashhur islom namoyondalari yashagan bo‘lib, ulardan biri Abu Muhammad Obdon Keshiy edi. XIV-XV asrlarda Abdulloh Samarqandiy, Abu Abdulloh Muhammad Buxoriy va Abdul Husayn Muslim Nishopuriylar ham Shahrисabzda yashab islom tariqatini rivojlantirganlar.

Amir Temur va temuriylar davrida ham, hozirgi kunda ham Kesh Shahrисabzga keluvchilarning diqqat e’tiborini tortib turgan yirik me’morchilik inshooti bu - Oqsaroy binosi hisoblanadi. XIV asr oxiri XV asr boshlarida bunyod etilgan bu yodgorlikning umumiyligi o‘z davrida 70 metrga yaqin bo‘lib, hozirgi kunda 38 metri saqlanib qolgan. Yodgorlik haqida Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Ibn Arabshoh, Zahiriddin Muhammad Bobur, ispan elchisi de Klaviholar ma’lumotlar beradilar. Oqsaroyning saqlanib qolgan ikkita ulkan ustuni sirlangan mozaika va betakror o‘yma naqshlar bilan bezatilgan. Bu yerdagi geometrik va tabiiy naqshlar etti xil rangda tanlangan bo‘lib, xalq orasida “haft rangi” deb nomланади. Oqsaroyning g‘arbiy ustuni old tomonida, “Agar bizning kuch qudratimizga shubha qilsang, biz qurdirgan imoratlarga boq!” degan mashhur xitobнома bitilgan. Bu xitobнома va binoning salobati Amir Temur salatanatining kuch-qudratidan dalolat beradi.

Darhaqiqt, hozirgi kunda Oqsaroy binosining saqlanib qolgan me'moriy qoldiqlari, u hajm jihatdan ulkan bo'lib, o'rta asrlada shakl va me'moriy bezatilishi jihatdan tengi yo'q ekanligini ko'rsatadi.

Shahrisabzdagi o'rta asrar O'rta Osiyo shaharlari me'morchiligining yana bir nodir namunalaridan biri shaharning janubi-shraqida joylashgan bitta me'morchilik majmuiga birlashgan ikkita inshoot guruhi Dorussiodat va Doruttilovat majmualari hisoblanadi. Bu majmualarda Amir Temurning piri va ustozи Shayx Shamsiddin Kulol, otasi Amir Tarag'ay, o'g'illari Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzolar dafn etilgan. Yozma 1996 -yil 18 oktabrda manbalar Dorussiodat va Doruttilovatning serhasham g'ishtin binolari o'zining ulug'verligi bilan ajralib turganligi haqida ma'lumotlar beradi.

XIV asr oxiri XV asr boshlarida Amir Temur va temuriylar hukmronlik qilgan davrda sug'orish tartibini qayta ko'rish va yangidan tashkil etish, yangi dehqonchilik vohalarini o'zlashtirish keng qo'lamda olib borildi. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivoj topib, tovar-pul muomalasi o'z rivojlanishining yuqori cho'qqisiga ko'tariladi.

Bularning barchasi hududlarda ulkan shaharsozlik ishlarini amalga oshirish imkoniyatini bergen edi. Misol uchun Xo'jad, O'ratepa, Qandi Bodom, Isfara, Panjikent, Andijon, Sayram, Turkiston kabi shaharlarda ko'plab davlat va jamoat madaniy binolari qad ko'taradi. Bu shaharlarda hunarmandchilikning etakchi tarmoqlari to'qimachilik, metalga ishlov berish, kiyim tikish, qog'oz tayyorlash kabi o'nlab turlari taraqqiy etishi natijasida ular Amir Temur va temuriylar davlatining iqtisodiy, siyosiy va madiny hayotida katta ahamiyatga ega bo'ldilar.

Alovida ta'kidlash joizki, Temur va temuriylar davri shaharlarida ilm-fanning turli sohalari, madaniyat gullab yashnadi hamda davrga va hududga xos bo'lgan boy ma'naviy qadriyatlar yaratildi. Amir Temur markazlashgan mustaqil davlat barpo etganidan so'ng uni mustahkamlash uchun qattiq harakat olib bordi. Misol uchun, manbalarning guvohlik berishicha, Temur mamlakat iqtisodiyotining yaxshilanishi va taraqqiy etishiga, shaharlarining har tomonlama rivojlanishiga, karvon yo'llarini tiklash asosida savdo-sotiqning kengayishiga, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligining rivojiga alovida ahamiyat berdi. Buning natijasi o'laroq, mamlakatning katta

va kichik shaharlarida madaniy hayot rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Shuningdek, Temur va Temuriylar davri shaharlarida madaniy hayotning rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilishi bilan birga Eron, Afg'oniston, Arab mamlakatlari, ayrim Yevropa davlatlari, Hindiston, Xitoy kabi davlatlar bilan savdo-sotiq, diplomatik va madaniy aloqalar tiklanadi va yo'lga qo'yiladi.

Xullas, Amir Temur va temuriylar davrida olib borilgan siyosiy-davlat boshqaruvini mukammal tashkil etish, shaharlar taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratish, shahar va qishloqlarda ilm-fan va madaniyatning, san'atdagi xilma-xil turlarining rivojlanishi, jamiyat ma'naviy hayotining yanada yaxshilanishiga qaratilgan edi. Amir Temur va temuriylarning ilm-fan va madaniyatni qadrlaydigan, shaharlarning har tomonlama rivojlanishi uchun alohida e'tibor qaratadigan hukmdor bo'lganligini nafaqat yozma manbalar ma'lumotlari, balki ko'pgina shaharlarimizdagi bizga qadar yetib kelgan hamda hozirgi kunda ham o'zining go'zalligi va ulug'vorligini namoyish etib turgan mahobatli inshootlar yana bir bora tasdiqlaydi.

4.5. Qashqadaryodagi me'moriy yodgorliklar

Husam Ota majmuasi - Qashqadaryodagi me'moriy yodgorlik (XI-XIX asrlar). Koson tumanidagi Pudina qishlog'ida. Majmua maqbara, masjid, ziyoratxona, tahiratxona, 3 darvozaxona, katta-kichik bir necha maqbaradan iborat (umumiylar tarhi 60x60 m). Majmua markazida Husam ota maqbarasi (XI-XII asrlar, bir necha marta qayta tiklangan), ziyoratxona (6,5x6,5 m) va 2 kichik daxma (bu daxmalarda Husam otaning o'g'illari dafn etilgan), uning shimoliy tomonida 9 gumbazli masjid joylashgan (XVI-XVII asrlar, XX asr boshida ta'mirlangan). Masjid yonidagi tor yo'lak orqali majmuuning eng qadimgi binosi - Ishoq ota maqbarasi (5,5x6 m) ga o'tiladi (XI asr), maqbara peshtoq-gumbazli, burchaklariga guldstalar ishlangan. Ishoq ota maqbarasining bir tomonida 1 xonali daxma (rivoyatlarga ko'ra Ishoq otaning qizi dafn etilgan, XII asr), boshqa tomonida Mansur Muhammad degan kimsaning 2 xonali maqbarasi joylashgan. Hovli o'rtasida hovuz bo'lib, atrofi ko'kalamzorlashtirilgan. Ikkala guruh binolar simmetrik bo'lib yagona ko'p gumbazli, tor hovlili mujassamotni tashkil qilgan. XIX-XX asr boshlarida qadimgi poydevor ustiga ustunli ayvon, gumbali masjid qurilgan

Hazrati Imom Mayin (Mun) majmuasi - Qashqadaryodagi me'moriy yodgorlik (XI -XIX asrlar). Hazrati Imom Mayin maqbarasi atrofida bunyod etilgan. Maqbara oldi ayvonli, naqshinkor 6 ustunga tayangan. Majmua devor bilan o'ralgan kichik (tashqi) va katta hovlidagi turli davrlarda qurilgan binolardan tashkil topgan. XI-XIV asrlarda maqbara (tarhi 5x5 m), ziyoratxona va masjid (7x7 m) qurilgan, maqbara hovlisida murabba tarhli (10x10 m) hovuz bor, hovuzning sharqida quduq mavjud. Maqbara 16 qirrali kulohiy gumbaz bilan yopilgan, yog'och sag'ana o'yma naqshlar bilan ziynatlangan. Masjid gumbazli xonaqoh va 2 tomonli ayvondan iborat, ayvon shifti va ustunlari naqshlar bilan bezatilgan; masjid yonida chillaxona joylashgan. XIX-XX asrlarda xonaqohga tutash 2 xona qurilgan. 2004 -yilda ta'mirlangan.

Hazrati Imom maqbarasi - Shahrisabzdagi me'moriy yodgorlik (XIV asr). Dorus-siyodat me'moriy yodgorligi tarkibidagi Jahongir Mirzo maqbarasi Hazrati Imom maqbarasi nomi bilan mashhur. Dastlab sardoba, keyinroq ustiga to'rburchak tarhli ziyoratxona tiklangan, tashqi tomonda kichik peshtoq ham bo'lgan. Hazrati Imom maqbarasi yangi Madrasa peshtoqi bag'rida qolib ketgan, maqbara qaddini rostlash uchun ziyoratxona tepasi qo'shimcha devor orqali ancha baland ko'tarilgan va ustiga yangi kulohsimon cho'qqi gumbaz o'rnatilgan. Arxeologik tadqiqotlar vaqtida maqbaradan 3 ta jasad topilgan. Sharafuddin ali Yazdiy "Zafarnoma"sida Keshda yashagan Buxoro va Samarqandlik mashhur imomlar orasida Hazrati Imom nomi bilan mashhur Abu Muhammad al-Kashshiyni tilga olgan. Amir Temur ajdodlari xilxonasi yaqinida shu imomning qabri bo'lgan, lekin qabr saqlanmagan.

Nazorat uchun savollar

1. Sharafuddin Ali Yazdiyning Shahrisabz shahari to'g'risidagi fikrlari?
2. Shahrisabzdagi o'rta asrlarlarga ta'luqli bitta me'morchilik majmuiga birlashgan ikkita inshoot haqida aytib bering?
3. Shulluktepa o'rta asrlarga oid yirik qo'hna shahar xarobasi haqida nimalarni bilasiz?
4. Yerqo'rg'on, Kishmishtepa, Kojartepa, Kasbitepa qadimgi shaharlar qaysi asrlarga ta'luqli?

Test topshiriqlari

1. Shahrisabzning Jahon madaniy merosi ro‘yxatiga qachon kiritilgan?
 - A 2002 -yilda dekabr
 - B 2000 -yilda dekabr
 - S 2007 -yilda noyabr
 - D 2005 -yilda oktabr
2. Naxshab tangasi (III-VI asrlar), so‘g‘d yozuvi namunalari, muxr nusxasi topilgan hudud?
 - A Kishmishtepa
 - B Yerqo‘rg‘on
 - S Kamaytepa
 - D Kindaklitepa
3. Tarixiy manbalarda Baxl, Bolo, Valaam, Nashebolo deb tilga olingan joy nomi?
 - A Yerqo‘rg‘on
 - B Kamaytepa
 - S Kindaklitepa
 - D Kishmishtepa
4. Birinchi bo‘lib Shulluktepada arxeologik tadqiqotlarni kim o‘tkazgan?
 - A L.A.Zimin
 - B S.K.Kabanov
 - S M.E.Masson
 - D M.X.Isomiddinov
5. Amir Temur tavalludining 660 - yilligi munosabati Shahrisabz “Amir Temur ordeni” bilan mukofotlandi
 - A 1996 -yil oktabr
 - B 1997 -yil may
 - S 1995 -yil oktabr
 - D 1994 -yil dekabr
6. “Kesh - Movarounnahr shaharlardan biri, yam-yashil bog‘lari va ko‘zga quvonch baxsh etuvchi gulzorlari tufayli u hozir Shahrisabz nomi bilan shuhrat topgan. U jahondagi eng chiroyli shaharlardan biri hisoblanadi; iqlimi juda yaxshi va diltortar...”,kimning asarida?
 - A Mahmud ibn Vali
 - B Rui Gonsalis de Klavixo
 - S Sharafuddin Ali Yazdiy

D Hofizi Abru

7. “Agar bizning kuch qudratimizga shubha qilsang, biz qurdirgan imoratlarga boq!” degan mashhur xitobnomalar bililgan.

A Oqsaroy ustuniga

B Ulug‘bek maqbarasining ustuniga

S Hazrati Imom maqbarasi ustuniga

D Bibixonim maqbarasi ustuniga

8. Chubin madrasasi nechanchi asrga mansub?

A XVI asr

B XV asr

S XIV asr

D XIX asr

9. Amir Temur davrida Shahrisabz qanday nomi bilan yuritilgan?

A “Ilm va ta’lim gumbazi ”

B “Islom dinining gumbazi”

S “Bahr al-asror”

D “Gullar shahri”

10. Kishmishtepa- ilk o‘rta asr shahari bo‘lib milodiy asrlarlarga ta’luqli?

A V-XIII asrlarlarga ta’luqli

B IV-X asrlarlarga ta’luqli

S V-X asrlarlarga ta’luqli

D III-XIV asrlarlarga ta’luqli

Manba va adabyotlar

1. Karimov I. A. Amir Temur haqida so‘z. Toshkent.

“O‘zbekiston”, 1996.

2. Asqarov A. Eng qadimgi shahar. - T. 2001.

3. O‘zbekiston tarixi. A. Sagdullaev, B.Eshov tahriri ostida.-T, Universitet,
1997.

4. Eshov B. Sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. - T, 2004.

5. Eshov B. O‘rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. T, 2008

6. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent, “Sharq”,
2000.

7. Abduraimov M. Temur va To‘xtamish. Toshkent, G‘ofur
G‘ulom, 2000.

8. Amir Temur va uning dunyo tarixidagi o‘rni // Xalqaro konferensiya materiallari, Samarqand, 1996.
9. Ahmedov B. Amir Temurni yod etib, Toshkent, O‘zbekiston, 1996.
10. Boboev H. B. Amir Temur va temuriylar sultanati. Toshkent. Kamalak, 1996.
11. Shahrisabz. Ming -yillar me’rosi.-T.:”Sharq”,2002.
12. Polatov X. Shaharsozlik tarixi.-O‘quv qo‘llanma T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008.

5-mavzu: Samarqand, O‘rtalik Zarfshon shaharlari urbanizatsiyasi

Reja:

- 5.1. Arxeologik tadqiqotlar tufayli shaharning tarixiy topografiyasi
- 5.2. Samarqanddagi qadimgi shaharlar
- 5.3. Xitoy va arab geograflari Samarqand haqida
- 5.4. Amir Temur va temuriylar davrida shaharlar qurilishiga oid siyosati

Tayanch so‘z va iboralar: Afrosiyob, “Shohnoma”, Ko‘hna shahar, Siyob arig‘i, Ko‘ktepa, “Qo‘rg‘oshin ariq”, Do‘rmontepa, Buyuk ipak yo‘li, tarixchi at-Tabariy, shoh Samar, ”qand”, Mahmud Qashqariy, “Semizkent”

5.1.Arxeologik tadqiqotlar tufayli shaharning tarixiy topografiyasi

Afrosiyob va uning topilmalariga qiziqish 1868 -yilda Chor Rossiyasi tomonidan Samarqand bosib olingandan keyin boshlandi. Afrosiyobda dastlabki qazish ishlari bilan mayor Borzenkov (1874), podpolkovnik V. V. Krestovskiy (1883), sharqshunos olimlar N. I. Veselovskiy (1884-85, 1895), V. V. Bartold (1904) va V. L. Vyatkin (1905; 1912– 13) lar shug‘ullanishdi. 1919 -yilda M. V. Masson, V.L.Vyatkin tadqiqot boshlagan joylarda qazish ishlarini davom ettirib, somoniylar saroyi (IX asr) xarobalarini ochdi. 1925, 1929-30 -yillarda V. L. Vyatkin Afrosiyobda qazish ishlarini davom ettiradi va uning turli davrdagi tarixiga oid ko‘plab materiallar to‘playdi. Ammo 1930 -yillarga qadar Afrosiyobda olib borilgan arxeologik

qazishmalar qadimgi Samarqand tarixiga doir juda kam materiallar bergen. Urushdan keyin O‘zbekiston FAning Tarix va arxeologiya instituti olimlaridan I. Terenojkin tomonidan Afrosiyobda jiddiy dala tadqiqotlari o‘tkazildi. Natijada uning eng pastki qatlamidan miloddan avvalgi VI-V asrlarga taalluqli buyumlar, uy-joy xarobalari topildi. V. Shishkin (1958-66) va Ya. F. G‘ulomov (1967-70)lar rahbarligida olib borilgan keng ko‘lamli arxeologik qazishlar natijasida qadimgi madaniy qatlam materiallari Afrosiyobning boshqa joylaridan ham topildi. 1966 -yil 13 iyulda Afrosiyobni arxeologik jihatdan kompleks o‘rganishni tashkil etish maqsadida Respublika hukumatining maxsus qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, Afrosiyob “arxeologik qo‘riqxona” deb e’lon qilinib, uni o‘rganish ishiga Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya institut bilan birgalikda Toshkent va Samarqand davlat universitetlari hamda Madaniyat vazirligining San’atshunoslik instituti ham safarbar etildi.

Aniq ilmiy rejalar asosida boshlangan arxeologik tadqiqotlar tufayli nafaqat shaharning ko‘p asrlik yoshi, balki uning har xil davrlardagi tarixiy topografiyasi, shahar tarkibi, shahar hayotining rivojlanish bosqichlari, bosqinlar tufayli yuz bergen buhronlar davri aniqlandi.

Afrosiyobda qazishma ishlari ayniqsa Samarqandda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti tashkil topgach, keng ko‘lamda kuchaydi. Ya.G‘ulomovdan so‘ng Afrosiyobdagagi arxeologik qazishmalarga G. V. Shishkina, Sh. Toshxo‘jaevlar rahbarlik qildi. Keyingi yillarda (1989 -yildan) Afrosiyobni arxeologik jihatdan tadqiq etish ishiga fransuz arxeologlari Pol Bernar, Frans Grene va boshqalar jalb etilgan. Fransuz arxeologik missiyasi O‘zbekiston arxeologlari bilan (M. Isomiddinov va boshqalar) hamkorlikda Afrosiyobni o‘rganishda qatnashdi. O‘zbek va fransuz olimlarining hamkorlikda olib borgan tadqiqot natijalari qadimgi Samarqand tarixiga oid qator masalalarga aniqlik kiritdi.

Samarqandning qadimgi tarixini yoritishda **Afrosiyobda** olib borilgan tadqiqotlarga tayanamiz. Shu o‘rinda Afrosiyob nomi qayerdan kelib chiqqan, degan savol tug‘ilishi tabiiydir. Ma’lumki, ulug‘ shoir Abdulqosim Firdavsiy o‘zining mashhur “Shohnoma”sida Eron bilan Turon o‘rtasidagi munosabatlar, nizolar haqida so‘z yuritar ekan, Turonning podshosi Afrosiyob bo‘lganligini yozadi. Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha esa Turon podshosining nomi Alp Er

Tung'a bo'lib forslar uni Afrosiyob deb ataganlar. Samarqand Alp Er Tunga - Afrosiyobning poytaxti bo'lganligi uchun uning ilk o'rni ham Afrosiyob nomi bilan atalib kelingan.

Afrosiyob hozirgi Samarqandning shimoliy chegarasiga tutashgan keng bo'sh tepaliklar bo'lib, uning maydoni 219 ga. Tepalikning shimoliy Siyob arig'i bilan chegaralangan. Janubiy tomondan "eski shahar" deb atalgan Samarqandga qo'shilib ketgan.

Yozma manbalarda shaharning dastlabki tarixi haqida ma'lumotlar juda kam uchraydi. Ko'hna shaharda o'tkazilgan arxeologik qazishlar esa bunday ma'lumotlarni ko'proq beradi.

Arxeologik qazishmalar bir necha metr qalinlikdagi madaniy qatlamlar qanday bo'lganligini ko'rishga, boylar va kambag'allarning uylarini, hunarmandlarning ustaxonalarini, savdogarlarning do'konlarini, ko'cha va maydonlarni, shohona saroylar va ibodatxona, masjid va madrasalarni, mudofaa inshootlarini, shaharning suv bilan ta'minlash tizimi aniqlashga yordam beradi. 1966 -yil 13 iyulda Samarqand ixshidlarining shohona saroyi ochildi.

Afrosiyobda topilgan arxeologik materiallar Samarqand miloddan avvalgi VIII-V asrlarda Sug'diyonaning markaziy shahri sifatida vujudga kelganligini ko'rsatadi. Miloddan avvalgi III-I asrlarda, Kushonlar sultanati davrida shahar hayotida yuksalishlar yuz bergan. Miloddan avvalgi III asrda shahar qo'shaloq mudofaa devori bilan o'rab olingan. U davrlarning qalin madaniy qatlami Afrosiyobning shimolida, uning arki a'losi joylashgan qismida yaxshi saqlangan. Arxeologik materiallar va yozma manbalarda ta'kidlanishicha, bu zamonda Samarqand orqali Buyuk ipak yo'li o'tgan, ichki va tashqi savdo, hunarmandchilik rivoj topgan.

Ilk o'rta asrlarda Samarqand Sug'diyonaning bosh shahri sifatida nufuzli mavqega ega bo'lib, shahar ijtimoiy va iqtisodiy hayotida tub o'zgarishlar yuz berdi. Badavlat dehqon xo'jaliklari kuchaydi, xuddi shu kezlarda ularning qasrlari joylashgan Afrosiyobning shimoliy qismi mudofaa devori bilan o'rab olindi. Bu holat Movarounnahr va unga qo'shni viloyatlarda ham yuz berdi. Bu davrda Samarqand hukmdorlari "ixshid", Buxoro hukmdorlari esa "buxorxudot" deb atalgan. 712 - yilda arablar fotixi Qutayba ibn Muslim qo'shin tortib kelganda, Samarqandning mudofaa devorlari mustahkam bo'lib, atrofida suv to'la xandaq bor edi. Qutayba Samarqandga Farg'ona, Shosh va turklardan yordamga kelgan lashkarlarni yenggach,

ko‘maksiz qolgan Sug‘d hokimi G‘urak noiloj u bilan sullh tuzdi, Shaharning ichki qismi (shahriston)ni arablarga bo‘shatib berishga majbur bo‘ldi. Arxeologik topilmalar islomga zid bo‘lgan haykal va devoriy rasmlarning ataylab qilich bilan chopilganini isbotlaydi.

Afrosiyobda somoniylar davrida o‘ymakor ganch naqshlar bilan bezatilgan saroylar, badavlat dehqon xonadonlari, masjid va madrasalar, hammom va kanalizatsiyalar, tosh ko‘chalar topilmoqda. Shaharni suv bilan ta’minalash og‘irligidan aholining ehtiyojini qondirish uchun shahar hayotining dastlabki - yillaridayoq Darg‘om tomonidan kanal qazib, suv keltirilgan. Ana shu kanal izlari hozirgi shahar xiyobonining janubida, Alisher Navoiy haykali qad ko‘tarib turgan maskanda olib o‘rganildi. Bu kanal Registon maydoni orqali Hazrati Xizr masjidi tomon yo‘l olgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra Afrosiyobga janubdan kiraverishda shahar xandaqi ustiga pishiq g‘ishtlardan ravvoqli suvayirg‘ich qurilib, uning tepasidan katta ariq o‘tkazilgan. Bu ariqni “Juyi arziz” (“Qo‘rg‘oshin ariq”) deb ataganlar. Ariq shu yerda uchga bo‘lingan va shahar oralab Siyob arig‘i bo‘yiga borgan.

X asrning oxirida savdo, hunarmandchilik, shahar obodonchilik ishlari davom etadi. Shaharning hunarmandchilik qiyofasi kuchayib, zodagon dehqon qasrlari endi shahar tashqarisida, ularning dala hovlilarida markazlashadi. 1220 -yilda Chingizzon qo‘shinlari shaharning devor va darvozalarini vayron qilib saroy, masjid va madrasalarga, aholi xonadonlariga o‘t qo‘ydilar. “Qo‘rg‘oshin ariq” qayta tiklanmadni. Afrosiyobda suvsiz qolgan aholi Siyobdan charxpalaqda suv chiqarib, kun ko‘rgan, so‘ng aholi bora-bora Afrosiyobni butunlay tashlab ketgan. Kimsasiz xarobaga aylangan qadimgi Samarqand avvallari “Hisori ko‘hna”, “Qal’ai Hisor” atalib, XVII asrdan boshlab aholi orasida “Qal’ai Afrosiyob” yoki “Afrosiyob” deb atala boshlangan.

Samarqandning yoshi miloddan avvalgi VIII asr o‘rtalariga oid ekanligi isbotlandi; shaharning arki a’lo qismidan milodiy VIII asrga oid murabba (70x70) shaklidagi Samarqand ixshidlarining mahobatli saroyi qoldiqlari ochildi. Fransiya ilmiy tadqiqotlar markaziga qarashli Jiv-Syur-Ivst shahridagi radioaktiv laboratoriyada tadqiq qilindi. Laboratoriyanadagi tahlillar bu ashyolar bundan 2750 yil ilgari yaratilganligini ro‘rsatdi. Shu tariqa Samarqandga 2750 yil ilgari asos solinganligi isbotlandi.

5.2. Samarqanddagi qadimgi shaharlar

Ko‘ktepa qadimgi shahar ya’ni, miloddan avvalgi IX-IV asrlar va milodiy I asrlarga ta’luqli. Samarqand viloyatining Payariq tumaniga qarashli hududida, Batrak va Shamat qishloqlari, oralig‘ida, Bulung‘ursoyning qadimgi o‘zani sohilida joylashgan. Mahalliy aholi orasida u Sayiltepa deb ataladi. Ko‘ktepa ilk temir davri shahar xarobasi, kvadrat shaklida, maydoni 23 ga atrofida, uning relefida chor atrofi bo‘ylab qad ko‘targan mudofaa devori va 4 joyda shahar darvozalarining o‘rinlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yodgorlik relefida shahar mudofaa devorining tashqarisidan 2 - mudofaa inshooti o‘tgan ko‘rinadi. Uning xom g‘ishtdan qurilgan izlari 1 km chamasi uzunlikda yodgorlikning shimoliy-g‘arbiy tomonida kuzatiladi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, u yaqin 100 ga maydonni o‘rab olgan. Ammo 2 - mudofaa inshooti oralig‘i keyingi - yillarda xo‘jalik maqsadlarida to‘liq o‘zlashtirilib, uning qadimgi inshootlari mutlaqo buzib tashlangan. Ko‘ktepa maydonining 2 joyida baland do‘ngliklar kuzatiladi. Ulardan biri yodgorlikning markazida, kvadrat shaklida (70x70 m), ikkinchisi, uning sharqida, 2 yarus (qavat, qatlam) li (qasr oldidagi maydon bilan).

Yodgorlikda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, qadimgi shahar hayoti 3 davrga bo‘linadi (Ko‘ktepa 1,2,3). Ko‘ktepa I davri Zarafshon vodiysida mahalliy chorvador saklarning o‘troq hayotga, dehqonchilik xo‘jaligi yuritishga ommaviy ravishda o‘tayotgan, Sug‘diyona dehqonchilik vohasining jadal tarkib topayotgan davri bilan farqlanadi. Bu davrda kulolchilik mahsulotlari, asosan, qo‘lda tayyorlanib, ularning och rangli pardozlangan sirtiga qizg‘ish qora bo‘yoqda turli shakllarda gul solish odat bo‘lgan. Ko‘ktepa 1 davrida dastlab aholi yarim yer to‘la shaklidagi kulbalarda yashadi, uning so‘nggi bosqichiga kelib, guvala va xom g‘ishtdan ko‘p xonali uylar va baland platforma (tag kursi) ustiga monumental bino (ibodatxona majmuasi) qurish odat tusiga kiradi. Ko‘ktepa 1 davri majmuasi Farg‘ona vodiysining Chust madaniyati, umuman, O‘rta Osiyoning Yaz 1 deb atalgan arxeologik majmualari bilan har jihatdan bir-birlariga yaqin va o‘xhash, deb topilmoqda.

Ko‘ktepa 2 davriga kelib, Sug‘diyona hududlariga Qadimgi, Sharq tamadduniga xos urbanistik jarayon jadal kirib keladi. Yangi etnomadaniy qatlamning yerli tub aholi bilan qorishuvi natijasi sifatida Ko‘ktepa 2 majmuasi tarkib topadi. Bu jarayon, ayniqsa,

kulolchilikda yaqqol ko‘zga tashlandi. Keramika mahsulotlari tarkibida yuqori sifatli, kulolchilik charxida tayyorlangan idishlar keskin ko‘payadi. Endi, kulolchilikda sopollarning naqshiga emas, balki ularning sifatiga e’tibor qaratiladi. Uy-joy qurilish sohasida monumental binolar, majmualar barpo etish rivojlanadi. Sug‘dda qadimgi shahar madaniyati uzil-kesil shakllanadi. Bu davrda Ko‘ktepada, uning markazida qalin platforma (tagkursi) ustida mahobatli shahar ibodatxonasi uzil-kesil shakllanadi. Undan sharqroqda joylashgan Ko‘ktepa hukmdorining qasri tarkib topadi.

Ko‘ktepa 3 davriga kelib, Qadimgi Shharq tamadduni an’analari asosida rivojlanishda davom etayotgan shahar hayotiga makedoniyalik Aleksandr yurishlari munosabati bilan ellin madaniyati kirib keladi. Shahar maydoni yo‘lak hosil qilgan 2 qatorli mudofaa devori bilan o‘rab olinadi. Shahar maydonining yuqori qismida kamida 0,50 sm qalinlikda ellin davri qatlami hosil bo‘lgan. Undan so‘ng qandaydir sababga ko‘ra, shaharda hayot to‘xtaydi.

Ko‘ktepadan 25 - 35 yoshdagi ayol qabri ochildi. Qabrdan yog‘och to‘sama va qamish bo‘yra izlari topildi. Ayolning ko‘ylagini chetlari silindr shakldagi 345 ta oltin taqinchoqlar, bosh kiyimi esa 57 ta shisha munchoq bilan bezatilgan. Belbog‘iga feruza qadamalar o‘rnatilgan oltin to‘qachalar taqilgan. Mayyitni oyoq tomonidan qaychi, urchuq va Xitoyning Xan sulolasini davriga oid kumush qo‘shilgan dumaloq jez ko‘zgu topildi. Mana shu ko‘zgu va boshqa belgilarga ko‘ra, qabr miloddan avvalgi 1 - milodiy 1 - asrga oid deb belgilandi. Qabr maydoni 11 x 5,5 m xajmda bo‘lib, lahadning chuqurligi 6,5 m ni tashkil etgan. M.Isomiddinovning fikricha, bu yerda malika yoki aslzoda ayol dafn etilgan. 2001 - yilda Ko‘ktepa minorasi o‘rnida qazishma ishlari davom ettirildi, u yerdan miloddan avvalgi VIII-VII asrlar sopol idishlar, tegirmon tosh bo‘laklari, tosh o‘roq, qozon, bandli marmar tarozu toshi, marmardan ishlangan buyumlar, 4 oyoqchali kichik chirog‘don, to‘qimachilik dastgohi uchun mo‘ljallangan suyak taroq, tosh pichoq, og‘ir bolta, hayvon suyaklari topildi.

Do‘rmontepa miloddan avvalgi III asr milodiy XIII asr boshlariga to‘g‘ri keladigan qadimgi shahar bo‘lib, mo‘g‘ullar tomonidan vayron qilingan. Samarqanddan 2 farsax (12 - 14 km) narida, Pastdarg‘om tumanida. Umumiy maydoni 25 ga. Ikki qism -shahriston I (ark bilan birga) va shahriston II dan iborat. Shahriston I ning maydoni 16 ga,

shahriston II niki 6 ga bo‘lib, ark tarhi 115x110 m ni tashkil etadi. Do‘rmontepa Samarcandni Buxoro bilan bog‘lagan Buyuk ipak yo‘lida joylashgan va savdo karvonlari uchun muhim qo‘nimgoh vazifasini o‘tagan. Tarixchi va arxeologlar uni o‘rta asr yozma manbalarida qayd etilgan Xoxsar (Yoqut al-Hamaviy asarlarida - Al-Xoxasro) deb hisoblashadi. Do‘rmontepa XIII asr boshida mo‘g‘ullar tomonidan vayron qilingan.

5.3.Xitoy va arab geograflari Samarcand haqida

Umumiy miqyosda qaraganda, Samarcand atamasi bilan ataladidan joylar ko‘p. Jumladan: Mo‘g‘ilistonda XIII asrda Samarcand degan shahar bo‘lgan, Boburning tog‘asi Ulug‘bek Afg‘onistonidagi bir qishloqni Samarcand deb atagan, Qozog‘istonidagi Temirtov shahri XX asirning 40-yillariga qadar Samarcand deb atalgan, aynan shu yerda Nura daryosi bo‘yida Samarcand suv ombori qurilgan, Farg‘ona viloyatining Bog‘don tumanida Samarcand nomi bilan atalgan qishloq mavjud, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida Bog‘i Samarcand qishlog‘i bor, Turkiston tog‘ tizmasida Samarcand cho‘qqisi bor.

Haqiqatga yaqin bo‘lgan ilmiy qarash Samarcand Buyuk ipak yo‘lida chorraha vazifasini o‘tagani uchun uni “Chorahadagi shahar” arab manbalarida “Smirig” chorraha mazmunini beradi deb atashgan.

Samarcand jahon shaharsozligi tarixida chuqur iz qoldirgan qadimiy maskanlardan biri hisoblanadi. Miloddan avvalgi 1- ming - yillikning o‘rtalaridan to XVII asr boshlarigacha Samarcand Sug‘dning mamuriy markazi bo‘lga. Samarcand shahrining nomi bilan bog‘liq ko‘pdan-ko‘p afsona va rivoyatlar tarixi saqlanib qolgan. O‘rta asrlarda yaratilgan asar “Kitab fi-qand at tarixi Samarcand” - Samarcand tarixinining qand kitobi shaharga bag‘ishlangan bo‘lib, qisqartirilgan nusxa-“Kichik qandiya” bizgacha yetib kelgan.Unda Samarcandning afsonaviy hukmdori Shamar ibn Xoris haqida bo‘lib,u bu yerda o‘z ismi bilan atalgan “Samarkad” degan shahar barpo etadi. Keyin bu nom Samarcand bo‘lib o‘zgarib ketgan. Kitobda Samar haqida afsona bayon qilingan.Samar shahar atrofida bir go‘zal joyni topgan bu joy serhosil yer bo‘lgan.

Arab tarixchisi at-Tabariy “Payg‘ambarlarga va podshohlar tarixi” kitobida shaharga shoh Samar asos solganligi,”qand” esa bu joylarda yashagan turk aymog‘i ekanligini aytgan. Samariyayning sanskritcha uchrashuv joyi, savdogarlar yig‘iladigan joy tarzida talqin qilingan.

Mahmud Qashqariy fikricha shahar “Semizkent”, ya’ni “semiz boy” shahar ma’nosini anglatadi.

Xitoylik VII asda yashagan Syan Szyan o‘z kundaligida: Samarqand yerlari bepoyon, semiz va unimdon bo‘lib, gullar meva-chevalarga serob.

X asr taniqli arab geografi Istashriy Sharqning juda ko‘p mamlakatlari bilan yaqindan tanishgan. Samarqandni “Alloh yaratgan eng suyukli yurtlardan biri”, “Yer yuzidagi rohatbaxsh joy” deb ta’riflaydi.

At-Tabariy esa Samarqandni “musulmon amirlarning bog‘i” sifatida ulug‘lagan.

XII asr tarixchisi Idrisi fikricha: “Samarqandliklar qalbi g‘o‘zalikka oshno”, Jahonni bezaydigan mo‘jizalarini yaratishga qodir ustalar ko‘pligi yozilgan.

XV asr ozarbayjon geografi Abdurashid al-Bakuviy Samarqandni ko‘rgach, Yer yuzida bu shahardan yaxshiroq, yoqimliroq o‘zga bir maskan yo‘q, - deb yozgan.

Samarqand shimoliy chekkasida 200 gektardan katta maydonda tepaliklar yastanib yotibdi. Bu tepaliklarni mahalliy aholi Afrosiyob nomi bilan ataydi. Qadimiy Samarqand shahi hayoti paydo bo‘lgandan to mo‘g‘ullar bosqinigacha g‘o‘zal bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi FA Arxeologiya instituti xodimlari fransuz olimlari bilan parallel shahar xarobalarini o‘rgandilar. Qazishma ishlari Samarqanddan 30 km shimoliy-g‘arbda joylashgan **Ko‘ktepada** olib borildi. Ko‘ktepada ichki madaniy qatlami o‘rganilib, olov qoldig‘i kul radiocarbon usulida tekshirilib, olov yoqilgan voqeа 2750 yillar avval bo‘lganligini aniqlashga imkon berdi. **Ko‘ktepada** topilgan va aniqlangan moddiy madaniyat Afrosiyobning ilk qatlamlaridagi ashyolar bilan bir xilligi shaharlarning qurilish sanasi bir xil bo‘lganligidan dalolat beradi.

Avestoda muqaddas Sug‘ud-Sug‘d oliv iloh Ahuramazda tomonidan yaratilgan mamlakat deb ta’riflaydi. U bilan bir qatorda Baxdi (Baqtriya) va Mouru (Marg‘iyona) ishlatiladi.

Miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmida, Sug‘d Baqtriya bilan birga Ahamoniylar tomonidan istilo qilinganda, Samarqand ichki devorli uzun yo‘laklar va tuynukli, qudratli mudofa istihkomlar bilan o‘ralgan edi. Shaharning o‘zida turar joy majmualari qad rostlab, hunarmandchilik maskanlari ko‘paya bordi.

Miloddan avvalgi 329 -yil bahorida Aleksandr Makedonskiy Samarqandga yaqinlashdi. Kvint Kursiy Ruf (milodiy I-asr) ma'lumotiga ko'ra, Spitamen va Marokanda shahri haqida aytilgan. Samarqand shahri haqida menning eshitganlarim to'g'ri ekan, u mening tasavvurimdan ko'ra go'zalroq ekan, deb ta'riflaydi Aleksandr Makedonskiy. Aleksandr Makedonskiy yurishlarida Samarqand zarar ko'rdi xarobalar ostida qoldirildi.

Grek-makedoniyalik jallodlarning asosiy zarbasi **Zarafshon vodiysining aholisi**-so'g'dlar boshiga tushdi. Iskandar yurishlarini bayon qilgan tarixchilar xotiralarida Politimet daryosi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Arrian Politimet keng teritoriyaga chuzilgan va qumliklarga kirib yuqolib ketgan daryo deb yozadi. Politimed so'g'd tilida **namich** -“mashhur”, “shonli” (nom so'zidan olingan.) Arablar istilosidan keyin dastlabki asrlarda daryo nomi esdan chiqarilgan. XIII asrdan boshlab yozma manbalarda uchraydi.

Buyuk ipak yo'li chorrasida joylashgan Samarqand qad rostladi. Qurg'on shaharlar, obod qishloqlar qad ko'tardi.

Maroqanda bu - Samarqandning yunoncha nomi (miloddan avvalgi IV asr milodiy IV asrlar). Aslida Samarqandning qadimgi nomi Sug'd yozma manbalarida Smarakansa bo'lib, uni yunon tarixchilari Marokanda deb yunonchaga ugirib olganlar. Samarqandning Marokanda nomi XVII asrdan so'ng Yevropa tarixchilarining asarlari orqali kirib kelgan. Arxeologik tadqiqot natijalariga ko'ra, dastlab, miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda Marokanda atrofi mudofaa devorlari bilan o'ralgan qal'a-qo'rg'on bo'lganligi aytilga. Miloddan avvalgi VII asrdan shahar devori devg'ishtlardan qayta tiklangan. Uning shimoliy qismida hukmdor qarorgohi - Arki a'lo joylashgan. Yunon mualliflari Arrian, Strabon va Kurstiy Kvint Ruflarning ma'lumotlariga ko'ra, miloddan avvalgi 329 -yilda Aleksandr qo'shinlari Hindukushdan oshib o'tib uni zabit etib, vayron qilgan. O'sha kezlarda shahar maydonining aylanasi 12 km bo'lgan. Aleksandr qo'shinlariga qattiq qarshilik ko'rsatgan sug'd qahramoni Spitamen qo'shinlari to'satdan paydo bo'lishidan cho'chigan yunonlar shaharda o'z harbiy garnizonini saqlash maqsadida shahar qal'a devorini qayta tiklatgan. Strabonning ma'lumotlariga ko'ra, Spitamen boshchiligidagi qo'zg'olon bostirilgach, Aleksandr yana Marokandani vayron qilishni buyurgan. Keyinchalik shahar atrofidagi mudofaa devori mahalliy hokimlar tomonidan antik davrga xos

an'ana asosida qayta tiklangan. Marokanda miloddan avvalgi VIII asrdan to milodiy IX asrgacha sug'diycha Smarakansa, so'ng forsiycha Samarqand, IX asrdan turkiycha Semizkent nomi bilan manbalarda uchraydi. Keyinroq Samarqand nomi shaharning mutlaq nomiga aylandi.

Milodiy III-IV asrlardagi xalqlarning Buyuk ko'chishi davrida O'rta Osiyo orqali ko'chmanchi qabilalar to'lqini o'tib, bu qabilalar qisman vohalarda o'troqlashdi.

Milodiy I ming -yillik o'rtalarida bu hudud eftaliylar davlati, keyin qudratli Turk xoqonligi tarkibiga kiradi. Sug'd savdogarlar, samarqandlik tijoratchilarning nufuzi Turk xoqonligi davrida ortdi. Turk xoqonlari Xitoydan o'lpon sifatida oladigan ipaklarni samarqandlik savdogarlar sotishgan va Turk xoqonlari undan manfaatdor bo'lganlar.

Xitoy solnomalarida Samarqandda bolalar besh yoshidan savodga o'rgatilganligi, hunarlar va savdo bobidagi bilimlarni egallaganligi, tashabbuskorlik va tadbirkorlik ko'nikmalarni orttira borganligi haqida xabar bergenlar.

Sug'd shaharlarida me'mochilik rivojlanib, bir necha qavatli shinam uylar, rasmlar va haykallar bilan bezatilgan saroy va ibodatxonalar qad ko'tardi. Shahar savdogarları Xitoy, Eron, Misr, Suriya, Hindiston, Vizantiya bilan savdo qilgan.

712 -yil Samarqand Qutayba ibn Muslim qo'shinchilari tomonidan bosib olindi. Istilochilar so'g'd shaharlarini taladilar. Arab tarixchisi at-Tabariy Xurosonga tayinlangan noiblar tomonidan Samarqanddagagi ma'budlar talangani va ulardagi oltinlar, qimmatbaho toshlar yig'ib olinib, vayron qilib tashlangani haqida yozgan. VIII asrning ikkinchi yarmi IX asrda shahar vayronalardan qayta tiklangan.

IX-X asrlarda Samarqand hunarmandlari oltin va kumush belbog'lar, noyob metaldan ishlangan zargarlik buyumlari, zeb ziynat buyumlari ko'plab tayyorlandi.

Samarqand sopoli nihoyatda chiroyli bo'lgan. G'arbiy Yevropa muzeylearida Samarqandning sirli spool idishlari saqlanadi. Samarqandni qog'oz Sharq va G'arbning hamma mamlakatlarida mashhur bo'lgan. Samarqandning yuqori sifat va qiymatga ega kumush dirhamlari Italiya, Germaniya, Shvetsiya, Norvegiya, Golland yerlari va Kiiev Rusi knyazligining o'rta asr shaharlaridan topilgan xazinalar orasida uchraydi.

X asr arab geografi Istaxriy Samarqandni “Movarounnahrning quruqlikdagi bandargohi” deb ta’riflagan. Samarqand savdogarlari Misrdan tortib Xitoy va Hindistongacha mashhur bo‘lishgan. IX asr oxirida Somoniylarning poytaxti Buxoro bo‘lsada iqtisodiy va madniy va ilmiy markaz Samarqand bo‘lgan. Arab geograflari “iqlimlar” ni ajratib ko‘rsatganda, Buxoroni Samarqand Sug‘di tarkibiga kiritadilar. 887 -yilda birinchi marta somoniylarning kumush tangalari Samarqandda zarb qilingan.

IX-XII asrlarda shahar hayoti shahriston devorlaridan tashqariga chiqib, Cho‘ponota tepaliklaridan tortib Darg‘om daryosi etaklariga Zarafshon vodiysining bepoyon kengliklariga yoyildi. Shaharga suv maxsus qo‘rg‘oshin quvur “Jo‘yiarziz” orqali keltiriladi.

XI asrda Samarqand Qoraxoniylar davlati tarkibiga mulk sifatida kirgan. Garbiy tarmog‘ining poytaxti bo‘lgan. Ana shu vaqtda shahar hayotida yangi bosqich boshlandi. Bu yerda Tamg‘ochxon Ibrohim qasri va ko‘p ustunli Juma masjidi, shifoxona, madrasalar, shaharlik aslzodalarning uylari va hunarmandlarning dahalari bunyod etildi.

Shaharning janubiy qismida yirik diniy markazlardan biri barpo etilib, u sayyoohlarning piri Hazrat Xizr masjidi va Qusam ibn Abbas maqbarasi va sag‘anasi birlashtirildi.

Arxeologlar tadqiqoticha XI asrga ta’luqli me’moriy yodgorliklarning qoldiqlari topildi. Qoraxoniylar davriga Shohizinda katta shuhrat topdi. 960-970 -yillarda Samarqandga kelgan Ibn Havqalning yozishicha, Shahar “Movarounnahr nozik ta’b odamlari yig‘ilgan joy bo‘lib, ularning eng yaxshilari Samarqandda tarbiyalanganlar”.

XIII asr boshlariga kelib shahar Xorazmshohlar davlati tarkibiga kirgan. Muhammad Xorazmshohning buyrug‘i bilan Samarqand shahar devorlari mustahkamlanib jome’ masjidlar, qal'a qo‘rg‘onlar bunyod etildi. Bu davrdagi savdo aloqalari haqida Xitoy chinnisi va Suriya shishasi, Xorazm harbiy aslaha-anjomlari va oltin idishlari dalolat beradi. Biroq bunyodkorlik jarayoniga 1220 -yilning mart oyidagi Chingizxonning katta qo‘shin bilan Samarqandga bostirib kirishi jiddiy zarar ko‘rsatdi. Noyob Jo‘yi-arziz quvuri buzib tashlandi. Shahar suvsiz qoldirildi. Afrosiyobdagagi hayot so‘ndi va qayta tiklanmadidi. Shahar atrofi-rabotdagina davom etdi. Shahar anch yillar xaroba holatda qolib ketgan.

5.4. Samaqandda Amir Temur va temuriylar davrida shaharlar qurilishiga oid siyosat

Samarqand shahar hayotining yangidan, ajoyib gullab-yashnashi Amir Temur faoliyati bilan bog‘liq. Samarqand minorali mudofa devoi bilan qayta o‘raldi. Devor ichidagi maydon va ko‘chalar obodonlashtiildi, ariq va houzlar qazildi.

Atroflarni ko‘kalamzorlashtirdi,mahobatli obidalar bunyod etildi.Sherdor madrasasi o‘rnida bosh kiyimlar sotiladigan savdo rastalari qurdirdi.

Temurning g‘oyasi va buyrug‘i bilan Bibixonim masjidi 1399-1404 -yillarda qudirilgan. Bibixonim masjidini qurilishiga Hindistondan keltirilgan fillardan foydalanilgan.Xitoya yurishga ketgan sohibqiron naqbarani tugal qiyofasini ko‘rmagan. Bibixonim masjidi yaqinida Shohizinda daxmasi atrofida temuriylar oilasi maqbaralarning qatori joylashgan.

Ispaniya elchisi Ruyu Gonzales Klavixo shunday degan: “Samarqandning boyligi uning oziq-ovqatlaridagina emas, shu bilan birga, bu yerda ko‘plab tayyorlanadigan shoyi gazmollari, atlas, tafta, mo‘yna va ipak astarlar, upa-elliklar, bo‘yoqlar, sirlangan idishlar va boshqa narsalar. U Damashqdan kamon, o‘q-yoy va boshqa quollar yasovchi, shisha va loydan buyumlar tayyorlovchi har xil ustalarni keltirdi, dunyodagi eng yaxshi hunarmandlar: toshtaroshlar, zargarlarni muhandislarni olib keltirdi”

Amir Temur karvonsaroylar va bozorlarni qayta qurilishiga katta e’tibor berdi. Klavixo 1403 -yil shunday deb yozgan: Butun shahar bog‘ va uzumzorlar og‘ushida, shahar bog‘u rog‘lar o‘rtasida joylashgan. Amir Temur g‘oyasi bo‘yicha Samarqand dunyoning eng yirik shahi bo‘lishi kerak edi.Shahar atrofida sharq mamlakatlari poytaxtlari nomida Damashq, Bog‘dod, Forish, Misr kabi maxsus qishloqlar bunyot ettirgan.

Samarqandda o‘nlab binolar, g‘arbiy qismida esa shahar qal’asi (34 ga) barpo etildi. Uning ichida ikkita qasr Ko‘ksaroy va Bo‘stonsaroy, hunarmandchilik ustaxonalari, savdo rastalari, karvonsaroylar, hammomlar, shifoxonalar va boshqa madaniy - maishiy binolar qurildi. Amir va amirzodalar qal’adan tashqari orom va dam olish joylari.barpo ettirdi. Bog‘i Naqshi Jahon, Bog‘i Bihisht, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Shamol, Bog‘i Maydon, Bog‘i Zog‘on, Bog‘i Nav, Bog‘i Feruza, Davlatobod, Bog‘i Baland kabi bog‘lar bunyod etdilar. Amir Temur bog‘lari tuzilishiga ko‘ra 2 turga bo‘lingan:

- chorbog‘lar - geometrik (to‘rtburchak, to‘g‘ri to‘rtburchak) shaklda bo‘lib, har tomoni taxminan 1 km masofaga cho‘zilgan. Sahnidan o‘tgan ariqlar ularni teng 4 qismga ajratib turgan. Atrofidagi baland paxsa devorlarning ham burchagida minora bo‘lgan. Markazda saroy joylashgan. Bunday bog‘larning darvozalari shahar tarafga qaratib qurilgan;

- tuzilishi geometrik shaklda bo‘lmagan, tabiiy daraxtzor va chakalaklar bag‘rida barpo etilgan bog‘lar. Bunday bog‘lar hukmdor shikor(ov) qilishi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, asosiy qismi tabiiy, qo‘l tekkizilmagan holda saqlangan. Ularning bir qismigagina dam olish uchun saroy, ko‘shk va chodirlar qurilgan, hovuzlar qazilib, favvoralar o‘rnatilgan. Bu turdagи bog‘larning o‘simlik va hayvonot dunyosi nihoyatda boy bo‘lgan.

Amir Temur bog‘laridan eng mashhurlari quyidagilar:

Bog‘i Baland. Amir Temur Samarcandning shimolidagi Cho‘ponota maqbarasi yaqinida nabirasi (Mironshohning qizi)ga atab qurdirgan. Uni barpo qilishda Eron, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlar bog‘chilik san’ati ustalari hamda me’morlari qatnashgan. Bog‘ o‘rtasida Tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli qasr bo‘lib, uning atrofidagi uzumzor, anjirzor va olmazorlar boqqa go‘zal bir tarovat baxsh etib turgan.

Bog‘i Behisht. Amir Temur Samarcandning g‘arbida suyukli xotini Tuman og‘a (Xayrunnisso)ga atab qurdirgan (1378). Yozma manbalarda “Bog‘i Jannat” nomi bilan ataladi. Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, bog‘ o‘rtasidagi atrofi xandaq bilan muhofaza etilgan sun’iy tepalik ustida Tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli saroy bo‘lgan. Saroyga bir necha ko‘tarma ko‘priklar orqali kirilgan. Saroyning bir tarafida hayvonot bog‘chasi ham bo‘lgan.

Bog‘i Davlatobod. Amir Temurga Hindiston yurishidan qaytgan kuni (1399 -yil 22 aprel) hadya qilingan. Arxeologik tadqiqotlar (I.A.Suxaryov, 1936 va O‘.Alimov, 1967) ga ko‘ra, u Samarcanddan 13 km janubda, Katta O‘zbekiston traktining chap tomonida bo‘lgan. Amir Temur bu bog‘da zafarli yurishlardan qaytgach, dam olgan, tantanali marosimlar o‘tkazgan, elchilarni qabul qilgan. Arxeologik qazishlar natijasida bog‘ning 1350x900 m maydonni egallagani, atrofi baland paxsa devor bilan o‘ralgani va unda ariqlar, 4 hovuz (biri 62x28 m, ikkitasi 25x25 m, yana biri 32x32 m) hamda saroy

(poydevori 70x70 m) bo‘lgani aniqlandi. Saroy sun’iy tepe (balandligi 12 m) ustiga qurilgan, atrofi xandaq (eni 20m) bilan o‘ralgan. Unga 2 ta ko‘tarma ko‘prik orqali kirilgan.

Bog‘i Dilkusho. (Ko‘ngil ochuvchi bog‘). Amir Temur xotinlaridan biri - To‘qalxonim sharafiga qurdirgan (1397). Samarqanddan 5 km sharqda, Panjakent yo‘lining o‘ng tomonida (qadimgi Hinduvon qishlog‘i o‘rnida) joylashgan. Har tarafi 900 m uzunlikdagi baland paxsa devor bilan o‘ralgan, 4 darvozasi, markazida hashamatli saroy bo‘lgan. Saroy uch qavatli bo‘lib, har qavatida favvora otilib turgan. Saroy devorlariga Amir Temur olib borgan urushlardan lavhalar chizib qo‘-yilgan. Amir Temur Ispaniya elchisi Rui Gonzales de Klavixoni ana shu bog‘da qabul qilgan. Bu bog‘ o‘rnida hozir Dilkusho qishlog‘i joylashgan.

Bog‘i Jahonnamo (Jahon ko‘zgusi). Amir Temur Samarqanddan 7 farsax (42 km) narida, Zarafshon tog‘i etagida qurdirgan (1398). Unda saroy va qala bo‘lgan. “Zafarnoma” da yozilishicha, bu bog‘ning hududi benihoyat katta bo‘lib, yo‘qolib qolgan ot 6 oydan so‘ng topilgan ekan.

Bog‘i Maydon. Amir Temur Samarqandning shimolida, Cho‘ponota tepaligi etagida qurdirgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, bog‘da hashamatli bir ayvon (ko‘shk) va qimmatbaho toshlardan yasalgan taxt bo‘lgan. Mirzo Ulug‘bek bu bog‘ni yanada obod qilgan. Bobur shu xaqda bunday deb yozadi: “Bu bog‘ning o‘rtasida (Ulug‘bek) bir oliy imorat qilibdur. Chil (qirq) sutun derlar, du (ikki) oshyona (qavat), sutunlari tamomi toshdin. Bu imoratning to‘rt burchida to‘rt manordek burjlar qo‘poribturlarkim, yuqorig‘a chiqar yo‘llar bu to‘rt burjdindur. O‘zga tamom erlarda toshdin sutunlardir. Ba’zini morpech xiyora (burama, ko‘pqirrali) qilibturlar. Yuqorigi oshyonaning to‘rt tarafi ayvondir, sutunlari toshdan. O‘rtasi chordora uydir. Imorat kursisini tamom toshdan farsh qilibdilar”. Bu bog‘ o‘rni hozir ham Bog‘i Maydon deb ataladi.

Bog‘i Nav (Yangi bog‘). Amir Temur Samarqandning janubida qurdirgan (1404). Lolazor qishlog‘i o‘rnida joylashgan. Bu bog‘ to‘rtburchak shaklda bo‘lib, atrofi baland paxsa devor bilann o‘ralgan. Har burchagida minora qad ko‘tarib turgan. Markazida boshqa bog‘lardagiga nisbatan kattaroq qasr, uning oldida hovuz bo‘lgan.

Bog‘i Chinor. Amir Temur Samarqandning sharqida (Konigilning janubiy-g‘arb tarafida, hozirgi “Qo‘sh tamg‘alik”

tepaligi o‘rnida) barpo qildirgan (1404). Unda chinorlar ko‘p bo‘lgan. Markazida xochsimon tarhli saroy joylashgan.

Bog‘i Shamol. Amir Temur 1397 -yil nabirasi (Mironshohning qizi) ga atab qurdirgan. Samarqandning g‘arbida bo‘lgan. Undagi saroy to‘rtburchak shaklda bo‘lib, har tomoni 1500 qadamni tashkil qilgan. Devorlariga marmar qoplanib, sahni qora yog‘och va fil suyagidan ishlangan. Bu bog‘ joylashgan hudud va u yerdagи ariq hozir ham “Bog‘i Shamol” deb ataladi.

Samarqand atrofida bulardan tashqari yana bir qancha bog‘lar bo‘lgan. Chunonchi, Bog‘i Bo‘ldu, Bog‘i Zog‘on, Bog‘i Naqshi Jahon, Bog‘i Amirzoda Shohrux, Bog‘cha, Bog‘i Dilafro‘z, Bog‘i Sheron, Gulbog‘, Lolazor, Bedana qo‘rug‘i, Chumchuqlik, G‘ozxona va boshqalar shular jumlasidandir.

Shahar ichkarisi va tashqarisida Bibixonim Jome masjidi, Go‘ri Amir maqbarasi, Shoxi Zinda majmuasi, Ulug‘bek madrasasi, rasadxonasi kabi ko‘plab mashhur me’moriy obidalar yaratildi. Samarqand zamonasining yirik ilmiy markazlaridan biriga aylandi. Mirzo Ulug‘bek bobosini an'analarini davom ettirdi. Chuponota tepaligida Ulug‘bek bog‘ini yaratdi. Jumladan: Ulug‘bek rasadxonasi 1424 - 1428 -yillar mobaynida Samarqand shahri yaqinidagi Obirahmat anhori bo‘yida qurilgan. Rasadxona Mirzo Ulug‘bek farmoniga muvofiq qad ko‘targan bo‘lib, uni bunyod etishda Ulug‘bekning ustozি Qozizoda Rumiy va G‘iyosiddin Jamshid bosh - qosh bo‘ladilar. Rasadxona joylashgan ushbu mavze mahalliy aholi o‘rtasida “Naqshi jahon” degan nom bilan mashhur bo‘lgan. Rasadxonaning asosiy qismi radiusi 40,2 metrli sekstant bo‘lgan.

Ulug‘bekning vafotidan so‘ng (1449) rasadxona qarovsiz holga kelib, xaroba holga kelib qoladi, uning asboblari buzib tashlanadi. olimlar Samarqandni tark etishadi. Rasadxona ayovsiz urushlar tufayli XVI - XVII asrlarda yo‘q bo‘lib ketadi. Nihoyat arxeolog olim V. L. Vyatkin XVII asrga oid bir vaqf hujjatni Samarqandlik keksa olim qo‘lidan olishga muvaffaq bo‘ladi. Shu asosda rasadxonaning saqlangan yer osti qismini topadi

Vasiliy Lavrentievich Vyatkin Samarqand yaqinidagi Ulug‘bek rasadxonasining qoldiqlarini topish va qazish uchun keng tanilgan. 1896 -yilda Samarqandda Arxeologiya muzeyigi asos solgan bo‘lib, u uzoq vaqt davomida rejissyor edi. Samarqanddagi Afrosiyob shahrining qadimgi turar-joyini ham qazib o‘rgangan U 1932 - yilda

Samarqandda vafot etdi, uning qabri mashhur Ulug'bek rasadxonasining qoldiqlari yonida joylashgan bo'lib, uning qoldiqlari bir vaqtlar o'zi kashf qilgan.

Samarqandda Taftazoniy, Jurjoniy, Qozizoda Rumiy, G'iyo'siddin Jamshed, Ali Qushchi kabi olimlar jahoni shuhrat topdilar. Ulug'bek boshchiligidagi Samarqand ilmiy maktabining mahsuli bo'lgan "Ziji jadidiy Ko'ragoniy" asarida keltirilgan astronomik, matematik mushohadalar va faktlar o'zining aniqligi bilan hamon dunyonи hayratga solmoqda. Jahon mumtoz adabiyotining yirik namoyondalari Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar ham Samarqandda ta'lim olganlar.

XV asrning oxirida, qisqa muddat davomida shaharda hukmronlik qilgan Zahiriddin Bobur Samarqandga quyidagicha ta'rif beradi: "Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahar kamroqdur. Uzumi va qovuni va olmasi va anori, balki ja'mi mevasi xub bo'lur. Vale ikki meva Samarqandda mashhurdir: sebi Samarqand va sohibiy Samarqand. Samarqand shahri ajab orasta shahardur" "Olamda yaxshi qog'oz Samarqanddin chiqar".

Samarqand buyuk Amir Temur nomi bilan atalgan ordenni birinchi bo'lib olishga sazovor bo'lgan tabarruk shahardir. 1996-yil 28-avgustda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning Samarqand shahrini Amir Temur ordeni bilan mukofotlash to'g'risidagi Qarori chiqarildi, shu yili 18-oktabrda Amir Temurning haykalini ochilish marosimi bo'ldi va marosimda samarqandliklarga ushbu orden topshirildi, 18-oktabr "Samarqand shahri kuni" deb e'lon qilindi.

Nazorat uchun savollar

1. Arxeologik tadqiqotlarda V.V.Bartol'd A.I.Vyatkin, A.V.Masson
2. Xitoy va arab geograflari Samarqand haqida.
4. Ko'ktepa, "Qo'rg'oshin ariq", Do'rmontepa haqida bilasizmi?
3. Amir Temur va temuriylar davrida shaharlar qurilishiga oid siyosati.

Nazorat uchun test savollari

1. Butun shahar bog' va uzumzorlar og'ushida, shahar bog'u rog'lar o'rtasida joylashgan deb kim aytgan?

A Klavixo

- B Abdulqosim Firdavsiy
S Arab tarixchisi at-Tabariy
D Mahmud Qashqariy
2. Makedoniyalik Aleksandr yurishlari munosabati bilan ellin madaniyati kirib keladi?
- A Ko'ktepaga
B Do'rmontepaga
S Chuponotaga
D Sazag'onga
3. Birinchi marta somoniylarning kumush tangalari Samarqandda qachon zarb qilingan.?
- A 887-yilda
B 898-yilda
S 900-yilda
D 908-yilda
4. Samarqandni "Movarounnahrning quruqligidagi bandargohi" deb kim ta'riflagan?
- A arab geografi Istaxriy
B arab tarixchisi at-Tabariy
S xitoylik Syan Szyan
D ozarbayjon geografi Abdurashid al-Bakuviy
5. Samarqandga Amir Temur ordeni qachon berilgan?
- A 1996-yil 18-oktabrda
B 1996-yil 28 avgustda
S 1996-yil 9-aprelda
D 1996-yil 31 avgustda
6. "Samarqand shahri kuni" deb e'lon qilindi.
- A 18-oktabr
B 11-yanvar
S 4-iyun
D 31-avgust
7. Bog'i Davlatobod. Amir Temurga qaysi yurishidan qaytgan kuni hadya qilingan?
- A Hindiston yurishidan qaytgan kuni (1399-yil 22-aprel) hadya qilingan.
B Xitoy yurishidan qaytgan kuni (1402-yil 2-may) hadya qilingan.

S Xorazmga yurishidan qaytgan kuni (1389-yil 2-aprel) hadya qilingan.

D Toshkent yurishidan qaytgan kuni (1379-yil 4-oktabr) hadya qilingan.

8. Kimning fikricha shahar “Semizkent”, ya’ni “semiz boy” shahar ma’nosini anglatadi?.

A Mahmud Qashqariy

B At-Tabariy

S Syan Szyan

D Istanriy

9. Qachondan boshlab aholi orasida “Qal’ai Afrosiyob” yoki “Afrosiyob” deb atala boshlangan.?.

A XVII asrdan boshlab

B IX asrdan boshlab

S XIX asrdan boshlab

D XV asrdan boshlab

10. Chingizzonning katta qo’shin bilan Samarqandga bostirib kirishi jiddiy zarar ko’rsatdi.

A 1220-yilning mart oyida

B 1220-yilning fevral oyida

S 1218-yilning may oyida

D 1222-yilning yanvar oyida

Manba va adabiyotlar

1. Ahmedov B. Amir Temurni yod etib, Toshkent, O’zbekiston, 1996.

2. Маршак Б.И. Самый ранний сюжет согдийской живописи.

// Тўплам:

Зарафшон воҳаси ва унинг тарихдаги ўрни. Ўзбекистон Республикасини 10 йиллигига бағишланган илмий-назарий анжуман материаллари. 2001 йил 18-19 май, I қисм, Самарқанд, 2001.

3. Алимова Д.А., Буряков Ю.Ф., Рахматуллаев Ш.М. Самарқанд тарихи. (қадимги даврдан бугунги кунгача) Тошкент, 2009

4. Самарқанд тарихи 1-том, Тошкент, 1971

6-mavzu:Buxoro vohasi shaharlari urbanizatsiyasi

Reja:

- 6.1. Buxoro shahri tarixi va shahar urbanizatsiyasi
- 6.2. Varaxsha, Poykent- qadimiy shaharlar
- 6.3. Romitan va Vobkent haqida tarixiy manbalar
- 6.4. Buxoro Somoniylar davlati poytaxti
- 6.5. Amir Temur va temuriylar davrida Buxoro
- 6.6. XVI-XVII asrlarda Buxoro shaharlari urbanizatsiyasi

Tayanch so‘z va iboralar: Mis shahar, Buxoroxudotlar, Poykand, Romitan, YUNESKO, Varaxsha, Vobkent, Romitan, “Qubbat ul-Islom”- “Islom dinining gumbazi”, Chashmayi Ayub, “Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir”, Hunarmandchilik, “Zafarnoma”.

6.1 Buxoro shahri tarixi va shahar urbanizatsiyasi

Buxoro o‘zining 25 asrlik tarixi davomida jahon fani va madaniyatini rivojlantirishga, ayniqsa, Sharq madaniyatini taraqqiy ettirishga salmoqli hissa qo‘shtan qo‘hna shahardir. Shaharning tarixiy qismi 1993 - yilda YUNESKO tomonidan insoniyatning butundunyo tarixiy merosi shaharlari ro‘yxatiga kiritilgan. Buxoro o‘zining 400 dan ortiq me’moriy obidalari bilan Markaziy Osiyodagi eng katta muzey-shahar hisoblanadi.

Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoroga miloddan avvalgi 1-ming yillik o‘rtalarida asos solingan. Ilk o‘rtas asr Xitoy manbalarida shaharning nomi An, Ansi, Ango, Buxo, buku, Buxaer, Buxola, Fuxo, Puxuala deb atalgan. Mutaxassislarining fikricha, bu atamalarning avvalgi uchtasi Buxoroning Xitoycha nomlari bo‘lib, qolgani “Buxoro” so‘zining Xitoy tilidagi talaffuzidir.

O‘rtas asr arab manbalarida Buxoro Numijkat, Navmijkat, Bumichkat (Yangi Qo‘rg‘on), Al-Madina as-sufriya (Mis shahar), Madinat ut-tujjor (Savdogarlar shahri). Foxira (Faxr shahri) kabi nomlar bilan tilga olingan. Buxoro atamasi sanskritcha “vixara” so‘zining turk-mo‘g‘ulcha shakli - “buxor” (“ibodatxona”) dan kelib chiqqan deb tahlil qilingan. Keyingi tadqiqotlarda bu atama so‘g‘diycha “bug” yoki “bag” (“tangri”) hamda “oro” (“jamol”) so‘zlaridan iborat bo‘lib, “tangri jamoli”degan ma’noni anglatadi, degan fikrlar ham mavjud.

Narshaxiyning yozishchicha - “Samarqand tomonida bir katta daryo borki, uni “Rudi mosaf” - “Mosaf daryosi”(Hozirgi Zarafshon daryosi) deb aytaydilar. Bu daryoga ko‘p suv yig‘ilgan, u bir talay

yerlarni yuvib-o‘pirib, ko‘p loyqalarni surib kelgan va natijada, bu botqoqliklar to‘lib qolgan. Suv ko‘p oqib kela berdi, loyqalarni Bitik (Chorjo‘y ro‘parasidagi Amudaryo bo‘yida joylashgan qishloq) va Forobgacha (Chorjo‘y yaqinidagi, Amudaryo sohilidagi shahar) surib keltira berdi. So‘ng suv toshib kelishi to‘xtadi. Buxoro o‘rnashgan joy asta-sekin to‘lib tekis yerga aylandi va shunday qilib, u katta daryo So‘g‘d va bu loyqalar bilan to‘lgan mavze Buxoro bo‘lib qoldi, har tomonidan odamlar yig‘ilib, u joy obod bo‘ldi”.

Buxoro shahrining barpo bo‘lishi Zarafshon vodiysining o‘zlashtirib obod etilishi hamda voha bo‘ylab urbanizastiyalashgan dehqonchilik, qishloqlar va istehkomsiz turar joylar, keyinroq esa ko‘plab qasrlarning qad ko‘tarishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Milodgacha bo‘lgan V asr oxiri va IV asrlarda, ayniqsa III va II asrlarda bu jarayon keskin jadallahsgan. Buxoro shahri yaqinidagi Taxtmachittepa va Talimurda partav yodgorliklaridan topilgan, miloddan av. IV - II asrlarga mansub Yunon-Baktriya podshohi Evtidemning kumush tangalari hamda ularga taqlidan yasalgan va old tomoniga tojdar hukmdor, orqa tomonida esa otashkada tasviri tushirilgan kumush tangalarda ma’lum darajada o‘z ifodasini topgan. Hatto qadimgi Buxoro tojdlorlari miloddan avvalgi II asrdayoq o‘z kumush tangalarini zarb etib chiqara boshlaganlar.

Er.av. II asrdan boshlab Buxoro vohasida boy dehqonlarga qarashli mustahkam uy joylar paydo bo‘la boshlagan. Bu davrda vohada qishloq jamoasiga tegishli “dehqon”lar tomonidan sug‘oriladigan yerlar va o‘tloqlar egallanib boshlagan. Kichik-kichik davlatlar paydo bo‘lib, o‘zlarini turli nomlar bilan atagan podshohlar tomonidan boshqarilgan. Masalan, Buxoroda-buxoroxudotlar, Buxoro vohasining shimolida joylashgan Vardonzed -vardonxudatlar, so‘g‘dda - ixshidlar, Ustrushonada - afshinlar deb atashgan.

Buxoroxudot - (Buxoro va fors “xudo” - tangri, ega, hokim ma’nolarini anglatadi. Buxoroga islom kirib kelgach arablar uni Buxorxudat deb o‘z tillariga moslab olganlar. Buxorxudat atamasi dastlab Buxorxudo shaklida bo‘lgan.

Buxoroxudotlar VI-VIII asrlar mobaynida Buxoroni idora qilib, hududi hozirgi Buxoro, Vobkent, Kogon, Romitan, Jondor va Qorako‘l tumani yerlaridan iborat bo‘lgan.

Arablarning Buxoro muzofotiga kirib kelishi 673 - yilning kuzida Xalifa Muoviya (661-680 y.y.) farmoni bilan Ubaydulloh ibn

Ziyodning Amudaryodan kechib o‘tishidan boshlandi. Dastlab Poykand va Romitanni egallab, Buxoro shahrini qamalga oladi.

707 - yilda Qutayba katta qo‘shin bilan Amudaryodan o‘tib, Buxoro vohasiga bostirib keladi. Arab qo‘shinlari dastlab eng qadimiy va obod shaharlardan bo‘lgan Poykandni qamalga oldilar.

Somoniylar xonadonining vakili Samarqand hukmdori somoniy Nasr ibn Ahmad 874 -yilda ukasi Ismoilni Buxoroga noib qilib yuboradi. Buxoro IX-X asrlarda Somoniylar, X asr oxirida Qoraxoniylar boshqaruvida bo‘lgan.

1220 - yil fevralida mo‘g‘ullar Buxoroni egalladilar. Go‘rxon boshchiligida 12 kun davomida mo‘g‘ullarga qarshilik ko‘rsatdi. Qal'a ichidagi chuqurlar odam va hayvon mayitlariga to‘lib, qahramonlar o‘z jonlarini fido qilgandan keyingina Ark zabit etildi. Nayob qo‘lyozma asarlar, muqaddas kitoblar yirtildi. Ulamo va shayxlar e’tiborli mo‘g‘ul jangchilariga xizmatkor qilib berilgan. Maschitlarda sharobxo‘rlik qilinib, mo‘g‘ullar ashula aytayotgan paytda ulamolar va shayxlarni otxonalarda otlarni qo‘riqlash uchun qo‘ydilar.

Xullas san’ati, ilm-ma’rifati yuksak bo‘lgan Buxoro aholisi xo‘rlandi va masxara qilindi. Istilochilar Buxorodan g‘oyatda ko‘p asir olib qaytdilar. Asirlarning ko‘pchiligi hunarmandlar bo‘lib, mo‘g‘ullar ulardan turli xil hunarmandchilik buyumlari, qurol-yarog‘, asbob-uskunalar, zeb-ziynatlar yasab beradigan ishchi kuchi sifatida foydalanganlar.

1238 -yilda Buxorodan 3 farsax (18-20 km) narida Torob qishlog‘ida (hozirgi Jondor tumani hududi) boshlanadi. Qo‘zg‘olonga Toroblik g‘alvir yasovchi Mahmud boshchilik qiladi va tarixda u Maxmud Torobi y qo‘zg‘oloni nomi bilan mashhur. Tarixchi Juvayniyning yozishicha, M.Torobi ularni kurashga chaqirdi. Qo‘zg‘olon shiddat bilan avjiga chiqdiki, M.Torobi qo‘shinlarining Karmana atrofida mo‘g‘ullar va Buxorodan qochib ketgan amaldorlar qo‘shinlaridan engilib, M.Torobi va Shamsuddin Maxbubiylar halok bo‘lgandan so‘nggina qo‘zg‘olon bostiriladi.

1316 - yilning sentyabr-oktabr oylarida Erondan kelgan mo‘g‘ullar Chig‘atoy shahzodasi Yasovur bilan birgalikda Buxoro va boshqa shaharlarni yana talab, aholisini zo‘rlab olib ketdilar.

Arab Sayyohi ibn Batutta 1333 - yilda Buxoroda bo‘lib, ko‘pgina bozor va maschitlar xaroba holda turganligini bayon etgan.

Mo‘g‘ullar istibdodiga, chingiziy shahzodalarning o‘zaro urushlari, mo‘g‘ullarning Movaunnahrga tinimsiz bosqinlari, shahar va qishloqlarni talon-taroj qilib, aholiga cheksiz qilingan shafqatsizliklarga sohibqiron Amir Temur chek qo‘ygan.

6.2.Varaxsha, Poykent – qadimiy shaharlar

Varaxsha qadimiy shahar. Arxeologik qazishmalardan ma’lum bo‘lishicha, Varaxsha miloddan avvalgi II asrda bir-biriga tutashgan bir nechta istexkomli qishloqlar tarzida qad ko‘targan Buxorodan 40 km shimoli-g‘arbda, Dashti Urganji ko‘lining qadimiy Rajfandun vohasida joylashgan. Varaxsha maydoni 9 ga va balandligi 10-20 m li ulkan tepe shaklida saqlangan. Varaxsha va uning atrofida A. Shishkin (1937– 39, 1947-54) keng ko‘lamda arxeologik tadqiqotlar olib borgan; A. Muxammadjonov (1975-77), O. V. Obelchenko (1977-79), G. V. Shishkina (1987-90) ham Varaxshanining ayrim qismlarida qazishmalar olib borishgan.

1949 - 54 - yillarda Varaxsha tarixi va me’morchiligi o‘rganildi. Kvadrat shakldagi yirik xom g‘ishtlardan balandligi 15 metr qo‘shminora tarzida o‘rab chiqilgan tagkursilarning biriga podsho saroyi va ikkinchisiga soqchixonali darvozaxona bino qilingan. Arkning sharqiy qismida tomi ravoqsimon gumbaz tarzida yopilgan uzun yo‘laksimon -navkarxona va darvozaxonalar mavjud bo‘lgan. Arkning markazida janubiy tomoni mudofaa devoriga yondoshgan Varaxsha hukmdorining saroyi joylashgan. U Sharqiy (11,5x17 m) va G‘arbiy (6,6x7,25 m) mehmonxona hamda qizil xona (zal) (8,5x12 m) lardan iborat bo‘lgan. Saroy g‘arb tomonidan 3 ravoqli ganchkori ustunlar o‘rnatilgan hashamatli peshayvon bilan o‘ralgan. Ayvon ravoqlarining ustunlari va toqilari ganchkori qabartma tasvirlar hamda turli xil girixlar bilan bezatilgan. Saroyning qizil xona va Sharqiy mehmonxonalarini to‘la kavlab ochilgan. Xona devorlari mayda somonli loy suvoq ustidan yupqa ganch suvoq qilinib, devoriy rasmlar qizil, sariq, ko‘lrang, qora, zangori, pushti va jigarrang bo‘yoq bilan bezatilgan. Ularda turli xil manzaralar, fil mingan shaxzoda va qoplonlar bilan olishuvi; qayrilib nishonga kamondan o‘q uzayotgan ot ustidagi chavandoz, qanotli tuya shaklidagi oltin taxtda o‘tirgan hukmdor tasvirlangan. Sharqiy mexmonxona devorida tiz cho‘kib, qo‘lida qadax tutgan malika, belida shamshir, bir qo‘lida qisqich ushlagan podshoh, o‘rtada vazasimon otashgopa yonib turgan muqaddas olov, otashgohdan o‘ngda beliga xanjar taqilgan

shahzodaning tiz cho‘kib ibodat qilayotgan tasviri yoki sovut va dubulg‘a kiygan, qo‘llarida nayza, qalkon ushlagan suvoriy larning jang qilayotgan, shuningdek butazor, to‘qay ichidagi ov manzarasi kabi tasvirlar ayniqsa diqqatga sazovordir.

Arxeologik topilmalardan aniqlanishicha, janubiy xonalarning ikkinchi qavatidagi xona ganchkori naqshlar bilan bezatilgan. Ko‘plab topilgan qabartma ganchkori naqshlar orasida xovuzda suzib yurgan baliqlar, elkasidan o‘q yegan arxar, yelib borayotgan jayron, bedanalar, ayol boshli baxt qushi Xumo, xamlga tayyorlanayotgan ajdarho, taqimiga sadoq bog‘lagan suvoriy hamda ko‘pdan-ko‘p ayollarning bosh qismlari bilan bir qatorda turli xil islimiy va girix parchalari uchraydi.

Varaxsha xarobalarining shimoli-g‘arbida qadimiyo qo‘rg‘onlardan birining tashqi devori kamda yarim doira shakldagi burji (ichki saxni 4,5x5 m) kavlab o‘rganilgan. Devor (qalinligi 1,8-1,9 m) xom gishtdan (hajmi 37x41x10 sm) qurilgan. Devor va burjlarida paykonsimon nishon tuynuklari (ichki tomoni 38-40 sm, tashkarisi 75-80 sm, keng-ligi 20-22 sm) ochilgan. Miloddan avvalgi Varaxsha II- I-asrlarda va miloddan I-II-asrlarda Varaxsha va uning atrofida madaniy hayot gullagan. 3-4-asrlarda Varaxsha tanazzulga uchragan. V-asrda Varaxsha yana tiklanib Buxoroning qadimiyo hukmdorlari buxorxudotlarning qarorgohiga aylangan. Shu davrda Varaxsha mustahkam devor bilan o‘ralgan, uning janubiy qismida ark qurilgan. VIII-X-asrlarda ayniqsa obod bo‘lgan.

Varaxsha va uning atroflari 12 kanal bilan sug‘orilib, Rajfandun vohasidagi eng yirik va markaziy qal’alardan biriga aylangan. Istaxriy va Ibn Xavqal ma’lumotlarida keltirilishicha, Buxoro va Xorazm oralig‘idagi karvon yo‘li Varaxsha orqali o‘tgan. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida ta’kidlanishicha, har o‘n besh kunda Varaxshada bir kunlik, -yil oxirida 20 kunlik bozor sayli (navro‘zi kasho varzon, ya’ni dehqonlar yangi yili) o‘tkazilgan. Buxorxudotlar qarargohi qilinishi bilan Varaxsha yirik shaharga aylangan. XI-XII-asrlarda uning xududi eniga 6 km. dan ziyod bo‘lgan. XII-asrda Varaxsha vohasidagi hayot to‘satdan noma’lum sabablarga ko‘ra to‘xtab qolgan.

Poykent qadimgi shahar: Qadimgi Poykend shahri to‘g‘risida Xitoy, arab mualliflari qimmatli ma’lumotlarni yozib qoldirganlar. Maydoni 21 ga.bo‘lib IV–III asrdan boshlab qad ko‘targan.

O‘rta asr arab muarixlari Tabariy, Ibn-al Xordadbek, Ibn al-Faqihlar asarlarida “Madina al Tujjor”, - “Savdogarlar shahri deya e’tirof etilgan, qadimda Sug‘dning “Marvarid monand” shahri bo‘lgan, qadimgi Poykend shahri Buxorodan 55 km janubiy g‘arbda, Qorakul tumani hududida joylashgan.

Garchand shahar ijtimoiy, tabiiy oqibatlar tufayli o‘rta asr Sug‘dining bir qator shaharlari singari, o‘rta asrlardayoq vayronaga yuz tutsada, utmish qa’riga butunlay singib ketmagan, uzidan boy va bebaho tarixni qoldirgan.

Arab geografi Istaxriy 930-933 -yillar atrofida yozgan “Kitob al-masolik val mamolik”, (“yillar va mamlakatlar to‘g‘risida kitob) asarida Buxoro vohasidagi 30 tacha shaharlар to‘g‘risida ma’lumot berib, kattaligi va mashhurligi sababli Buxorodan so‘ng ikkinchi o‘rinda Poykend shahrini tilga olib o‘tgan.

Buyuk Ipak yo‘lida joylashgani, qulay geografik imkoniyatga egaligi bois, shahar xalqaro tranzit savdoda ishtirok qilishini e’tiborga olib, X asrda yashagan buxorolik tarixchi Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy o‘zining “Buxoro tarixi” asarida “Baykend aholisi hammasi savdogar bo‘lgan. Ular Xitoy bilan va dengiz orqali boriladigan mamlakatlar bilan savdo qilganlar va juda boy bo‘lganlar”, - deb yozib qoldirgan.

X asrda bitilgan bir qator tarixiy manbalarda Poykend Movarounnaxrning yirik savdo hunarmandchilik markazi sifatida tasvirlanadi. Manbalar shaharning Poykenddan boshqa nomlarda ham atalganini yoritadi. Jumladan: “Madinat al tujjor” (“Savdogarlar shahri”), “Shaxristoni ruin”, (“Jezddan qurilgan shahar”, “Mis shahar” va boshqa nomlar.

Bu nomlar shaharning tarixiy ijtimoiy topografiyasi, geografik joylashuvi, siyosiy, iqtisodiy va harbiy xolatlaridan kelib berilgani tabiiy.

Tadqiqotchilar Beleniskiy, Bentovich, Bolshakovlar VII asr va VIII asr boshlarida Poykend, O‘rta Osiyoda yagona, erkin shahar, savdo markaziga aylangan degan xulosaga kelishgan.

Istaxriy va Ibn Xavqallar Poykend X asrda kuchli mudofaa devorlari bilan o‘ralganligini, unda mahorat bilan qurilgan jome masjadi borligini masjid mehrobining oltin va qimmatbaho toshlar bilan bezalgani bois Movarounnahrda unga teng kela oladigani yo‘qligini ham yozib qoldirishgan.

Ba’zi manbalarda Poykend bilan bog‘liq ma’lumotlar afsonaviy ohanglarda bitilganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Jumladan Firdavsiyning mashhur “Shohnoma” dostonida “Kayxusrav Poykendda olov ibodatxonasini ko‘rib, uning devorlariga Zardushtylarning muqaddas kitobi “Avesto”ni oltin harflar bilan yozdirib qo‘ydi”.

Narshaxiy Poykendda oliv imoratlar bilan birga, shahar darvozalari oldida Buxoro qishloqlari soniga ya’ni 1000 dan ortiq robotlar qurilganini yozadi.

XIX asrda ruslarning Turkiston zaminiga kirib kelishi natijasida rus tarixchi tadqiqotchilarining bu ko‘hna shahar vayronalari bilan qiziqishi ortdi. 1896 -yilda V.V.Bartold ko‘rsatmasiga muvofiq Turkiston arxeologiyasiga qiziquvchilar to‘garagi boshqaruvi Poykend to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlarni to‘pladi. N.F.Sitnyakovskiy tomonidan shaharning va unda saqlanib qolgan imoratlar vayronalarining plani kartaga tushirildi.

1903-yilda R.Pampelli, 1913–14 -yillarda L.A.Zimin boshchiligidagi ekspedistiyalar Poykendda dastlabki qazuvlarni amalga oshirgan. 1939 - yilda qadimgi Poykend tarixini arxeologik urganishlar tarixida yangi bosqichi boshlandi. Rossiya Ermitaji, Jahon madaniyati tarixi instituti tomonidan tashkil etilgan Zarafshon ekspedistiyasi, O‘zkomstaris vakili V.A.Shishkin ishtirokida shahar vayronalari va uning atroflarida tadqiqotlar boshladilar.

1940 -yilda ham bu ishlar davom ettirilib, unda taniqli arxeologlar V.A.Shishkin, M.M.Dyakonov, A.Yu.Yakubovskiy, V.N.Kesaev, N.P.Kiparisova, S.K.Kabanovlar qatnashgan.

1954-yilda qadimgi Poykendning shaharga tutash qismlarini urganish maqsadida O‘zbekiston FA. Tarix va Arxeologiya institutining maxsus tadqiqotlar o‘tkazdi. Natijada shahardan shimoliy sharq tomonda joylashgan qadimiy nekropol (xilxona) qoldiqlari topib o‘rganildi. 1980-85 - yillar A.R.Muxammadjonov, J.K.Mirzaaxmedov, Sh.T.Odilovlar Rossiyalik professor G.L.Semyonov va uning shogirdlari izlanishlar olib bordilar. 1999 - yildan boshlab esa Rossiya Davlat Ermitaji va O‘zbekiston Respublikasi FA.Arxeologiya instituti tomonidan Har yili Sankt-Peterburgda “Материалы Бухарской археологической экспедиции” nomi ostida Poykendda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar natijasi e’lon qilingan.

Topilgan 5000 dan ziyod nodir muzey eksponatlari nafaqat qadimgi Poykend shahri tarixi, balki o‘zbek davlatchiligining ba’zi rivojlanish jihatlari tarixini, qadimgi o‘zbek shaharsozligi, madaniyati, san’ati, siyosiy-iqtisodiy rivojlanishi, savdo-sotiq aloqalari tarixini ham o‘zida aks ettirgan. Shularni hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi FA olimlari va Buxoro ilmiy jamoatchiligi takliflari asosida, Buxoro viloyat hokimining 2000 -yil 1 mayda № 73 - f sonli farmoyishi asosida Qadimgi Poykend shahri yaqinida “Qadimgi Poykend tarixi” muzeyi tashkil etildi. Bu muzey shaharning tarixini yoritib beruvchi nodir arxeologik manbalarga boy.

Muzey kirish zali, uchta asosiy zalidan iborat bo‘lib, 1500 dan ortiq ekponatlarni namoyish qilmoqda. Muzey Poykend shahri urbanizatsiyasini to‘liq yoritib beradi.

Poykend shahri IV-V asrlarda kengayib yanada mustahkam bo‘lgan. Ikki qavatli devor bilan o‘ralgan. Shaharning atroflarida bir necha qurg‘onlar bo‘lgan.

670 - yildan boshlangan arablarning Buxoro, Poykend, Samarkand, Termizga qilgan harbiy yurishlari davrida Movarounnahr Arab xalifaligi tarkibiga qo‘shib olinmagan. 704 -yildan boshlangan Movarounnahrni fatx etishning ikkinchi bosqichida Xuroson noibi shafqatsiz Al-Hajjoj va harbiy yurishlar rahbari Kutayba ibn Muslim Movarounnaxrning Xorazmdan tortib Chag‘oniyongacha, Poykenddan tortib Chochgacha bo‘lgan barcha viloyatlariga sakkiz -yil davomida qushin tortib bordi.

Natijada butun Movarounnahr singari Poykend shahri ham 705-yildan arab xalifaligi tasarrufiga kiritiladi. Movarounnahrning arablar tomonidan fatح etilishi mintaqada islom dini va arab yozuvining majburiy yo-yilishiga olib keladi. Markaziy Osiyoda shunga qadar amalda bo‘lib kelgan o‘ziga xos sug‘d, urxun, xorazm yozuvlari o‘rnini ham arab yozushi egalladi.

Poykent muzey katta zali ekzpozistiyasi X asrga oid sopol bo‘lagiga yozib qoldirilgan yozuv bilan boshlanadi. Sopol bo‘lagida: “Bismillahur al Roxmanir Rohiyim”, ya’ni “Dunyoda ham oxiratda ham rahmat qiluvchi Ollohu ta’oloning nomi bilan boshlayman bu ishni”, de-yiladigan Qur’oni Karimning birinchi surasi boshlanishi, qora tushda yozilgan. Qo‘ylgan sopol parchalarida o’sha davrdan bizgacha etib kelgan arabcha yozuvlar namoyish qilingan.

Ma'lumki dastlabki davrlarda arab yozuvini o'rganish, yozish qiyinchilik bilan kechgan bo'lsa kerak. Shu sababli ham, ayrim jumla va so'zlar noto'g'ri yozilgan. Bulardan tashqari, yozuv anjomlari shishadan ishlangan siyohdon, qalamdonlar ham Poykend ahlining IX-XI asrlardagi yozuv anjomlari qanday bo'lganligidan guvohlik beradi.

O'sha davr davlatchiliga xos bo'lgan pul muomalasini ifodalovchi Somoniylar hukmdorligida zarb qilingan tanga pullar muzeydan joy olgan. Bu davr pul muomalasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ilgarigi muomaladagi tanga pullar o'rniga arabcha namunadagi filslar zarb qilina boshlagan. Bu jarayon VIII asrning birinchi yarmi oxiri - ikkinchi yarmi boshida boshlanib Movarounnahrning qator shaharlarida **filslar (mis tanga)** muntazam chiqarila boshlangan. Bular arab afsonalari, diniy ifodalar, hukmdorlik qilib turgan amirlar biron-bir shahar noibining nomi va hatto mahalliy hukmdolar nomi bilan zarb qilingan.

Hozirgi kunda aniqlangan numizmatik ma'lumotlarga qaraganda Somoniylarning ilk tangalari 829-830 - yillarda Somoniylar xonadoni boshlig'i Nux tomonidan zarb qilingan. Somoniylar nafaqat Buxoroda balki Shosh, A'xsikent va boshqa shaharlarda ham o'z nomlaridan pul zarb qilganlar.

Qoraxoniylar sulolasি Somoniylarning so'nggi hukmdori al-Muntasir 1005 -yilda o'ldirilganidan so'ng Movarounnahrda hukmronlikni o'z qo'liga oladi. Shundan so'ng Movarounnahr va umuman Markaziy Osiyoda sulolalar hukmronligi boshlandi.

Qoraxoniylar hukmdorlari ham o'z nomlaridan tanga pullar zarb qilganlar. Bu pullar ham Somoniylar pullari singari aksariyati misdan zarb qilingan bo'lib, ularda tanganing bir tomonidan zarb qiluvchi hukmdor nomi, zarb qilingan joy va sanasi yozib qo'yilgan.

Narshaxiy ma'lumotlariga qaraganda Buxoro o'zining zarbxonasiga ega bo'lgan. Bu narsa Somoniylar davrida tovar-pul munosabatlari rivojlanganidan dalolat beradi. Usha davrda Buxoro va uning atroflarida uch xil tangalar muomalada bo'lган. Bu tangalar: mis g'itrify tangalar, sifati past kumush muhammadiy tangalar hamda anchi yuqori sifatli kumush tangalar. Ayni shu tangalar IX-X asrlarda bu yerda asosiy muomala vositasi bo'lган. Pul Buxoro vohasidan chetga chiqib ketmasligi uchun sifati past tangalar zarb qilingan.

IX-X asrlar tarixiy badiiy mazmuniga ko'ra g'oyat keng ko'lamlı davr bo'lib, musulmon olami xalqlari san'atining keyingi rivojlanish

yo‘lini belgilab berdi. San’atda bu davr boshida juda muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Bu davrda Arab xalifaligi tasarrufidan mamlakatlarda din va ilm-fan bilan birga, badiiy hunarmandchilik ham birinchi o‘ringa chiqdi va feodal savdo shaharlari yuksalishi bilan barobar rivojlanib bordi.

IX asrdan boshlab kulollik badiiy hunarmandchilining eng keng yoyilgan turlaridan biriga aylandi. Aholi maishiy turmushda sopol idishlardan keng foydalana boshlandi. Movarounnahr shaharlarida kulollarning katta-katta mahallari vujudga keldi. Poykend shahri tagida ochilgan kulolchilik ustaxonalari, xumdonlar qoldiqlari ham buni yana bir marotaba isbotlab berdi.

Usha davr kulolchilik san’atida tub o‘zgarishlar bo‘ldi: yangicha shakldagi buyumlar yuzaga keldi, ularni bezashda bulakcha texnikaviy hamda badiiy usullardan foydalanila boshlandi.

Poykend shahri Qo‘yi Zarafshon mintaqasida shisha mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yirik markazga aylangan. Poykenddan shishadan san’at asari darajasidagi noyob buyumlar ishlab chiqarilgan. 1984-yildagi qazishlar chog‘ida shisha buyumlar ishlab chiqarilgan bir qancha uchoqlar va moslamalar qoldiqlari ohib o‘rganilgan. Shisha idish-tovoqlar, kimyoviy idishlar, atr shishalar, boshqa uy ruzg‘or idishlarini ishlab chiqarish urf bo‘lgan. Ularda ta’sviriylar kam uchraydi, mavjudlari uncha murakkab bo‘lmay puflash yoki qolipda bosish yo‘li bilan tayyorlangan.

Poykend shishalarining ximiyaviy tarkibi katta ilmiy qiziqishlarga sabab bo‘lgan. Poykend shishalari 6 xil ximiyaviy komponentlardan tashkil topgan. Poykendda ishlab chiqarilgan shisha buyumlar xalqaro tranzit savdo orqali Movarounnahr hududlaridan ham tashqariga olib chiqilgan.

1957-yilda arxeolog A.P.Okladnikov Sibirda Angara daryosining chap irmog‘i bo‘lgan Unga daryosi bo‘yidagi VI-XI asrlarga oid arxeologik yodgorliklarni qazish jarayonida ximiyaviy tarkibi Poykend shishalariga mos shisha buyumlar topgan. Bu narsa Poykendda ishlab chiqarilgan shisha buyumlarning savdo iqtisodiy aloqalar tufayli olis Sibir regionlariga ham tarqalganligini isbotlab berdi.

1980-yillar boshlarida Poykendda ochilgan shishadan tayyorlangan, 6, 9 smli naycha birkirilgan bu idishlar aksariyat hollarda tibbiy va ximiyaviy maqsadlarda foydalanilgan bo‘lishi mumkun.

Shosh, Farg‘ona, Chag‘oniyon kabi markazlar qatorida haqli ravishda Poykend shahri ham turganligi bir qator ikkilanishlardan so‘ng, 2003 - yil o‘tkazilgan arxeologik qazishlarda o‘zining yakuniy isbotini topdi. Topilgan maxsus xumdon va unda sirkor idishlarni pishirishda foydalanilgan buyoqlar va sirkor qoldiqlar bundan dalolat berib turibdi.

Sir berish texnologiyasi sopol buyumlar badiyiligin kuchaytirishda katta rol o‘ynaydi. Dastavval ishqoriy sirdan foydalanilgan. Keyinchalik esa sirlashda qalayi va qurg‘oshin ishlatila boshlangan. Ishqoriy va qalayi sir shaffof bo‘lmay, ulardan asosan uyib naqsh tushirilgan, sidirg‘a rang berilgan buyumlarni bezashda foydalanilgan. Buyumlar sirtining yaltiroqligini oshiradigan qurgoshin siri ishlatish urf bulgach sopol bezovchi rassomlarning mahorati tularoq ochila boshlangan. Qo‘rgoshin siri berilganda uning ostida qoladigan naqshlar va yozuvlar uyg‘unligi saqlandi va yana kuchaydi.

Istaxriy, ibn Xavqal kabi X asr muarixlarining bizgacha etib kelgan asarlarida yozilishicha, Poykenddagagi Jome Masjidi zarhal berib hamda qimmatbaho toshlar qadab bezatilgan mehrobi bilan mashhur edi, u zarhal qoplamasi bilan Movarounnahrdagi barcha masjidlardan ustun turgan.

6.3.Romit an va Vobkent haqida tarixiy manbalar

Romitanning qadimiyligi haqidagi ma’lumotlar Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi” kitobida keltiriladi. Unda yozilishicha, “Romit an bu katta bir ko‘handizga ega va mustahkam bir qishloq bo‘lib, Buxorodan qadimiyoqdir. Ba’zi kitoblarda bu qishloqni Buxoro deb ataganlar. Bu qishloq qadim vaqtarda podshohlarning turar joylari bo‘lgan, (keyinroq esa) Buxoro shahri bino bo‘lganidan keyin podshohlar qish faslidagina bu qishloqda turadigan bo‘lganlar. Bu yerlar islom davlatiga o‘tgandan keyin ham shunday bo‘lib turgan. Bu qishloqni Afrosiyob bino qilgan. Afrosiyob har vaqt bu viloyatga kelganida shu qishloqdan boshqa joyda turmagan.”

Shuningdek, Narshaxiy o‘z asarida Romitan nomining kelib chiqishi bilan bog‘liq ma’lumotlarni ham berib o‘tadi: “Afrosiyobning bir qizi bo‘lib, uning doim boshi og‘rir ekan. Romitanga kelib yashay boslagach, unga bu yerning havosi muvofiq kelib, darddan xalos bo‘ladi va bu maskanga “Oromitan” - “Tan oromi” deb nom qo‘yadi. (Keyinchalik xalq orasida bu yerning nomi “Romitan” sifatida mashhurlashib ketadi)”.

Bundan tashqari, Romitan-Mitan qabilasi yoki mitan qo‘rg‘on, qal‘a atamasidan nom olgan bo‘lishi ham mumkin. I. Magidovich Buxoro vohasida “Rometi” degan kichkina bir urug‘ bo‘lganini aytadi va Romitan o‘sha etnonimdan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin, degan fikrga keladi.

Akademik V. Bartoldning “Turkistonning sug‘orilish tarixi” nomli asarida Romitanning qadimgi davri haqida quyidagicha ma’lumotlar bor: Eronliklarning qadimdan Zarafshon bo‘ylarida qarorgohlari, hattoki shaharlari bo‘lgan. Iskandar zamonida Zarafshonning quyi oqimida Maroqanda shahridan tashqari yana bir shahar bo‘lganligini qayd etib o‘tgan. Hijriyning birinchi -yillarida mahalliy an’analarda qator manzilgohlar o‘zlarini Buxorodan qadim deb e’lon qildilar. Mana shunday qarorgohlardan biri Romitan qishlog‘idir. Romitan Riyomitan, Romisan, Ayramisan, Chorshanbe nomlari bilan atalgan.

Qisqacha siyosiy tarixi: Romitan qadimiy tarixga ega bo‘lib, u haqidagi dastlabki ma’lumotlar tarixchi Abu Bakr Muhammad Ja’far ibn Narshaxiyning “Buxoro tarixi” (943-944 yy) asarida keltiriladi. Arab tarixchisi Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir at-Taboriyning “At-Taboriy tarixi” asarida Romitanning arablar bosqini davri tarixiga oid, o‘rtta asr arab geografi Istaxriy asarlarida esa Romitan va uning atrofidagi qishloqlar to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Shuningdek, Romitan tarixi bo‘yicha H. Vamberining “Buxoro yohud Movarounnahr tarixi” asarida, V. Bartoldning “Turkistonning sug‘orilish tarixidan” va “Movarounnahrning geografik ocherki” asarlarida ham yozilgan. I. Mo‘minovning tahriri ostida chiqqan “Buxoro tarixi” nomli kitobda qadimgi Romitan haqidagi ma’lumotlar mavjud.

1937-yilda arxeolog V. Shishkin Buxoro vohasining g‘arbiy qismida olib borilgan arxeologik tekshirishlar natijalariga ko‘ra Romitan haqida dastlabki umumi arxeologo-topografik tafsifnomalar beragan. U topografik suratlar asosida bu qo‘hna shahar - antik davrning yirik shaharlaridan biri bo‘lgan, degan fikrga kelgan. 1972-yilda Zarafshon arxeologik guruhi a’zosi R. Ravshanov tomonidan qo‘hna shaharda qisman o‘lchov va qazish ishlari olib borilgan.

Ilmiy va tarixiy adabiyotlarda Romitanning XVI-XIX asrlardagi tarixi bo‘yicha ma’lumotlar juda kam. A. Muhammadjonov XIX

asrdagi Buxoro vohasida mavjud bo‘lgan tumanlar va bekliklar haqida ma’lumot berib, Romitan (Somjan) tumanini ham ro‘yxatga kiritgan.

Vobkent tarixi: Vobkent tumani shimoldan G‘ijduvon tumani bilan, shimoli g‘arbdan Shofirkon tumani bilan, g‘arbdan Peshko‘ va Romitan tumanlari bilan, janubdan Buxoro tumani bilan, sharq va shimoli-sharqdan Navoiy viloyatining Qiziltepa tumani bilan chegaralanadi.

Vobkent o‘g‘uz shevalaridagi “Vob” yoki “Vaxob” hamda forsiy “kent” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “Bo‘zdagi, bo‘z yer, qo‘riqdagi qishloq” degan ma’noni bildiradi. Hozirgi Vobkent hududida joylashgan qishloq qo‘rg‘onlari o‘tmishda katta harbiy siyosiy vazifani o‘tagan. Vobkent Buxoro amirligining tumanlaridan biri bo‘lib kelgan. 1924-1925-yillarda Turkistonda o‘tkazilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida tashkil topgan.

Tuman markazi Vobkent shahriga tutash yerda Mug‘iyon qishlog‘i bor. Narshaxiy bunday qishloqlar, ya’ni Mug‘on, Mug‘iyon, mug‘lar qishloqlari ko‘p deydi. Mug‘ so‘zi arabchada “otashparast” yoki “g‘ayridin” ma’nosida ishlatiladi. Aynan arablar istilosи davrida ana shu “Mug” deb ataluvchi qishloqlar otashparastlik dinining eng rivojlangan joylari hisoblangan.

O‘zbekiston hududida sak qabilalari yashaganligini hisobga olsak, Kumushkent Q.F.yig‘ini hududidagi hozirgi Saktafon (aslida, Sakto‘fon, ya’ni “saklar to‘pi” ma’nosida) qishlog‘i nomi ana shu qabila nomidan kelib chiqqan bo‘lsa, ajab emas. XVI asr boshlaridan va XVII-XVIII asrlarda Dashti Qipchoqda (Volga va Dnepr daryolari oralig‘idagi yerlar) yashovchi ko‘chmanchi o‘zbek urug‘larining katta qismi O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekistonga kelib o‘troqlashishi jarayoni avj oldi. Vobkentdagi Saroy, Qatag‘an, Nayman, Qo‘ng‘iroq, Minglar, Burqut, Qirg‘izon, Xitoy, Qalmoqlar, Baqalon, Pichoqchi, Bahrin, Boyqozon qishloqlari ana shu o‘zbek urug‘lari nomi bilan atalgan.

Qipchoq va Qo‘ng‘iroq QFY hududida Bahrin (yoki Bahrincha) qishloqlari bor. Asli bahrinlar turklashgan mo‘g‘ul qabilalaridan biri bo‘lib, ular mo‘g‘ullar hukmronligi davrida Dashti Qipchoqdan kelib o‘rnashgan. XVIII-XIX asrlarda esa bahrinlarning katta bir qismi Toshkent, Farg‘ona va Zarafshon vohalariga kelib o‘troqlashgan. U yerlarda ham Bahrin degan qishloqlar mavjud.

Ehson QFY hududida Boyqozon qishlog‘i bor. Asli, bu qishloqning nomi “Boyovut”- mo‘g‘ul qabilasining bir urug‘i

nomidan. Boyovut mo‘g‘ulcha boylar, alplar, bahodirlar ma’nosida bo‘lib, o‘zbekcha va tojikchada Boy, Boydor, Boylar, Boylik, Boyot, Boyqozon, Boyto‘pi, Boyho qishloqlari sifatida yuritiladi.

6.4. Buxoro Somoniylar davlati poytaxti

Samarqand hukmdori somoniy Nasr ibn Ahmad 874-yilda ukasi Ismoilni Buxoroga noib qilib yuboradi. Ismoil Somoniy o‘ziga berilgan viloyatni mumkin qadar mustaqil idora qilishga intildi. 888 - yildagi jangda Nasr qo‘sishinlarini tor-mor keltirib, butun Movarunnahrni birlashtirdi va uning yagona hukmdori bo‘lib oldi. 892-yilda Nasr ibn Ahmad vafotidan so‘ng Ismoil davlat poytaxtini Buxoroga ko‘chirdi va 907-yilgacha hukmronlik qildi.

Ismoil Somoniy 893-yilda ko‘chmanchi dashtliklarni yengib ularning uzlusiz bosqinlariga chek qo‘ydi. Natijada aholi yuzlab kilometrga cho‘zilgan mudofaa devorlari va son-sanoqsiz qal’alarni bino qilish, ularni ta’mirlashdek mashaqqatli ishlardan ozod bo‘ldi. 900-yilda Safforiy Amr ibn Laysni engib Ismoil Xurosonni o‘ziga bo‘ysundirdi. 901-yilda Tabariston ham Ismoil Somoniyni hukmdor sifatida tan oldi. Somoniylar davlati ulkan davlatga aylanganligi natijasida Arab xalifaligi istibdodidan xalos bo‘ldi. Natijada Buxoro mustaqil davlat poytaxtiga aylandi.

907-yilda Ismoil Somoniy vafotidan so‘ng Somoniylar avlodlari 999-yilgacha, Buxoroda hukmronlik qildilar.

Somoniylar davlatining tashkil topishi siyosiy barqarorlik va iqtisodiy yuksalish, madaniy hayotning ravnaqiga imkon berdi. Bu davrda Buxoro shahri madaniy jihatdan yuksaldi. Poytaxtda amir saroyida ko‘plab sohalarga oid qo‘lyozma kitoblar saqlanadigan kattagina kutubxona barpo etildi.

Somoniy amirlarining aksariyati adabiyot, she’riyat, ilm-fan, san’at va me’morchilikka homiylik qiladilar. Bu davrda Buxoroda ayniqsa she’riyat ravnaq topadi. Uning rivojiga Abu Abduloh Rudakiy (860-941y.y.)ning xizmatlari benihoya kattadir. Rudakiy davrida Buxoroda 60 dan ortiq shoirlar yashagan bo‘lib, ular orasida Abu Mansur Daqiqiy, Julobi Buxoriy, Ravnaqi Buxori, Shokiri Buxoriy, Abulqosim Firdavsiy, Abulxasan Balxiy va ko‘pgina boshqa shoirlarning ijodi jahon madaniyati durdonalari qatoridan munosib o‘rin egallagan.

Somoniylar davlatining qaror topishi va uning ravnaqida islom ruhoniylarining hissasi katta bo‘ldi. Shu boisdan ularning obro‘yi

oshib, poytaxt Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markazlarining biriga aylandi. Buxorodagi madrasalarda diniy ilmlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham o'qitilgan. Shaharda alohida kitobfurushlik rastalari bo'lib, ularda turli tillarda yozilgan qo'lyozma kitoblar sotilgan.

Shahar madaniyatining ravnaqi, jamiyatdagi ziyyolilar davrasining kengayishi Somoni hukmdorlarini ilm ahli bilan yaqinlashtirdi. Hukmdorlar o'z saroylarida ijod qilayotgan mashhur olim, shoir va san'atkorlar, shuningdek kutubxonalarida to'plangan nodir kitoblar bilan mag'rurlanar edilar.

Somoniylar davrida me'morchilik va san'at yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Hashamatli binolar qad ko'tarib shahar kengaydi. Qurilish texnikasi takomillashdi. Buxoro shahri va uning atrofidagi yerlarni sun'iy sug'orish uchun Zarafshon daryosi yetarli bo'lган. Hunarmandchilik va savdo-sotiқ rivojlangan. Tavovis, Numijkat, Zandana, Mug'kon, Xujoda, Boykand, Farabr, Karminiya, Xudimankan, Xarg'onkat, Madyomijkat va boshqa shaharlarning bir qismi Buxoro devorlaridan ichkarisida, bir qismi esa tashqarisida joylashgan.

IX-X asrlarda Buxoro vohasi Somoni hukmdorligida ilm-fan, madaniyat markazi sifatida butun Movarounnahr va Xurosanga mashhur bo'ldi. Ayni shu davrda XI asr Buxoro islom dini va madaniyati yuksalib, mashhur faqihshunos olim Abu Hafs Kabir Buxoriyning xizmatlari evaziga Buxoroga "Qubbat ul-Islom"- "Islom dinining gumbazi" degan nim berilgan.

Movarounnahr va Xurosanga mashhur bo'lган Buxoroga 1220-yil Chingizzon qo'shinlari bostirib kirdi. Manbalarda qayd etilishicha shaharga kirgandan so'ng "Chingizning ko'zi dastlab ulug' Somoni tarafidan muhtasham bezaklar bilan qurdirilgan jome masjidagi tushdi. U o'g'li To'li bilan otdan tushmay masjidga kirdi. Minbar oldiga borib to'xtadi. Chingiz so'radi: Bu sultonning o'z saroyimi? Unga. Bu "Baytulloh" deb javob berildi. Shundan so'ng otdan tushdi. Minbarning bir necha zinasiga ko'tarildida. Orqasida turgan mo'g'ullarga qichqirdi. "O'tloq o'rildi, otlaringizga yem beringiz. Bu talon-tarojga ruxsat ishorasi edi. Barcha uylar vayron qilindi, hamma sandiqlar buzildi. Behisob xazinalar talandi. Kitoblar yirtilib, hayvonlar oyog'i ostiga somondek sochildi. Muqaddas kitoblar saqlangan sandiqlarni otlarga oxur sifatida ishlatdilar".

6.5. Amir Temur va temuriylar davrida Buxoro

Amir Husayn va Amir Temur birgalikda mo‘gullarga qarshi kurashdilar. O‘zlarining markazlashgan davlatini barpo etish uchun harakat qildilar. 1366-1370-yillarda Movarounnahr hukmdori bo‘lish uchun Amir Husayn va Amir Temur o‘rtasida kurash kuchayib, Qarshi va Buxoroni egallashga bir necha bor harakat qilindi. 1366 -yil Amir Temur Qarshida qishlaydi va Mahmudshoh Buxoriyni Buxoroning devonga berishi lozim bo‘lgan solig‘ini yig‘ib kelishni amr qiladi. Amir Temur 1366-1370 -yillarda Buxoroning iqtisodiy jihatlaridan va ko‘p bora Buxoroninng boshqaruv ishlaridan xabordor edi.

1370-yil Amir Temur rasman Movarounnahr hukmdori bo‘ldi. Xorazm hukmdorlarining Buxoro va uning atrofidagi yerlarga to‘xtovsiz hujumi Xorazmga yurish qilishga undadi.

1381-1382-yillarni qishni Buxoroda o‘tkazgan. Ammo bu yerda dam olishning imkonini bo‘lmadi, o‘sha kunlari uning suyukli qizi Og‘abegim olamdan ko‘z yumgan edi. Bir necha kun qayg‘uga botgan Amir Temur yana davlat ishlariga qaytdi. 1388-yili To‘xtamishxon qushinlari Buxoro viloyatini va atrofdagi qishloqlarni egalladi. Buxoro amirlari shaharni himoya qildilar. Xalq orasida Amir Temurning qaytib kelayotgani to‘g‘risida xabar tarqalib, dushman askarlari bu yerda tuxtab turishni maqul ko‘rmay, ortlariga qaytib ketishgan. 1389-yil Mo‘g‘iliston yurishidan g‘alaba bilan qaytib kelgach katta to‘y beradi va qishda Buxoroga boradi. Gazli yo‘lidagi qishloqda ov tashkil etadi. Qish bo‘yi Buxoroda qoladi.

1392-yil 7- iyunda Amir Temur Eronni fath etish uchun yurishga otlanib Buxoroga keladi va bu erda ob-havo ta’sir qilib salomatligi o‘zgaradi. Samarqanddan o‘gillari va xotinlarini Buxoroga chaqirishadi. Tezda Saroy Mulk xonim, Tuman og‘o, Sulton Baxt begim va farzandlari yetib kelgan. Amir Temurni fors tabiblari davolaydi va xalqqa qo‘y so‘yib xayr ehson qildilar. 1392-yil iyulda jang safariga jo‘nab ketadi. Amir Temur o‘zinig 35 yillik hukmronligi davrida mamlakat tinchligi va osoyishtaligi uchun harakat qilgan.

Amir Temur va temuriylar davrida Buxoro madrasalarida oylik ish haqlarini belgilab bordilar. Amir Temurning tashabbusi bilan masjidu madrasalar va kasalxonalarga hayr ehsonlar uyushtirganlar. Nemis Tarixchisi F.Shlosser (1770-1861) Temur haqida shunday degan: ”Umrini yurishlarda o‘tkazgan Temur tez-tez Buxoroga kelib turgan”

Amir Temur davrida Najmuddin Kubroning shogirdi, mashhur avliyo Shoabdurahmon Vali sharafiga Qorako‘lda masjid barpo etilgan. Sayyid Mir Kulol Buxoriyga Kogonda qabri ustiga maqbara o‘rnatilgan. 1380 -yil Chashmayi Ayub yodgorligida me’moriy bino barpo etildi. Xorazmga yurishi vaqtida mashhur ustalarni Buxoroga olib kelib maqbaralarni ta’mirlashda ishlatgan. Minorai Kalon yonida Bayonqulixon maqbarasini qurilishga farmon bergan. Amir Temur har yurish safariga chiqishidan oldin Buxoroga tashrif buyrgan va so‘ngra safarga otlangan.

Mirzo Ulug‘bek davrida 1417-yil Buxoroda, 1433-yil G‘ijduvonda madrasa qurildi. Ozi bir necha bor Buxoroga kelgan. Uning ko‘rsatmasi bilan ilmu-toliblarga xayr-ehson qilingan. Buxoro shahridagi madrasaning darvozasiga Ulug‘bekning ko‘rsatmasiga ko‘ra, “Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir” deb yozib qo‘yilgan.

Amir Temur va temuriylar davrida Buxoroda Buyuk ipak yoli uchun shart-sharoitlar yaratilgan. Hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi. Suv tanqis bolgan joylarga suv chiqarildi. Masjid va madrasalar ta’mirlandi. Aholi savdo karvonlarida savdo shahobchalarida ish bilan ta’minlandi. XV asrning oxirlarida temuriylar o‘rtasidagi toj-taxt uchun kurash avjiga chiqdi Hirot va Samarqand o‘rtasidagi tortishuvda Buxoro ham chetda qolmadi.

6.6. XVI-XVII asrlarda Buxoro shaharlari urbanizatsiyasi

Buxoro XVI asrlarda: Shayboniyxon Buxoroni egalladi, bo‘ysinmaganlarni qatl ettirdi, mol mulkini musodara qildi va bor kuchini Samarqandga qaratdi.

Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarida Qorako‘lda ko‘tarilgan qo‘zg‘olon Shayboniyxon lashkari uchun kutilmagan vaziyatni tug‘dirdi. 1501-yil 3 oylik qamaldan keyin Qorako‘l egallab olindi. Ko‘p o‘tmay yana qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Qal’a himoya qilindi. Shayboniyxon davridagi Qorako‘l fojiasi mudhish voqeа bo‘ldi.

1508-yil Shayboniyxon Buxoroga qaytib keldi. 1509-yil Eronga yurishga tayyorgarlik ko‘rdi. 1510-yil Marvning Mahmudobod qishlog‘ida jangda vafot etdi. Uning avlodlari turli tomonda tarqoq harakat qila boshladilar. Azamat Ziyoning yozishicha Shayboniyxondan keyin Ubaydulloxon 36 yil hukmdorlik qildi. Uning poytaxti bo‘lgan Buxoro olimu fuzalolar to‘planadigan joy bo‘lib, siyosat yo‘lida g‘oyat mashhur bo‘lgan.

Abdullaxon davrida Buxoroda ustaxonalar, savdo do‘konlari, tegirmonlar va boshqa korxonalar ko‘p bo‘lib aholi turmush tarzi yaxshilandi. Xo‘jalikni izga solish uchun savdo-sotiqli rivojlantirish maqsadida 1507-,1525-,1583-yillarda pul islohotlari amalgalashirilgan. Bu davrda dinor deb atalgan mis tangalar va ogirligi 3 grammga teng kumush tangalar muomalada bo‘lgan. Ingliz sayyohi Antonni Jenkinson Buxoroda tilla tanglar muomalada bo‘lmaganligini, bu yerda asosan mis va kumush tangalar ishlatalishini aytgan.

XVI asrda Buxoroda g‘allaning 10 xil turi ekilgan. Omoch, ketmon, o‘roq, temir va yog‘och belkurakdan ish quroli sifatida foydalangan. Hunarmandchilikning 60 dan ortiq turi bilan shug‘ullanishgan. Misgarlar ko‘za, lagan, qozon va butun bir qo‘y sig‘adigan katta patnislар yasagan. Suv tegirmoni va moy juvozlar ko‘p bo‘lgan.

Soliq va yig‘imlar Buxoroda: 1572-yil avgust-sentyabr oylarida Abdullaxon farmonida, “molu jihat, ixrojot, koh, tarh, sobon singari oldi-sotiqlar” xususida ma’lumotlar bor. Bular quyidagilar:

Muqarririy - aniq va belgilab qo‘yilgan soliqlar;

Ixrojot - davlat idorasi xizmatchilarining xarajatlarini to‘plash uchun aholidan to‘planadigan soliq;

Mirobona - miroblarning maoshi uchun xalqdan yig‘iladigan soliq;

Koh - qo‘shining ehtiyoji uchun xalqdan to‘planadigan yem-xashak yig‘imi;

Tarh - majburiyat (bunda raiat- aholi davlat omboridan biror narsa, ko‘pincha don-dun sotib olganda qimmat narxlar bilan olib, sotganda arzon narxda sotishga majbo‘r bo‘lgan);

sobun (saban) - yer haydashga kirishilganda va hosil yig‘ishtirib olinganda o‘tkaziladigan marosim va uni o‘tkazish uchun aholidan to‘planadigan yig‘im.

Shayboniylar davrida 40 dan ortiq soliq va jarimalar mavjud bo‘lib, xiroj solig‘i mahsulotning beshdan bir qismi miqdorida pul yoki mahsulot bilan olingan. Hunarmandlar va dukondorlar tamg‘a solig‘i to‘lagan.

Shahar madaniyati. Buxoroda Govkushon, Fatxulla Qushbegi, Mirakon, Xoja Muhammad Porso madrasalari va ko‘plab binolar barpo bo‘ldi. Nurotada Oqchop qishlog‘ida katta to‘g‘on qurildi. Qush

madrasa Abdullaxon madrasasining kutubxonasi juda boy bo‘lib turli sohalarga doir kitoblar mavjud bo‘lgan. Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” kabi tarixiy asari o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Buxoro shahri yangi mudofa devoir bilan o‘rab olindi. Savod chiqarish uchun o‘qishga 6 yoshdan qabul qilinadigan bo‘ldi.

Buxoro XVII asrlarda: Darvishali Changiy - XVI asrda Hirotda to‘g‘ilib, Buxoroda vafot etgan. U musiqashunos, hofiz va shoir. ”Risolai musiqiy” asari mavjud.

Mavlono Nosiriy - XVI asrning oxiri XVII asr boshida Qorako‘lda tug‘ilgan Buxoroda yashab ijod qilgan va u Ashtarkoni hukmdor Vali Muhammadga bag‘ishlangan “Valinoma” dostonini yozgan bu asarlar bizgacha yetib kelgan asosiy manba hisoblanadi.

Mir Ahmad Buxoriyning yozishicha, Ubaydulloxon II hukmronligi davrida Buxoroda Mulla Sayid, Qosim Xo‘ja degan shoirlar yashab ijod qilgan. O‘z she’rlarida har -yili o‘tkaziladigan yangi -yil Navro‘z va qizil lolalar bayramlariga bag‘ishlangan.

Bir qator adabiy-tarixiy asarlar yaratilgan. Jumladan Sayid Nasafiyning “Hayvonnoma”, Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma”, Abdurahmon Tolening “Abulfayzxon tarixi”, Muhammadamin ibn Muhammadzamon Buxoriyning “Muhit ut-tavorix” (“Tarixlar okeani” somoniylar va ashtarkoniylarga bag‘ishlangan) Turdining “Subxonqulixon to‘g‘risida hajviya ”asarlari. Turdiy, asli ismi va taxallusi Farog‘iydir. Buxoroda (XVII asr) tavallud topib 1700--yilda Xo‘jadnda vafot etgan, Buxoro madrasalarida ta’lim olgan. Abulfayzxon davrida saroyning amaldorlaridan bo‘lgan, Subxonquloxon taxtga chiqgach saroydan chetlashtirilgan.

Ashtarkoniylar davrida Buxoro shahrining ko‘rinishini Florio Beneveni quydagicha tasvirlagan: “Yarim qulay deb turgan baland ko‘tarma devor bilan o‘rab olingan, unda 15 ming paxsadan qurilgan xonodon va masjidlar g‘isht devorlar bilan o‘ralgan”

Subxonqulixon davrida Buxoroda tibbiyat ilmi ancha rivojlandi. Maxsus shifoxona va tibbiyat kutubxonasi qurdirdi.

Buxoroda bir qator madrasalar bino qilindi: Abdulazizzon madrasasi 96 hujradan iborat, 1654-1655 -yilda Abdulazizzon ibn Nasr Muhammadxon tomonidan qurdirilgan. Nodir Devonbegi madrasasi Imomqulixonning vaziri Nodir Devonbegi qurdirgan 1622-1623.

XVII asrlarda Buxoro maktab va madrasalarida asosan diniy va qisman adabiyot o‘qitilardi. Navoiyning she’rlari, Fuzuliy, Hofiz va Bedilning asarlaridan parchalar o‘rganilgan.

Buxoroning ijtimoiy - iqtisodiy hayoti: dehqonchilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo. Dehqonchilikda sug‘orish tarmoqlari Zarafshon va Amudaryodan chiqarilgan.

Xonlikda yer egaligida dehqonlar yerni ijaraga olib ishlaganlar. Hunarmandchilikning ko‘p turlari bo‘lib tikuvchilik, misgarlik va zargarlik. Hatto zargarlik buyumlari chetga ham chiqarilgan. Manbalarda qayd etilishicha, Sibir shaharlarida doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi buxorolik savdogarlarning rastalari bo‘lgan.

Buxoroda bo‘lgan ruhoni Xrisanf shunday deb yozadi: “Buxoro boy mamlakat, unda ko‘plab savdogarlar va son-sanoqsiz boylikka ega bo‘lgan boshqa darajadagi kishilar borki, ular kumush va oltinlarning, javohir va qimmatbaho toshlarning sohibidir”.

XVII asrlarda ma’muriy bo‘linishi: Mahmud ibn Valining ko‘rsatishicha, Buxoro shahar hayoti 1630-1640 -yillarda 10 ta tumanga bo‘lingan: 1) G‘ijduvon (oldingi nomi Xarqona); 2) Vobkent (oldingi nomi Vobkana); 3) Farob (oldingi nomi Farabr); 4) Rudi shahr (Xarqonrud); 5) Komi Abu Muslim (Vag‘onze); 6) Shopurkom; 7) Romiton (oldingi nomi Somjana); 8) Sultonobod; 9) Zandani; 10) Xayrobod (hozirgi Jondor). Qorako‘l bu paytda viloyat maqomida bo‘lgan. Viloyatlarni hokim (bek)lar, tumanlarni esa hokimlar boshqargan.

Ashtarxoniyalar davrida ichki vaziyat nisbatan barqaror bo‘ldi, o‘zaro feodal urushlar davom etdi. Bir tomondan Eron, ikkinchi tomondan Xiva xonligi bilan munosabatlar markaziy hokimiyatni zaiflashtirdi, bu albatta aholi turmush tarziga ta’sir o‘tkazardi. Xonlikning iqtisodiy ahvoli ancha yomonlashdi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan Buxoroda Imomqulixon, Subxonqulixon va Ubaydulloxon davrida obodonchilikka, me’moriy va jamoatchilik binolari qurilishiga, chor bog‘lar barpo etilishiga e’tibor berilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Buxoro o‘rta asr arab manbalarida
2. Arablarning Buxoro muzofotiga kirib kelishi haqida nimalarni bilasiz?
3. Varaxsha, Poykent- qadimiy shaharlarda aholi mehnat tarsi qanday bo‘lgan?

4. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” kitobida Romitanning tarixi haqida.
5. Mo‘g‘ullarning Buxorodagi ayanchli harakatlari
6. Amir Temur va temuriylar davrida Buxoro aholisining turmush tarzi
7. XVI-XVII asrlarda Buxoro shaharlari urbanizatsiyasi

Test topshiriqlari

1. Shaharning tarixiy qismi YUNESKO tomonidan butundunyo tarixiy merosi ro‘yxatiga kiritilgan?
 - A 1993-yilda 400 dan ortiq
 - B 1995-yilda 200 dan ortiq
 - S 1991-yilda 400 dan ortiq
 - D 1996-yilda 600 dan ortiq
2. O‘rta asr arab manbalarida Buxoro Madinat ut-tujjor ma’nosи qanday?
 - A Savdogarlar shahri
 - B Mis shahar
 - S Faxr shahri
 - D Ibodatxona
3. Hakim Mulla Mir xonaqohi Buxoro viloyatining qaysi tumaniga ta’luqli?
 - A Romitan tumanidagi me’moriy yodgorlik 16- asr
 - B Jondor tumanidagi me’moriy yodgorlik 15- asr
 - S Qorakul tumanidagi me’moriy yodgorlik 17- asr
 - D Vobkent tumanidagi me’moriy yodgorlik 17- asr
4. Narshaxiy ma’lumoticha har o‘n besh kunda bir kunlik, -yil oxirida 20 kunlik bozor sayli (navro‘zi kashovarzon, ya’ni dehqonlar yangi -yili) o‘tkazilgan .
 - A Varaxshada
 - B Poykentda
 - S Zamonboboda
 - D Romitanda
- 5 Poykendning sug‘orish tarmoqlari suvsizlikdan qurib qoladi. Oqibatda shahar bo‘shab, xarobaga aylanadi.
 - A XI - asrda
 - B XII asrda
 - S IX asrda
 - D V asrda

6. Tabariyning yozishicha, shaharning boyligidan arablar hayratga tushganlar.

- A Poykent
- B Zomonbobo
- S Varaxsha
- D Vobkent

7. S. Ayniy guvohlik berishicha, 1880-yillarda uning atroflarini qattiq shamol natijasida kuchli qum bosadi.

- A Vardonze
- B Poykent
- S Karmana
- D Romitan

8. Arab Sayyohi ibn Batutta 1333-yilda Buxoroda bo‘lib, ko‘pgina bozor va maschitlar xaroba holda turganligini bayon etgan.

- A 1333-yilda
- B 1223-yilda
- S 1238-yilda
- D 1313-yilda

9. Aniq va belgilab qo‘-yilgan soliqlar qaysi javobda ko‘rsatilgan so‘zning ma’nosи?

- A muqarririy
- B ixrojot
- S mirobona
- D tarh- majburiyat

10. Poykend shahri yaqinida “Qadimgi Poykend tarixi” muzeyi tashkil etildi.

- A 2000-yil 1- mayda
- B 2001-yil 1- mayda
- S 1999 -yil 1 mayda
- D 2002 -yil 1 mayda

Manba va adabiyotlar

1. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. Тошкент, 1993.

2. Асқаров А. Бухоронинг ибтидоий тарихидан лавҳалар. Тошкент, 1973.

3. Баракаев Ж., Ҳайдаров Й. Бухоро тарихи. Тошкент, 1981.

4. А.Муҳаммаджонов . Бухоро шаҳри - 2500 ёшда. Т: 1998.

5. Мирзакулов Б. Бухоро тарих зарваракларида. Тошкент 2016.
6. Норкулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. Урганч: Хоразм, 1996.
7. Ремпель Л.И. Далёкое и близкое Бухарские записи. Ташкент, 1962.
8. Шишкин В.А. Варахша. Москва, 1963.

7-mavzu: Xorazmning o‘rta asr shaharlari urbanizatsiyasi Reja:

- 7.1. Xorazm haqida tarixiy manbalar va arxeologik ma'lumotlar
- 7.2. Xorazm vohasi shaharlari vazifasi
- 7.3. Mizdaxqon, Devkesgan o‘rta asr shahar qal’alari
- 7.4. X-XIII asrlar Xorazm shahar madaniyati

Tayanch so‘z va iboralar: “Quyoshli o‘lka”, Xiva - Xorazm, Katta Xorazm, Ko‘hna Urganch, Xvairizem, Mizdaxqon, Gavr qal’a, Kat, Shemaxaqal’a, Xorazm shahar madaniyati, Shohsanam, agrar-hunarmand shahar

7.1.Xorazm haqida tarixiy manbalar va arxeologik ma'lumotlar

Asli Xorazmni klassik antik Sharq shahar madaniyati yaratishida namuna desa bo‘ladi. Bu yerda eramizdan avvalgi 1-ming -yillikda paydo bo‘lgan shahar qurilish san’ati shunday yuqori darajada bo‘lganki, uning an’analari keng hududda istiqomat qiluvchi dasht qabilalarining turmush tarzini o‘zgarishiga va o‘troq madaniyat yaratishiga zo‘r ta’sir o‘tkazganligini arxeologlar isbotlab bergen.

Qadimgi Xorazm - Turon va Eron mintaqalari oralig‘ida joylashgan tarixiy o‘lka va qadimgi davlat. Xorazm hududi qadimda Amudaryo adoqlaridan janubga tomon Murg‘ob va Tajan daryolarining yuqori oqimlarigacha cho‘zilgan. Shu boisdan bu qadimgi tarixiy o‘lka fanda 2 xil: Qadimgi Xorazm va Katta Xorazm nomlari bilan ma'lum. Xorazm haqidagi ilk ma'lumotlar Avesto, Doro I ning Bihistun kitobalari, qadimgi yunon mualliflari (Gekatey, Gerodot, Strabon va boshqalar) hamda ilk o‘rta asrlarning arab geograflari asarlarida uchraydi.

“Xorazm” atamasi (toponimi) Avestoda Xvairizem, qadimgi forsiychada Uvarazmis, lotinchada Xorasmiya va yunonchada

Xorazmiya deb yuritilgan. Arabcha yozma manbalarda bu o‘lka Xvorazm talaffuzida tilga olinadi. “Xorazm” atamasi haqida bir qancha fikrlar mavjud. Xorazm tarixining bilimdoni S.P.Tolstov “Xorazm” atamasi talqinlari orasida eroncha “Xurr-Xurshed” va “zm-zem” so‘zлari asosida yuzaga kelgan nomning “Quyoshli o‘lka”, “Quyoshli yer” deb atalishi haqiqatga eng yaqin etnonimdir deb ta’kidlasada, Xorazmni “Xvarri yoki Xarri (Xurriy) xalqi o‘lkasi”, “quyosh (xalqi) yeri” deb izohlaydi. Sug‘dshunos olim M.N.Bogolyubovning fikricha, Xorazm ayrim-ayrim 3 so‘zlardan tarkib topgan. Xu (Xush, Xash), var (vara) va zm (zim, zem). Eroniy tillarda Xu -“yaxshi” “ma’qul”, var (vara) - “devor”, “marza”, “qal’a”, “qo‘ra” degan ma’nolarni bildirgan. Zm (zim, zem) esa - “yer”, “o‘lka”, “diyor”, “mamlakat” kabi ma’nolarni anglatgan. Demak, “Xorazm” atamasi qanday shaklda qayd etilmasin, u “yaxshi qo‘rali yer”, “ajoyib qal’ali o‘lka”, “mustahkam qal’alari bor diyor” degan ma’noni anglatgan.

Avestoning “Yasht” qismida Xorazm “Ming irmoqli daryo”, “Ko‘llar va o‘tloqlarga boy o‘lka” sifatida madh etiladi. Qadimgi Xorazm hududi tabiiy jihatdan 2 mintaqaga ajralgan. Uning shimoliy qismida Amudaryo etaklarida son-sanoqsiz sersuvli o‘zanlar, shimoliy va shimoliy-sharqqa tomon yastangan keng yaylovlardan iborat bepoyon pastgekisliklar, uning janubiy qismida esa, Murg‘ob va Tajan daryolari vodiylarining kattagina qismi tog‘ va adirliklar va ulardan boshlangan katta-kichik daryo-jilg‘alar etaklarida yuzaga kelgan hosildor yerlar joylashgan.

Qadimgi Xorazm mintaqalari hududlarining o‘ziga xos tabiatni, shubhasiz, qadimgi aholining turmush tarzini belgilabgina qolmay, balki bu diyorda yuzaga kelgan qadimgi madaniyatlarning shakllanishi, rivoji va bir-biriga qorishuviga ham kuchli ta’sir etgan. Shu boisdan Xorazmning shimoliy qismi (Oqchadaryo deltasi) da miloddan avvalgi 4 - 3 ming -yilliklarda ovchilik va baliq ovlash bilan kun kechirgan aholi yashagan bo‘lsa, miloddan avvalgi 2 - ming -yillikda esa chorvachilik va dehqonchilikning soddagina usullaridan xabardor bo‘lgan qabilalar istiqomat qilgan. Miloddan avvalgi 2 - ming yillikning 2-yarmida, xususan, uning oxiri va miloddan avvalgi 1 - ming yillik boshlari (IX-VIII asrlar) da sug‘orma dehqonchilik mukammallashib, yaylov chorvachilik rivoj topgan. Bu davrda Tozabog‘yop, Suvyorgan va Amirobod madaniyatlarini yaratgan

qabilalarning qorishmasi asosida tarkib topgan Kavundi (Kavondi) qabilalari yashagan. Ular Xorazmning qadimgi aholisi massagetlarning bevosita ajdodlari bo‘lgan. Ko‘chmanchi chorvachilik, xususan, -yilqichilikning rivoji Xorazm aholisining ijtimoiy hayotiga ham kuchli ta’sir etib, suvoriyalar tabaqasini shakllantirgan.

Xorazmning janubiy qismida joylashgan vodiylar (Tajan, Herirud, Murg‘ob va Gyoksur) da esa miloddan avvalgi 6 - 3 - ming yilliklardoq o‘troq sug‘orma dehqonchilik madaniyatini qaror topib, taraqqiy qilgan. Bu davrlarda ushbu mintaqasi aholisi qabilalar uyushmasiga birlashib, dehqonchilik xo‘jaligida motiga (ketmon) dan tashqari omochdan hamda turli xildagi katta-kichik sug‘orish inshootlaridan ham foydalangan. Avval ular somonli guvalalardan bir xonali, so‘ngra esa ko‘chalar bo‘ylab guvala va xom g‘ishtlardan bir necha xonali uylar bino qilib, atrofi devor bilan o‘ralgan turar joy va istehkomli qishloqlar barpo etgan.

Miloddan avvalgi 2 - ming -yillik oxiri - 1 - ming -yillik boshlarida qadimgi sug‘orma dehqonchilik madaniyatining hududlari sharq va janubiy-sharq tomon kengayib, Herirud vodiysining yuqori oqimigacha yo-yilgan. Avestoda Xvairizem o‘lkasi Areyadan sharqda Hilmand vodiysida joylashgani haqida ishora qilinadi.

Arxeologik ma’lumotlarning guvohlik berishicha, aynan shu davrda Amudaryo etaklarida yashagan ko‘chmanchi chorvador qabilalarning bir qismi janubiy tomon siljib to shimaliy Hindiston hududlariga qadar borib o‘rnashgani kuzatiladi.

Miletlik Gekatey (miloddan avvalgi 6 - asr) ma’lumotlari asosida Gerodot (miloddan avvalgi V asr) ahomaniylar davridan avval girkalar (Kaspiy dengizining janubiy-sharqi, Gurgon daryosi havzasi), parfiyaliklar (Shimoliy Xuroson), dranglar va tamanaylar (G‘arbiy Afg‘oniston) ning hududlari bilan tutashgan keng o‘lkada xorazmiylar yashagani to‘g‘risida ma’lumotlar keltiradi.

Gerodotning yozishicha, keyinchalik, o‘lka ahomaniylarga qaram bo‘lib qolgach, tog‘ daralaridan oqib tushadigan Akes (Herirud) o‘zani darvozали to‘g‘on bilan bog‘lanib, xorasmiylar (xorazmiylar) ning ekin yerlari suvsiz qolgan. Ular shoh saroyiga borib arzidod qilib, suv uchun alohida soliq to‘lagach, shoh to‘g‘on darvozalarini ochishga buyurgan.

Miloddan avvalgi VI-V asrlarda Xorazm Ahomaniylar davlatining 16 - satraplik tarkibiga kirgan. Miloddan avvalgi V asr oxiri IV asr boshlarida esa, u alohida satraplik hisoblangan. Miloddan avvalgi III milodiy III asrlarda Xorazm Sirdaryo havzasining o‘rta qismida tashkil topgan Qang‘ davlatining tarkibida bo‘lgan.

Tarixiy manbalarning taqqosiy tahlilidan ma’lum bo‘lishicha, xorazmiylarning dastlabki vatani Baqtriyadan janubida Areyadan sharqda, Herirud va Hilmand daryolarining yuqori havzasida joylashgan. Shubhasiz, xorazmiylar massagetlardan farqli o‘larоq, parfyanlar, marg‘iyonaliklar, boxtariylar, areyaliklar, girkaniyaliklardek sug‘orma dehqonchilik va uning asosi hisoblangan sug‘orish inshootlar barpo etishda boy asriy tajribaga ega edilar. Ularning ko‘p asrlik binokorlik va hunarmandchilikdagi tajribalari va amaliy ko‘nikmalari tufayli asrlar osha Amudaryo etaklari obod etilib, yirik sug‘orish tarmoqlari va suv inshootlari - dambalar barpo etilgan, hunarmandchilikning barcha sohalari keng rivoj topgan.

Miloddan avvalgi IV asrning 2 - yarmida Xorazmda mustaqil davlat qaror topadi. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, Xorazm davlatiga afsonaviy qahramon Siyovush (Siyovaxsh) asos solgan. Miloddan avvalgi 328 -yilda bahorida O‘rta Osiyoga yurish qilgan makedoniyalik Aleksandr (Iskandar) qarorgohiga muzokara qilish uchun Xorazm hukmdori Farasman 1500 suvoriy bilan tashrif buyurgan. Fanda massagetlar konfederatsiyasi (turkumi) nomi bilan tilga olingan Xorazm davlatini afsonaviy siyovushiylar, aslida esa afrig‘iylar sulolasini boshqargan. Davlat poytaxti dastlab Tuproqqal'a bo‘lgan. Keyinchalik 305-yilda Kot shahriga ko‘chirilgan. Beruniy xorazmshohlardan 22 tasining nomini qayd qiladi. Aversi (beti) da tojdor xukmdor, reversi (sirti)da suvoriy tasviri tushirilgan dastlabki kumush tanga Tuproqqal'adan topilgan. Tanga miloddan avvalgi 1-asrga mansub. Numizmatik ma’lumotlardan ayon bo‘lishicha, bunday shakldagi tangalar milodiy VIII asrgacha zarb etilgan.

Xorazm davlati O‘rta Osiyoda tashkil topgan o‘ziga xos eng qadimgi davlatlardan biri bo‘lib, unda o‘troq ziroatkor va ko‘chmanchi chorvador aholining udumlari, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik kabi xo‘jaliklar boshqaruvi tizimlari mujassamlangan edi.

Demak, Xorazm aholisining iqtisodiy va ijtimoiy hayotida yuz bergen tadrijiy rivojlanish uning shimoliy va janubiy qismlarida,

avval biri ikkinchisidan tubdan farqlanuvchi 2 turdag'i madaniyatlar shakllangan. So'ng'ra esa ularning qorishuvi oqibatida Xorazmning o'ziga xos yuksak darajadagi madaniyati yuzaga kelib, ravnaq topgan.

Xorazmni arxeologik va etnografik ekspeditsiya-bu Xorazm vohasi arxeologik madaniyati va tarixini (paleolit davridan milodiy XVIII-XIX asrlargacha) tekshirish maqsadida uyushtirilgan ekspeditsiya. Xorazmni arxeologik va etnografik jihatdan o'rganish 1928 - 1929 -yillarda boshlangan. A.Yu.Yakubovskiy boshchiligidagi ekspeditsiya xorazmshohlar poytaxti Urganch (hozirgi Ko'hna Urganch) dagi me'moriy yodgorliklarni va ilk o'rta asr shahri Mizedaxqon (Xo'jayli yaqinidagi Gavr qal'a)da qazishma ishlari olib borgan. 1934-yilda Toshhovuzdagi Zamaxshar shahar xarobasida M.V.Voevodskiy ekspeditsiyasi faoliyat yurgizgan. 1936-yilda Y. A. G'ulomov va T. Mirg'iyosovlar Mang'it yaqinida joylashgan milodiy 1-ming -yillik o'rtalariga oid zardushtiyalar qabristonini tadqiq etgan.

1937-yilda Ya.G'ulomov Guldursun, Norinjon va Pilqal'a shahar xarobalarini tekshirgan. S.P.Tolstov 1937-yildan Xorazm arxeologiya - etnografiya ekspeditsiyasi rahbari bo'lib ish boshlagan. Ekspeditsiya tarkibi yildan yilga arxeolog, etnograf, antropolog, rassom, me'mor va boshqa mutaxassislar bilan kengaytirilgan. Ekspeditsiya a'zolari Ayoz qal'a, Bozorqal'a, Jonbos qal'a, Tuproqkal'a, Qo'yqirilgan qal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Qizilqal'a, Ko'zaliqir, Teshikqal'a kabi noyob arxeologik yodgorliklarni ilmiy tadqiq etdilar.

Qazishlar natijasida turli davrlarga mansub bo'lgan Xorazm vohasining juda ko'p tarixiy yodgorliklari: xarobalar, qal'alar, istehkomlar, kanallar, qadimgi madaniyatni o'rganishga yordam beruvchi yozuvlar, suratlar, uy anjomlari, muhrlar, kumush, mis haykalchalar topildi. Ekspeditsiya Qadimgi Xorazmning boshqa o'lklalar bilanqanday aloqada bo'lganligini o'rgandi. Natijada Xorazm qadimdan Volga - Don havzalaridagi skiflar, quyi Sirdaryo atrofidagi saklar, Janubiy Turkmaniston va Buxoro vohasi xalqlari bilan tarixiy-madaniy aloqada bo'lganligi ilmiy jihatdan asoslandi. Xorazm arxeologiya etnografiya ekspeditsiyasi faoliyati tufayli 1 - marta Xorazmning arxeologiya xaritasi 1956 -yilda tuzilgan.

Xiva - arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, shahar miloddan avvalgi V asrda barpo etilgan. Uning nomi shaharning qadimgi qismida joylashgan Xivaq (Xeyvaq) qudug'i bilan bog'liq. Ba'zi tadqiqotchilar shahar nomini xorazmiy tiliga yaqin bo'lgan qadimgi osetin tilidagi "Xiauv" - qal'a so'zidan, boshqalari bu atamani antik davrdan Xiva hududidan oqib o'tgan Xeykaniq (hozirgi Polvonyop) kanalining o'zgartirilgan (Xeykaniq - Xeyvaniq Xeyvaq - Xeva - Xiva) nomidan kelib chiqqan deydilar. Xorazmlik tarixchi-solnomachi Xudoyberdi Qo'shmuhammad o'zining 1831 -yilda yozgan "Dili G'aroyib" asarida Xorazmnning qadimgi shaharlarini nomma-nom sanar ekan, "Bu mamlakatning yana bir qal'asi bor. Bu qal'aga Som ibn Nuh asos solgan bo'lib, u hozirgi Xivaq nomi ila mashhurdir"deydi.

Xalq rivoyatlarida ham shaharning bunyod etilishi Nuh zamonlariga borib taqaladi. Bunda Nuhning o'g'li Som bo'lajak shahar yoniga kelib quduq qazdirgan va shu bilan Xivaga asos solgan. Xivaning Ichan qal'asida qadimgi Xeyvaq (Xivak) qudug'i saqlanib qolgan.

Xiva to'g'risidagi dastlabki ishonchli ma'lumotlar X asrdan boshlab arab-fors tilidagi tarixiy-geografik manbalarda uchraydi.

Istaxriy (930) Xivani o'sha davrdagi eng yirik 30 ta shahar ro'yxatiga kiritgan. U. Xivani Hazoraspdan 8 farsax masofada Jurjoniya (Gurganj) yo'lida joylashganligini qayd qiladi. Muqaddasiyning ma'lumotlariga ko'ra esa Xiva bilan Hazorasp o'rtaidagi masofa 8 dovon (10 farsax) dan iborat bo'lganligini, Nizomiddin Shomiy (XIV asr) asarlarida ham karvon yo'lida joylashgan shahar sifatida eslatib o'tiladi.

XVII asrda yashab o'tgan Mahmud ibn Valiy bu shahar to'g'risida shunday yozadi: "Xiva keng va bahavo shahar. U shayx Najmiddin Kubroning vatanidir". Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarai turk" va "Shajarai tarokima" asarlaridagi Xiva xususidagi fikrlari ham ana shu davrga mansub.

Miloddan avvalgi V asr oxirigacha Xiva Xorazm tarkibida Ahomaniylar davlati tasarrufida, so'ngra mustaqil Xorazm davlati tarkibida bo'lgan. Ilk o'rta asrlarda Xiva orqali Sharqni G'arb bilan bog'lovchi Buyuk ipak yo'li o'tgan. IV asr boshlaridan Xiva - Xorazm bilan birga Sosoniylar davlati tarkibiga kirgan. Bu davrda u qal'a devori bilan o'rab olingan. 712 -yilda Xivani arablar istilo qilgan.

Arab sayyoohlari Istashriy va Muqaddasiy qo‘lyozmalarida keltirilishicha, Xiva X asrda Xorazm vohasida eng yirik shaharlardan biri bo‘lgan. 1221-yildan mo‘g‘ullar imperiyasi, 1389-yildan temuriylar davlati tarkibida, XVI asr boshlaridan 1920-yilda 2-fevralgacha Xiva xonligi poytaxti bo‘lgan. Xonlik 1873 -yilda rus qo‘shinlari tomonidan zabt qilinib, Gandimiyon shartnomasiga ko‘ra, Rossiya imperiyasi protektoratiga aylantirilgan. 1920–1924 -yillarda Xiva Xorazm Xalq Sovet Respublikasi poytaxti bo‘lib turgan.

Xivani arxeologik jihatdan o‘rganish qisman S.P.Tolstov, YA.G‘.G‘ulomov, A.I.Terenojkin va boshqalar tomonidan 20 - asr o‘rtalarigacha olib borilgan. 1984 – 1993-yillarda arxeologik qazishma ishlari rejali ravishda keng miqyosda olib borildi. Qazishmalar O‘zbekiston FA Qoraqalpog‘iston bo‘limi arxeologlari va xorazmlik arxeologlar hamkorligida amalga oshiridsi. Shahar xududida 6 ta stratigrafik qazilma va 7 shurf belgilandi. Xivaning qadimgi qismi - Ichan qal’ada 1200 m² bo‘lgan maydoni qazib o‘rganildi.

Xiva dastlab agrar-hunarmand shahar sifatida rivojlandi. Miloddan avvalgi II asrda Xivaning katta qismi qum ostida qolgach, aholi shaharni tark etdi. Ichan qal’a devorlari vayron bo‘ldi.

Milodiy boshlarida shaharda hayot yana tiklana boshladи. Qal’a devorining g‘arbiy qismida ark bunyod etildi. 1 -III asrlarda (Kushonlar davri) Xiva Ichan qal’a devorlari tashqarisidan qalin g‘ishtin devor bilan mustahkamlandi, natijada shahar devori qalinligi 7,5 - 9 metrga yetadi.

Arxeologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, milodiy IV-V asrlarda shaharni yana qum bosgan. VI-VIII asrlarda Xiva qayta tiklana boshladи. Xiva xududida zamindorlarning dastlabki ko‘shklari paydo bo‘la boshladи. Ichan qal’ada shunday ko‘shklardan 2 tasi topilgan.

Shahar Xorazmshohlar davrida (XII-XIII asr boshi) ravnaq topib, hududi kengaydi. 1220 - 1221 -yillarda Xiva Chingizzon qo‘shinlari tomonidan vayron etildi. Keyinroq qayta tiklana boshladи. Hunarmandchilik (kulolchilik, koshinkorlik va boshqalar) rivojlandi.

Keyingi davrda ayniqsa, XVI-XIX asrlarda shahar jadal taraqqiy eta bordi. Quyi Volga, O‘rtalik Volga, O‘rtalik Sharq shaharlari bilan savdo aloqalari o‘rnatildi.

Xiva XVI asrning 2 - yarmidan Xorazmning poytaxtiga aylangach, har tomonlama rivojlandi. Me'moriy qiyofasi ham o'zgara bordi.

Xivaning rabod qismi Dishan qal'a 1825 baland devor bilan o'rab olingan. O'sha davrda Ichan qal'ada 33 mahalla va Dishan qal'ada 34 mahalla bo'lgan. Mahallalar nomi shu yerda yashayotgan aholining kasbkori (chitkarlik, elakchilik, kulollar, misgarlik, g'assollar) yoki shaxs lavozimi (Otamurod qushbegi, Yoqub mehtar, Yusuf yasovulboshi) bilan atalgan. Shaharda 109 katta-kichik ko'cha, 79 masjid va 120 qorixona bo'lgan. Xivada XIX asr o'rtalarida 20 ming kishi yashagan. Shahar, asosan, XIX asrning 2-yarmidan kengaya bordi.

Me'moriy ansamblining yaxlitligi jihatidan shahar O'rta Osiyoda yagona hisoblanadi. 1967-yilda O'rta Osiyoda ilk bor Xivaning Ichan qal'a (shahriston) qismi tarixiy-me'moriy yodgorliklar qo'riqxonasi deb e'lon qilindi. Xivaning jahon madaniyati taraqqiyotida tutgan o'rni YUNESKO Bosh konferensiyasining (1995 -yil oktabr - noyabr.) 28-sessiyasida alohida qayd qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yilda 3- yanvardagi qarori bilan Xivaning 2500 yilligi 1997-yilda jahon miqyosida keng nishonlandi.

7.2.Xorazm vohasi shaharlari vazifasi

VII-XII asrlarda shaharlar yangilarini qurish evaziga emas, balki eskilarini tiklash hisobiga rivojlanadi. XI-XII asrlarda voha sarhadlarida qal'alar jadal qurilganligi, yangi shaharlar bunyod qilinganligini arxeologik jihatdan qayd qilingan. Biroq yangi shaharlar maydoni katta bo'limgan. Oltin O'rda xonligi davrida yangi qal'alar, karvonsaroylar va shahar atrofidagi turar joylar jadallik bilan qurilgan.

Afrig'iylar davriga oid obidalarni qazib tekshirish Xorazm davlatining VI-VIII asrlar va ilk islom davridagi o'lkaning iqtisodiy bo'shlig'ini aniqlashga imkon bergen. Dastavval yirik shahar-qal'alar atrofida musulmon davrigacha yuzlab qasr-hovlilarning paydo bo'lishi bu yerda feodal mulkchiligi va davlatchiligi shakllana boshlaganligidan dalolat beradi.

Afrig'iylar hukmronligining so'nggi yillarida shaharlarning tushkunlikka uchrashi haqidagi arab yozuvchilarning hikoyalari mavjud. Al Tabariy 712-yilda Xorazmda uchta katta shahar Kat, Xazorasp va Urganch borligini xabar qiladi.

Buyuk sharqshunos olim V.V.Bartol'd VIII asrdagi Xorazmni nazarda tutib shunday deb yozgan: "Arablar bu yerda atrofdagi viloyat aholisidan kiyim-kechagi bilan ajralib turuvchi hamda boshqalarga tushunarli bo'lmagan va yozma hujjatlarda ham ishlatiladigan alohida tilda gaplashuvchi o'ziga xos aholiga duch keldilar" Bunday o'ziga xoslik Xorazm davlati tizimida ham o'z ifodasini topgan. Va rasmiy hujjatlar ham badiiy ijod namunalari mahalliy tilda yozilgan. Beruniy ham o'zining ilmiy faoliyatida ona tilidan foydalana olmaganligidan afsuslanganligini aytgan.

Beruniyning yozishicha, Qutaybaning Xorazmga ikki marta yurishi va Xorazm arab xalifaligiga qaram bo'lib qoldi. Arab lashkarlari kelishidan oldin Burgutqal'a xarobalari atrofida juda ko'p qal'a va qasrlar huvullab qolgani, shimolda Qirqqizqal'a va janubda Teshikqal'a qasrigacha yuz-ikki yuz mert oralig'da qurilgan hashamatli shinakli devorlar bilan mudofalashtirilgan qasrlar va mayda dehqonlarning hovlilaridan iborat dehqon oilalai istiqomat qilganlar.

Tadqiqotchilarning fikricha, arab-fors mualliflarining IX-XI asrlarda O'rta Osiyoda shaharlar tevaragida yuzlab qasrlar to'g'risida yozishlari, mazkur hududda, balki bu yerda boy feodal zodogonlari bilan birga "savdo kapitali"ga ega yirik savdogarlar ham yuzaga kelganligidan darak beradi. Ammo Xorazmda yirik yer egalari istiqomat qilgan katta qal'achalardan tashqari, hali qaram bo'lmagan jamoatchilik tuzumida yashab kelayotgan mulkdorlar borligi haqida ma'lumotlar bor. Xorazm vohasida 150-200 metr masofada joylashgan 100 dan ortiq qasr(ko'shk) borligi aniqlangan. Arab sayyoohlaridan bizgacha yetib kelgan yozuvlarida Xorazmda kichkina Mazdahkon shahar atrofida "o'n ikki ming qasr" mavjudligi aytilgan.

Bunday ma'lumotlar, shubhasiz X-XII asrlarda Xorazmda arab istilosidan keyin shahar madaniyati rivojlangan. Savdo-sotiqliq rivojlangan davlatchilikning rivojlanishiga omillar ko'p bo'lgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu davrda xorazmliklar emigratsiyasi ko'chayib qo'shni mamlakatlarda Xorazm kolloniyalari paydo bo'la boshlaydi. Masalan, tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Xurosanda bironta katta shahar yo'qqki, unda ko'plab Xorazm aholisi yashamasin.

Xorazmda Buyuk ipak yo'li savdosi rivojlangan. Xususan, ko'lrang olmaxon, oq sichqon, dasht tulkisi, suvsar, qunduz echki, oq

terak pustlog‘i, mis, o‘rmon yong‘og‘i, qo‘y va sigirlar, kunjut, gilamlar, ko‘rpalar bo‘lg‘ordan keladi.

XII asrning oxiri XIII asrning boshida Xorazm ko‘chayib eng qudratli davlatga aylandi. Govurqal’a, Devqal’a, Qal’aliqir 2 kabi qadimi shaharlar qaytadan jonlanidi. Qizqal’a va Yigitqal’ada hayot XIII asr boshigacha rivojlanib, mo‘g‘ullar istilosidan keyin hayot tuxtagan. Temirchilik, kulolchilik, shisha va qurilish kasblari taraqqiy etgan.

Qasrlar atrofida son-sanoqsiz mayda yer egalari va dehqonlarning qurg‘onlari joylashgan. Amudaryoning qadimgi o‘zani atrofida gullab yashnayotgan dehqon dalalari ko‘p bo‘lib aholining va shahar qudratining oshishiga sabab bo‘lgan.

Xorazmga 1219 -yili kelgan arab sayyohi Yoqut shunday deb yozadi: “Men hech vaqt bunday (Xorazmday) ko‘p aholi yashagan viloyatni ko‘rmaganman. Uzluksiz zikh joylashgan, bir-biriga yaqin qishloqlar, dashtlarda juda ko‘p qasrlar va hovlilar, atroflarda o‘zlash-tirilmagan yerlar deyarli ko‘rinmaydi. Bu yerda daraxtlar juda ko‘p, ayniqsa tut daraxtlari va bo‘y teraklar. Ulardan aholi qurilishda va ipak qurti boqishda foydalanadi. Qishloqlarni va shaharni kezganda, bozorlarni ko‘rganda butun viloyatda aholi joylanishi bir xil ko‘rinadi. Xorazmdek farovon aholisi zikh viloyat hech qayerda bo‘lmasa kerak. Bozori bo‘lman qishloq juda kam. Bunday holat osoyishtalik va xotirjamlik hukm surganidan darak beradi”. Bunday to‘q-farovon turmush, shubhasiz mamlakatda ilm-fanni, madaniyat va san’atni rivojlanishida omil bolib xizmat qiladi.

X-XI asrlarda Xorazmning ko‘p shaharlari Urganch, Kat kabi shaharlari O‘rta Osiyodagi tipik shahalar qiyofasiga kirdi. Beruniyning ona shahri Kat mamlakatning eng yirik savdo va iqtisodiy markazi bo‘lib tanildi. Kat shahri Buxorodan katta bo‘lgan o‘sha davrning juda ko‘p olimlar va donishmandlari shu yerda yashagan. Kat hatto Iroqning eng yirik madaniy markazlaridan ham ustun turgan.

Amudaryodagi suv toshqinlari shaharning rivojlanishiga, gullab-yashnashi uchun tusqinlik qilib kelgan. Aholining daryo qirg‘oqlaridan nariroqqa chekinishga majbur etgan. X asrning birinchi yarmida Amudaryoning to‘lqinlari qadimgi Kat qal’asini va shaharning unga yondoshgan qismlarini yuvib ketish havfi to‘g‘iladi va shahar darvozasini suv yuvib ketadi. Beruniyning ko‘rsatishicha,

Amudaryo shahar qal'asini tagidan suv yuvib, uning bo'laklarini yil sayin olib ketavergan. Va oqibat 994-yilga kelib qal'adan asar ham qolmagan. Xorazmliklarning Katdagi hayoti uzilmagan ular eski shaharni tashlab, sharqiy tomonda yangi uy - joylar qura boshlagan.

Abu Rayhon Beruniy Xorazm Amudaryoning mahsuli degan. Barcha tarixiy davrlarda xorazmliklarning hayoti Amudaryoning yovuz fe'li bilan kurashda o'tgan. Xorazmliklarning ham yirik bir qismi daryoning "ketidan borib", yangi o'zani atrofida o'mashganlar. Beruniy aytgan bu so'zlar XX-asrda S.P.Tolstov va Ya.G'ulomovlar boshchiligidida olib borilgan arxeologik qazishmalar bilan tasdiqlandi.

7.3. Mizdaxqon, Devkesgan o'rta asr shahar qal'alari

Mizdaxqon - Xorazmdagi yirik o'rta asr shahari. Xo'jayli shahridan 7 - 8 km g'arbda joylashgan. Antik davrga oid qishloq xarobasi o'rnida V-VI asrlarda bunyod etilgan qasr asosida vujudga kelgan va mo'g'ullar hukmronligining oxirigacha (XIV asr) mavjud bo'lган. Mizdaxqon 2 tepalikdan iborat. Ulardan biri (Gabr qal'a) Mizdaxqonning qadimgi qismi bo'lib, uning qalin paxsa devori va arkining qoldiqlari saqlangan. Mizdaxqonning 2-tepaligi qabristonga aylangan. Uning maydonining bir qismida Mazlumxon Suluv maqbarasi (XIII asr oxiri - XIV asr boshi) joylashgan. Mizdaxqonni arxeologik jihatdan o'rganish ishini 1928-yilda A.Yakubovskiy boshlagan. 1962-, 1964-1965-yillarda Mizdaxqonda S.P.Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologiya etnografiya ekspeditsiyasi qazishmalar o'tkazgan. Natijada **Mizdaxqonning** tarixi va Xorazmning islom dinigacha bo'lgan qadimgi diniga oid ko'plab qimmatli ma'lumotlar olindi. X asrda Mizdaxqon obod shahar bo'lib, atrofida 12000 turar joy qo'rg'onlari joylashgan.

Mizdaxqondagi qabristonga zardushtiylik diniga e'tiqod qilgan marhumlar ossuariylarga solib ko'milgan. Ossuariylarda rang-barang mazmundagi naqshlar va qadimgi xorazmiy tilida yozilgan bitiklar saqlangan. Xorazmni arxeologik va etnografik jihatdan o'rganish 1928-1929 -yillarda boshlangan. A.Yu.YAkubovskiy boshchiligidagi ekspeditsiya xorazmshohlar poytaxti - Urganch (hozirgi Ko'hna Urganch) dagi me'moriy yodgorliklarni va ilk o'rta asr shahri Mizdaxqonda qazishma ishlari olib borgan.

Devkesgan qal'a - qadimgi shahar. Ko'hna Urganchdan 60 km g'arbda joylashgan. Devkesgan qal'a baland tepalikda ulkan to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, mudofaa devorlari toshdan

ishlangan, devor bo‘ylab ko‘plab burjlar qurilgan, asosiy darvoza oldiga murakkab tarhli inshoot bunyod etilgan. Qal’a atrofi chuqur xandaq bilan o‘rab olingan. Qal’a ichida so‘nggi o‘rta asrlarga oid ko‘plab tosh inshootlarning qoldiqlari saqlanib qolgan. Balandlikda joylashgan qal’a etaklarida xom g‘ishtlardan qurilgan mudofaa devori bilan o‘ralgan o‘rta asrlarga oid “pastki shahar” joylashgan, undan ko‘plab sopol buyumlari topilgan. Har ikki shahardan janubiy-g‘arbraqda shu davrga oid tarhi to‘rtburchak chorbog‘ bunyod etilgan. Devkesgan qal’a xarobasi o‘rnida XVI-XVII asrlarda Vazir shahri bo‘lgan.

7.4. X-XIII asrlar Xorazm shahar madaniyati

X asr oxirlarigacha Xorazm ikki hokimlikdan iborat edi. 995 - yilda Gurganch (Ko‘hna Urganch) hokimi Kat shahrini egallashi bilan ikki hokimlikka barham berilgan. Ma’mun II davrida Gurganch (Urganch) Sharq mamlakatlaridagi yirik markazlaridan biriga aylanadi. Unda savdo, hunarmandchilik, madaniyat va fan rivojlanadi. XI-XII asrlarga kelib Gurganch buyuk Xorazm davlatining go‘zal va ajoyib poytaxti bo‘lib taniladi. Dunyoning juda ko‘p yerlarini aylangan atoqli arab sayyohi va geografi Yoqut shunday yozadi: “Men umrimda bu shaharga o‘xhash boy va chiroyli shaharni ko‘rmaganman. Bitmas-tuganmas boyliklari va poytaxtining kengligi hamda aholisining juda ko‘pligi va yaxshiliqi bilan Xorazmning bosh shahriga o‘xshagan shahar bo‘lmasa kerak deb o‘layman”.

Istahriyning ta’rificha: “Gurganch Xorazmning eng katta shahri ug‘uzlar bilan savdo qiladigan joy bo‘lib u yerdan Jurjoniya, Xozorlarga, Xurosonga karvonlar jo‘naydi”. Istahriydan oldinroq Xorazmga kelgan Ibn Botuta: “U (Urganch) aholisining ko‘pligidan dengiz singari to‘lqinlanib turadi”, deb yozgan edi. Urganch harobalari va bu xarobalar orasida qad ko‘targan pishgan g‘ishtdan qurilib, koshin bilan mohirona ziynatlangan ajoyib hashamatli, hozirgacha saqlanib kelgan yodgorliklar ko‘p vaqtlargacha sayyoh va tadqiqotchilar diqqatini o‘ziga jalb qilib kelgan. Bu ajoyib obida xarobalari taxminan 400 hektar maydonni egallaydi.

Poytaxt yirik hunarmandchilik markazi bo‘lgan. XIII asr mualliflaridan birining xabar berishicha o‘sha davrdagi xorazm shaharlarida taxminan 50 ta turli hunar-kasblar mavjud bo‘lgan. Zakariyya al-Kazviniy ta’rificha, urganchliklar “mohir

hunarmandlar”, ayniqsa temirchilik, duradgorlik kabi kasblarni mukammal egallaganlar.

Urganch o‘ymakorlari suyak va yog‘ochdan ajoyib mahsulotlar yaratib dong chiqarganlar, ayollar esa nihoyatda mohir kashtachilar. Manba'larda yozilishicha, shaharda natural ipak do‘konlari ishlab turgan, binokor ustalar toldan mustahkam sinch uylar qurbanlar. Zakariyya al-Kazviniy Urganchni jannatdagi shaharga o‘xshatib, uni farishtalar kuyov kelunga e’tibor qilganday e’zozlaydilar, deb ta’riflaydi.

Arab mualliflari, Urganchni nihoyatda zinch aholili, keng territoriyada Amudaryoning ikki sohilida joylashgan to‘g‘onli shahar bo‘lib, uni mo‘g‘ullar uzoq vaqt qamal qilganliklarini etirof etadilar. Faqat shahar to‘g‘onini buzib uni suvga bostirib aholini taslim qildirganlar. Mazkur obidalardan tashqari mo‘g‘ul istilosini natijasida Xorazmning Guldursun, Sho‘raxon, Norinjon, Darg‘onota va shu kabi shahar va qal’alari abadiy xarobalikka aylangan. Qolgan shahar va qishloqlar ham vayron qilingan bo‘lsada, bir qancha vaqt o‘tishi bilan ulardagi hayot qayta tiklanadi va shahar madaniyati rivojlandi. Ammo buyuk imperiya bo‘lib tanilgan Xorazmning ilm-fan sohasida jahon stivilizatsiyasiga qo‘sghan hissasi nihoyatda yuksak va beqiyos.

Sharq Renessansi tufayli Xorazm madaniyatining nihoyatda zo‘r rivojlanishi bu yerda buyuk siymolarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Musulmon olamida, Yevropada lotin tili fan tili bo‘lib tanilganidek arab tili ham o‘ziga xos lotin tili bo‘lib tanilgan va allomalarni millatiga qaramay birlashtirgan. O‘sha davrda fan olamida yarqirab chiqqan yulduzlardan biri buyuk alloma Beruniy zamona talabiga qarab o‘z asarlarini xorazm tilida yoza olmaganligidan afsuslangan. O‘zining ona tili fan tili bo‘lmay qolganligini va uning o‘rnini arab tili egallaganini alam bilan e’tirof qilib, dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida fanlar arab tiliga tarjima qilingan, deb yozgan edi.

Beruniyning ta’rificha: har bir xalq o‘zi aloqa qiladigan tilini sevadi. “Men arab va fors tillarida yoza boshladim, deb noliyi u, lekin ularning har ikkovi ham mening ona tilim emas, shuning uchun o‘z fikrimni bu tillarda bayon etishga qiynalaman”deb kamtarona fikrlarini aytib o‘tgan. Beruniyning arab tilini mukammal bilibgina qolmay, arab va boshqa sharq tillarda adabiy janrlarning barcha turlaridan bemalol foydalangan. U ona vatani Xorazmda turib qadimiy yunon ilmini bilgan, bir necha chet tillarni, falsafa, botanika,

matematika, astronomiya fanlarini egallagan buyuk qomusiy olim bo‘lib taniladi. Beruniy qo‘sni ajnabiyligi mamlakatlarda bo‘lib o‘z bilimini oshiribgina qolmay, yirik asarlari bilan Xorazmni jahonga tanitgan ulug‘ siymo edi. Bepoyon Xorazm vohasida son-sanoqsiz arxeologik obidalarni jiddiy o‘rganish ham antik vaqtlardan buyon Xorazmda aniq va tabiiy fanlar yuqori darajada taraqqiy etganligini isbotlaydi. Ajoyib me’morchilik san’ati aniq qonuniyatga asoslanganligini qurilish ishlarining sinchiklab hisob qilinishi dabdabali qurilish inshootlari, Beruniy tasvirlagan Xorazm taqvimi va mukammal astronomik terminologiya, Tuproqqal’a, Ko‘hna Urganch va boshqa obidalarda kashf etilgan naqshlardagi mineral bo‘yoqlarning boyligi va rang-barangligi, qazishmalardan topilgan shisha va har xil metall buyumlar - bular hammasi o‘sha davrda Xorazmda aniq fanlar ancha rivojlanganligini isbotlaydi. Aniq fanning buyuk namoyondalaridan, yangi ilm-fan maktabiga asos solgan mashhur matematik, astronom va geograf olim Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy dunyo fani tarixida alohida o‘rinni egallaydi.

Matematika fanida “algoritm” atamasi al-Xorazmiy nomining buzilib aytilishidan kelib chiqqanligi, uning “al-Jabr” nomli asaridan “algebra” paydo bo‘lganligi hammaga ayon. Al-Xorazmiy nafaqat buyuk olim, balki arab halifaligining elchisi sifatida Xazariyaga borganligi ma’lum. Tadqiqotchilar orasida Sharqiy Yevropa jugrofiya va etnografiyasining negizini al-Xorazmiy yaratgan, degan fikr mavjud. V.V.Bartoldning e’tirof etishicha, bu ulug‘ olim o‘zining “Olamning suratlari” nomli asari bilan arab jugrofiya faniga asos solgan. Bundan tashqari Xorazmiy mashg‘ul bo‘lgan astronomiya xronologiyasi uning zamondoshlari va keyingi avlod olimlari tomonidan zo‘r qunt va g‘ayrat bilan rivojlantirilgan. Xorazmiy va Beruniylar yaratgan jahon fanining rivojiga zo‘r ta’sir etgan asarlar mazkur sohalar bo‘yicha o‘ziga xos Xorazm ilmiy maktabini tashkil etganligini alohida qayd qilish lozim.

Abu Rayhon Beruniy ana shu maktabning eng yorqin namoyandasini bo‘libgina qolmay, Urganchda “Baytul hikma” nomi bilan mashhur bo‘lgan ilm maskani Ma’mun Akademiyasining tashkilotchisi deb tanilgan. Uning ijodida Xorazm fani eng yuksak cho‘qqiga chiqqan. Beruniy yoshligida chet ellarga ketib ko‘proq bir necha mamlakatlarda bo‘lib 1004 -yili, o‘ttiz bir yoshlarida ona vataniga qaytib kelgach ijodiy faoliyatini yana ham kuchaytiradi. U

Ali ibn Ma'mun hukmdorlik qilgan paytda, olti yil davomida bevosita fan bilan bemalol shugullanish imkoniyatiga ega bo'lgan. Keyinchalik yangi hokim Ma'mun ibn Ma'mun taxtga kelib Beruniyni o'zining eng yaqin davlat maslahatchisi qilib oladi va unga eng o'gir va mas'uliyatli ishlarni, jumladan diplomatik muammolarni ham topshiradi.

Shunday bo'lsada bu davlat ishlariga ketayotgan vaqtiga achingan, fidoyi olim ijodining zo'r ko'tarinki va rivojlangan davri edi. Ma'mun II boshqa o'ziga o'xhash shohlar singari el oldida obro' qozonish maqsadida saroyga atoqli allomalar, shoir va ijodkorlarni to'plab, Beruniy tashabbusi bilan ilmiy to'garak tashkil etgan. "Ma'mun Akademiyasi" nomi bilan mashhur bo'lgan bu to'garakka O'rta asr fanining eng yirik siymolaridan buxorolik Abu Ali ibn Sino, atoqli astronom va matematik Abu Nasr Mansur ibn Iroq va Mahmud Hamid ibn Xidr al Xo'jandiy, mashhur tabib va faylasuf jurjonlik Abu Saxa al Mashiy, zo'r tabib va tarjimon Abo'l Xayr Hammor, tarixchi va tilshunos olimlar Abu Mansur as Saolibiy, Beruniyning birinchi ustozи Abu Nasr ibn Iroq va boshqalar kirgan. Ma'mun Akademiyasi olimlari davrasida o'zining teran bilimi va notiqligi bilan mashhur bo'lgan Abu Mansur as-Saolibiy o'z asarlarida turli xil tarixiy voqealar bilan bir qatorda X-XI asrlarda yashab o'tgan 124 ta (shulardan 104 tasi O'rta Osiyolik) alloma, shoir va ijodkorlarni tilga oladi. Shulardan Xorazm vohasida yetishib chiqqan Abu Bakr Muhammad ibn Abbos al-Xorazmiy, Abu Said Ahmad, Abu Muhammad Abul Qosim ibn Zirg'om kabi olimlar ham ko'rsatilgan.

Xorazmnинг ма'naviyат markazига аяланышидан мазкур allomalar bilan bir qatorda о'lkani jahonga tanitgan shahonshohlar Tekesh va Alovuddin Muhammad davrida ajoyib siymolar butun bir guldastasi namoyon bo'ladi. Ана shunday ulug' donishmandlardan biri Umar ibn Muhammad al-Xorazmiy az-Zamaxshariy (1075 -1144). Juda ko'п asarlari bilan ritorika, astronomiya, stilistika kabi fanlar sohasida qilgan kashfiyotlari tufayli tanilgan. Az-Zamaxshariyning iste'dodli shogirdlaridan al Muvaffoq ibn Ahmad al-Makki go'zal notiq, imomlar sadri, arab tilining zabardast bilimdoni, eng zo'r mudarris va ajoyib adib deb tanilgan. O'sha davrda yashagan qur'on lug'atini tuzgan Zaynitdin Muhammad ibn Abulqosim al-Baqqosh al Xorazmiy, xorazmshoh Otsizga bagishlab ajoyib tibbiyat asarini yozgan Abu Ibrohim Ismoil al-Jurjoniy kabi allomalar jahon fanini

rivojlantirishda zo'r hissa qo'shganlardan. Zamondoshlari tomonidan yuksak baholangan Sirojiddin Yoqub as Saqoqiy "Barcha allomalarining sarkardasi" deb nom qozongan.

Nafaqat Xorazmda, musulmon olamida diniy-mazhabiy adabiyotlarda kuylanib avliyo darajasiga ko'tarilgan ulug' zotlardan biri Ahmad ibn Umarbek al-Xivaqiy, al Xorazmiy, butun Sharqda Najmuddin Kubro nomlari mashhurdir. Xiva shahrida tavallud topgan bu katta alloma juda ko'p sharq mamlakatlarini kezib, ona yurtiga qaytib kubroviya tariqatiga asos solgan. Abu Said ibn Irmon al-Xivaqiy atoqli huquqshunos, mashhur muftiy va donishmandlardan hisoblangan. Shoh uning bilan maslahatlashgan va aytganiga qulq solgan Shixobiddin Xorazm madrasalaridan beshtasida mudarrislik qilgan va kim kelsa ham hech vaqt o'z darsini bo'limgan. Uning shafiylar madrasasida qurdirgan juda zo'r kutubxonasiga butun mintaqada teng keladigani bo'limgan.

Xorazmda mudarrislik kasbi shuncha hurmatli va e'zozli bo'lganki, yuqori mansabdagi arboblarning ko'pchiligi davlat ishlaridan bo'shangach mudarrislik qilishni faxrli ish deb bilganlar. O'sha davrda Xorazm davlatining obro'si va boyligi dastavval mamlakatda ilm-ma'rifat va ma'naviyatni qadrlash, fan, adabiyot va san'at ahlini e'zozlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash siyosati tufayli namoyon bo'lganligini barcha manbalar tasdiqlaydi.

Manbalarning biridagi ta'rificha, Xorazm "barcha zamonlarda ilm ahli makoni va donishmandlar karvonining manzilgohi" hisoblangan. Ilm ma'rifat bilan birga shahar madaniyatida ham jiddiy va juda katta o'zgarishlar bo'ldi.

Xorazm arxeologiya-kompleks ekspedisiyasi
Shemaxaql'ada arxeologik tekshirish islari olib borgan. Shemaxaql'a Xorazmning 13 - 14 - asrlardagi yirik savdo-hunarmandchilik markazi bo'lgan. Ko'hna Urganchdan 50 km g'arbda joylashgan. Barpo etilgan davri aniq belgilanmagan. S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-kompleks ekspedisiyasi tomonidan 1946 va 1948 -yillarda tekshirish ishlari olib borilgan. Shemaxaql'a 2 qismdan iborat. Qadimgi qismida to'g'ri burchak hosil qilib kesishgan ko'chalar bo'lgan. Paksadan bunyod etilgan mudofaa devorining janubiy tomonida minoralari va darvozasi bo'lgan. Shaharning chekka qismidagi mahallalar Oltin O'rda davrida vujudga kelgan. Shahar markazida tosh

bloklardan yasalgan jome masjidi va amaldorlarning uylari joylashgan. Shahar atrofida hunarmandlar mahallalari bo‘lgan. Xorazm arxeologiya-kompleks ekspedistiyasi tomonidan ko‘plab shahar madaniyatiga ta’luqli topilmalar topilgan.

Shohsanam qadimgi shahar miloddan avvalgi 1 - ming -yillik - milodiy XIII asrlarga ta’luqli. Ko‘hna Urganch shahridan 90 km janubiy - g‘arbda joylashgan. 1939 va 1952 -yillarda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspedistiyasi tomonidan o‘rganilgan. Shohsanam milodiy IV asrda tushkunlikka uchrab, IX asrda qayta tiklangan. Biroq XIII asrda mo‘g‘ullar hujumi natijasida vayron qilingan. Shaharning ichidan va atrofidan shishasozlik, kulolchilik ustaxonalari, hammom va masjid xarobalarining qoldiqlari topilgan. Shohsanamdan qal'a devorlari ochilgan. Shulardan o‘rta asrlarda qurilgan istehkomlar yaxshi saqlangan. Shahar markazida XII asrga oid peshtoqi ganchdan manzarali o‘ymakorlik naqshlar bilan bezatilgan masjid ochilgan. Qazish paytida tangalar, sopol, jez, shisha va toshdan yasalgan idishlar, bezaklar, buyumlar, mato, madaniy o‘simlik va maqbara qoldiqlari topilgan.

Savdo munosabatlarning taraqqiyoti Xorazmni Buyuk Ipak yo‘lining Markaziy tarmoqlari kesishgan markazlardan biriga aylanishiga, turli sohalarga ixtisoslashgan ayniqsa, savdo munosabatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan savdo markazlarining vujudga kelishiga olib kelgan. Shaharlarning tutgan o‘rni, ko‘p hollarda, uning ijtimoiy - iqtisodiy imkoniyati va karvon yo‘llari bilan aloqasi, savdo munosabatlariga qanday tortilganligi bilan belgilangan. Istashriy va Muqaddasiy asarlarida Xorazm savdo markazlarining tavsifi, Xorazm iqtisodiy geografiyasi, shaharlar va qishloqlarning savdo munosabatlari, bozorlari va karvon-saroylariga katta e’tibor berilgan.

IX-XIII asrlar manbalarining deyarli barchasida Xorazm nafaqat Movarounnahr balki butun Musulmon Sharqining eng taraqqiy qilgan, shaharlari ko‘p, dehqonchilik chorvachilik, hunarmandchilik gullabyashnagan, va savdo munosabatlari juda rivojlangan hududlardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Iqtisodiy va madaniy yuksalish mo‘g‘ul boqini munosabati bilan biroz to‘xtab qolgan. Bir oz vaqtgacha Xorazm shaharlari vayrona ichida qoldi. Lekin shuni ta’kidlash kerakki, mo‘g‘ul bosqini ham juda qadimdan shakllanib, rivojlanib

kelayotgan Xorazm shahar madaniyati tarqqiyotini butunlay to‘xtatib qo‘ya olmadı.

Xorazm vohasi mehnatkashlarining yaratuvchanlik mehnati tez orada, iqtisod va madaniyat bilan bir qatorda, Xorazm savdo markazlarining, ayniqsa uning Oltin O‘rda davlati tarkibiga kirgan qismi (mo‘g‘ul bosqinidan so‘ng Xorazm Oltin O‘rdaga kiruvchi Shimoliy Xorazm va Chig‘atoy ulusiga kiruvchi Janubiy Xorazmga bo‘lingan edi) shaharlarning o‘z qaddini tiklab olishga olib keldi.

Keyingi o‘rta asrlar mualliflarining asarlarida Xorazm savdo shaharlari, ayniqsa, Urganch yana o‘z davrining eng yirik savdo markazlari sifatida, Xorazm (ko‘proq Shimoliy Xorazm) shu davrning eng boy va iqtisodiy mavqeい baland hududlardan biri sifatida tilga olinadi. Jumladan, Xorazmni Eron bilan bog‘lovchi karvon yo‘llari mavjudligi qayd etilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Xivaning arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra tarixi
2. Xiva agrar-hunarmand shahar sifatida qachondan rivojlana boshladi?
3. Shemaxaqal’a va Shohsanam savdo-hunarmandchilik markazi haqida nimalarni bilasiz?
4. Zakariyya al-Kazviniyning Urganch haqidagi fikrlarini ayting?

Test topshiriqlari

1. Xorazmda dafn inshooti “o‘liklar uyi” bo‘lib, unda loydan yasalgan katta idishlarda (ossuariylar) mayyitlarning suyaklari saqlangan makon?
 - A Qal’aliqir
 - B Kavatqal’a
 - C Qurodqal’a
 - D Qo‘y qirilganqal’a
2. Xorazm arxeologiya etnografiya ekspeditsiyasi faoliyati tufayli 1-marta Xorazmning arxeologiya xaritasi ...tuzilgan?.
 - A 1956
 - B 1935
 - C 1976
 - D 1960
3. O‘rta Osiyoda ilk bor Xivaning Ichan qal’a (shahriston) qismi tarixiy-me’moriy yodgorliklar qo‘riqxonasi deb e’lon qilindi?

- A 1967-yilda
- B 1987-yilda
- S 1976-yilda
- D 1965-yilda

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Xivaning 2500 yilligi qatsi yilda jahon miqyosida keng nishonlandi?

- A 1997
- B 1998
- S 1996
- D 2000

5. Bu shahar to‘g‘risida shunday yozadi: “Xiva keng va bahavo shahar”.

- A Mahmud ibn Valiy
- B Najmuddin Kubro
- S Abulg‘oziy Bahodirxon
- D Beruniy

6. Devkesgan qal‘a xarobasi o‘rnida XVI-XVII asrlarda shahri qad ko‘targan?

- A Vazir shahri
- B Ichan qal‘a
- S Jonbosqal‘a
- D Bozorqal‘a

7. “Xorazm” atamasi (toponimi) arabcha yozma manbalarda bu o‘lka... talaffuzida tilga olinadi?

- A Xvorazm
- B Xorasmiya
- S Xvairizem
- D Uvarazmis

8. Miloddan avvalgi VI-V asrlarda Xorazm Ahomaniylar davlatining nechanchi satraplik tarkibiga kirgan?

- A 16 - satraplik tarkibiga kirgan
- B 14 - satraplik tarkibiga kirgan
- S 17 - satraplik tarkibiga kirgan
- D 10 - satraplik tarkibiga kirgan

9. Miloddan avvalgi III milodiy III asrlarda Xorazm Sirdaryo havzasining o‘rta qismida tashkil topgan qaysi davlatining tarkibida bo‘lgan?

- A Qang‘ davlatining tarkibida bo‘lgan
 - B Dovon davlatining tarkibida bo‘lgan
 - S Kushon davlatining tarkibida bo‘lgan
 - D Baqtriya davlatining tarkibida bo‘lgan
10. Shohsanamdan qal’asidan nechanchi asrga oid masjid ochilgan?

- A XII-asrga oid
- B X-asrga oid
- S IX-asrga oid
- D XI-asrga oid

8-mavzu:O‘rta asrlarda Toshkent vohasi urbanizatsiyasi

Reja:

- 8.1. Toshkent vohasida shahar madaniyatining shakllanib, shaharning qad ko‘tarishi
- 8.2. Choch shahri yo‘llarining shakllanishi
- 8.3. O‘rta asr shaharlari madaniyatining ravnaqi
- 8.4. Toshkent XIV-XVI asrlarda

Tayanch so‘z va iboralar: Choch yoki Shosh, Mingo‘rik, Shoshtepa, Chirchiq, Salor, Qorasuv, Binkat, Sebzor, Ko‘kcha, Beshyog‘och, Binkat, Kaykovus arig‘i, Choch, Banokat, Tunkat

8.1.Toshkent vohasida shahar madaniyatining shakllanib, shaharning qad ko‘tarishi

Toshkentning o‘zoq o‘tmishi va qad ko‘targan qadimgi Choch yoki Shosh viloyati haqida manbalarda xilma-xil tarzda uchraydi. Xitoy manbalarida “Je-She” va “Shi” toponimi xitoychada “tosh” ma’nosini anglatgan. Toshkentning turkiy nomi “tosh shahar”da ham o‘z aksini topgan. Bu nom sof ma’noda emasligi aniq, chunki shahar hech qachon toshdan barpo etilmaganligi manbalarda uchraydi. Bu ta’rif Choch aholisining dushmanlarga qarshi kurashda mardlik va matonatini aks etganligini ifodalaydi, degan fikrlar ham bor. Shaharning Avestoda himoya qilingan “qudratli turlar” mamlakatida vujudga kelganligi ta’kidlangan. Bu nom o‘zagida Chotqol-Qurama tog‘laridagi boylik-yarim qimmatbaho feruza toshiga ishora beib aytilgan. Xitoy matnlarida “Shi” atamasi “tosh”, “qimmatbaho tosh”ni anglatgan. Toshkentni “asl tosh”, ya’ni “feruza shahar” deb atalgan.

Hozirgi Toshkent vohasida qadimgi shahar madaniyatining vujudga kelib, bu o‘kada ilk katta-kichik shaharlarning barpo bo‘lishi tarixi yozma manbalardan ko‘ra, Toshkent teritoriyasida qad ko‘targan qadimgi shaharlarning xarobalari hisoblangan tepaliklar qa’rida to‘laroq va aniqroq saqlangan.

Toshkent vohasida shahar madaniyatining shakllanib, shaharning qad ko‘tarishi shu o‘lkada yashagan qadimgi chorvador va dehqonlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi ulkan tarixiy jarayon bo‘lib, bu jarayon shubhasiz o‘lkaning o‘zlashtirilib, obod etilishi, ayniqlsa, unda chorvachilik va dehqonchilik xo‘jaliklarining tashkil topishi hamda hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning rivojlanish tarixi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu jarayonning tarixiy manzarasi nihoyatda keng bo‘lib, u yozma manbalarga nisbatan ko‘proq arxeologik tadqiqotlar vositasi bilan tiklanmoqda. Shuning uchun ham Toshkent hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning natijalari qadimgi va o‘rta asrlarga oid manbalardagi ma’lumotlarni to‘ldirib, ularga aniqlik kiritmoqda. Geografik jihatdan qulay, iqlimi mo‘tadil bo‘lgan Chirchiq va Ohangaron vodiylarida uzoq o‘tmishdayoq chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullangan aholi yashagan.

Arxeologik yodgorliklarning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi II - ming yillikning oxiri va 1 - ming yillikning boshlarida ko‘chmanchi chorvador aholining o‘troqlashuvi kuchayib, dehqonchilik kengaya boshlagan. Hali sug‘orma dehqonchilik va irrigatsiya inshootlari qurish imkoniyati bo‘lmagan Toshkentning dastlabki dehqonlari, garchi daryoning asosiy oqimidan suv bog‘lab olishga qurbilari kelmagan bo‘lsa-da, lekin, daryo toshqinlari va adirlardan kelgan suvlardan hosil bo‘lgan irmoqlar bo‘yida, tabiiy zaxob yerlarda dehqonchilik qilganlar. Hozirgi Toshkentning **Qorasuv, Salor va Jo‘n** arig‘idan sug‘oriladigan janub qismida shunday ibridoiy dehqonchilik madaniyati tashkil topgan. Toshkentning bu ibridoiy dehqonchilik madaniyatining izlari dastavval shahardan 30 km janubda Burganlisoy yoqasida topilib, tadqiq etilgani tufayli tarix fanida u Burganli madaniyati nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Qorasuv, Salor va Jo‘n arig‘i yoqalarida dastlab ilk qishloqlar qad ko‘targan. Shulardan biri Jo‘n arig‘i bo‘yidagi Shoshtepaning ostki qatlamidan qazib ochilgan qal’a

xarobasidir. 1980 - 1982 -yillarda olib borilgan qazish ishlari uning miloddan avvalgi VI-IV asrlar va II-I asrlardagi rivojlanish bosqichlarini aniqlashga imkon berdi. Bir tomoni Jo'n arig'iga yondoshgan bu qadimgi joy atrofi dastavval tuproq bilan o'ralib, qal'a, istehkom qiyofasini olgan. Shoshtepaning qadimgi aholisi chorvachilik (qoramolchilik, -yilqichilik, qo'ychilik hamda tuyachilik) bilan shug'ullangan. Qadimgi shoshtepaliklar jez va temirdan qurol-yarog' va asboblar yasashni, kulolchilik hamda to'qimachilikni yaxshi bilgan. Toshkent vohasida shahar madaniyati shakllanib, qadimgi Toshkentning asta-sekin qad ko'tarishiga zamin bo'ldi.

Miloddan avvalgi II - 1 asrlarda Shoshtepada qadimgi shahar belgilari paydo bo'ldi. Qadimgi qishloq xarobalari ustida atrofi qalin aylanma devor bilan o'rab olingan doira shaklidagi qal'a (qo'rg'on) qad ko'tardi.

Milodiy I - II asrlarda suyakdan yasalgan yozuv tayoqchasi (stil) qadimgi Shoshda yasalib ishlatilgan. 15 sqli bu suyak qalamning bir tomoni yozish uchun uchli qilib, ikkinchi o'chirg'ich tomoni esa qiyshiq ko'p burchak shaklida kurakcha qilib yasalgan. Bu topilma milod boshlaridayoq Toshkent vohasida ham xattotlik mavjudligidan guvohlik beradi.

Shoshtepadagi arxeologik obidalar shaharning mustahkam mudofaa devori, hashamatli me'moriy majmuoti, hunarmandchilik buyumlari, xat-savod va savdodan dalolat beruvchi topilmalar milod bo'sag'asida Toshkent vohasida shahar madaniyati rivojlanib, Shoshtepadagi qadimgi qishloq shahar qiyofasini ola boshlaganini ko'rsatadi. Shoshtepani o'rganish Toshkent hududidan shahar madaniyati tarixi xuddi shu davrdan boshlangan, ya'ni uning yoshi 23 asrdan kam emas deb bahslashga imkon berdi.

8.2. Choch shahri yo'llarining shakllanishi

Toshkent vohasida o'troq dehqonchilik va ilk shahar madaniyati o'z tarixini miloddan avvalgi I-asr oxiridan qadimgi shahar Mingo'rikdan boshlangan. Mingo'rik Salor kanali bo'yida joylashgan. Shahar 35 ga bo'lган. Mingo'rikdag'i shahar mustahkam qo'rg'on, baland "qasr" va qal'a devorlar bilan o'ralgan taxminan 5 metr balandlikda. Bino sharqqa kun chiqar tomonga qaragan. O'rtadagi kvadrat 6-7 metrgacha bo'lган balandlikda saqlangan. Milodning I-asrlarida diniy e'tiqod obekti sifatida olov va quyoshga sigingan. Arxeologlar tomonidan diniy

marosimlar o‘tkazilganligi aniqlangan. Avestoda Qanqa nomi “muqaddas” deb tilga olingan, sababi Mingo‘rik diniy qasr majmuasi bu Qanqa davlatining asosiy diniy markazi bo‘lgan.

Milodning III-IV asrlarida Mingo‘rikdagi qadimgi qurg‘on birmuncha kengayib, uning tashqi mudofa devoir ta’mir etilgan. Ochilgan xonalardan topilgan ma’lumotlarda xonalar xom g‘ishtdan va paxsadan bino qilingan devor balandligi 2 metri saqlangan xonaning eni bir metr, devorlaridan VI-VII asrlarga oid rasmlar topilgan.

Mingo‘rikdagi shaharning poytaxt maqomini olganligi uning hududi kengayishida va milodiy VII asrning birinchi choragidan boshlab saroy tipidagi yirik inshoatlar qad ko‘tarishida o‘z aksini topdi.

Milodning III asrida Qang‘ davlati tarixiy manbalarda bir-iri bilan iqtisodiy jihatdan bog‘langan bir necha mayda mustaqil viloyatlarga bo‘linib ketdi. Shu vaqtarda Toshkent vohasida mustaqil Choch davlati tashkil topdi. Mingo‘rikdagi qadimgi shahar markaziy shaharlardan biriga aylandi. Manbalarda bu shahar Choch nomi bilan tilga olina boshladи.

Milodning I asriga kelib Chirchiq, Salor, Qorasuv bo‘ylaridagi vohaning qariyb yarmidan ko‘prog‘i o‘zlashtirilib obod etilgan. Salor yonida joylashgan Choch shahri bu davrda har tomonlama etakchi mavqega ega bo‘lib, uni muarrixlar haqli ravishda milodning boshlaridagi Toshkentning asosi deb hisoblaydilar. Buyuk ipak yo‘lida joylashgan Toshkent Yevropa mamlakatlarining Hindiston va Xitoy bilan olib borgan turli aloqalarida muhim rol o‘ynagan.

Milodiy V asr o‘rtalarida Choch, bir vaqtlar Qang‘ davlati tarkibidagi boshqa mulklar singari Eftaliylar davlatining bir qismiga aylangan. Milodiy VI asrda bu davlat janubdan Sosoniylarning, shimoldan Turk xoqonligi zarbalariga uchraydi. VI asrdan boshlab Choch Turk xoqonligining tarixi bilan bog‘lanadi. Choch, Parak (Chirchiq)ning butun hududi turk xoqoni Buminning ukasi Istami xoqon qo‘liga o‘tadi. Turk xoqonligining eftaliylar bilan kurashi natijasida Sirdaryo bo‘yidagi aholi hayoti biroz izdan chiqadi. “Shohnoma”da yozilishicha, Choch suvoriylarining shiddatli to‘qnashuvlari natijasida Sirdaryo suvi “qizil gul” tusiga kirgan.

Qanqa shahar xarobalaridagi tadqiqotlarda janglar davomida shahar vayron bo‘lganligi va mahalliy aholining qo‘zg‘olonlari

bostirilganligi, shaharning V-VI asrlarda asosiy ibodatxonalari hujum va yong‘inlar ostida qolganligi aytilgan.

VII asrning birinchi choragida Chirchiqning o‘rtal havzasidagi yerlarda shahar aholisining mikrovojhada yashash madaniyati jadal rivojlangan. Chotqol-Qurama tog‘laridagi rangli va asl metal konlarining o‘zlashtirilishi shaharning iqtisodiy yuksalishiga yordam berdi, bu tog‘larda “Choch kumush koni” ishlab turgan. Bu Chochning rivojlanishiga shahar aholisining “Ipak yo‘li” savdosida faol qatnashishiga qulay imkoniyatlar yaratdi.

VI-VII asrlarda Chochning urbanistik jarayoning ko‘chayishiga olib keldi. Shahar hududi va aholisi soni avvalgi davrga qaraganda 2,5 baravar o‘sgan. Savdoda almashinuv vositasida foydalanilgan ko‘plab tangalar topilgan. Bu tangalar XX asrning 70-yillaridan o‘rganila boshlagan. Tangalarning yozuvlariga qarab Choch hukumdarlarining nomlari va unvonlari aniqlangan. Tangaga o‘rilgan tamg‘alarga qarab sulolalar almashinuvi belgilangan.

Choch G‘arbiy Turk xoqonligi tarkibiga kirgan va nazorati ostida bo‘lsada, Xitoy doimiy ravishda davogarlik qilib kelgan. Bu shahar VI-VIII asrlarda, ayniqsa, ravnaq topgan. Shaharning Turk xoqonligi tarkibiga kirishi, uning Qoramozor tog‘laridagi konlar yaqinida joylashganligi, hunarmandchilik mahsulotlariga doimo muhtoj dasht ko‘chmanchilarining yondoshligi, shuningdek, asosiy karvon yo‘llari, xususan, Buyuk ipak yo‘li vohaning shimoliy hududlaridan o‘tishi uni tezda Choch davlatining poytaxti bo‘lib qolishiga imkon berdi. Shahar atrofi kuchli mudofaa devorlari bilan o‘rab olinib, maxsus saroy-qal‘a qurilgan. Arxeologik qazishmalar vaqtida topilgan ishlab chiqarish qurollari va uy-ro‘zg‘or buyumlari bu yerda yuksak madaniyat bo‘lganidan dalolat beradi. Manbalarga ko‘ra, shahar ichida saroy, ibodatxona bo‘lgan ark, amaldorlarning uylari joylashgan shahriston, hunarmandlar mahallalari o‘rnashgan ichki va tashqi rabodlardan iborat bo‘lgan.

Yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, Binkat shahrining keyingi asrlardagi o‘rni Toshkentning to‘rt dahasida, asosan, uchtasi Sebzor, Ko‘kcha, Beshyog‘och hududida joylashgan bo‘lib, u alohida qalin devorlar bilan o‘rab olingan 4 qism: ark (o‘rda), shahriston (shaharning asosiy qismi) hamda ichki va tashqi rabodlardan iborat bo‘lgan va bir necha qator mudofaa devori bilan o‘ralgan. Shu davrdagi ark (maydoni 3 ga) va

shahriston (maydoni 15 ga cha) shahar markazida hozirgi Shayxontohur tumani hududidagi Eski jo‘va bozori va undan sharqdagi katta tepalikda joylashgan. Qal’ada hukmdor saroyi va zindon bo‘lgan. Saroyning bir darvozasidan shahristonga, boshqasidan shaharning ichki rabodiga chiqilgan. Shahar markazida bozor bo‘lgan, u “Jo‘ba” deb yuritilgan. Markaz bilan shahar darvozalari ko‘chalar orqali bog‘langan. Bir va ikki qavatli paxsa yoki sinchkori devorli hovlili qilib turar joylar qurilgan. Ichki va tashqi rabod devorlari oralig‘i 4 km bo‘lgan. Shaharda kulolchilik, o‘q-yoy, gazlama, gilam, chodir hamda charm mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlangan.

Arab istilosи arafasida bir necha mulkliklar bo‘lib, ularning o‘z hukmdorlari bor edi. 712 -yil Qutayba qushinlari Chochga yurishni uyushtirdilar. Chochning mard aslzoda farzandlari arab bosqinchilariga qarshi mardonovor jang qilganlar o‘z shaharlarini saqlab qolishga harakat qilganlar

Toshkent arablar tasarrufiga o‘tgach, arab alifbosida “ch” harfining yo‘qligi bois arabiylar asarlarda “Shosh” deb yuritilgan. Ilk o‘rta asrlarda u “Choch”, “Shosh”, “Shoshkent”, “Madinat ash-Shosh”, “Binkat” va “Tarkan” deb nomlangan. Shahar “Toshkent” nomi bilan dastavval XI asrning mashhur allomalari Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Koshg‘ariyning asarlarida tilga olinadi.

X asr oxiri - XII asr o‘rtalarida Choch Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirdi. 1214 - 15 -yillarda Muhammad Xorazmshoh qoraxitoylar qo‘sini hamda naymanlar xoni Kuchluq bilan jang qilib, Shosh viloyatini ulardan tortib oldi va viloyat dushmanlar qo‘liga o‘tmasligi uchun Shosh markazi aholisini ko‘chirtirib yubordi. Shu bois mo‘g‘ullar 1220 - yilda shaharni qarshiliksiz qo‘lga kiritgan bo‘lishi mumkin. XIII-XIV asrning 1-yarmida Toshkent viloyati Chig‘atoj ulusi tarkibida bo‘lgan. XIII asr oxirida shahar qayta tiklangan. Tarixchi Jamol Qarshiy “bu shahar doimo farovon, suvi mazali, iqlimi mo‘tadil, tuprog‘i unumdar, shahar atrofi obodonlashgan”ligini xabar qiladi.

Tarixchi Zakariyo al-Qazvaniy XIV asrda “Shosh-ozoda va ajoyib, yam-yashil, juda go‘zal va ko‘ngilli shahar” deb yozgan. Manbalarda shaharda gullar ko‘p bo‘lganligi ta’kidlanadi. Shahar suv bilan yaxshi ta’minlangan va bog‘-rog‘li uylar qurilgan. Shahar mahallalarga bo‘linib, ularning har qaysisida 50-70 tadan xonodon va ko‘plab masjidlar bo‘lganligi haqida ma’lumotlar bor.

XIV asrning 2 - yarmi - XV asrning 80 -yillarigacha Toshkent Amir Temur va Temuriylar tarkibida bo'ldi. 1404 -yilda Ulug'bek ixtiyoriga mulk tarzida berildi. Bu davrda shahar voha bilan dasht chegarasidagi kuchli qal'aga aylandi, uning hududi kengaydi, ishlab chiqarish, savdo-sotiq, madaniyat rivojlandi. Registon, Shayxontohur ansamblidagi maqbaralar, Jome masjidi va boshqalar qurildi. Arxeologik topilmalar, me'moriy obidalar mahalliy an'analarning qo'shni Sharq mamlakatlari madaniyati bilan uyg'unlashib ketganligini ko'rsatadi. Temuriylar o'rtasida boshlangan taxt uchun kurash natijasida Toshkent 1485 -yilda Mo'g'uliston xoni Yunusxon ixtiyoriga o'tdi va uning qarorgohiga aylandi. Lekin, u ko'p hukmronlik qilmay, 1487 -yilda Toshkentda vafot etdi. Yunusxonidan keyin taxtga uning o'g'li Sulton Mahmudxon o'tirdi. Uning hukmronligi ham ko'pga bormadi. Toshkent 1503-yilda Shayboniyxon va Ko'chkunchixon tasarrufiga o'tdi. XVI asrda Toshkent yana obodonlashib, Turkistonning hunarmandlik, savdo-sotiq va madaniy markazlaridan biriga aylandi. Shahar yangi devor bilan o'raldi. Me'morlik obidalari qad ko'tardi. Hunarmandlikning taraqqiyoti savdo-sotiq aloqalarining kengayishiga olib keldi.

8.3. O'rta asr shaharlari madaniyatining ravnaqi

Mingo'riktepa - qadimgi shahar (I - XII asrlar). Mahalliy aholi o'rtasida Afrosiyob tepaligi nomi bilan ham mashhur bo'lgan. Minora-qasr (to'rburchak arkka yondoshgan) va shahristonning tepalikka aylangan hududidan iborat. Toshkent temir yo'l vokzali yaqinida, Salor kanali sohilida joylashgan, shahar xarobasi o'rnida XIX asrda katta o'rikzor bo'lganligi uchun shunday atalgan. Hozirgi shahar qurilishi munosabati bilan yodgorlikning madaniy qatlami buzilib ketishi natijasida Mingo'rikning bir qismigina saqlangan. 1896 -yilda E.T.Smirnov, N.S.Likoshin tomonidan, 1912-yilda A.I.Dobrosmislov, Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi a'zolari tomonidan Mingo'rik arxeologik tadqiq qilingan. XX asrlar M.E.Masson tomonidan arxeologik ishlar olib borilgan. O'zbekiston FA Tarix va arxeologiya instituti Yu.F.Buryakov, D.G.Zilper, O.V.Obelchenko tomonidan belgilangan hududlarda qazish ishlari o'tkazilgan. 1968 -yilda Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi arxeologik ishlarni davom ettirgan. Bu arxeologik tekshirishlar natijasida shahriston 15 ga va ark 0,5 ga maydonlari, shahar

hayotining 3 asosiy bosqichi aniqlangan. Birinchi - bosqich I-IV asrlarga mansub bo‘lib, ichki turar joy jamlanmasini muhofaza qilgan uzun yo‘lakli, qo‘shqator qal’a devorlari qoldig‘i topilgan. Devor tashqarisida unga yondoshtirilib qurilgan to‘rtburchakli burj va mo‘lalar bo‘lib, ularning orasi 12 m ga teng bo‘lgan. Ikkinci - bosqichda V-VI asrlar shahar tez sur’atda rivojlanib, aholi soni oshib borishi natijasida mustahkam ark va shahristonga, eng yirik shahar markaziga aylangan. VI asr oxirida shahar Chochning poytaxti bo‘lgan. III-IV asrlarda Mingo‘rik qo‘rg‘oni kengayib tashqi mudofa devoir ta’mirlangan. Arab manbalarida tilga olingan “Madinat ash-Shosh” shu yodgorlikning aynan o‘zi deb hisoblanadi.

Uchinchi bosqich VII-VIII asrlar. Arab xalifaligining Chochga yurishi arafasida shaharning eng yuksalgan davri bo‘lgan. Barcha me’moriy qurilish uslublari kompleksi, ichki bezaklarda hashamatli devoriy tasvir va naqshlardan foydalanish, uy-ro‘zg‘or asbob uskunalar, idishlar Mingo‘rikning umumsug‘d madaniyati asosida Sug‘d, Farg‘ona va O‘rta Osiyoning boshqa joylari bilan mustahkam aloqada rivojlanganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga shahar turmush tarzida ko‘chmanchi qabilalarning ta’siri katta bo‘lgan. Shahar qurilishi kengayib borgan sari qal’a devorlari torlik qilib, uning xarobalari ustiga shahriston uylariga nisbatan salobatli saroy-qasr jamlanmasi - Choch hukmdorlarining saroyi qurilgan. Saroyda supa va naqshinkor ustunli hashamatli xonalar va ibodatxonalardan tashqari qo‘shimcha xonalar (xo‘jalik ehtiyojlari uchun) ham bo‘lgan. Bu davrda Choch o‘lkasi Turk xoqonligiga tobe bo‘lgan. Manbalarda qayd qilinishicha, musiqa va raqs san’ati ayniqsa, yuksak pog‘onaga chiqqan. VIII asr boshlarida Choch poytaxti arab xalifaligi istilochilar tomonidan vayron qilinib, xarobaga aylantirilgan. X asrda Mingo‘rikning bir qismidagina hayot tiklangan va XIII asrgacha davom etgan. Markaz yangi shahar - Binkatga ko‘chirilgan.

XIX asrning 70-80 -yillarida Toshkentning “Yangi shahr”i qad ko‘tarishda Mingo‘rik tepaligi bo‘zib uning tuprog‘idan xom g‘sht tayyorlanib, “Yangi shahr binolari qad ko‘targan.

Binkat IX – XII asrlarda. Binkat Shoshning poytaxti bo‘lganligini V.V.Bartold aytgan. Binkat shaharning o‘rnini Toshkentning to‘rt dahasi (nohiya)dan, asosiy uchtasi: Sebzor, Ko‘kcha, Beshyog‘och hududida joylashgan. Devorlari to‘rt qism ark, shahriston, ichki va tashqi rabod (kichik nohiya)dan iborat bo‘lgan.

Arkning ikki darvozasi bo‘lgan. Biri shahritonga ikkinchisi rabotga chiqqan. Shahristonni Abul Abbos, Qasr, Gunbaz deb ataluvchi darvozalari bo‘lgan. Xadra,Xadiroq nomlari ham uchraydi bu adirli yer ma’nosini bildiradi. Aholi sharqiy darvozadan chiqqan joyi Xadra deb yuritilgan va aholi adirlarga chiqqanlar.

Ikkinchi darvozasidan shahar aholisi tovoq bozoriga, uchinchi darvozasi Chorsudagi qandolat bozoriga chiqishgan. Shahar hokimining saroyi, qamoqxona, chaqa va tangalar chiqaradigan zarbxona arkning ichida bo‘lgan, jome masjid uning tashqarisida joylashgan. Hunarmandlarning mahalla-ko‘ylari, amirlarning qarorgohlari, boy yer egalarining ko‘shk va qurg‘onlai va bozorlar Binkatning shahriston, ichki va tashqi rabot qismida bo‘lgan. Ayniqsa bozorlarning ko‘pi ichki rabodda joylashgan. Masalan, hozirgi kunngacha mashhur bo‘lgan Eski Jo‘va aslida “ju’ba”, ya’ni bozor so‘zidan olingan. Shu joyda bozor bo‘lib shahar aholisi hunarmandchilik va bog‘dorchilik mahsulotlarini sotganlar. Eski Jo‘vadan shimoliroqda Sa’von mahallasining asli “Suqbon”, ya’ni “bozor qorovuli” ma’nosini bildirgan. Chunki dashtdan haydar kelingan otar-otar qo‘ylar, qoramol va -yilqilarni qo‘riqlab, bozorda farroshlik hamda jalloblik (olib sotar) qilgan kishilar shu mahallada yashagan.

1966 -yil zilziladan so‘ng Toshkentda boshlangan ulkan qurilishlar munosabati bilan Yahyo G‘ulomov boshchiligidagi tashkil etilgan Toshkent arxeologik ekspedisiyasi Binkatning shahar tashqarisidagi eng sersuv, bog‘-rog‘lari, tokzorlari, ekin maydonlari ko‘proq bo‘lgan huddudni tekshirdilar. X-XI asrlarda Binkat va uning atrofidagi qishloqlarda kulolchilik va shishasozlik mahsulotlari ancha yuqori bo‘lgan. Sopoldan turli buyumlar uyinchoqlar yashashgan. Yosh bolalar uchun ot, tuya, xo‘roz, qo‘chqor kabi sopol haykalchalar yasab ularga tortiq qilganlar. X-XI asrlarda oid Binkatning shishasozlik ustaxona qoldiqlari “Olmazor” massividan topilgan. Shishasozlar Samarqand, Buxoro va Axsikat shaharlari ustalaridan qolishmaydigan darajada hunar va mahoratga ega edilar.

Temirdan asbob uskunalar, ip va ipak gazlamalar, joynomoz va choyshablar, poyafzallar, chodirlar va boshqa hunarmandchilik mahsulotlari, jumladan Qozog‘istonga chiqarilgan. U yerda kamon va o‘q-yoy yasaladi, uzoqqa otilishi va nishonga aniq tegishi bilan mashhur bo‘lgan. Hatto “Choch - bu katta viloyat, xalqi jangovar va

sahiydir” deb atashgan. Binkat IX-XI asrlarda arab halifaligi hukumronligining inqiozi va o‘lkada somoniylarning markazlashgan davlatining tashkil topishi, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotda katta o‘zgarishlar bo‘lishiga turtki bo‘ldi.

Tunkat o‘rta asr shahari. Tunkat milodiy V-XII asrlarga ta’luqli shahar. Ohangaron daryosi havzasida joylashgan. 1929 – 1934 - yillarda M.E.Masson, 1959-1962 -yillarda Yu.F.Buryakov tomonidan arxeologik qazishma ishlari olib borilgan. Umumiy maydoni 50 ga. Ark, shahriston va raboddan iborat bo‘lib, atrofi mudofaa devori bilan o‘ralgan. Tunkat o‘rnidagi qishloq V asr boshlarida chorvador qabilalarning o‘troqlashishi tufayli vujudga kelgan. VI asrga kelib qishloq shaharga, VI asr oxirida esa Iloq poytaxtiga aylangan. Qoramozor tog‘larida oltin va kumush konlari mavjudligi Tunkatning tez taraqqiy etishiga imkon bergan. Tunkat arkida hokim saroyi, masjid qurilgan. Shahriston va raboddan ko‘plab metall, shisha va sopol buyumlarning topilishi, Tunkatda hunarmandchilik rivoj topganidan darak beradi. Tunkatdan, shuningdek, zeb-ziynat buyumlari, qurol-yarog‘lar va ko‘plab tangalar topilgan. Tunkatning o‘z zarbxonasi bo‘lgan. Qoraxoniylar bilan kurash, qazilma boyliklarining tugab qolishi va Tunkatning savdo yo‘lidan chetga chiqib qolishi natijasida XI asrning 2-yarmidan shahar tanazzulga uchragan. XII asrdan Tunkat kimsasiz, tashlandiq holga kelib qolgan.

Banokat. Banokat I-XVIII asrlarga ta’luqli shahar. Sirdaryoning o‘ng sohilida, Ohangaron (Iloq) daryosining Sirdaryoga qo‘shilish joyidagi karvon yo‘li yoqasida joylashgan qadimgi shahar. 1876 -yilda Banokatni havaskor arxeolog D.K.Zastepin, 1894-1896 yillarda E.T.Smirnovlar tomonidan o‘rganilgan. 1973-yildan Shosh-Iloq ekspedisiyasi Yu.F.Buryakov boshchiligidagi tekshiriladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, dastlab I asr uning mudofaa devori bo‘lmay, atrofidagi daryo, shuningdek, jarliklar tabiiy mudofaa vositasi rolini o‘tagan, ilk o‘rta asr V-VI asrlarda burjli mustahkam mudofaa devori bilan o‘ralgan. Banokat hududi 22ga bo‘lib, arki taxminan 1gani egallagan. XII-XIII asr boshlarida kengayib 140ga yetgan; u ark, uch shahriston va raboddan iborat bo‘lgan. Qazishmalar natijasida turli sopol buyumlar jumladan; naqshinkor ko‘za, kosa, sirlangan laganlar, tanga pul va taqinchoqlar topilgan. Banokatda zargarlik, to‘qimachilik, kulolchilik, shishasozlik rivojlangan, mis, kumush

tangalar zARB etilgan. Mo‘g‘ullar istilosI davrida 1220-yil Banokat vayron bo‘lgan. 1392-yilda Amir Temur Banokatni qayta tiklab, o‘g‘li Shohrux sharafiga Shohruxiya deb atagan. XVIII asr boshlarida o‘zaro urushlar natijasida vayron bo‘lgan. Banokat xarobasining bir qismini Sirdaryo yuvib ketgan.

Nukat. Nukat - o‘rta asr shahri. Toshkentdan Tunkatga va Farg‘onaga boradigan savdo yo‘lida joylashgan. Nukat XI-XII asrlardagi Sharq yo‘lnomalarida qayd etilgan. IX-X asrlarda kattaligi jihatidan Iloqda Tunkatdan keyingi o‘rinda turgan. 1928-yilda M.E.Masson Toshkent yaqinidagi To‘yepa qishlog‘idan Nukatning Ulkan To‘yepa deb atalgan shahar xarobasini topgan. Nukatning markazi to‘g‘ri burchak shaklidagi shahriston bo‘lib, maydoni 18 ga. U to‘rt darvozali ulkan devor bilan o‘ralgan. Shimoliy qismida to‘rburchakli 0,75 ga kattalikdagi qal‘a bo‘lgan. Nukatning rabodi 100 ga dan ortiq maydonni egallagan. Shaharning sharqiy qismida o‘liklar ossuariylar (ostodon) da dafn qilingan qabriston joylashgan. Nukatdan VIII-XII asrlarga oid tangalar, sopol, oltin, mis va jez idishlar, temir o‘roq, pichoq, shuningdek, chiroyli qandil va murakkab bosma naqshlar bilan bezalgan idishlar topilgan. Topilmalarning eng qadimgisi VI-VII asrlarga oid. IX-X asrlarda shahar tez rivojlangan. Idrisiyning ma’lumotiga ko‘ra, XII asrda Tunkat tanazzulga uchrashi munosabati bilan Iloq davlatining poytaxtiga aylangan. XIII asr boshida mo‘g‘ullar istilosI natijasida xarobaga aylangan.

Kavardon. Kavardon qadimgi shahar milodiy I-XIII asr boshlariga ta’luqli. Toshkent shahridan 25 km sharqda, Chirchiqning chap qирг‘ог‘идаги qadimgi o‘zani sohilidagi hozirgi Qorasuv va Hamdam kanali yoqalari va hozirgi Kavardon qishlog‘i maydonida, Yuqori Chirchiq va Parkent tumanlari chegarasida joylashgan. Shaharning umumiy maydoni 75 ga teng bo‘lib, shahriston va arkdan tashkil topgan. Shaharni bir necha darvozalari bo‘lib, ular orqali yo‘nalgan keng ko‘chalar markazga olib borgan.

Arab tarixchilaridan Istaxriy, Muqaddasiy IX-X asrlar asarlarida bu shahar “Kabrana”, “Kabarna” deb tilga olingan. Yodgorlik xarobalari ilk bor 1972-yilda Hamdam kanalini ta’mirlash ishlari vaqtida Yu.F.Buryakov rahbarligidagi Choch-Iloq guruhi tomonidan aniqlangan. 1973 -yildan tanaffuslar bilan arxeologik qazishma ishlari olib borilgan. 2001 -yildan esa O‘. Islomov boshchiligidagi Parkent guruhi qazishma ishlarini davom ettirgan. Qazishmalar

natijasida shahar arkining (hozirgi uning xarobalari Xontepa deb ataladi) shimolidagi pastki madaniy qatlamlardan Burganli madaniyatiga oid miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga tegishli erto‘la, o‘choq xarobalari, uy-ro‘zg‘or idishlari jumladan; ko‘za, tovoq, qozon kabi parchalari topilgan. Keyingi qatlamlardan olingan ma’lumotlar bu yodgorlikka qandaydir sabablarga ko‘ra, uzoq muddatli tanaffusdan keyingi hayot milodiy I-II asrlardan boshlanganligidan dalolat beradi. Shahar arki to‘g‘ri to‘rtburchak (60x50x14 m) shaklda, madaniy qatlami 8 m ga yaqin, shimoliy va janubiy tomondan darvozalari bo‘lgan.

Qazishma natijasida paxsa va xom g‘ishtdan qurilgan bir nechta xonali ibodatxona bo‘lganligi aniqlangan. Ibodatxonaning bir katta zali markazida otashgoh qoldiqlari topilgan. III-IV asrlarga oid bu ibodatxona xarobaga uchragach, uning o‘rnida keyingi asrlarda yangi ibodatxona qurilgan va u ham kuchli yong‘in natijasida vayron bo‘lgach, uning o‘rnida 8 ta to‘g‘ri to‘rtburchak xonalardan iborat bo‘lgan novus qurilgan. V-VI asrlarda shahar mavqeい pasaygan. Shahar maydonida bu davrlarda turli ko‘rinishlardagi novuslar (otashparastlarning qadimgi maqbaralari), kenotaflar paydo bo‘lgan. Ular ichida, ark xarobalarida ko‘p xonali novus o‘ziga xosdir. Uni bo‘yi 19 m, eni 17,5 m bo‘lib, tashqi devorlarining qalinligi 3 m, ichki devorlari 1,5 m dan bo‘lgan. Barcha qurilgan bu xilxonalar paxsa, xom g‘ishtdan ishlangan bo‘lib, g‘ishtlar ustiga turli belgilar barmoq yordamida chizilgan. V-VIII asr boshlarida shahar Choch viloyatidagi yirik shaharlar qatoridan joy olgan, tanga pullar zarb qilina boshlagan, shunday noyob mis tangalarning birini aylanasi 20 mm, og‘irligi 1,6 gga teng bo‘lib oldi tomonida toj kiygan hokim, uni aylanasi bo‘ylab 15 harfdan iborat bo‘lgan “Kavirad Kabarna hokimi” degan jumla sug‘d yozuvida bitilgan. Kavardonda kulolchilik sohasida yuqori yutuqlarga erishilganligidan va bu mahsulotga bo‘lgan talabni ichki va tashqi savdoda o‘sib borganligidan dalolat beradi. Kavardon XIII asr boshida mo‘g‘ullar tomonidan vayron qilingan.

Chochtepa. Chochtepa Toshkent shahri hududida qad ko‘targan eng qadimgi qishloq va ilk qo‘rg‘on. Chochkatning xarobalari miloddan avvalgi VI asr milodiy XVI asrlarlarga tegishli. Yodgorlik Jo‘nariqning chap va o‘ng sohillarida joylashgan biri tik va baland, ikkinchisi yassiroq ulkan tepaliklardan iborat. Umumiy maydoni taxminan 25 ga. dastlab Turkiston arxeologiya havaskorlari to‘garagi

a'zosi N.S.Likoshin tomonidan qayd etilgan. 1896-yilda N.P.Ostroumov arxeologik qazishlar o'tkazgan. 1934-yilda G.V.Grigorev, 1956-yilda N.I.Krasheninnikova, 1970-yilda G. Dadaboevlar arxeologik kuzatishlar olib borgan. 1978-yildan Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi V.I.Sprishevskiy, M.I.Filanovich tomonidan muntazam arxeologik qazishlar o'tkazilgan. Jo'nariqning so'l sohilida joylashgan balandligi 18 - 19 m li tik tepe (maydoni 150 - 120 m) istehkomli ilk qishloq xarobasi bo'lib, uning ostki madaniy qatlamlaridan qadimgi dehqonchilik madaniyatining so'nggi bosqichi miloddan avvalgi VI-IV asrlarda yashagan o'troq ziroatkor aholi turar joylarining qoldiqlari qayd etilgan.

Arxeologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, miloddan avvalgi III asrda Janubiy Ural va Sharqiy Orol oldi mintaqalaridan janubga tomon siljigan ko'chmanchi chorvador sarmat qabilalari qadimgi Chochkatni vayron etib, qabristonga aylantirganlar.

Miloddan avvalgi II - 1 asrlarda Shoshtepada qadimgi qishloq xarobalari ustida atrofi qalin aylanma devor bilan o'rabi olingan doira shaklidagi qal'a-qo'rg'on qad ko'targan. Qalinligi 4 m li qurg'on devori yirik xom g'ishtlardan urib chiqilgan. Diametri 60 mli qo'rg'on devorining ichki aylanasi bo'ylab tomi ravoqsimon qilib yopilgan uzun yo'lak bino qilingan. Yo'lak qismlarga bo'lingan va har biridan tashqariga chiqadigan darvozasi bo'lган. Qo'rg'onning markaziy qismida xoch shaklida monumental bino qad ko'targan. Uning devorlarining qalinligi 2 m, tomi esa ravoqsimon. Bino qator xonalar va yo'laklarga ajratilgan. Peshtoqi binoning shimoliy qanotida, u ravoqli darvozaxona va uning 2 biqinida paykonsimon darchalar joylashtirilgan. Qo'rg'on binosining umumiyligi tarhi: yo'lakli aylanma tashqi devori-yu, xochsimon markaeiy binosi, ravoqli peshtoqi-yu paykonsimon darchalariga qaraganda, u avvaldan anchagina puxta o'ylangan reja asosida qurilgan zamonasining nodir me'moriy obidalaridan hisoblangan.

Shoshtepaning madaniy qatlamlaridan ko'pdan-ko'p ashyoviy topilmalar qayd etildi. Ular orasida uy-ro'zg'or va xo'jalik buyumlari: xum, xumcha, ko'za, bir quloqli va jo'mrakli bo'qachalar, 2 quloqli sopol qozonlar, tova, suvdonlar, ho'kiz boshli kabob ko'ralar, yoysimon yorg'uchqolar, temir pichoq, o'roq va h.k.dan iborat. Topilmalar orasida 2 ta nodir buyum: fil suyagidan

yasalgan qadahning bir bo‘lagi va suyakdan ishlangan qalam, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Hajmi 5 - 3,5 sm.li suyak qadah parchasida boshida ulkan kuloh, keng peshonali, ot yuzli, qirraburun, bodom qovoq, sersoqol va mo‘ylovli o‘rta yoshdagi kishining siymosi qabartma qilib ta’svirlangan. Suyak qalamning uzunligi 15 sm. Bir tomoni yozish uchun uchli qilib, 2-tomoni esa ilonni boshidek romb shaklida kurakcha qilib yasalgan. Bu topilmalar milodiy I-II asrlarga mansub bo‘lib, Chochda ham qadimda xat-savod bo‘lgani hamda shoshtepaliklar karvon yo‘li orqali Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari bilan aloqada bo‘lganidan dalolat beradi.

Topilmalar ko‘chmanchi dasht bilan o‘troq dehqonchilik vohasi chegarasida uzoq asrlar davomida yonma-yon yashagan hamda bir-biri bilan iqtisodiy va madaniy aloqada bo‘lgan qadimgi qavmlarning yaratgan o‘ziga xos madaniyatining mahsuli edi. Bu madaniyat fanda Qovunchi madaniyati deb ataladi.

Istehkomli qishloq sifatida qad ko‘targan Shoshtepa miloddan avvalgi II-I asrlarda ilk shaharcha qiyofasiga kirib, u Sirdaryoning o‘rta oqimida tashkil topgan Qang‘ davlatining dasht bilan Toshkent vohasiga tutashib ketgan chegarasidagi istehkom, hunarmandchilik markazi, ko‘chmanchi chorvador aholi bilan o‘troq dehqonlar o‘rtasida olib boriladigan o‘zaro savdo bozori vazifasini o‘tagan.

V asr o‘rtalarida chorvador eftaliylarning janubga tomon siljishi oqibatida Shoshtepada qadimgan o‘tparastlik ibodatxonasi bo‘lgan xoch shaklidagi markaziy bino qabristonga aylantirilgan. VI-VIII asrlar boshlarida Shoshtepada hayot yana ancha yuksalgan. Arab xalifaligi istilosi natijasida Shoshtepa vayron bo‘lgan. XI-XII asrlarda undagi hayot birmuncha jonlansa-da, ammo XVI asrda Shoshtepa deyarli xarobaga aylangan.

Garchi Shoshtepada qad ko‘targan qo‘rg‘on to‘la shahar qiyofasida shakllanmagan bo‘lsa-da, biroq u Toshkent vohasida shaharsozlik madaniyatini shakllanishi va rivoji tarixida muhim ahamiyatga ega yodgorlik hisoblanadi.

Qanqa. Qanqa (Xarashkat) miloddan avvalgi III asr milodiy XII asr boshiga oid qadimgi shahar. Toshkent viloyatining Oqqo‘rg‘on tumani hududida, Ohangaron daryosining qadimgi o‘zani chap sohilida. Shohruxiya arxeologik yodgorligidan taxminan

8 km shimoliy-sharqda qadimgi karvon yo‘li ustida joylashgan. Qadimgi Xitoy yozma manbalarida Bitan (Bityan), o‘rta asrlarda Xarashkat nomlari bilan yuritilgan. Qang‘ davlatining poytaxti bo‘lgan. O‘rta asrlarda IX-XI asrlar Xarashkat shahri Choch viloyatida Binkat Toshkentdan keyin ikkinchi shahar hisoblangan. Dastlab, 1898-yil Turkiston arxeologiya havaskorlari to‘garagi a’zosi E.T.Smirnov, 1934 -yilda M.E.Masson, 1969-1972-yillarda Moddiy-madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish jamiyati Q.Abdullaev tomonidan, 1974 -yildan O‘zbekiston FA Arxeologiya instituti tomonidan tekshirish ishlari olib borilgan. Mustaqillik yillarida bir qator xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda arxeologik tadqiqotlar olib borilmoqda. Qanqa to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida, umumiy maydoni 200 ga bo‘lib, bir necha qator mudofaa devori va xandaklar bilan o‘ralgan, ark 3 shahriston va raboddan iborat bo‘lgan.

Shahriston I ning maydoni 6,5 ga, shimoliy qismida ark balandligi 40 m. Uning atrofi xandaq bilan o‘ralgan. Ark va Shahriston I ni 3 tomonidan maydoni 50 gadan ortiqroq Shahriston II o‘rab olgan. Shahristonlarga tashqaridan rabod maydoni 60 ga yondoshgan. Miloddan avvalgi 1 - milodiy 1 - asrlarda shahar ravnaq topgan. Shahristonlar va rabodda ko‘cha-ko‘ylar, maydonlar, hovuz va oqar suv tarmoqlari hamda paxsa va yirik xom g‘ishtlardan bino qilingan turar joy qoldiqlari saqlanib qolgan. Qanqadan milodiy I-II asrlarda zarb etilgan kumush va mis tangalar jumladan, IV-XI asrlarga oid tangalar xazinasi, oltin va qimmatbaho toshlardan ishlangan taqinchoqlar, sopol haykalchalar, ostodon (ossuariy), sirlangan va sirsiz sopol idishlar, tosh, suyak va metalldan ishlangan qurol va asboblar hamda devoriy raem qoldiqlari topilgan. Turli xildagi bunday ashyoviy topilmalar shubhasiz, Qanqada ohangarlik, kulolchilik, tikuvchilik, suyak o‘ymakorligi rivoj topganidan dalolat beradi. XII asrda Ohangaron daryosi o‘zanining o‘zgarishi tufayli Qanqa suvsiz qolib, xarobaga aylangan.

Xonobodtepa. Xonobodtepa shahari milodiy VI-XIII asr boshi XVI-XVII asrlarga ta’luqli. Toshkent shahri janubida Chirchiq daryosining o‘ng sohilida, daryodan 0,5 km narida joylashgan. 1930 - 1960 yillarda M.E.Masson, V.M.Masson, YU.F.Buryakov, 1971 - 1975 yillarda Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi V.A.Bulatova, L.G.Brusenko, L.L.Rtveladze, E.V.Rtveladze, M. I. Filanovich tekshirgan.

Xonobodtepa yodgorligi kvadrat 530x500 m shaklda. Maydoni taxminan 30 ga. U keng xandaq bilan o‘ralgan ark va shahristondan iborat. VI asrda istehkomsiz kichik qishloq shaklida qad ko‘targan. Xonobodtepa VII asr o‘rtalarida to‘rt burchagida minoralari bor mustahkamlangan qalin devor bilan o‘ralgan shaharga aylangan. Shahar ichida muhtasham binolar, uy-joylar, maydon va bozor joylashgan. VIII asrning birinchi yarmida vayronaga aylanib, IX-XII asrlarda hayot tiklangan. XIII asr boshida mo‘g‘ullar tomonidan vayron etilgan. Uzoq vaqt vayronalikdan so‘ng, XV-XVI asrlarda shahar qayta tiklanib, mustahkam devori yangi ark 104x80 m bino qilingan. Shahar xarobasidan VIII asrning birinchi yarmiga oid tangalar (Choch hokimi Tarnabchaning silovsin tasvirli tangasi, Ustrushona hokimi Satachuriy II, Sug‘d ixshidi Turgar (738 - 750), turk xoqoni Eltegin tangalari) va abbosiyarlarning mis fuluslaridan iborat xazina, shuningdek, qopqog‘ida qush boshi va soqolli keksa kishi tasviridagi o‘ymakor naqshli ostodonlar, buqa boshli sirlangan qadah, VI-XII asrlarga oid sirsiz va sirlangan sopol idishlar topilgan.

Danfiganket. Danfiganket VI-XIII (sug‘diycha - muqaddas din ibodatxonasing joyi) asrlarga oid shahar o‘rni. Sharq geograflarining ma’lumotiga qaraganda, u Shosh viloyatining markazi Binkatdan 5 farsax (35 - 40 km) uzoqlikda xalqaro karvon yo‘li ustida joylashgan. Danfiganket xarobalari hozirgi Niyozboshi qishlog‘i yaqinidagi Yo‘g‘ontepa degan joyda joylashgan bo‘lib, atrofi devor bilan o‘ralgan to‘g‘ri burchakli qal‘a va shahristondan iborat. Unda hunarmandlarning katta guzari bo‘lgan. Danfiganket VI-VII asrlarda shahar xoliga kelgan va VII-XII asrlarda gullash davrini boshdan kechirgan. Mo‘g‘ullarning talonchilik hujumi natijasida XIII asr boshlarida shahar vayronaga aylangan.

8.4. Toshkent XIV-XVI asrlarda

XIV-XVI asrlarda yirik hunarmanchilik va savdo markazi bo‘lgan. Toshkent shahristoni devor bilan o‘ralgan. Qal‘a va shahar atrofidan iborat. Shahardagi asosiy qurilishlar sufiylarning naqshbandiya tariqati vakili shayx Xo‘ja Ahror nomi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘z zamonasining siyosiy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Toshkent atroflaridagi ko‘plab yerlarga, shahardagi dukonlar va xonadonlarga egalik qilib, badavlat bo‘lgan. Shahar jome masjididan

tashqari, ikkita masjid, ikkita madrasa va Ko‘kcha dahasidagi Ko‘nchilik mahallasi ko‘prigi qurilishini uning nomi bilan bog‘laydi.

Mahalliy hunarmandlarning buyumlaridan tashqari shaharda Xitoy, Eron, Hindistondan savdogarlar olib kelgan mollar serob bo‘lib, shahar aholisi bahramand bo‘lganlar.

Kaykovus arig‘idan suv ichadigan joyda X asr ilohiyotchisi Abubakr Muhammad Kaffol Shoshiy maqbarasi joylashgan. Maqbara muqaddas qadamjolardan bo‘lib XVI asrda maqbaraning yangi binosi qurilgan.

Amir Temur muqaddas shayx va sufiylarga homiylik qilib, yodgorlik binolari qilishga ijozat bergen. Toshkentning g‘arbiy chekkasida Orifon qishlog‘i shahar tarkibiga kirgan. Bu yerda Zayniddin bobo nomi bilan bog‘liq qadamjo vujudga keldi. XIV asrda Amir Temur farmoyishi bilan maqbaraga aylantirildi.

Toshkent yaqinida, Xo‘ja Ahmad Yassaviy muridlardan biri Zangiota-Oyxo‘ja ibn Toshxo‘ja va uning xotini Anbarbibi maqbarasini o‘z ichiga olgan majmua Amir Temur homiyligida bitkazildi. Toshkent me’morchilik-qurilish maktabi Samarqandning hashamatli me’morchiligidan farq qilmaydi.

Yirik tarixchi olim Abu Sulaymon al-Banokatiy (XIII-XIV asrning boshlarida yashagan) Tarixi Banokatiy“ asarini yozib qoldirgan. XV asrda yashagan olim Homiddin Toshkandiy, Jamshid Shoshiy (XIV asr), Zayniddin Vosify (XVI asr) ijod qilganlar.

Kaykovus arig‘i yoqasida shayboniy sultonlarning Shoirlar bog‘i“ bog‘ majmuasi tashkil etilgan. “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida XIV –XV asrlarda Toshkentning 12 darvozasi borligi yozilgan. Har bir darvozani qabila vakillari boshqargan va shu qabila nomlari bilan darvozalar atalgan. Qiyot, Turklar, O‘zbek, Taxtapul, Qorasaroy, Chig‘atoy, Su‘boniyon, Ko‘kcha, Kamondoronn, Qang‘li, Beshog‘och, Qatag‘on darvozalari bo‘lgan. Shahar darvozalari zarur deb topilmasa vaqtincha bekitib tashlangan.

Kaykovus arig‘i - Toshkent shahridagi qadimgi kanal, Bo‘zuvning o‘ng tarmog‘i. VI-VII asrlarda Bo‘zuv kanali kattalashtirilib, undan Kaykovus arigi chiqarilgan va Qoraqamish jarligigacha yetkazilgan Muhammad Solihning “Tarixi jadidai Toshkand” asarida Bo‘zuv ham Kaykovus arig‘i deyilgan. Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” (“Sharafnomai shoxiy”) asarida XVI asrda Kaykovus arig‘i bo‘yida (shahar qo‘rg‘oni tashqarisida)

“Kaykovus bog‘i” bo‘lganligi va bog‘da Toshkent sultonlari yashaganligi aytildi. Hozirgi Kaykavus Shayxontohur GESning yuqori tomonidan boshlanadi, uzunligi 28 km, suv o‘tkazish imkoniyati 20 m³/s. Sobir Raximov va Shayxontohur tumanlari hududidan oqib o‘tadi.

Shayx Zayniddin bobo maqbarasi - Toshkentdagi me’moriy yodgorlik rivoyatlarga ko‘ra, maqbara Amir Temur davrida Shayx Zayniddin (XIII asr)ga atab barpo qilingan. Shahar hududida, qabriston o‘rtasidagi balandlikda joylashgan, peshtoq-gumbazli, cho‘zinchoq maqbara-xonaqohlar turiga mansub. Atrofida boshqa turli binolar - tobuxona, chillaxona (XII-XIII asrlar), oshxona, ayvonli masjid, chortoq va boshqalar bor. Old ko‘rinishi janubiy-sharqqa qaratilgan, ko‘chadan unga qo‘srimcha binolarni birlashtiruvchi xiyobon orqali kiriladi. To‘rburchak tarhli (16x18 m), balandligi 20,7 m, hamma tomonlari peshtoqli. Maqbara markazida Shayx Zayniddin sag‘anasi, burchaklarida boshqa shaxslarning qabrlari bor. Maqbaraning janubiy-g‘arbiy peshtog‘idagi yozuvga ko‘ra, hijriy 1339-yilda (milodiy 1920-1921) ta’mirlanib, maqbaraning eski g‘ishtlari yangi g‘ishtlar (26x12x6 sm) bilan almashtirilib, gumbazi kvadrat (24x24x5 sm) g‘ishtdan terilgan.

Hofiz Ko‘xakiy majmuasi - Toshkentning Sag‘bon ko‘chasidagi me’moriy yodgorlik (XVI asr). Hofiz Ko‘hakiy mablag‘iga uning rahbarligida qurilgan. Qadimda bu majmua salobatli va jozibador ilm maskani bo‘lgan. Allomaning o‘zi madrasada ilmi toliblarga, mahalla yoshlariga dars bergan. Binoning me’moriy yechimi, tashqi ko‘rinishi, qurilish xom ashyolari uning XVI asrga mansubligini ko‘rsatadi. Majmua to‘g‘ri to‘rburchak tarhli, bosh tarzi peshtoqli, 1 qavatli; yozgi masjid, madrasa, darvozaxona orqali ichkari (keng hovli) ga kiriladi. Keng hovli o‘rtasida hovuz bo‘lib, atrofi chinorlar ekib, so‘lim maskanga aylantirilgan. G‘arbiy qismida mezanali baland minora, shifti an’anaviy naqshlar bilan bezatilgan ko‘p ustunli ayvon (yozgi masjid), ko‘p gumbazli xonaqoh (qishki masjid), ravoqli qator hujralar bo‘lgan. Majmuadan yozgi masjid, xonaqohning teng yarmi, hovlining bir kismi, bir nechta hujragina saqlanib qolgan.

Qozoqmozortepa - arxeologik yodgorlik. Toshkent shahrining Uchtepa tumani Lutfiy ko‘chasida. Qozoqmozortepa deb atalishi XVIII asrda jung‘arlarning bosqini davrida qozoqlarning O‘rta

Osiyoga jadallik bilan kirib kelishi bilan bog‘liq. Qozoqmozortepadan hozir balandligi 3 m. diametri 12 m li kichkina tepalik qolgan. Tepalikning g‘arbida o‘rta asrlarga oid qabriston joylashgan. Rejali arxeologik qazish o‘tkazilmagan. Chilonzorda qurilish ishlari ketayotganda Toshkent arxeologiya guruhi V.A.Bulatova, D.I. Zilper, M.I.Filanovichlar tomonidan kuzatuv ishlari olib borilib 2 ta shurf qazilgan va bittasi o‘rganilgan. IX-XII asrlarga oid sopol xum, lagan, qozon, ko‘za, xurmachalar topilgan. Topilmalar ichida ahamiyatlisi sopoldan ishlangan yirik idish va dasturxonlarga naqsh bosadigan shtampdir. Arxeologik tadqiqotlarga qaraganda, qishloq IX-XII asrlarda gullab yashnagan.

Nazorat uchun savollar

1. Chochtepa qadimgi qishloq va ilk qo‘rg‘on haqida bilasizmi?
2. Toshkentning tarixiy manbalarda nomlanishi?
3. Banokat va Tunkat o‘rta asr shaharlar tarixini aytib bering.
4. Qanqa (Xarashkat) o‘rta asr shahar tarixini bilasizmi?
5. Toshkentdagi me’moriy yodgorliklar tarixini ayting?

Test topshiriqlari

1. Toshkent vohasida o‘troq dehqonchilik va ilk shahar madaniyati o‘z tarixini miloddan avvalgi I asr oxiridan boshlagan qadimgi shahar?

- A Mingo‘rikdan
- B Xonobodtepadan
- S Qozoqmozortepadan
- D D i n v a g n k a d d a n

2. Toshkent -“bu shahar doimo farovon, suvi mazali, iqlimi mo‘tadil, tuprog‘i unumdor, shahar atrofi obodonlashgan”ligini xabar qiladi kim?

- A Jamol Qarshiy
- B V.V.Barto‘ld
- S Beruniy
- D Zayniddin Vosifiy

3. Toshkentdagi Danfiganket qachon shahar holiga kelgan?

- A VI-VII asrlarda
- B V-VII asrlarda
- S VI-VIII asrlarda
- D VII-VIII asrlarda

4. Abbosiy larning mis fuluslari, qopqog‘ida qush boshi va soqolli keksa kishi tasviridagi o‘ymakor naqshli ostodonlar, buqa boshli sirlangan qadah Toshkentdagi qaysi shahar xarobasidan topilgan?

- A Xonobod tepadan
- B Qozoqmozortepadan
- S D i n v a g n k a d d a n
- D Mingo‘rik tepadan

5. Suyak qalamning uzunligi 15 sm. Bir tomoni yozish uchun uchli qilib, 2-tomoni esa ilonni boshidek romb shaklida kurakcha topilgan?

- A Chochtepadan
- B Xonobod tepadan
- S Qozoqmozortepadan
- D Mingo‘rik tepadan

6. Toshkent shahrida “Kaykovus bog‘i” bo‘lganligi va bog‘da Toshkent sultonlari yashaganligi aytildi?

A Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” (“Sharafnomai shoxiy”) asarida

B Mullo abd at Tolibjon Toshkandiyning “Risolayi qabriyya” asarida

- S Shohakim Toshkandiy “Yusuf va Zulayho” asarida

D Jamshid Shoshiyning “Talmix fi kashf al-asror at-tavsih” asarida

7. Toshkentning Qorasuv, Salor va Jo‘n arig‘i yoqalarida dastlab ilk qishloqlar qad ko‘targan?

- A Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda
- B Miloddan avvalgi V-IV asrlarda
- S Miloddan avvalgi VI-III asrlarda
- D Miloddan avvalgi VII-IV asrlarda

8. Avestoda Qanqa nomi “muqaddas” deb tilga olingan, sababi?

A Mingo‘rik diniy qasr majmuasi Qanqa davlatining diniy markazi bo‘lgan

B Binkat diniy qasr majmuasi Qanqa davlatining diniy markazi bo‘lgan

S Tunkat diniy qasr majmuasi Qanqa davlatining diniy markazi bo‘lgan

D Banokat diniy qasr majmuasi Qanqa davlatining diniy markazi bo‘lgan

9. Arab istilosiga Qutayba qushinlari Chochga yurishi?

- A 712 -yil
- B 715 -yil
- S 708 -yil
- D 710 -yil

10. XIV asrda “Shosh-ozoda va ajoyib, yam-yashil, juda go‘zal va ko‘ngilli shahar” deb yozgan?

- A Zakariyo al-Qazvaniy
- B Amir Temur
- S Mirzo Ulug‘bek
- D Shohakim Toshkandiy

Manba va adabiyotlar

1. Алимова Д.А., Филанович М.И. Тошкент тарихи. Тошкент, 2009

2. Алламберганов М. Қадимий мудофа деворлари. Тошкент, 2007.

3. Бобоёров Б. Чоч тарихидан лавҳалар (илк ўрта асрлар). Тошкент, 2010.

4. Ўзбекистон тарихи моддий маданият ва ёзма манбаларда. Масъул муҳаррир А.Анорбоев. Тошкент: Фан, 2005.

5. Қораев С. Топонимика. Тошкент, 2006

6. Эшов Б Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи Тошкент: Фан, 2006.

9-mavzu: Farg‘ona, Yettisuv va janubiy Qozog‘iston o‘rta asr shaharlar urbanizatsiyasi

Reja:

- 9.1. Xitoy va arab manbalarida Farg‘ona shaharlari
- 9.2. Qadimgi va O‘rta asrlarda Axsikent
- 9.3. Quva Farg‘ona vodiysining eng qadimgi shaharlaridan biri
- 9.4. Andijon, Osh, O‘zgan, Xo‘jand Buyuk ipak yolining muhim tarmoqlari

Tayanch so‘z va iboralar: “Farg‘ona” atamasi, arab -yilnomalari, Isfijob, Axsikent, Quva o‘rta asr manbalarida Qubo, Qashqar, O‘zgan,

O'sh, Davan, Mingtepa, Andijon, Xo'jand, Pop, Qo'qon, Yettisuv, O'tror

9.1. Xitoy va arab manbalarida Farg'ona shaharlari

Xitoy manbalarida Farg'ona haqida qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. Tarixiy yilnomalar hisoblangan "Shiszi"ning muallifi Sima Szyanning yozishicha Farg'onda 70 ga yaqin katta kichik shaharlari bo'lgan. Farg'ona podshosi Mugua Xitoy imperatori bilan diplomatik aloqalar olib borgan. Xitoy Farg'ona otlarini qo'lga kiritish uchun qilgan harakatida Farg'ona podshosi Mugua buyrug'i bilan elchi o'ldirilgan. Xitoyliklar ikki marta yurish qilib Ershi shahrini egallagan va Muqanni elchini o'dirishda ayblab hukumdarlikdan tushirishni talab qilgan va shu ta'riqa tinchlik sulhi tuzilib Farg'ona otlari Xitoyga olib ketilgan.

Xitoy manbalarida katta qishloqlar ham shahar deb tilga olingan. Milodning 1 asrlarida Farg'ona vodiysining daryo va soy havzalaridagi eng unumdar yerlar to'liq o'zlashtirilib dehqonchilik rivojlangan boy qishloqlar ko'plab paydo bo'lgan. Halqaro savdo aloqalari ko'chaygan.

Ilk arab -yilnomalarida at-Tabariyning "Payg'ambarlar va podsholar tarixi" asarida Farg'ona vodiysida 5 ta shahar tilga olingan: Xo'jand, Koson, Bob, Qubo, Farg'ona.

Ibn Xordadbek o'zining "Yo'llar va davlatlar" asarida, VIII asrning oxiri IX asrning boshlarida Bob (Pop) bilan Qubo shahri orasida Farg'ona shahri joylashganligini, Bob va Farg'ona shaharlari orasidagi masofa 4 forsaxga teng deb yozgan. 1 forsax 8 km.ga teng deb, Bob bilan Farg'ona orasi 32 km.ga tengligi aytilgan.

X asr arab sayohatchisi Ibn Xavqal Farg'onda bir necha diniy e'tiqodlarga mansub xalqlar yashaganligini aytgan.

Farg'ona so'zi ilk o'rta asrlarda so'g'd yozuvi bilan "Parg'ana", Prag'ana" shaklida, xitoy solnomalarida "Farg'ona" atamasi "Dayyuan", "Boxan", "Paxanna" kabi shakllarda qayd etilgan. Xitoysunos A.Abdurasul o'gli va A.Xodjayevlarning ta'kidlashicha, "Dayyuan"- "podshoh qarorgohi, ya'ni poytaxt shahar", atrofi tog' adirlar bilan o'ralgan havza ma'nosini anglatgan.

IX asrning ikkinchi yarmida Farg'ona shahri arab manbalarida Axsikent deb tilga olingan bo'lsa, numizmatik materiallarda XI asrda Farg'ona-Axsikent deb ikki nom bilan atalgan. Bu davrda maydoni 400 ga., aholisi 200 ming bo'lgan.

9.2. Qadimgi va O'rta asrlarda Axsikent

Buyuk ipak yo‘lining gullab yashnashida poytaxt shaharlarning roli katta bo‘lgan. Savdoda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy mahsulotlar shaharda ko‘p bo‘lgan. Jumladan, Farg‘ona poytaxti Axsikent diqqatga sazovordir. Hozirgi vaqtida Axsikent xarobalari To‘raqurg‘on va Jomashuy orqali Namangan-Farg‘ona yo‘lining ikki tomonida, Sirdaryoning o‘ng sohili bo‘ylab chuzilib ketgan baland tepaliklar ko‘rinishida yotibdi. Xalq orasida Eski Aksi deb ataytiladi. Axsikentning o‘z qal’asi, shahristoni (ichki shahar) va rabodi (tashqi shahar) bo‘lgan.

Axsikentning asosiy qismlarini Sirdaryoning suvi yuvib ketgan, qolgani qor yomg‘irda tekislanib ketgan. Qal’aning shimoli va shimoliy sharqiy qismi saqlanib qolgan. Eng pastki qatlam miloddan avvalgi III-II asrlarga teng. Axsikent arxeologik jihatdan o‘rganish ishlari XIX asr oxirilari XX asr boshlaridan boshlangan. 1885 -yilda N.I.Veselovskiy, 1914-yilda I.A.Kastane qazish va qidiruv ishlari olib borgan. Sho‘rolar davrida 1939-yilda M.E.Masson, 1948-yillara N.Bernshtamlar tekshirganlar. 1957-1959 yillarda Axsikat Namangan o‘lkashunoslik muzeyi xodimlari tomonidan ham o‘rganilgan. 1960-yilda O‘zbekiston FA Tarix va arxeologiya instituti uyushtirgan maxsus ekspeditsiya Axsikat rabodidan XI asrga oid ko‘hna hammom o‘rnini ochgan. U yerdan sopol idish, quvur, chaqa tanga va shisha buyumlar topilgan. Bundan tashqari, Axsikent xarobalaridan g‘arbraqda o‘rtasidagi Aksikat Namangan o‘lkashunoslik muzeyi xodimlari tomonidan ham o‘rganilgan.

Akademik Ya.G‘ulomov va arxeolog I.Ahrorov mazkur tadqiqotlar asosida bu yerda turli davrlarga oid ikkita shahar bo‘lganligini, ulardan biri qadimgi Axsikent va ikkinchisi Bobur tug‘ilgan Aksi ekanligini birinchi bo‘lib isbotladilar. 1967-yilda rassom I.A.Smirnov Axsikat xarobalaridan yig‘ib jamlagan sopol idish, jez buyum va zeb-ziynatlar majmuasini Moskvadagi Sharq xalqlari davlat muzeyiga taqdim etgan. Axsikent yodgorligi o‘zbek xalqi madaniyati tarixida muhim o‘rin tutganligi uchun 1950 yildan davlat muhofazasiga olingan.

Shahriston ikki ichki va tashqi qismdan iborat bo‘lib beshta darvozasi bo‘lgan. Ikkala shahriston ham balandligi 20 metr ga yaqin devorlar va chuqur handaqlar bilan o‘rab olingan. Tashqi shahristondan 20 ga yaqin minoralar topilgan. Har -yili devorlar ta’mirlanganligidan 100-150 -yil davomida devor qalinligi 10 metr ga balandligi 20 metr ga etgan.

Xitoy manbalarida qayd etilishicha, Xitoy imperatori bir juft otga butun Sindzyan viloyatini berishga rozi bo‘lgan ekan. Buyuk ipak yo‘li savdosida ot muhim ahamiyatga ega ekanligidan Xitoy imperatori shu fikrga kelgan. Milodning I asrlarida shahar kengaydi. Shahar o‘zini himoya qilishda muhim strategik ahamiyatga ham ega edi. Bu davrda shaharda hunarmandchilik savdo muhim ahamiyat kasb etdi.

Ayniqsa V-VII asrlarda shaharda uy-joy qurilishiga katta ahamiyat berildi. Uylarning ichki devorlari suvalgan va buyoqalar bera boshlaganlar. Har bir xonadonda yotoqxona, omborxona, oshxona, toza ichimlik qudug‘i ham bo‘lgan. So‘g‘d-turk savdogarlari sharqiy Xitoy orqali Koreya va Yaponiya, janubiy Hindistonga borib savdo-sotiq ishlari bilan shug‘ullanganlar.

Tinch osoyishta hayot arablar istilosи natijasida buziladi. Lekin ko‘p utmay VIII asr oxirlarida yana qudratini tiklab oldi. VIII-IX asrlarda arab yilnomalarida Axsikat “Farg‘ona” deb yuritilgan. Poytaxt vodiylarni bilan atalgan.

Axsikent markazlashgan Somoniylar davlati davrida IX-X asrlarda siyosiy iqtisodiy markaz sifatida gullab yashnadi. Ichki bozorda mis tangalar katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Axsikatda mis tanglar zarb qilindi. Shaharda mudofa devorlari ahamiyatini yo‘qotgan, chunki somoniylarda mudofa devorsiz muhofaza qila olgan.

Axsikentning bosh bozori shahristonda bo‘lgan, u 2 ga.ni tashkil qilgan. Yer osti suv quvurlari topilgan X asrga oid, sababi aholi zich joylashganligidan quvurlar yer ostidan utkazilgan uzoq yillarga xizmat qilishi uchun. Yer osti suv quvurlari pishgan g‘ishtdan qilingan.

Ikkinci shahristondan to‘qqiz joyida zilol suv to‘la hovuzlar topildi. Temirchi ustalarining mahallalari ham ko‘p bo‘lgan. Shaharga tunel orqali yer ostidan suv kelgan.

XI asrda Qoraxoniylar davlati davrida siyosiy poytaxt Axsikentdan O‘zganga ko‘chirildi. Arxeologik materiallarga ko‘ra XI-XII aslarga Axsikent butun Farg‘onani iqtisodiy markazi bo‘lib qolgan. Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan eng yirik shahar bo‘lib qoldi. Bu yerdan topilgan hunarmandlarning idishlarining namunalari Parijdagi Luvr Davlat muzeyida saqlanmoqda. Axsikentda tayyorlangan “Damashq” qilichlari butun dunyoga mashhur bo‘lgan.

XIII asrda Axsikent mo‘g‘ullar tomonidan butunlay vayron qilindi. Yer osti suv quvurlari, jome masjidlar buzib tashlandi, mashhur hunarmand ustalar Mo‘g‘ilistonga olib ketildi. Oradan ma’lum vaqt

o‘tgach, Axsikent shahri yangi yerda, Eski Axsi yodgorligidan 5-6 kilometr shimoli-g‘arbda, hozirgi Yakkayigit qishlog‘i o‘rnida qad ko‘tardi. Bu shaharning xarobalari hozir xalq orasida Yangi Axsi deb yuritiladi.

IX-XII asrlarda jahon sivilisatsiyasining markazi Osiyo va O‘rtalari hududlariga ko‘chganligi qulay imkoniyatlarni yaratib berdi. Ilm-fan va madaniyat ivojlandi. Matematika, astronomiya, falsafa, tarix va ilohiyot fanlarining rivojlanishiga o‘zbekistonlik buyuk ajdodlarimizning xizmatlari katta. Farg‘onalik Ahmad al- Farg‘oniy, Burhoniddin al-Marg‘iloniy, aka-uka Axsikentiy va boshqalarning o‘ziga xos o‘rni bor. Ahmad al- Farg‘oniyning “Samoviy harakatlar haqida kitob va yulduzlar haqidagi bilimlar majmuasi” degan mashhur asarni yozgan. Bu asar XII asrda lotin va boshqa tillarga tarjima qilindi.

9.3. Quva Farg‘ona vodiysining eng qadimgi shaharlaridan biri

Quva Farg‘ona vodiysining eng qadimgi shaharlaridan biri. Shaharning vujudga kelishi va nomi haqida turli rivoyatlar mavjud.”Farg‘ona tarixi”ning muallifi Ibratning yozishicha, Quva Qubod yoki Qubo deb atalib, keyinchalik “Quva” shaklini olgan.

Istaxriyning ta’kidlashicha, Quva kattaligi jihatidan Farg‘onada Axsikatdan keyin ikkinchi shahar hisoblangan. Ibn Havqalning yozishicha, Quva Sayxun (Sirdaryo) gacha etib boradigan nahr sohilida qad ko‘targan.

Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asariga ilova qilingan xaritasida ko‘rsatilishicha-Quvada hunarmandchilik rivojlangan. Temirchilik va shishasozlik yuksak darajaga yetgan, shaharning o‘z tangasi zARB qilingan. “Boburnoma” da Quva Andijondan 4 og‘och (farsax) narida joylashgan qishloq deb aytildi.

Tarixchi A.Muhammadjonovning fikricha, shahar nomi “Qaviybod”, “Qavobod” yoki “Qaybod” shakllarida talaffuz etilgan va qaviylarning qarorgohi, tojdor hukmdorning taxti o‘rnatilgan qasr va mamlakatning bosh shahri - poytaxt ma’nosini anglatgan. Keyinchalik o‘zgarib Quva shaklini olgan.

Quva, o‘rtalari manbalarida Qubo deb yuritilgan maydoni 12 ga. Eng quyisi qatlami I-III asrlar. 1956 -yildan boshlab Quva shahar xarobasi o‘rganila boshlandi. 1970 -yilgacha arxeologik taddiqotlar olib borilib Quva shahri tarixi shahar hayoti o‘rganildi.

1990 -yil Quvada ya’na tekshirish ishlari boshlandi. Buyuk ipak yo‘lida joylashgan shaharning savdo sotiqqa ta’luqli manbalari, hunarmandchilik sohasiga ta’luqli manbalar ko‘plab topildi. 1996-1999 yil O‘zbekiston Respublikasi FA Arxeologiya instituti maxsus guruh tuzib, Quva shahrida arxeologik tadqiqotlar olib borganlar.

Quva atamasi haqida bir necha qarashlar bor. Etnografik yondashib, Quba xudosi bo‘lib ular bu xudo nomiga otlarni qurbanlik qilganlar. Samoviy otlar Davan, Marhamat, Aravon, Asaka atrofida mashhur bo‘lgan Quva esa qushni hudud bo‘lgan va Quvada yerlar serhosil bo‘lib, otlar uchun yem hashak ya’ni beda shu yerlarda yetishtirilgan degan xabarlar uchraydi.

Arxeologik ma’lumotlarda 8 metr chuqurliklarda V-VI asrlarga oid mudofa devorlari topilgan. Kulolchilik charxisiz qo‘lda yasalgan, ostki qismi yumaloq idishlar va kulolchilik charxida qilingan silliqlangan idishlar topilgan.

Yozma manbalarda Quva (Qubo) nomi VIII asrda birinchi marta tilga olingan.

Arab tarixchisi at-Tabariyning (839-923) xabar berishicha, xalifalikning Xurosondagi noibi Nasr ibn Sayyor Shoshda o‘z g‘animlarini yengib bitim tuzgandan so‘ng 738-739 yillarda Farg‘ona tomon birinchi yurish qiladi. Quva shahri aholisi ularga keskin qarshilik qiladi. Hatto quvaliklar bosqinchilar qo‘liga tushmasin deb oziq-ovqatni yashirib, yem hashaklarni yoqib yuboradilar. Kuchlar etishmasdan Farg‘ona taslim bo‘ladi va arablarga har yiliga 600 kg.dan ziyod kumush va mingalab qullar yetkazib berish majburiyatini oladi.

VIII asr oxirlariga ta’luqli tangalar topilgan va Quvada pul zarbxonasi bo‘lgan, shahar iqtisodiy jihatdan vodiyning eng yirik shaharlaridan bo‘lgan. VII-VIII asrlarda shahar dahalarga (kvartallarga) ga bo‘lingan. Har bir dahada umumiy odamlar yig‘iladigan maydon va diniy marosimlar uchun maxsus xonalar mavjud bo‘lgan va maxsus devor bilan o‘rab olingan.

X asrdan boshlab Quva to‘g‘risida ko‘p malumotlar uchraydi. Quva shahri uch qismdan iborat, ark-hokim qarorgohi, shahriston-ichki shahar, aholi yashaydigan va tirikchilik qiladigan joy va savdo-sotiq, hunarmandchilik, bog‘-rog‘lar rabod-tashqi shaharda joylashgan.

Aholi dahalarda uy xo‘jaliklariga bo‘lingan. Ma’lum qismi hunarmandchilik markazi bo‘lgan. Sharqiy tomonida shisha ishlab chiqarilgan, g‘arbiy tomonida simob ko‘zacha ishlab chiqariadiga

ustaxona bo‘lgan. Shahristonda oddiy aholi tor ko‘chalar bo‘ylab yashagan. Dahalarda alohida uy xo‘jaliklari bo‘lib, oila er-xotin va bolalari yashagan. Yashaydigan uyning o‘ng tomonida ovqat tayyorlaydigan o‘choq joylashgan.

X-XII asrlarda shahar aholisining uylari devorlarining qalinligi 1,5 metr, balandligi 2 metr bo‘lgan.

Shahar devorlari: V-VI asrlarda qalinligi 5-6 metr, balandligi 5 metr eftaliylar davri bilan bog‘liq, VIII asrda arablar bosqini vaqtida devor qalinligi 5-6 metrdan qalin bo‘lgan.

Quva shahri o‘ziga xos iqtisodiy savdo-sotiq shahri. VII-VIII asrlarda otashparastlik diniga shiginishgan, hatto budda ibodatxonalar ham bo‘lgan.

Oyna ishlab chiqishda quvalikkarga teng keladigani bo‘lmagan. Shishadan atir upalar, tibbyot kolbalari yasaganlar. Quvadan topilgan tangalar urtarsi teshik qilib ishlangan.

Uning markazida Registon maydoni, ko‘handizda jome masjidi, rabodida esa saroy, qamoqxona va bozorlari joylashgan qismlari mo‘g‘ullar istilosи oqibatida vayron etilgan.

9.4.Andijon, Osh, O‘zgan, Xo‘jand Buyuk ipak yolinining muhim tarmoqlari.

Zahriddin Muhammad Bobirning “Bobirnoma” asarida qayd etilishicha: “o‘rta asrlarda Andijon Movaraunnahrda Samarqand va Kesh shaharlari kabi yetakchi o‘rinda turgan.” Andijon” toponimi ikki o‘zakli bo‘lib turk-mo‘gul tilida “yaqin do‘st”, ”jon” “daryo yoki soy” ya’ni, Andijonsoy bo‘ylarida suv chiqarib, o‘z mehnatlari bilan hayot kechiganlar”.

Xitoy manbalarida bundan 2,5 ming -yil oldin hozirgi Andijon shahri hududi shahrsozlk madaniyati vujudga kelgan va rivojlanganligi qayd etilgan.

Dastlabki Xitoyning Anosi shahridan chiqqan karvonning birinchi tarmog‘i Qashqar, O‘zgan, O‘sh, va Davan davlatiga kirib kelgan, ikkinchi tarmogi Mingtepa, Andijon, Quva, Xo‘jand, Aksikent, Pop va qamchiq dovo ni orqali Ohangaron vodiysi va so‘ngra Qozogiston va Sibirga chiqib ketilgan.

Andijon milodiy I asrdan Kushon davlati tarkibida va so‘ngra eftaliylar, VI asrdan Turk xoqonligini 714 -yildan Farg‘onaning poytaxti Andijon arablar tasarrufiga o‘tdi va islom dinini qabul qildi IX-X asrda Somoniylar davrida savdo sotiq markaziga

aylangan. XII asrda Qoraxoniylar davrida O‘zgan shahri davlatning ikkinchi poytaxti deb e’lon qilindi. XII asrda mug‘ullar hukmronligi davrida “chig‘atoy puli” ishlab chililgan va savdoda ishlatilgan.

Xo‘jand - shahar, Tojikiston Respublikasi Sug‘d viloyati Farg‘ona vodiysining g‘arbiy qismida, Sirdaryo bo‘yida joylashgan. Xo‘jand O‘rta Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan bo‘lib, mil. av. 1-ming -yillikda vujudga kelgan. Arxeologik qazishmalar natijasida shahar hududidan mil.av. VI-IV asrlarga oid tarixiy ashyolar topilgan. Mil. av. 329 -yilda shaharni Aleksandr Makedoniyalik egallagan. Tarixiy ma’lumotlar bo‘yicha shahar VII asrning 2-yarmida Xo‘jand nomi bilan mashhur bo‘lgan. Xo‘jandda ipakchilik rivojlangan.

Shahar savdo va hunarmandchilik markazi sifatida Buyuk ipak yo‘lining chorrahasida O‘rta Osiyonni Hindiston, Eron, Yaqin Sharq, Xitoy va O‘rta dengiz havzasidagi mamlakatlar bilan bog‘lab turishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Shahar aholisi hunarmandchilik mahsulotlarini qushni davlatlarga chiqarganlar. VIII asrda arab xalifaligi davrida shahar aholisining hayoti biro z qiyin kechgan. Buyuk ipak yo‘lining ahamiyati ham kamaygan, shunday bo‘lishiga qaramasdan aholi savdo-sotiq bilan shug‘ullangan.

XIII asrda mo‘g‘ullar imperiyasi davrida shahar qudratini yo‘qotgan. XIV-XV asrlarda Temuriylar davrida buyuk ipak yo‘lining shuhrati ortganligi shahar hayotini o‘zgartirib yubordi, XVI asrda Shayboniylar, so‘ngra Qo‘qon xonligi tasarrufida bo‘lgan. 1866 - yilning 24 mayida shaharni podsho Rossiyasi qo‘shinlari bosib oddi.

Xo‘jand 1924 -yilda O‘rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o‘tkazilgandan so‘ng O‘zbekiston tarkibiga kirgan, 1929 -yildan Tojikiston tarkibiga o‘tkazilgan.

Qo‘qon Farg‘ona vodiysidagi eng qadimiy shaharlardan biri hisoblanadi. Uning tarixi haqidagi ilk yozma ma’lumotlar miloddan oldingi II asrning boshlarida bu yerga kelgan xitoy sayyohi Chjyan Szyan manbalarida uchraydi. Davan davlati borligi, bu davlatning markazi, ulug‘vor shahar mavjudligi xususida yozib qoldirgan. Qadimshunoslar olib borgan tadqiqotlari asosida Davan davlati Qo‘qon shahri o‘rnida bo‘lganligini aniqladilar.

Keyingi -yillarda arxeolog olimlar Qo‘qon shahri va unga yaqin joylarda olib borgan qazishma ishlari natijasida shahar ostida olis tarixga oid madaniy qatlamlarni topdilar. Bularning hammasi shaharning yoshi 2 ming -yildan kam emasligini ko‘rsatdi. Qo‘qon shahri tarixi haqidagi yozma ma’lumotlar arab manbalarida ham uchraydi.

X asr sayyohi al-Istaxriy “Kitob al-masalik” asarida “So‘x va Xuvaqand, Xuvaqand va Axsikent oralig‘i bir kunlik yo‘l”, deb belgilaydi. Muallifi noma'lum “Hudud ul olam” asarida Xavokand, Rishton ekinzorlari ko‘p, gavjum shaharchalar, deb tilga olinadi. Shaharning keyingi davrlar tarixi xususida Jamol Qarshi, Muhammad Vafo Karminagiy va XVII asr muarrixlari asarlarida ko‘p ma’lumotlar mavjud. Shaharning nomi kelib chiqishi to‘g‘risida olimlar turli xil fikrlar bildiradilar. Ba’zilari u “Xurkant” tepalikdagи shahar mazmunini bildiradi desa, boshqalari “Xo‘qan” kichik ko‘za ma’nosini anglatadi, deydi. Ayrim tadqiqotchilar esa “Xo‘kand” yoqimli, xushmanzara joy, latif shahar mazmunidan kelib chiqqan, deb baholaydilar.

Yettusuv qozoqcha Jetisu Qozog‘istonning janubiy-sharqiy qismida joylashgan. Tarixiy manbalarda Yettisuv deganda ancha katta hudud (Chu daryosi vodiysi bilan birga) tushunilgan. Yettisuv Markaziy Osiyo madaniyatining qadimgi markazlaridan biri. Yettisuvda saklar, keyinchalik usunlar yashagan.

VI asr oxirlarida Yettisuvda G‘arbiy Turk xoqonligi, VIII asrning o‘rtalarigacha qarluqlar hukmronlik qilishgan. Yettisuvni X asrning o‘rtalaridan Qoraxoniylar, X asrning 30-yillaridan Qoraxitoylar boshqargan. Mo‘g‘ullar bosqinchiligi davri (1219-21)da Yettisuvning dehqonchilik vohalari va shaharlari qattiq zarar ko‘rgan.

XVI asrda Yettisuvda qozoqlarning Katta juzi tashkil topgan. XIX asrning o‘rtalarida Rossiya tomonidan bosib olingan.

O‘tror Janubiy Qozog‘istondagi Aris daryosining Sirdaryoga quyilish joyida joylashgan. O‘tror 3 qism iborat: ark, shahriston, raboddan. O‘trordan ko‘chalar, hammom, turar joy binolari qoldiqlari, uyro‘zg‘or, zargarlik buyumlari, kamon o‘qlari va boshqalar topilgan.

Mo‘g‘ullar istilosiga qadar Xorazmshohlar davlatining savdo va hunarmandchilik shaharlaridan biri bo‘lgan. O‘tror mudofasidan so‘ng

mo‘g‘ullar tomonidan vayron qilingan. Oq O‘rda xonlari uni XIV asrda tiklaganlar.

Bu davrda masjid, madrasa, qurilgan. Amir Temur va temuriylar davrida muhim harbiy shahar, qal'a bo‘lgan. Bu davrda Yevropadan Osiyoga boradigan yangi savdo yo‘li vujudga kelgan. Bu yo‘ldan musulmon savdogarlari ham, yevropalik tijoratchilar ham foydalanishgan. O‘trordan ko‘plab allomalar etishib chiqqan; shahar obodligi, chiroyi bilan nom chiqargan. XVI asrdagi o‘zaro ichki nizolar paytida huvillab qolgan.

Isfijob o‘rta asrdagi Isfijob hokimligining markaziy shahri bo‘lgan. Aris daryosi vodiysida Qozog‘istonda joylashgan. Shaharning qachon vujudga kelgani noma’lum. Isfijobning arki X asrdayoq vayrona holatda bo‘lgan, faqat shahriston va rabod saqlangan. Rabod devorining aylanma uzunligi 1 farsax (6–7 km)ni tashkil qilgan. Shaxristonning 4 darvozasi: Nujkat, Farxon, Shakron va Buxoro bo‘lgan. Unda, shuningdek, saroy, qamoqxona, jome masjidi va bozorlar joylashgan. 840-yilda Isfijob viloyati somoniylardan Nuh ibn Asad qo‘l ostiga o‘tgani. Viloyatni ko‘chmanchilar hujumidan muhofaza etish maqsadida Nuh ibn Asad Isfijob atrofini devor bilan o‘rattirgan. Isfijob Buyuk ipak yo‘li ustida bo‘lib, bu yerda bo‘z, quroq, metall, qul savdosini olib borilgan. 1700 ga yaqin mustahkam qo‘rg‘on va rabotlari bo‘lgan. X asr oxirlarida qoraxoniylargacha, XIII asr boshida Muhammad Xorazmshohga, 1219-yildan mo‘g‘ullarga bo‘ysungan, shaharning yangi nomi Sayram dastlab shu davrdan 122 -yildan tilga olinadi.

Nazorat uchun savollar

1. Shahar madanitatining rivojida Buyuk ipak yo‘li savdosining ahamiyati?
2. Xitoy va arab manbalarida Farg‘ona shaharlari tarixi?
3. Quva shahri shahar devorlarini aytib bering?
4. Shaharlarning mustamlakachilik davrlari?
5. Isfijob shahri shaxristonning darvozalari haqida bilasizmi?

Test topshiriqlari

1. Terrakotadan yasalgan haykal tasviri Farg‘ona aholisi to‘g‘risida birinchi ashyoviy hujjatdir qaysi hududidan topilgan?

A Shurabashot

B Aravon

S Qavobod

D Kalunchat

2. Quva kattaligi jihatidan Farg'onada Axsikatdan keyin ikkinchi shahar, Quva Sayxun (Sirdaryo) gacha etib boradigan nahr sohilida qad ko'targan?

A Ibn Havqalning yozishicha

B Ibratning yozishicha

S Huvaydoning yozishicha

D Farg'oniyning yozishicha

3. Ahmad al-Farg'oniyning 1200 -yillik yubileyiga tayyorgarlik ko'rish vaqtida Quvada arxeologik qazishmalar olib borildi?

A 1998 -yilda

B 1996 -yilda

S 2000 -yilda

D 1999 -yilda

4. Aflatun xazinasi - Farg'ona vodiysining shimolidagi Aflatun daryosining Itoqarsoy irmog'i yoqasida joylashgan qaysi qishlog'idan topilgan (1924)

A Kalunchat

B Qavobod

S Shurabashot

D Aravon

5. Chust madaniyati - Farg'ona vodiysidagi ko'hna dehqonchilik madaniyatida muntazam arxeologik tekshirish ishlari olib borgan?

A M.E.Voronets

B V.I.Sprishevskiy

S Yu.A.Zadneprovskiy

D hammasi to'g'ri

6. Isfijobni ko'chmanchilardan himoyalash uchi devor bilan o'rattirgan?

A somoniylardan Nuh ibn Asad

B somoniylardan Ismoil Samoniy

S somoniylardan Ahmad

D somoniylardan Nasr

7. "So'x va Xuvaqand, Xuvaqand va Axsikent oralig'i bir kunlik yo'l", deb belgilaydi?

A X asr sayyohi al-Istaxriy

B Sima Szyan

- S Muhammad Vafo Karminagiy
D arab tarixchisi at-Tabariy
8. Axsikentda tayyorlangan nima butun dunyoga mashhur bo‘lgan?
- A “Damashq” qilichlari
B Ipak matolari
S Mashhur otlari
D Simob moddasi
9. Ibn Xordadbek Bob (Pop) bilan Qubo shahri orasi 4 forsaxga teng deb yozgan. 1 forsax necha km.ga teng?
- A 1 forsax 8 km.ga teng
B 1 forsax 4 km.ga teng
S 1 forsax 10 km.ga teng
D 1 forsax 6 km.ga teng
10. Yozma manbalarda Quva (Qubo) nomi? asrda birinchi marta tilga olingan.
- A VIII asrda
B VI asrda
S V asrda
D IXasrda

Manba va adabiyotlar

1. Асқаров А. Энг қадимги шаҳар. Тошкент, 2001
2. Абдулаҳатов Н., Зоҳидов Ф., Фарғона туман тарихи, Фарғона, 2013.
3. Анорбоев А., Исломов У. Ўзбекистон тарихида Қадимги Фарғона. Тошкент, 2009
4. Алламберганов М. Қадимий мудофа деворлари. Тошкент, 2007.
5. Бобобеков Ҳ.Н. Қўқон тарихи. Тошкент, 1996
6. Polatov X. Shaharsozlik tarixi.- O‘quv qo‘llanma – T., “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008.
7. Шамсутдинов Р.Т., Исҳоқов А.А. Андижон тарихидан лавҳалар. Ташкент, 2013.
8. Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқарув тарихи. Тошкент, 2012.
9. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. Фарғона, 2013.

10-mavzu: So‘nggi o‘rta asrlar O‘rta Osiyo shaharlari urbanizatsiyasi

Reja:

- 10.1. Shoxrux hukmronligi davrida shaharsozlik faoliyati
- 10.2. Hirot Alisher Navoiy davrida
- 10.3. XVIII-XIX asarlarda Buxoro
- 10.4. XVIII-XIX asrlarda Toshkent
- 10.5. Xiva so‘nggi o‘rta asrlarda

Tayanch so‘z va iboralar: Shohruh mirzo, Hirot, Alisher Navoiy, miniatyura maktabi, davlat boshqaruvi, Otaliq, To‘qsoba, Amlokdirlik, Beshyog‘och bozori, Toshkent shahrining 12 ta darvozasi, Mang‘it, Gurlan

10.1. Shoxrux hukmronligi davrida shaharsozlik faoliyati

Amir Temur barpo etgan buyuk sultanat Temur vafot etishi bilan suyurg‘ol tartibining mavjudligi davlat parokandaligini ko‘chaytirilishi bilan izohlandi.

1405-1408 -yillarda Shohruh Mirzo Xalil Sultondan Samarqand taxtini tortib olishga harakat qilgan bo‘lsa-da, buning uddasidan chiqa olmadi.

1409 -yilning oxiriga qadar Movarounnahrda tinchlik va isoyishtalik o‘rnatib, Xalil Sulton va boshqa temuriy shahzodalar tarafdarlariga keskin choralar ko‘radi, izdan chiqqan xo‘jalik hayotini, savdo-sotiqni tiklaydi, Shohruh Mirzo temuriylar davlatining oliy hukmdori sifatida e’tirof etilib, uning deyarli 40 -yillik (1409-1447yy.) barqaror hukmronlik davri boshlanadi. Temur vafotidan so‘ng o‘tgan davr mobaynida davom etgan taxt va hududlar uchun o‘zaro urushlar hamda isyonlar mamlakat aholisining iqtisodiy ahvoliga keskin ta’sir qilib, xalqning jiddiy noroziligiga sabab bo‘lgan edi. Shu bois, Shohruh Mirzo oddiy xalq tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi tabiiy edi. Aynan shuning uchun ham Shohruh Amir Temur hukmronligi ostida bo‘lgan hududlarda o‘z hokimiyatini o‘rnatishga hamda mamlakatda doimiy tinchlik va osoyishtalik o‘rnatishga jiddiy harakat qiladi.

Shohruh Mirzo hokimiyat tepasiga kelgach deyarli barcha viloyatlar hokimlariga, nufuzli amirlarga ishonchsizlik bilan qarab, ularni lavozimidan chetlashtiradi. Ularning o‘rniga deyarli hamma

viloyatlarda o‘z o‘g‘illari va nabiralarini hamda o‘ziga yaqin tutgan qarindoshlarini noiblikka tayinlaydi. Jumladan, Balx va Badaxshon Ibroxim Sultonga, Sheroz Suyurg‘at mishga. Qobul va Qandahor Qaydu Mirzoga, Xurosonning bir qismi Boysunqur Mirzoga, G‘arbiy Eron hamda Iroqi Ajamning bir qismi Sulton Muhammadga, Fors viloyati Abdullo Mirzolarga bo‘lib beriladi. Shohruh Mirzo shu yo‘l bilan davlatni boshqarish oson va engil bo‘ladi deb o‘ylagan edi. Biroq, natija u o‘ylaganchalik bo‘lib chiqmadi.

Shohruh Mirzo davrida ham mamlakat ichki hayotida bir muncha osoyishtalik hukm surib, savdo-sotiq, iqtisodiyot ravnaqi, fan va madaniyat, ma’naviyatga e’tibor susaymagan bo‘lsa-da, davlatchilikning Temur davridagi imkoniyatlari va buyukligiga putur etgandi. Xususan, Shohruhning nabirasi Sulton Muhammad Eron noibi etib tayinlangach markazga bo‘ysunishdan bo‘yin tovlaydi. Shohruh isyonkor nevarasiga qarshi qo‘sish tortishga majbur bo‘ladi. 1410-yilda Movarounnahrdagi Shayx Nuriddin g‘alayoni ham Shohruh aralashuvi bilangina bostiriladi. Temuriylarga tobe bo‘lgan Ozarbayjon Qora quyunlilar qo‘liga o‘tgan paytlarda Shohruh uch marotaba (1421-, 1429-, 1434-yy.) u yerga yurish qilib o‘z hukmronligini tiklaydi. Lekin har safar orqaga qaytganidan so‘ng qoraquyunlilar yana Ozarbayjoni egallab olaverGANLAR. Bunday holatlar davlatning ilgarigi buyukligi yo‘qolib borayotganidan dalolat berardi.

Shohruh Mirzo Temurdan so‘ng tiklagan davlatda Movarounnahr mulklarining alohida o‘rni bor edi. Davlatning markaziy poytaxti Hirot shahri hisoblansa. Movarounnahrning markazi Temurning poytaxti qadimi Samarqand shahri edi. 1409 -yil Movarounnahr Xalil Sultondan olinganidan so‘ng Shohruh o‘g‘li Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek Mirzoni (1394-1447yy) Movarounnahr hukmdori etib tayinlaydi. Bu paytda 15 yoshda bo‘lgan Ulug‘bek davlat boshqaruvi ishlari uchun yosh ekanligi hisobga olinib, taniqli amir Muboriziddin Shohmalik unga otaliq etib tayinlanib, boshqaruvi ishlari amalda otaliqning qo‘lida mujassamlashadi. 1411-yilda Shohmalik Shohruh bilan Hirotga ketgach, Ulug‘bek Mirzo Movarounnahrning “ yagona va qonuniy sulton” sifatida taxtni boshqara boshlaydi.

Xurosonda Shohruh Mirzo, Movarounnahrda Ulug‘bek Mirzo o‘z siyosatlarining ustuvor yo‘nalishlari etib, avvalo mamlakat hududlarini kengaytirish hamda markaziy hokimiyatni mustahkamlash

deb bildilar va shunga mos siyosat olib bordilar. Xuroson hukmdori Shohruh Mirzo 1413-yil Eroni o‘z qo‘l ostiga olib, o‘sha yili Xorazmni Oltin O‘rda xonlari ixtiyoridan tortib oladi. Ammo, Shohruh hukmronlik qilgan hududlarda toj-taxt uchun nizolar zimdan bo‘lib turar edi va Shohruh keksayishi bilan bu nizolar yanada faollasha boshlaydi. Misol uchun, Shohruhning xotini Gavharshodbegim nevarasi Alouddavlani taxt vorisi bo‘lishi tarafdori bo‘lsa, Shohruhning yana bir o‘g‘li Muhammad Jo‘ki (1402-1444 yy.) ham taxtga da’vogar edi. Undan tashqari, Fors va Iroqi Ajamda Shohruhning nabirasi Sulton Muhammad 1446-yilda bobosiga qarshi isyon ko‘tarib Hamadon va Isfahonni bosib oladi. Shohruh bu isyonni bostirgan bo‘lsa-da, 1447 -yil 12 martda xastalanib Ray shahrida vafot etadi. Otasidan so‘ng Turkiston, Xuroson va Eronni bir markaz qilib birlashtirishga harakat qilgan Mirzo Ulug‘bek buning uddasidan chiqa olmadi. Chunki mamlakat toj - taxt uchun o‘zaro urushlar domiga tortilgan edi.

10.2. Hirot Alisher Navoiy davrida

Mirzo Ulug‘bekning vafotidan so‘ng madaniy markaz Xurosonga, jumladan uning poytaxti Hirotga ko‘chdi. Hirot madaniy va ilmiy markazining shakllanishida Xuroson hukmdori Sulton Husayn (Boyqaro) (1469-1506) va ayniqsa buyuk shoir va mutafakkir, ga’zal mulkining sultoni Mir Alisher Navoiyning (1441-1501) roli nihoyatda beqiyos bo‘ldi.

Ma’rifatli hukmdor bo‘lmish Sulton Husayn (Boyqaro) butun Xurosonda ilm-fan, adabiyot, madaniyat homiysiga aylanadi. Uning o‘zi Husayniy taxallusi ostida g‘azallar yozgan. Sulton Husayn (Boyqaro) hayrihohligi va homiyligi madaniy yuksalishga katta turtki bo‘lgan. Husaynning xizmat davrida Alisher Navoiy Mashhad va Hirot madrasalarida tahsil ko‘radi. Keyinchalik Movarounnahr hokimi Sulton Abu Said tazyiqi bilan Samarcandga ketishga majbur bo‘lib, u yerda ikki -yilcha turib, o‘z bilimini yanada takomillashtiradi.

1469 -yili Xuroson taxti Sulton Husaynga tekkandan so‘ng, uning taklifi bilan Alisher Navoiy Hirotga kelib, avval muhrdorlik so‘ngra vazirlik lavozimida faoliyat ko‘rsatadi. Jumladan, Alisher Navoiy o‘zining vazirlik lavozimini egallagan vaqtida (1472-1476) mamlakatda imkon boricha osoyishtalik vaadolat o‘rnatishga harakat qiladi. Uning hatti-harakatlari natijasida shaharlar yuksaldi, suv chiqarilib, ko‘pgina yerlar obod qilindi, hunarmandchilik va savdo-

sotiq ishlari yanada rivojlandi. Navoiy ilm-fan, ma’rifat va madaniyat ahliga shaxsan o‘zi homiylik ko‘rsatdi. Garchi toju-taxt uchun kurashlarda va fitna-nizolar natijasida Navoiyning Sulton Husayn bilan oralari bir oz sovugan bo‘lsa-da, lekin Navoiy umrining oxiriga qadar davlatning tayanch shaxslaridan biri bo‘lib qoladi. Jumladan, u vazirlik lavozimidan ketar ekan, sulton Navoiyga shohona to‘n kiygizib, uning hech bir iltimosi hech qachon yerda qolmasligini aytadi. Alisher Navoiyning birgina o‘zi 300 tadan ziyod turli qurilish, obodonchilik ishlariiga bosh-qosh bo‘ladi. Hirotdagi Injil daryosi bo‘yida uning qurilish ishlari uchun maxsus yer ham ajratib beriladi. U barpo etgan Hirotdagi Ixlosiya, Shifoysi majmualari, Tus viloyatidagi Turuqband suv ombori va kanali, Hirot va Mashhaddagi qator sug‘orish inshootlari, Astroboddagi saroy va masjid, Marvdagi madrasa shular jumlasidandir. El-yurt farovonligini o‘ylagan Navoiy o‘z daromadlarining aksariyat qismini hayriya ishlariaga sarflaydi. Odamiy dersang demagil odamiy, Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami, deb, o‘z ta’rifini bergen edi shoir. Shaxsan uning mablag‘lari hisobidan 52 ta rabot, 19 ta hovuz, 16 ta ko‘prik, 9 ta hammom va boshqalar qurildi. Shuningdek, Navoiy butun Xurosonda 12 tadan oshiq ahamiyatli bo‘lgan va ta’mirlanishga muhtoj masjid, minora, rabot va boshqalarni ta’mir etib o‘z holiga qaytaradi. Jumladan, Navoiy ta’mir etgan Hirotdagi jome masjidi hozirgi kunga qadar Hirot shahrining go‘zal inshootlaridan biri hisoblanadi. Alisher Navoiy homiyligi ostida Sharq miniatyurasi maktabining yetuk namoyondasi Sharq Rafaeli nomini olgan Kamoliddin Behzod, taniqli tabiblar Abdulhay Muniy, Darvish Ali, hattotlardan -Sulton Ali Mashhadiy, musiqachilardan - Husayn Uddiy, shoir va tarixchilardan-Sohib Doro, Muhammad Nizomiy, Kamoliddin Binoiy, Davlatshoh Samarqandiy, Husayn Voiz Koshifiy, Mirxon, Zayniddin Vosifiy, Muiniddin Muhammad Isfizoriy va boshqalar etishib chiqdilar.

Alisher Navoiy ilk bora o‘zga shoirlardan farqli ravishda turkiy tilda 1483-1485 yillarda beshta dostondan iborat Xamsa asarini yozdi. Buyuk shoirning 20 tadan ziyod yirik asarlari mavjuddir. Ular “Xazoyinul maoniy”, “Lison ut tayr”, “Mahbub ul qulub”, “Majolisun nafois”, “Munshaot”, “Muhokamatul lug‘atayn”, “Mezonul avzon” va boshqalardir. Bular tarixiy, falsafiy, ahloqiy mezonzlarni o‘z ichiga olib, ularda insoniyatga xos bo‘lgan barcha ijobiylar xislatlar ulug‘lanadi. Navoiy o‘z asarlarida Vatanga, tug‘ilib o‘sgan yeriga

nisbatan buyuk muhabbatni kuylaydi, muhabbat va sadoqat, halollik va poklik, do'stlik va hamkorlik, ezgulik va adolat kabi o'chmas g'oyalar tarannum etiladi. Buyuk mutafakkir insonlarni o'zaro mehr-oqibatli, insof-diyonatli, bag'rikeng, oljanob, mehnatsevar bo'lishga chaqirib, aynan yuqori ahloqiy sifatlarga ega bo'lgan insongina mamlakat ravnaqiga bevosita hissa qo'shishi mumkinligini, har bir kishi o'z ahloqi va odobi ila jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirishi mumkinligini uqtirib o'tadi. Ilm olishga intilmak, xat-savodli bo'lish, o'z halol mehnati, pok kalbi bilan umr kechirish haqidagi ezgu fikrlar uning asarlaridan keng joy olgan.

Jahon ahli Navoiyni nafaqat ulug' shoir va davlat arbobi, balki buyuk insonparvar shaxs, qomusiy olim, betakror so'z san'atkori, Gomer, Nizomiy, Shota Rustaveli, Shekspir, Balzak, Pushkin, Tolstoy, Tagor kabi adabiy dunyo daholari qatoridan joy olganligini e'tirof etadi. Moskva, Tokio, Boku shaharlarida ushbu mutafakkirga haykallar o'rnatilganligi, asarlarining o'nlab jahon xalqlari tillariga tarjima qilinganligi yuqoridagi fikrning tasdig'i bo'lib qoladi.

10.3. XVIII-XIX asarlarda Buxoro

XVIII-XIX asarlarda madaniyat: Buxoro muhitida "Tuhfai xoniy" (Muhammad Vafo Karminagiy), "Toj - ut - tavorix" (Muhammad Sharif), "Mang'it xonlari tarixi" (Mirzo Abdulazim Somiy), "Tarjimai ahvoli amironi Buxoro" (Ahmad Donish) va boshqa badiiy-tarixiy asarlar yaratildi. Bu asarlarda qimmatli ma'lumotlar qoldirilgan.

Ahmad Donish Amir Nasrullaxonning nazariga tushib, saroyda xizmat qilgan. Amirning taklifi bilan 1865-yil "Manozir ul-qavoqib" (Sayyoralarning joylashishlari) nomli astronomiyaga oid, "Risolai dar nazmi tamaddun va taovut" (Madaniyat va jamiyat tartibi haqida risola) kitoblarini yozgan. Ammo undagi islohotlar to'g'risidagi fikrlari amirga yoqmay uni saroydan uzoqlashtirgan.

XIX asrda Buxoro qandakorlik maktabi shakllangan. Qandakorlik shakli soda, xushbichimligi, naqshlari esa murakkab va nafisligi bilan ajralib turadi. Qo'qon qandakorlik maktabi yaratgan san'at asarlariga qaraganda, Buxoro qandakorlik maktabi asosan me'moriy obidalar tasvirlari aks ettirilgan.

XVIII-XIX asarlarda bir qator yirik inshoatlar qirildi. Shayx Jalol darvozasi va xonaqosi, Domullo Tursunjon madrasasi (1796-1797), Halifa Xudoydod ansambli (masjid, madrasa, sardoba va mozor)

(1773-1855), Chorminor (1807), Amir madrasasi (XX asr boshi), Sitorai Mohi Xossa (XIX asr oxiri- XX asr boshi) va 20 dan ortiq madrasalar.

Nasrulloxonning Buxorodagi O‘g‘lon darvozasi yaqinida qurilgan Chorboxossa tashqi saroyi, Amir Muzaffarning Shirbudin saroyi, Amir Abdulahadxon tomonidan Mohi Xossa saroyi barpo etilgan.

Davlat boshqaruvi: Amirlikda oliy hukmdor amir,ijro etuvchi hokimiyat qo‘smbegi qo‘lida bo‘lgan. **Qo‘smbegi**-oliy mansab egasi bo‘lib, amir poytaxtda bo‘lmagan vaqtida u amirlikni boshqargan. Ikkita qo‘smbegi bo‘lgan. Birinchisi “qo‘smbegiyi bolo”, ya’ni yuqori qo‘smbegi,ikkinchi qo‘smbegi “qo‘smbegiyi poyon”,ya’ni quyi qo‘smbegi. Buxoro qozi kaloni Sadri Ziyo-Muhammad Sharifjon ibn qozi Abd ush-Shakur o‘zining esdaliklarida Buxorodagi amal va unvonlar va ularning vazifalari haqida yozgan.

Otaliq- Buxoro suvi Samarqanddan to Qorako‘lgacha va barcha tumanlarning sug‘orilishi va suvining taqsimoti uning ixtiyorida.

To‘qsoba- podshoh dasturxonidagi tavoqlar va idishlarni joylashtirish vazifasi va Xarqonrud (G‘ijduvon) tumanini boshqaruvi unga tegishli.

Miroxo‘ri kalon- zamonaviy xos soqchi va Komi Abu Muslim (Vag‘onze) tumani mirobligini uning vazifasiga kirgan.

XIX asr boshlarida amirlik saroyida xizmatkor amaldorlar tabaqasi 300 ga yaqin, mahalliy boshqaruv tizimida 30 ming amaldor xizmat qilgan. Hokim va amaldorlarga davlat xazinasidan maosh berilmas, ular xalqdan yig‘ib olingan soliq, yig‘im, to‘lovlar hisobidan kun kechirgan. XIX asrda tuman yoki beklik amloktdorliklarga bo‘lingan. Amloktdorlik-arabcha “amlok”- mulk, dor (fors-tojikcha ega ma’nosida). Ma’muriy jihatdan amloktdorliklar tumanlarga tenglashtirilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida amirlikning 2 mln.ga yaqin aholisi bo‘lgan.

Buxoro amirligida yirik sanoat ishlab chiqarish rivojlanmagan, korxonalarda ishchilar soni 50 nafardan ortmagan. Ko‘proq mahalliy hunarmandchilik, temirchilik rivojlangan. 1848 yil 38 ta karvonsaroy, 9 ta tim va ko‘plab bozorlar bo‘lgan. XVIII-XIX asrlarda xususan qorako‘l teri etishtirish bilan shug‘ullanish muhim ahamiyat kasb etgan. Buxoro shahrining 51 mahallasida ip yigiruvchilar, 34 mahalladasida gilkorlar 33 mahallasida to‘quvchilar, 32 mahallada

etikdo‘zlar, 30 mahallada zargarlar, 21 mahallada holvafurushlar joylashgan. 1890 yil ilk bor Kogonda paxta tozalash zavodi qurilgan. 1898 yil Qorako‘lda paxta tozalash zavodi qurildi.

10.4. XVIII-XIX asrlarda Toshkent

XVI-XVII asrlarda dengiz yo‘llarining ochilishi Buyuk ipak yo‘lining inqiroziga olib keldi. Shunga qaramay, Toshkent yana bir necha asrlar davomida karvon savdosining markazi bo‘lib qoldi.

Lekin to‘xtovsiz davom etayotgan o‘zaro urushlar, ko‘chmanchi qabilalarning hujumlari, shaharni bosib olinishi va talon-taroj qilinishi iqtisod, madaniyat va shahar hayotining rivojlanishiga to‘siq bo‘lib, tanazzulga olib keldi.

XVIII asr og‘ir va notinch kechdi. Biroq bu yuz -yillikning oxiri shahar hayotining yangi tiklanish davri boshlandi. Bu davrga kelib savdo-sotiq jonlanishi ko‘zatildi, shaharda bir necha o‘nlab karvonsaroylar mavjud edi. Ularning aksariyati shahardagi asosiy bozor (hozirgi Beshyog‘och bozori) yaqinida joylashgan. Eng katta karvonsaroy Jangob arixi bo‘yida bo‘lib, bu yerda hind savdogarlarini to‘xtashgan. Rus savdogarlarining ham karvonsaroylari bo‘lib, ulardan biri Salor anhori bo‘yida joylashgan.

XVIII asr oxirida Toshkentda Sharqda kamdan kam uchraydigan boshqaruv tizimi qaror topdi. Hokimlarning har biri shahardagi to‘rtta daha - Sebzor, Ko‘kcha, Shayxontohur va Beshyog‘och dahasidan birining vakili hisoblanadi. Hokimlarning hokimiyat uchun kurashida Shayxontohur dahasi hokimi Yunusxo‘ja zafarga erishib, Toshkent davlatini tashkil qilgan. Qo‘qon xoni bilan bo‘lgan to‘qnashuvda mustaqillik boy berildi.

Toshkent shahrining 12 ta darvozasi bo‘lgan: Labzak, Qashqar, Qo‘qon, Qaytmas, Beshyog‘och, Kamolon, Samarqand, Ko‘kcha, Chig‘atoy, Sag‘bon, Qorasaroy, Taxtapul.

Shahar aholisi Bo‘zsuv arig‘idan suv ichgan, undan 12 ta katta ariq tarmoqlangan. Toshkent aholisi Rossiya tomonidan bosib olinishi arafasida 100 ming kishiga yaqin bo‘lgan. Aholining ijtimoiy tarkibi turlicha bo‘lgan. Hunarmandchilikning turli xillari mashhur bo‘lgan. Jo‘mladan shahar aholisi ko‘plab yigiruv-to‘quv, yog‘och va metal teri ishlsh korxonalari, kulolchilik va to‘qimachilik ishlab chiqarish ustaxonalari bilan shuhrat qozongan. Shaharni Qo‘qon xoni tomonidan tayinlanadigan bek boshqargan, unga minboshilar bo‘ysingan.

XIX asr manbalarida har bir mahallada 50 dan 150 gacha oila yashaganligi ma'lum qilinadi. Mahallalarning nomlari ularning shugullangan kasb-hunariga muvofiq kelgan (masalan, Pichoqchilik, Degriz, Etikdo'z) yoki etnik tarkibga monand bo'lgan (O'zbekmahalla, Tojikko'cha). Ayrim joylar rel'efi va tabiiy xususiyatlariga qarab (Sassiqhovuz, Chuqurko'prik, Balandmasjid).

Toshkentda bozorlar kop edi. XIX asrda Toshkentni o'rgangan N.G.Maliskiyning fikriga ko'ra, shaharning barcha darvozalari va ko'chalari bozorlar bilan bog'langan, bunday rejalashtirish ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga muvofik keladi.

Markaziy Osiyo bo'lab sayohat qilgan va 1873 yil Toshkentga kelgan amerikalik Yjin Skayler shunday yozgan: Osiyodagi hech bir shahar Eski Toshkent singari turli-tuman emas. Ko'chalar goh pastga, goh balandga chiqadi, qo'qqisidan qandaydir devorga borib taqalasiz. Ko'kalamzorligi borasida hayratlanib yozadi, uzoqdan shaharga qaraganda bog'-rog'larga burkangan.

Toshkent zamonaviy transmagistralning muhim markazi bo'lib kelgan. Hindiston va Xitoy, Old Osiyo, Turkiya va boshqa davlatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari keng bo'lgan.

XIX asrda Rossiya imperiyasining Qoqon xonligini bosib olish rejasи tezlashdi. Rossiya Toshkent orqali Buxoro amirligi va Xiva xonligi, Xitoy, Afg'oniston, Hindiston bilan savdoni amalga oshirishni rejalashtirdi. 1864 yil 29 avgustda Toshkentning Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shib olinganligi e'lon qilindi. Toshkent Sirdaryo viloyatining markazi bo'lib qoldi.

XIX asrning 70-80 yillarida Toshkent O'rta Osiyoning yirik savdo, sanoat va madaniyat markazi bo'lib qoldi.

10.5. Xiva so'nggi o'rta asrlarda

XIX asrning o'rtalariga kelib xonlikda shahar hayotining rivojlanishi natijasida shahar aholisining soni ko'payib bordi. Xiva, Xazorasp, Xonqa, Urganch, Qo'ng'iroq, Ko'hna Urganch kabi shaharlarda rus sayyoohlari bergen ma'lumotlarga ko'ra, 2 mingdan 5 minggacha xonodon yashagan. Xonlik poytaxti Xiva shahrida 21 mingdan ortiq aholi yashagan.

Xiva xonligida suv manbalarining yetarli bo'lishiga qaramasdan, dehqonchilik taraqqiyoti qo'shni Buxoro xonligidagidek yuksak darajada rivoj topmagan edi.

Suv ko‘p talab qilmaydigan (Hazorasp, Qo‘ng‘irot, Toshhovuz, Ilonli, G‘azovat, Mang‘it va Gurlan) kunjut, no‘xat, mosh, arpa va boshqa ekinlar ekilgan. Sabzovot – poliz ekinlari ko‘plab etishtirilgan. Xorazm qovunlari qo‘shni hududlarda ham mashhur bo‘lgan. Bog‘dorchilik ham ancha taraqqiy etgan. Ammo, ipakchilik kam miqdorda rivojlangan.

Xorazm hunarmandchiligi ixtisoslashgan bo‘lishiga qaramay, yarim ko‘chmanchi xo‘jaliklarda uy hunarmandchiligi ustunlik qilgan. Matolar asosan qo‘lda tayyorlangan.

Undan tashqari xonlikda kulolchilik, misgarlik, degrezlik, temirchilik duradgorlik kabi an'anaviy hunarmandchilik turlari ham rivojlangan. Manbalar shahar va qishloqlarda yer haydaydigan moslama tayyorlovchilar (pazachi), ot abzali tayyorlovchilar (kuchanchi), misgarlar, zargarlar, pichoqchilar, qinchilar, bo‘yoqchilar, telpakdo‘zlar, qulfgarlar, juvozchilar, shamchilar, sovunchilar, novvoylar, oshpazlar kabilar maxsus kasb-hunarga ixtisoslashganliklari haqida ma’lumotlar beradi.

Xivada gilam to‘qish o‘zining qadimiyligi ahamiyatini xonlik davrida ham saqlab qoldi. Ilgarigidek, gilam to‘qish bilan turkmanlar ham shug‘ullanganlar. Xiva gilamlari ichki va tashqi bozorda mashhur bo‘lgan. Umuman olganda, mahalliy hunarmandlarning mahsulotlari ichki va tashqi bozor uchun ishlab chiqarilgan.

XVIII asrning o‘rtalaridan boshlab, Rossiyadan Xivaga oltin va kumush tangalar, mis, cho‘yan, temir va boshqa metallar, paxta, ipak va yung matolar, bo‘yoqlar, shakar, choy, billur idishlar, oshlangan teri kabi mahsulotlar keltirilgan.

Xiva xonligi savdogarlari qo‘shni Buxoro va Qo‘qon xonliklari bilan, shuningdek, Xitoy, Eron, Afg‘oniston, Hindiston bilan ham savdo aloqalari olib borganlar. Bu davlatlarga Rossiyadan keltirilgan mahsulotlar bilan birga mahalliy mahsulotlar (zargarlik buyumlari, gilamlar, otlar) ham olib borilgan. Chet davlatlardan asosan turli matolar, metall, ziravorlar, bo‘yoqlar, fil suyagi, shakar (qand) kabi mahsulotlar keltirilgan.

Xiva xonligining Yangi Urganch, Kichik Vazir, Qiyot, Xonqa, Tirsak, Gurlan, Xazorasp, Qo‘ng‘irot, Shohabboz kabi shaharlari hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlari edi. Manbalarning ma’lumotlariga ko‘ra, XIX asrning birinchi yarmida Yangi Urganch himoya devorlari bilan o‘rab olingan savdo markazi bo‘lib, unda bir

yarim mingta xonadon bo‘lgan. Urganchilik savdogarlarni nafaqat Buxoro, Qo‘qon va Turkiston bozorlarida, balki Astraxan, Orenburg, Nijniy Novgorod, Moskva, Qashg‘ar, Mashhad, Qobul bozorlarida ham ko‘plab uchratish mumkin bo‘lgan. Urganch bozorlari asosan ichki savdo mahsulotlariga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, tashqi savdo uchun mahsulotlar yirik savdogarlarning uylaridagi ustaxonalarda tayyorlangan. Shaharda 300 ga yaqin savdo do‘konlari bo‘lgan.

XVII- XVIII asrlarda Qiyot shahri saroylari, machit va madrasalari bilan shuhrat qozongan bo‘lib, XIX asrning birinchi yarmidan o‘z ahamiyatini yo‘qota boshlaydi va 50-60 xonadondan iborat qal’aga aylanadi. Bu yerda 30 ga yaqin do‘konlar bo‘lib, seshanba va shanba kunlari bozor bo‘lgan.

Juvarxas kanalining Amudaryodan suv oladigan joyida joylashgan Xazorasp shahri barcha qo‘layliklarga ega edi. Shaharda sakkizta machit va shuncha madrasa bo‘lib, 450-500 ta xonadon istiqomat qilgan hamda 400 ga yaqin savdo do‘konlari mavjud bo‘lgan. Hunarmandchilik mahsulotlari asosan do‘konlarda va qisman uylarda tayyorlangan. Hazoraspda katta bozor dushanba va juma kunlari bo‘lgan.

Xonlikdagi yirik savdo-hunarmandchilik markazlaridan biri Gurlan edi. Manbalarga ko‘ra, XIX asrning o‘rtalarida shaharda, atrof hududlar bilan qo‘shib hisoblaganda uch mingtagacha xonadon istiqomat qilgan. Shaharda ko‘plab machit va madrasalar, bog‘lar tutzorlar bo‘lib, dalalardagi sholi, paxta va bug‘doydan yaxshi hosil olingan.

Manbalarga ko‘ra, Xiva bozorlari haftaning deyarli barcha kunlari ishlab, raislar tomonidan boshqarilgan. Rus sayyoohlari Xiva bozorlarini gavjumligi va mahsulotlarga boyligi, ajnabiy savdogarlarning ko‘pligi bilan Buxoro va Qo‘qon bozorlaridan qolishmasligi haqida ma’lumotlar qoldirganlar.

Butun O‘rta Osiyoda bo‘lgani kabi, Xiva xonligida ham asosiy ilm o‘chog‘lari boshlang‘ich maktablar va madrasalar edi. Boshlang‘ich muktab, ya’ni, quyi ta’limda o‘qish-yozishni o‘rganib, xat-savod chiqargan o‘smirlar poytaxt Xivadagi hamda Buxorodagi madrasalarda o‘qib ta’lim olganlar. Manbalarga ko‘ra, XIX asrda Xiva xonligida 1500 ga yaqin boshlang‘ich muktab va 130 ta madrasa bo‘lgan. Faqat Xivaning o‘zida 22 ta madrasa bo‘lib, ular ichida Muhammad Rahimxon, Sherg‘ozixon, Rahmonberdibiy, Olloqulixon,

Xoja Mahram, Fozilbek, Davlat Qorako‘z, Bekniyoz devonbegi madrasalari alohida nufuzga ega edi.

Xorazm adabiy muhitida ilg‘or g‘oyalarni targ‘ib etgan shoirlardan biri Nurmuhammad G‘arib Andalib (1710-1770 yy.) ning “Said Vaqqos”, “Zaynul arab”, “Yusuf va Zulayho”, “Layli va Majnun” kabi dostonlari mashhurdir.

Xivada ijod etgan shoirlar ichida Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1874 yy.) alohida o‘ringa ega. Tarixchi, tarjimon va shoir bo‘lgan Ogahiyning 1832 -yilda tuzilgan “Ta‘vizul oshiqon” (“Oshiqlar tumori”) devonidagi g‘azallari ayniqsa mashhurdir. Bu davrda shuningdek, Pahlavon Ravnaq, Muhammad Niyoziy, Muhammad Xokisor, Tabibiy, Munis, Komil Xorazmiy, Komdon, Murodiy kabi shoirlarning ijodi rivoj topdi.

Tarixiy asarlar orasida Abulg‘ozining “Shajarai turk” va “Shajarai tarokima” (“Turkmanlar shajerasi”) o‘zbek tilida bitilgan muhim tarixiy asarlar hisoblanadi. Tarixnavislik an’analalarini keyinchalik Munis, Ogahiy, Muhammad Yusuf Bayoniy kabi tarixnavislar davom ettirdilar.

XIX asr boshlarida Muhammad Rahimxonning buyrug‘i bilan Shermuhammad Munis (1778-1829 yy.) “Firdavs ul-iqbol” (“Baxtu saodat jannati”) asarini yaratdi. Xiva xonligining XVIII- XIX asrlar tarix haqida qimmatli ma’lumotlar beruvchi bu asarni keyinroq Olloqulixon topshirig‘i bilan Munisning jiyani Ogahiy davom ettirdi va 1872 -yilgacha bo‘lgan voqealar bilan boyitdi. Shuningdek, Xiva xonligi tarixiga bag‘ishlangan asarlar orasida Bayoniy (1859-1923 yy.) ning “Shajarai Xorazmshohiy” asari ham qimmatli hisoblanadi.

XVIII- XIX asrlarda Xiva xonligida ko‘plab inshootlar bunyod etildi. Ayniqsa xonlikning poytaxtlari Urganch va Xiva shaharlarida ko‘plab saroylar, masjid va madrasalar, xonaqolar, karvonsaroylar, yopiq bozorlar qurilgan. Xivadagi me’moriy yodgorliklar asosan Ichan (ichki) qal’ada bunyod etilgan. Xonning yozgi qarorgohi bo‘lgan Dishan (tashqi) qal’a ham nodir me’morchilik namunasi hisoblanadi.

Xonlikdagi boshqa shaharlar - Yangi Urganch, Hazorasp, Toshhovuz, Yangi Vazir, Shohabboz, Gurlan, Xo‘jayli, Qo‘ng‘iroq kabilar mudofaa devorlari bilan o‘rab olinib, ularda ham ko‘plab me’moriy inshootlar bunyod etilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Shohruh Mirzo davrida fan va madaniyat, ma'naviyatga e'tibor?
2. Alisher Navoiy davrida Hirotda bunyod etilgan majmular, suv omborlari haqida bilasizmi?
3. XVIII-XIX asarlarda Buxoroda bunyod etilgan inshoatlar va davlat boshqaruvi?
4. Toshkent shahrining 12 ta darvozasini sanab bering?
5. Xiva xonligining hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlarini ayting?

Test topshiriqlari

1. Shohruh Mirzo Eroni o‘z qo‘l ostiga olib, o‘sha -yili Xorazmni Oltin O‘rda xonlari ixtiyoridan tortib oladi?
 - A 1413-yil
 - B 1423-yil
 - S 1433-yil
 - D 1403-yil
2. Alisher Navoiy qachon turkiy tilda beshta dostondan iborat Xamsa asarini yozdi?
 - A 1483 – 1485
 - B 1483 – 1485
 - S 1483 – 1485
 - D 1483 – 1485
3. “Tarjimai ahvoli amironi Buxoro” badiiy-tarixiy asar muallifi kim?
 - A Ahmad Donish
 - B Muhammad Sharif
 - S Mirzo Abdulazim Somiy
 - D Muhammad Vafo Karminagiy
4. Chorminor qachon qurilgan?
 - A 1807
 - B 1823
 - S 1803
 - D 1817
5. XIX asrning ikkinchi yarmida amirlikning qancha aholisi bo‘lgan?
 - A 2 mln.ga yaqin aholisi bo‘lgan.
 - B 1,5 mln.ga yaqin aholisi bo‘lgan.

- S 3 mln.ga yaqin aholisi bo‘lgan.
D 4 mln.ga yaqin aholisi bo‘lgan.
7. XVIII asr oxirida Toshkentda shahardagi to‘rtta daha qaysi javob to‘gri?
- A Sebzor, Ko‘kcha, Shayxontohur va Beshyog‘och
B Qaytmas, Beshyog‘och, Kamolon, Samarqand
S Chig‘atoy, Sag‘bon, Qorasaroy, Taxtapul
D Labzak, Qashqar, Qo‘qon, Qaytmas
7. XVIII asr oxirida Toshkent shahrining nechta darvozasi bo‘lgan?
- A 12 ta darvozasi bo‘lgan
B 10 ta darvozasi bo‘lgan
S 4 ta darvozasi bo‘lgan
D 7 ta darvozasi bo‘lgan
8. Toshkentning Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shib olinganligi e’lon qilindi?
- A 1864-yil 29- avgustda
B 1867-yil 29- avgustda
S 1873 -yil 29- avgustda
D 1856 -yil 29- avgustda
9. “Shajarai turk” va “Shajarai tarokima” tarixiy asarlar mualifini toping?
- A Abulg‘ozzi
B Ogahiy
S Muhammad Yusuf Bayoni
D Munis
10. Qaysi amir tomonidan Mohi Xossa saroyi barpo etilgan?
- A Abdulahadxon
B Nasrulloxon
S Olimxon
D Shohmurod

GLOSSARIY

Avesto – o‘lkamiz haqidagi daslabki ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi. Unda O‘rta Osiyoning qadimgi viloyatlarning nomlari Mouru, Gava So‘g‘da, Xvarizam keltiriladi.

Antonim nomlar – bir-biriga teskari ma’noli geografik nomlar: Oqdaryo – Qoradaryo, Yuqori Chirchiq – Quyi Chirchiq, Oqtog‘ – Qoratog‘ va boshqalar.

Antrotoponim nomlar – kishilarning ismi, familiyasi, taxallusidan olingan nomlar: Navoiy shahri, Beruniy tumani, Vashington shahri, Amir Temur ko‘chasi.

Arealli nomlar – bir xil qo‘sishmcha yoki topoteminlar ishtirokida yasalgan geografik nomlar joylashgan hududdagi toponimlar: kent, tepe, qo‘rg‘on va boshqa terminlar ishtirokida yasalgan tarqalgan hudud. Masalan: Toshkent viloyatida kent termini yordamida yasalgan nomlar ko‘p: Alimkent, G‘azalkent, Toshkent, Parkent, Zarkent va boshqalar.

Ark – shaharning hokim qasri joylashgan qismi.

Band – to‘g‘on

Bozor – savdo qilish joyi

Bozori sha’b – kechki bozor, aksari ramazon oyida uyushtirilgan

Bog‘ot – shahar tashqarisidagi bog‘li joylar

Varaxsha – Buxorodan 40 km shimoliy-g‘arbda, Dashti Urganji ko‘lining qadimiy Rajfandun vohasida joylashgan bo‘lib, uning maydoni 9 hektar va balandligi 10-20 metrli ulkan tepe shaklida saqlangan.

Guzar – Buxoro, Samarqand kabi shaharlardagi kichik shaharsozlik bo‘linmalarga nisbatan ishlatiladigan ibora, mahalla, mahalla (yoki mahallalar) markazi

Geradod asarlarida – Araks – Amudaryo, Yaksart – Sirdaryo, Maroqand – Samarqand

Darb – kirish joyi, shaharning kichik darvozasi (mas. Binkadda)

Darvoza – shaharlarga yirik kirish joyi

Daha – yirik shaharsozlik bo‘linma

Devon - ma’muriy bino

Dramonim – yo‘llar bilan bog‘liq nomlar: Yangiyo‘l, Buyuk Ipak yo‘li, Toshkent –Termiz yo‘li.

Kanpirak devor – obod yerlarni (shahar va qishloqlarni) muhofaza qiluvchi devor

Kent – shahar, shaharcha

Kompleks – binolar majmuasi

Kungura – devor ustidagi unsur; dastlab mudofoa maqsadida, keyin bezak sifatida ham qo‘llanilgan

Ko‘hna – joyni nomina qadimgiligin ko‘rsatuvchi qo‘shimcha, masalan: Ko‘hna Urganch

Mikrotoponimlar – mayda geografik nomlar: mahalla, ko‘cha, mavze, bekat, guzar nomlari.

Mavze – foydalaniladigan hudud, Toshkent atrofidagi yerlarning nomi

Millat – yagona tili, hududi, milliy iqtisodiyoti, madaniyat va san’ati, mentaliteti va milliy o‘zligini anglash xususiyatlari yuqori darajada shakllangan bo‘lib, ko‘pchilik holatlarda tarixan o‘z siyosiy davlatchilik an’analariga ega bo‘ladi.

O‘rta Osiyo olimlari jamiyat – 1870 yilda tuzilgan. Bu jamiyat o‘z oldiga O‘rta Osiyo tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, statistikasi, iqtisodiyotiga oid ma’lumotlarni to‘plash va ishlash tarqatishni maqsad qilib qo‘ygan edi.

Oykonimlar – aholi yashaydigan joylar (shahar, qishloq, ovul) nomlari: Tokent, Parkent, So‘qoq, G‘azalkent va boshqalar.

O‘rta asrlarda shaharlar uch qismdan iborat bo‘lgan – ark, shahriston, rabod deb yuritilgan. Shaharlarning uchala qismi ham alohida-alohida devorlar bilan o‘rab olingan. Ularning bir nechta darvozalari bo‘lgan. Shahar devorlari bo‘ylab oqib o‘tgan anhor xandaq vazifasini bajargan.

Etnonim nomlar – xalqlar, qabilalar, urug‘lar nomidan kelib chiqqan geografik nomlar: Malik Bo‘ka, Turkqishloq, Sergeli, O‘zbekiston.

Etnografiya – (yunon, etnos “xalq”, grafo –“yozaman”, etnik birlik, xalq, elat haqida ma’lumotlar;) xalq, urchodatlari, moddiy va ma’naviy madaniyati xo‘jaligi, diniy e’tiqodlari, folklor va hokazolarni o‘rganadi.

Rasta – bozorda bir xil mol bilan savdo qilinuvchi qator

Registon – shahardagi asosiy maydon

Roat – yirik shaharsozlik bo‘linma (Xo‘jandda)

Rabod – shaharning tashqi mavzesi.

Tarixiy geografiya – (ko‘pincha uni geografik bilimlar tarixi ham deb atashadi) geografik kashfiyotlar va sayohatlar, shuningdek, geografik tasavvurlar, umuman ajdodlarimizning geografik dunyoqarashlari tarixini o‘rganadi

Turkistonlik havaskor arxeologlar to‘garagi – 1895-yili V.V.Bartoldning bevosita rahbarligida va taklifi bilan ta’sis etildi va uning ustavi tasdiqlandi. Bu to‘garak a’zolari o‘lkadagi arxeologik

yodgorliklarni o‘rganish va ularni ilmiy jihatdan tadqiq etishni o‘z odiga maqsad qilib qo‘ydilar.

Toponimiya –ma’lum hududdagi joy nomlari yig‘indisi. Masalan Toshkent viloyatidagi barcha joy nomlari Toshkent viloyati toponomiyasi deyiladi.

Ixshid –viloyat hokimi.

Indikator (toponimikada) –toponimlarni hosil qiluvchi mahalliy geografik terminlar: qum tepa, qo‘rg‘on, daryo, suv, kent va boshqalar.

Istehkom – vaqtinchalik yoki doimiy tarzda istiqomat qilinadigan joy

Shahriston – shaharning ichki qismi.

Najjorlik – duradgorlik.

Poykend – qadimgi karvon yo‘li ustida qad ko‘targan shahar harobasi (miloddan avvalgi IV-III-milodiy XI-asrlar) bo‘lib, Buxorodan 44 km janubig‘arbda, Jondor va Qorako‘l tumanlari tutashgan hududda joylashgan. O‘rta asr yozma manbalarida shahar Boykand, Xitoy solnomalarida esa Bi nomlari bilan tilga olinadi. Poykend “Quyi shahar” ma’nosini anglatadi.

Jome – shahar miqyosidagi masjid

Peshtoq – binoning kirish qismi

Saroy – hashamatli turar uy-joy majmuasi

Urbanizatsiya – shaharlar paydo bo‘lishi, shaharlashuv

Hiyobon – tomonlari dov-daraxt bilan obodonlashtirilgan yon.

Hazira – qabristonda atrofi devor bilan o‘rangan xilxona

Elot – shaharsozlik bo‘linmasi (Xivada)

Yurt – shaharsozlik bo‘linmasi Eski Toshkentning tavsifida uchraydi

O‘rda –hokim qarorgohi (mas: Xudoyorxon o‘rdasi) yoki ma’muriy bino (mas.: Buxoro Arkidagi Qushbegi o‘rdasi).

Qal’a –harbiy jihatdan mustahkam istehkom,shahar masalan: Xivadagi “Ichan qal’a” iborasi “ichki shahar”, “Dishan qal’a” iborasi “tashqi shahar” ma’nolarini bildiradi.

ILOVALAR



Poykent



Varaxsha




Sulton Saodat majmuasi - Termiz



Mingtepa



**Qashqadaryo ko‘prigi. XVI asrning ikkinchi yarmida
qurilgan**



Yerqo'rg'on shahar



Yerqo'rg'on mudofaa devorlari va quriqchi minorlar o'rni



18-oktabr Samarqand shahri kuni




Somoniylar maqbarasi. Buxoro



Afrosiyob ko‘hna shahar



Afrosiyob devorlaridagi VI-VII asrlarlarga oid suratlar



**Termiz arxeologiya muzeyi. 2002 -yil 2- aprelda tashkil
etilgan**

**FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR
RO'YXATI**
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Karimov I. A. Amir Temur haqida so‘z. Toshkent. “O‘zbekiston”, 1996.
2. Каримов И. Юксак маънавият - енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2008.
3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз // Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимида бағишлиланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
4. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
5. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови // Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 24 йиллигига бағишлиланган тантанали маросимдаги маъруза. Тошкент : Ўзбекистон, 2017.
6. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
7. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ ҳалқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади Т .,”Ўзбекистон”. 2019 йил

Ilmiy adabiyotlar

1. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. Тошкент, 1993.
2. Абдуразаков А.А и др. Реставрация колонны из Еркургана. Реферативный сборник “Реставрация, исследование и хранение музеиных художественных ценностей”. Вып. I, 1976.
3. Аннаев Т., Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. Тошкент, 1997.
4. Асқаров А. Энг қадимги шаҳар. Тошкент, 2001
5. Асқаров А. Бухоронинг ибтидоий тарихидан лавҳалар. Тошкент, 1973.
6. Алимова Д.А., Филанович М.И. Тошкент тарихи. Тошкент, 2009
7. Алимова Д.А., Буряков Ю.Ф., Рахматуллаев Ш.М. Самарқанд тарихи. Тошкент, 2009
8. Абдулаҳатов Н., Зоҳидов Ф., Фарғона туман тарихи, Фарғона, 2013.

9. Анорбоев А., Исломов У. Ўзбекистон тарихида Қадимги Фарғона. Тошкент, 2009
10. Алламберганов М. Қадимий мудофа деворлари. Тошкент, 2007.
11. Ahmedov B. Amir Temurni yod etib, Toshkent, O‘zbekiston, 1996.
12. Баракаев Ж., Ҳайдаров Й. Бухоро тарихи. Тошкент, 1981
13. Бобоёрв Б. Чоч тарихидан лавҳалар (илк ўрта асрлар). Тошкент, 2010.
14. Бобобеков Ҳ.Н. Қўқон тарихи. Тошкент, 1996
15. Виноградов А. Неолитические памятники Хорезма. Материалы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Вып. 8. Москва, 1962.
16. Городише Пайкенд. К проблеме изучения средневекового города Средней Азии. Ташкент, 1988.
17. Исо Жабборов Буюк Хоразмшоҳлар давлати. Ташкент, 1999.
18. Маршак Б.И. Самый ранний сюжет согдийской живописи. // Тўплам:
Зарафшон воҳаси ва унинг тарихдаги ўрни. Ўзбекистон Республикасини 10 йиллигига бағишиланган илмий-назарий анжуман материаллари. 2001 йил 18-19 май, I қисм, Самарқанд, 2001.
19. Массон В. Средняя Азия и Древний Восток. Москва-Ленинград, 1961.
20. Мухаммеджанов А. Раскопки в Пайкенде в 2001 году. Санкт-Петербург, 2002.
21. А.Муҳаммаджонов . Бухоро шаҳри - 2500 ёшда. Т: 1998.
22. Мирзакұлов Б. Бухоро тарих зарвақларида. Тошкент 2016.
22. Норқұлов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. Урганч: Хоразм, 1996.
23. Норқұлов Н., Низомиддинов Н. Миниатюра тарихидан лавҳалар. Тошкент, 1970.
24. Пидаев Ш. Сирли күшонлар салтанати. Тошкент: Фан, 1990.

25. Polatov X. Shaharsozlik tarixi.- O‘quv qo‘llanma - Т., “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008.
26. Ремпель Л.И. Далёкое и близкое Бухарские записи. Ташкент, 1962.
27. Ртвеладзе Е. Великий шельковый путь. Ташкент, 1999.
28. Рындина Н., Дегтярева А. Энеолит и бронзовый век. Учебное пособие. Москва, 2002.
29. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. Тошкент, 1998.
30. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Ташкент, 2002.
31. Сухарева О.А. Поздне феодальный город Бухара. Ташкент, 1962.
32. Сагдуллаев А.С. Қадимги Кеш-Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар.Т.,1998.
33. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Тошкент, 1964.
34. Шишкин В.А. Варахша. Москва, 1963.
35. Шораҳимов Ш. Афросиёбга саёҳат. Тошкент, 1979.
36. Шамсутдинов Р.Т.,Исҳоқов А.А. Андижон тарихидан лавҳалар.Ташкент, 2013.
37. Shahrисабз. Ming -yillar me’rosi.-Т., ”Sharq”,2002.
38. Ўзбекистон тарихи моддий маданият ва ёзма манбаларда. Масъул муҳаррир А.Анорбоев. Тошкент: Фан, 2005.
39. Қораев С. Топонимика. Тошкент, 2006
40. Ғуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Тошкент, 1959.
41. Eshov B. Sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. - Т, 2004
42. Эшов Б Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи Тошкент: Фан, 2006.
43. Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқарув тарихи. Тошкент, 2012.
44. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. Фарғона, 2013.
45. Ходжаниязов F.Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари (мил.ав.VI асрдан мил. IV асригача). Тошкент, 2007.
46. Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари VI-VIII асрларда. Тошкент, 2017.

47. History of civilizations of Central Asia. UNESCO publishing.
1996.
48. Ravshanov R. Naxshab va Kesh tarixi manbalari. Qarshi,
Nasaf, 2005.
49. O‘zbekiston Miliy Ensiklopediyasi. Т .8.Т. О‘zM.E nashriyoti.
2006.
50. Ўзбек совет энциклопедияси 1. “Ўзбекистон Давлат
энциклопедияси Бош
Редакцияси”. Тошкент, 1971.
51. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1- жилди.
“Ўзбекистон миллий энци-клопедияси Давлат нашриёти”,
Тошкент. 2000.

Internet resurslar:

1. www.ziyonet.uz
2. www.tdpu.uz
3. www.pedagog.uz
4. www.history.ru

MUNDARIJA

So‘zboshi.....	3
1-mavzu: O‘rta Osiyo shaharlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.....	4
2-mavzu: Janubiy Turkmaniston shaharlari urbanizayiyasi.....	19
3-mavzu: Amudaryo va Surxondaryo vohasi shaharlari urbanizatsiyasi.....	29
4-mavzu: Qarshqadaryo vohasi shaharlar urbanizatsiyasi.....	51
5-mavzu: Samarqand, O‘rta Zarfshon shaharlari urbanizatsiyasi.....	66
6-mavzu: Buxoro vohasi shaharlari urbanizatsiyasi.....	84
7-mavzu: Xorazmning o‘rta asr shaharlari urbanizatsiyasi.....	106
8-mavzu: O‘rta asrlarda Toshkent vohasi urbanizatsiyasi.....	126
9-mavzu: Farg‘ona, Yettisuv va janubiy Qozog‘iston o‘rta asr shaharlar urbanizatsiyasi.....	146
10-mavzu: So‘nggi o‘rta asrlar O‘rta Osiyo shaharlari urbanizatsiyasi.....	158
Glossariy.....	171
Ilovalar.....	175
Fordalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati.....	184

Содержание

Предисловие.....	3
Тема 1: Возникновение и развитие городов Средней Азии.....	4
Тема 2: Урбанизация городов Южного Туркменистана.....	19
Тема 3: Урбанизация городов Амударыинского и Сурхандарьинского оазиса.....	29
Тема 4: Урбанизация городов Кашкадарьинского оазиса.....	51
Тема 5: Самарканд. Урбанизация городов в среднем течении реки Зарафшан.....	66
Тема 6: Урбанизация городов Бухарского оазиса.....	84
Тема 7: Урбанизация средневековых городов Хорезма.....	106
Тема 8: Урбанизация Ташкентского оазиса в средневековье.....	126
Тема 9: Урбанизация средневековых городов Ферганы, Семиречья и Казахстана.....	146
Тема 10: Урбанизация позднесредневековых городов Средней Азии.....	158
Глоссарий.....	171
Приложения.....	175
Использованные источники и список литературы.....	184

C O N T E N T S

Preface.....	3
Theme 1: The emergence and development of Central Asian cities.....	4
Theme 2: Urbanization of cities in southern Turkmenistan.....	19
Theme 3: Urbanization of the cities of Amudarya and Surkhandarya oasis oasis.....	29
Theme 4: Urbanization of the cities of Kashkadarya oasis	51
Theme 5: Urbanization of Samarkand and Central Zarafshan cities	66
Theme 6: Urbanization of Bukhara oasis cities.....	84
Theme 7: Urbanization of medieval cities of Khorezm	106
Theme 8: Urbanization of the Tashkent oasis in the Middle Ages.....	126
Theme 9: Urbanization of medieval cities in Fergana, Yettisuv and southern Kazakhstan.....	146
Theme 10: Urbanization of Central Asian Cities in the latest Middle Ages.....	158
Glossary.....	
.....Addendu	
.....171	175
Sources and references used.	184

UTAYEVA FERUZA XOLMAMATOVNA

O'RTA OSIYONING QADIMGI VA O'RTA ASRLAR URBANIZATSIYASI

***5120400 – Arxeologiya bakalavriat yo‘nalishi
talabalari uchun o‘quv qo‘llanma***

<i>Muharrir:</i>	<i>A. Qalandarov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G. Samiyeva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>Sh. Qahhorov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M. Ortikova</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 29.12.2021. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog`ozi. Bosma tobog`i 11,7. Adadi 100. Buyurtma №478.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdon” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45